

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**M.X. GANIEVA  
Q.N. KAYUMOV  
M.B. SHEROV**

# **IJTIMOIIY ISHGA KIRISH**

Darslik

**TOSHKENT – 2020**

УДК:301:323(075)(575.1)

**Ganiyeva Ma’rifat Xabibovna, Kayumov Qaxramon Nozimjonovich, Sherov Ma’ruf Boltayevich.** Ижтимоий ишга кириш. Дарслик – Тошкент: 2020. – 250 б.

В учебнике рассматривается специфика социальной работы как особого вида деятельности; теоретические и практические основы социальной работы в Узбекистане и за рубежом.

Учебник адресован студентам, обучающимся по направлениям и специальностям социальной работы, социологии, а также всем, кто интересуется теорией и практикой социальной работы.

Darslikda ijtimoiy ish faoliyatning o’ziga xos turi sifatida O’zbekistonda va xorijiy davlatlardagi nazariy va amaliy asoslari ko’rib chiqilgan.

Darslik ijtimoiy ish, sotsiologiya mutaxassisligi bo’yicha ta’lim olayotgan talabalar va ijtimoiy ishning nazariyasi va amaliyoti bilan qiziquvchilarga mo’ljallangan.

The specific of the social work as the special type of activity, theoretical and practical basics of the social work in the Republic of Uzbekistan and abroad are considered in the textbook.

Present textbook is addressed to students that are studying in fields and professions of social work, sociology, as well as anyone interested in the theory and practice of social work.

**Mas’ul muharrir:** D.G.Muxamedova – psixologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

F.X.Nabiyev – Samarqand davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori

R.K.Yusupov – Samarqand davlat universiteti dosenti, tarix fanlari nomzodi

Darslik O’zbekiston Milliy Universiteti, Kolumbiya universiteti (AQSH), BMT UNICEF Bolalar Fondi bilan hamkorlikdagi “O’zbekistonda xalqaro stndartlar asosida ijtimoiy ish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish” (2019-2020 qq/) loyihasi doirasida tayyorlangan.

## МУНДАРИЖА

МУНДАРИЖА.....	3
Кириш.....	4-7
1-мавзу. Мутахассисликка кириш. Ижтимоий иш ва ижтимоий таъминот моҳияти.....	8-18
2-мавзу. Ижтимоий ишнинг моҳияти ва ўзига хос хусусиятлари ...	19-46
3-мавзу. Ижтимоий ишнинг назарий асослари.....	46-65
4-мавзу. Ижтимоий ишнинг одоб ва ахлоқ муаммолари.....	65-89
5-мавзу. Ижтимоий иш йўналишлари. Ижтимоий ходимнинг роли ва вазифалари.....	89-104
6-мавзу. Замонавий дунёда аҳолини ижтимоий қўллаб-қувватлаш моделлари.....	104-118
7-мавзу. Болалар, ёшлар ва оилалар билан ижтимоий иш олиб бориш.....	118-150
8-мавзу. Саломатлик ва ногиронлик.....	150-169
9-мавзу. Кекса кишиларга ижтимоий хизмат кўрсатиш.....	169-180
10-мавзу. АҚШ ва Ғарбий Европа мамлакатларида девиант хулқ атворли болалар ва ўсмирлар билан ижтимоий иш олиб бориш.....	180-199
11-мавзу. Ижтимоий ишнинг глобализацияси.....	200-210
12-мавзу. Ўзбекистонда ижтимоий ишни ривожлантириш.....	210-237
ГЛОССАРИЙ.....	237-248
ИЛОВА.....	249-271

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasining eng muhim yo‘nalishi aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishdan iborat<sup>1</sup>.

Mamlakatda ijtimoiy himoyani ta‘minlash mexanizmlariga huquqiy me‘yorlarning har tomonlama asoslangan tizimi, ijtimoiy muhofazaga, muhtojlarga moddiy va uyushgan yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan davlat va nodavlat organlari faoliyati, pensiya ta‘minoti, kam ta‘minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash va boshqalar kiradi. Alohida e‘tibor oilalar va bolalarni ijtimoiy himoya qilish masalalariga qaratilgan.

Ijtimoiy himoyaning yangi uslubining shakllanishi sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni teran anglovchi, aholining turli qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishning ko‘p tarmoqli vazifalarini professional ravishda hal etishga tayyor bo‘lgan yangi kadrlar mavjudligini taqozo qiladi. Shu nuqtai nazardan, faoliyati asosan muhtojlarga yordam ko‘rsatish va ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy xodim kasbini alohida ajratib ko‘rsatish zarur. Bu holatda ularning faoliyati nafaqat yordam ko‘rsatish va ta‘minlash, moddiy, ma‘naviy qo‘llab-quvvatlash, balki o‘z qaramog‘idagilar hayotida faol ishtirok etishlari bilan ham bog‘liq. Xodimlarning mazkur toifasi individni ijtimoiy moslashtirish yoki uning atrofidagi turli ko‘rinishdagi nizoli vaziyatlarni hal etish, shaxs, oila va jamiyat darajasidagi ijtimoiy tabiatga ega bo‘lgan muolaja o‘tkazish, hamda yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. Bularning bari O‘zbekistonda islohotlarning ustuvor yo‘nalishi bo‘lgan, aholining barqaror ijtimoiy himoyasini amalda ta‘minlash imkoniyatiga ega bo‘lgan kasbiy jihatdan yuqori malakali ijtimoiy xodimlar guruhini shakllantirishning strategik muhimligini namoyon qiladi.

Ijtimoiy ish – bu ijtimoiy jihatdan zarur kasbiy soha bo‘lib, uning vazifasi jamiyatning ijtimoiy barqarorligini mustahkamlash, davlatning zamonaviy ijtimoiy siyosatini amalga oshirishga imkoniyat yaratish va aholining ijtimoiy himoyaga

muhtoj guruhlariga ijtimoiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va keng imkoniyatlar yaratishdan iborat.

Odatda davlat yordamga muhtojlarga iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy va boshqa institutlar hamda ijtimoiy himoya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi orqali yordam ko'rsatadi. Biroq ijtimoiy xizmat faoliyatining alohida turi – ijtimoiy ish ham mavjud.

Ijtimoiy ish bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy institut, ham professional faoliyat turi, ham ijtimoiy amaliyot, ham nazariy bilimlar asosi, ham o'quv fani hisoblanadi. Ijtimoiy ish nazariyasi diqqat markazida ijtimoiy xodim faoliyati turadi. Mazkur faoliyat samarali bo'lishi uchun insonlarning turli muammolarini anglay bilishi, ularni hal etish usullarini bilishi lozim. Unga ilmiy bilim va amaliy ko'nikmalar, rahmdillik, hamdardlik, mas'uliyat, tolerantlik va insonparvarlik, fuqarolik hissi va ijtimoiy adolat kabi maxsus, kasbiy va ma'naviy-axloqiy xususiyatlar xos.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamiga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish, ijtimoiy sohaning boshqaruv organlari uchun kadrlar tayyorlash maqsadida ijtimoiy xodimlarni tayyorlash va ularni aholining muayyan guruhi bilan ishlashga ixtisoslashtirish, alohida mijoz, mijozlar guruhi (oilalar, ayollar, bolalar, yoshlar, keksalar va h.k.) bilan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda<sup>1</sup>.

Mazkur vaziyatda ijtimoiy ishni kasb va akademik fan sifatida o'rganish juda muhim va foydali ekanligi aniq namoyon bo'lmoqda. Mamlakatimizda "ijtimoiy xodim" kabi yangi kasbga ehtiyojning vujudga kelishi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamining u yoki bu toifalari bilan ijtimoiy ish olib borish amaliyoti bilan Shug'ullanuvchi, ularga turli ko'rinishdagi yordam ko'rsatuvchi muassasalar, xalqaro va ijtimoiy tashkilotlar tarmog'ining shakllanishi bilan bog'liq. Dunyoning ko'p mamlakatlarida ijtimoiy ish instituti yuz yildan ortiq davr mobaynida faoliyat olib bormoqda, dunyoning etakchi universitetlari mazkur sohada kadrlar tayyorlash

faoliyatini amalga oshirib kelmoqdalar.

Zamonaviy jamiyat misli ko‘rilmagan texnik yuksalishlarni boshidan kechirayotgan bugungi kunda insonlar ishtirokisiz ishlovchi axborot texnologiyalari joriy qilinmoqda, buning natijasida ko‘p sonli ishchi kuchi ishsiz qolmoqda va aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimiga qo‘shilmoqda. Taxminiy hisob-kitoblarga ko‘ra, bugungi kunda AQSHda yollanma ishchilarning deyarli 15 foizi amaliy faoliyatning oila, ta‘lim, sog‘liqni saqlash, keksalarga, ruhiy xastalarga, axloq tuzatish muassasalaridagi bolalarga yordam ko‘rsatish kabi sohalarida faoliyat olib bormoqdalar.

Bu maxsus ixtisoslikka nisbatan eng umumiy ko‘rinishdagi yondaShuv demakdir. Mazkur sohada faoliyat olib boruvchi xodimga turli sohalardagi bilimlarga ega bo‘lish talab etiladi. U yordam so‘rab murojaat qilishi mumkin bo‘lgan odamlar to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi zarur. Shuningdek, hamkorlik qilish mumkin bo‘lgan tashkilot va muassasalar, mavjud qonunchilik, moliyalashtirish manbalari, mazkur sohada faoliyat olib borayotgan boshqa mutaxassislar va bu kabi holatlarda taqdim qilinishi mumkin bo‘lgan xizmatlar haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi lozimligi talab etiladi.

Dunyoda ijtimoiy ishning ulkan tajribasi mavjud. Mamlakatimizda orttirilgan tajriba ham kam emas. Biroq bugungi kunda mamlakatimizda o‘zgarib borayotgan ijtimoiy vaziyat ijtimoiy ish konsepsiyasini asoslash va uni amaliyotga joriy qilish talab etiladi. Hayot ijtimoiy texnologiyalarni, ijtimoiy ishni tashkillashtirishning tuShunarli va ishonchli usullarini talab etadi.

Dunyo tajribasi ko‘rsatishicha, ko‘p mamlakatlarda ijtimoiy rivojlanishning ijtimoiy xodimlarning faoliyatini e‘tiborga olmagan birorta Davlat dasturini yoki birorta davlat ijtimoiy siyosatini topish mushkul. Odamlar o‘zlari, oila a‘zolari, do‘stlari bilan birgalikda hal etish mumkin bo‘lmagan muammolarga ko‘proq duch kelmoqdalar. Bu muammolarni hal etishda yordam ko‘rsatish uchun alohida kasb egalari – ijtimoiy xodimlar bo‘lishini taqozo etadi.

Kasb va fan sifatida ijtimoiy ish integral tabiatga ega. Ijtimoiy ish paydo bo‘lishining eng dastlabki yillaridayoq mazkur faoliyat bilan pedagoglar,

psixologlar, tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassislar Shug‘ullanganlar, ijtimoiy ish nazariyasi esa turli fanlarning to‘qnaShuvida shakllangan. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, u turli fanlar vakillari o‘rtasida kompleks muammolarni hal etishdagi hamkorlikni taqozo qiluvchi fanlararo tadqiqotlarning natijasi o‘laroq vujudga kelgan.

Mazkur kitob OTMlarning “Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo‘yicha)” ta’lim yo‘nalishida tahsil oluvchi talabalarga mo‘ljallangan “Ijtimoiy ishga kirish” o‘quv fani bo‘yicha Davlat ta’lim standartiga mos keladi. Talabalar, doktorantlar va o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan darslik bir vaqtning o‘zida ijtimoiy ish xodimlarining amaliy faoliyati jarayonida ham qo‘llanilishi mumkin.

Mualliflar mamlakatimiz uchun yangi bo‘lgan kasbning barcha o‘ziga xos jihatlarini aks ettirish, kitobxonlarni ijtimoiy ish asoslari, shakllanish tarixi va uning eng muhim asoslari, usullari va qonuniyatlarining vujudga kelish tarixi va rivojlanishi bilan tanishtirishga, uni to‘g‘ri anglash uchun imkoniyat yaratishga intilgan.

Kitob adabiyotlar ro‘yxati, glossariy, metodik tavsiyalardan iborat.

Darslik ijtimoiy ish muammolarini o‘rganayotgan barchaga foydali bo‘lishiga va mazkur kasbning O‘zbekistonda rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qilishiga umid qilamiz.

## **1-MAVZU.FANGA KIRISH. IJTIMOYIY ISH VA IJTIMOYIY TA’MINOT MOHIYATI**

### *1. Kursning tuzilmasi, maqsadi, kutilayotgan natijalar*

2. *Ijtimoiy ta'minot: tuShuncha va maqsadlar*
3. *Ijtimoiy ta'minot institut va fan sifatida*
4. *Ijtimoiy ish faoliyatning alohida turi sifatida*

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy ish, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy himoya, adolatlilik, ijtimoiy ish ko'nikmalari va qadriyatlari, hayotiy vaziyat.

*1. Kursning tuzilmasi, maqsadi, kutilayotgan natijalari.*

Mamlakatimizda ijtimoiy ishning kasbiy faoliyat turi sifatida shakllanishi va rivojlanishi jamiyat hayot faoliyatining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatuvchi shiddatli o'zgarishlar davriga to'g'ri keldi. Ijtimoiy muammolarning keskin kuchayishi aholining ko'p qismi davlat tomonidan ijtimoiy himoya va muhofazaga muhtoj bo'lib qolishiga sabab bo'ldi.

Amerikalik professor Ch.Zastrovning yozishicha: "Ijtimoiy ish odamlarga, oilalarga, guruhlar va jamiyatlarga ularning shaxsiy, shaxslararo, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlarini ularning hayot faoliyati sharoitlarini yaxshilash hisobiga oshirishda yordam ko'rsatish jarayonida odamlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilgan. Ijtimoiy xodimlar mijozlarning atrof muhitini aniqlab olish, tanlovni amalga oshirish, o'z tanlovi uchun javobgarlikni qabul qilish va ularning hayotiy vaziyatiga uni tashkillashtirish va targ'ibot qilish orqali ta'sir ko'rsatish maqsadida mijoz imkoniyatlarini rivojlantirishga harakat qiladilar. Ijtimoiy xodimlar, Shuningdek, jamiyatdagi turli guruhlar o'rtasida hukmronlikning adolatli tarzda taqsimlanishiga erishishga intiladilar. Ijtimoiy adolatlilikka bu kabi urg'u berilishi ijtimoiy ish kasbining ajratib turuvchi jihati hisoblanadi"<sup>1</sup>.

"Ijtimoiy ish" kasbi dunyoda bir asr avval vujudga kelganligi



sababli, ijtimoiy muhitning xorijiy tajribada o‘rganilgan asosiy muammolarini anglash uchun etarli bo‘lgan boy ma’lumotlar, hamda dunyo tajribasiga bo‘lgan qiziqish va uni O‘zbekiston sharoitiga tadbiq qilishga intilish tabiiy holat hisoblanadi.

*Mutaxassislik maqsadi, vazifalari va tuzilmasi:*

Mutaxassislikning asosiy maqsadi – talabalarda kasbiy layoqatlilik va malakalarni, ularda ijtimoiy ish, uning etikasi va qadriyatlari, nazariyalari, tadqiqot usullari va ular bilan bog‘liq ko‘nikmalar haqidagi bilimlarni shakllantirish orqali rivojlantirishga imkoniyat yaratish.

*Mutaxassislik (kurs) vazifalari:*

1. Talabalarda ijtimoiy ishning axloqiy qadriyatlari va asoslarini shakllantirish va ularni amalda qo‘llash uchun imkoniyat yaratish.

2. Ijtimoiy ish faoliyatning alohida turi sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ijtimoiy ta’minot va ijtimoiy ishning rivojlanish tarixini qamrab olgan holda o‘zlashtirish.

3. Ijtimoiy ishning asosiy nazariyalarini ularni ijtimoiy xodim (ijtimoiy soha xodimi)ning amaliy faoliyatiga tadbiq qilish orqali o‘rganish.

4. Ijtimoiy ish nazariyalarini amalda qo‘llash bo‘yicha ko‘nikmalarini rivojlantirish.

5. Amaliyotning dalillarga asoslangan tajribasini, ijtimoiy ishdagi tadqiqotning asosiy usullarini ko‘rib chiqish va tinglovchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishga imkoniyat yaratish.

“Ijtimoiy ishga kirish” ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassisning umumkasbiy fani hisoblanadi va bo‘lg‘usi mutaxassisda kasbiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan, uning kasbiy mahoratini

tarixiy, nazariy bilimlar, ijtimoiy ta'minot va insonni himoya qilishning dunyo tajribasi jarayonida ishlab chiqilgan insonparvarlik qadriyatlari bilan boyitadi.

2. *Ijtimoiy ta'minot: tuShuncha va maqsadlar.* Ijtimoiy ish ijtimoiy ta'minot shakli, ijtimoiy yordam ko'rsatish faoliyati davomida muhtojlar bilan ijtimoiy ish olib borish amaliyoti va odamlarni qo'llab-quvvatlash faoliyati hisoblanadi. Uning samarali tarzda amalga oshirilishi uchun ijtimoiy xodim inson muammolarini to'g'ri anglay bilishi, Shuningdek, ularni hal etish texnologiyalaridan xabardor bo'lishi lozim.

Bizning sanoatlashgan, murakkab va jadal o'zgarib boruvchi jamiyatimizda ijtimoiy ta'minot sohasidagi faoliyat sarflangan moliyaviy mablag'lar, insonlarni azoblardan xalos qilish, ijtimoiy xizmat ko'rsatish nuqtai nazaridan muhim vazifaga aylanib bormoqda<sup>1</sup>.

Ijtimoiy ishning eng umumiy ta'rifi – bu individ, guruh yoki uyushma hayotidagi ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan kasbiy faoliyat, ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish.

Ijtimoiy ta'minot o'zi nima?

Mazkur atama keng ma'noda ijtimoiy ta'minot aholining farovonligini ta'minlashga yo'naltirilgan barcha tashkiliy muammolarni hal etishni qamrab oladi. Shuningdek, ta'lim, sog'liqni saqlash sohasi, rehabilitatsiya, kattalar va bolalarni ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy yordam, ijtimoiy sug'urta, jismoniy va aqliy nuqsonlari mavjud bo'lgan kishilarga xizmat ko'rsatish, ruhiy terapiya, maslahat berish va ijtimoiy farovonlikka ko'maklashuvchi ko'plab boshqa sohalar ham ijtimoiy ta'minot sirasiga kiradi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minot teng ma'noli tuShunchalar, demakdir.

Ijtimoiy ish ensiklopediyasida P.Nelson Reyd ijtimoiy ta'minlangan jamiyatni inson faoliyati va mavjudligi uchun imkoniyatlar yaratilgan, muhtojlik va tajovuzlardan ongli himoya ta'minlangan jamiyat sifatida ta'riflaydi. Bu adolat va shaxsiy xizmatlarni e'tirof etuvchi, iqtisodiy jihatdan samarali va barqaror bo'lgan jamiyatdir. Ijtimoiy ta'minot g'oyasi insonlar jamiyati o'zining ma'naviy majburiyati deb hisoblaganligi sababli ijtimoiy yordamni tashkillashtirish va ko'rsatishi mumkin, degan taxminga asoslanadi<sup>1</sup>.

Farqi Shundaki, ijtimoiy ish – bu kasb, fan va ta'lim fani, ijtimoiy ta'minot esa – fuqarolarga keksalikda, kasallikka chalingan holatlarda, mehnatga layoqatlilikni qisman yoki to'liq yo'qotgan vaziyatlarda, Shuningdek, bolalari bor oilalarga qonunda ko'rsatilgan moddiy ta'minot tizimi hisoblanadi.

*Ijtimoiy ta'minotning maqsadi* jamiyatdagi barcha odamlarning ijtimoiy, moliyaviy, sog'liqni saqlash va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Ijtimoiy ta'minot barcha yoshga oid guruhlar va barcha qatlamdagilarning hayot faoliyati darajasini oshirishga intiladi. Ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish va jamiyatda ijtimoiy ta'minot muassasalarining faoliyatini ta'minlash zarur ijtimoiy institut hisoblanadi, chunki bozor iqtisodiyoti va oila faoliyati bugungi kunda odamlar yoki odamlar guruhining asosiy ehtiyojlarini ta'minlashni talab etadi.

Tezkor sur'atlarda o'zgarib boruvchi jamiyat – ijtimoiy falokatlarning ortib borishi va quyidagi ko'rinishdagi yangi muammolarni: boshpanasiz fuqarolar sonining ortib borishi, jinoyatchilikning ko'payishi, davriy energetik inqirozlar, terrorizm,

yashash muhitining buzilishi kabi muammolarning vujudga keltirishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim.

*Ijtimoiy ta’minot sohasida faoliyat olib borish bu:*

- farzandlari bo‘lgan ota-onalarni turar joy bilan ta’minlash;
- ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka ruju qo‘ygan odamlarni reabilitatsiya qilish;
- hissiy qiyinchiliklarga ega bo‘lgan odamlar bilan ish olib borish;
- ko‘plab keksa yoshdagi kishilar turmush sifatini oshirish;
- jismoniy yoki aqliy zaifliklari mavjud bo‘lgan insonlarni reabilitatsiya qilish maqsadida kasbiy-texnik xizmatlar ko‘rsatish;
- kambag‘al oilalarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirish;
- jinoiy huquqbuzarliklarni sodir etgan o‘smirlar va kattalarni reabilitatsiya qilish;
- tahqirlash va tayziqlarning barcha turlarini bartaraf qilish.

*3. Ijtimoiy ta’minot institut va fan sifatida.* Ijtimoiy ta’minot atamasining turli ma’nolari mavjud, bu ham institutlar, ham akademik fan demakdir. Ijtimoiy xodimlarning Milliy Uyushmalari (AQSH ijtimoiy xodimlari uchun asosiy kasbiy tashkiloti) institut sifatida ijtimoiy ta’minotga quyidagicha ta’rif beradi: “Odamlar jamiyatga xizmat ko‘rsatish uchun asosiy jihatlar bo‘lgan ijtimoiy, iqtisodiy, ta’lim va tibbiy ehtiyojlarga duch kelganlarida amalga oshiriladigan xizmatlar, imtiyozli dasturlarning milliy tizimi”<sup>1</sup>.

Ijtimoiy xodimlar ijtimoiy ta’minot tizimi doirasida qarovsiz qolgan bolalar va ularning oila a’zolariga, homilador ayollar va o‘smirlarga, boshpanasiz va qashshoqlikda yashovchi odamlarga, jismoniy va ruhiy

muammolari bor odamlarga, yoshlarga va kattalarga jinoiy adolat tizimi doirasida, xodimlarga ish joylarida, qochqinlarga butun dunyo bo‘ylab va yordam, qo‘llab-quvvatlashga muhtoj barcha odamlarga yordam ko‘rsatadilar. Ular inson ehtiyojlarini yanada to‘liqroq qondirish maqsadida xizmatlar, uyushmalar, dasturlar tashkil etadilar, davlat va global darajalarda ijobiy o‘zarishlarni amalga oshirishga intiladilar.

Ijtimoiy xodimning *eng umumiy maqsadi* – o‘z mijozlarining ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Unga mijozlarning mustaqillik darajasini oshirish, ularning vujudga kelgan muammolarni hal etish qobiliyatini mukammallashtirish, mijozlar uchun qonun tomonidan belgilangan barcha sharoitlarni yaratish yo‘li bilan erishiladi. Bundan tashqari, mazkur vazifalarga, Shuningdek, odamlarning jamiyatga moslashishi yoki rehabilitatsiya qilish, ijtimoiy xodimning mijozga yordam ko‘rsatish zarurati bo‘lmaganda bu kabi natijaga erishish vazifasi ham kiradi.

Ijtimoiy dasturlar va xizmatlarga quyidagilarni misol qilib ko‘rsatish mumkin: bola asrab olgan oilada farzand tarbiyasi, kunduzgi parvarish, vaqtdan avval shartli ozodlikka chiqarish, daromadi kam bo‘lgan ota-onalar va ularning farzandlariga moliyaviy yordam ko‘rsatish, boshpanasizlarga xizmat ko‘rsatish, parvarish qilish, jinsiy terapiya, suitsid xulqqa moyil bo‘lgan odamlarga maslahatlar berish va uni oldini olish, mehnat faxriylariga xizmat ko‘rsatish, maktabda ijtimoiy ta‘minot, safardagi tushlik, zo‘ravonlikka duchor bo‘lgan er-xotinlar uchun boshpana, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka oid va beparvo munosabatlarning oldini olish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish, ichkilikbozlik va giyohvandlikka ruju qo‘ygan odamlarga xizmat ko‘rsatish va

boshqalar.

Shuningdek, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy xodimlarning maqsadi shaxsning ijtimoiy maqomini tiklash, moddiy mustaqillikka erishishini ta'minlashdan iborat. Sub'ektning jamiki faoliyati Shu maqsadga bo'ysunadi, uning mohiyati unga muvofiq tarzda shakllanadi, unga ko'ra boshqaruv tashkillashtiriladi, faoliyat vositalari, shakllari va usullari tanlab olinadi.

4. *Ijtimoiy ish: faoliyatning alohida turi sifatida.* Ijtimoiy ish bu faoliyatning ijtimoiy ta'minot prinsiplarini – qo'llab-quvvatlashga muhtoj va o'z hayotiy muammolarini mustaqil ravishda hal etish, ko'p hollarda esa yashash imkoniyatiga ega bo'lmagan odamlarga yordam ko'rsatish prinsiplarini amalga oshirishga yo'naltirilgan alohida turi.

Dunyo tajribasida odamlarning ijtimoiy himoyaga muhtoj guruhlari – keksalar, nogironlar, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar, murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan odamlar, jumladan, bolalar bilan ish olib borishni professionallar, ya'ni ijtimoiy xodimlar amalga oshiradilar.

Ijtimoiy ish o'zining amaliy faoliyatida ijtimoiy ta'minotning asosiy prinsiplariga asoslanadi va ularga amal qiladi. 1948 yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ijtimoiy ta'minotning asosiy prinsipini – jamiyatning har bir a'zosining ijtimoiy ta'minotga huquqi, Shuningdek, shaxsning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalarda erkin rivojlanishi va uning g'ururini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan sharoitlarni ta'minlashni mustahkamlab qo'ygan.

Ijtimoiy ish ijtimoiy hodisa sifatida mazkur so'zning keng ma'nosida, jamiyat ijtimoiy yordamning muayyan tarixiy davr davomida ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlariga

mos ravishda amalga oshiruvchi o'ziga xos modelini namoyon qiladi. Tor ma'noda ijtimoiy ish odamlarga, ijtimoiy guruhlarga shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni engib o'tishda yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan ijtimoiy-zarur faoliyat demakdir. "Ijtimoiy ish" – butun dunyoda qabul qilingan, insonning insonga munosabatini, uning jamiyatga muvaffaqiyatsiz moslashuvini engillashtirishga yo'naltirilgan faoliyatni belgilovchi ibora. Ijtimoiy ish filantropiya (insonparvarlik), xayriya kabi faoliyat turlaridan o'zining nafaqat kundalik muammolarni hal etishda yordam ko'rsatishi, balki muhtojlarda qiyinchiliklarni engib o'tish va o'z-o'ziga yordam ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Bu, aytish mumkinki, insonni har qanday hayotiy vaziyatlarda o'z muammolarini mustaqil hal etishga o'rgatish faoliyatidir.

Tarqoq odamlar tomonidan emas, balki qudratli davlat va xususiy tashkilotlar tomonidan ko'rsatiladigan yordam samaraliroq hisoblanadi. Ijtimoiy ish rivojlanishining dastlabki bosqichida mazkur faoliyat bilan asosan XIX asrda Evropa mamlakatlarida sodir bo'lgan jadal sanoatlashtirish va urbanizatsiya tufayli vujudga kelgan ijtimoiy muammolarning keskinlashuvidan xavotirga tushgan turli filantropik jamiyatlar Shug'ullangan.

Sanoat kapitalizmining rivojlanishi G'arb ijtimoiy tuzumining ulkan o'zgarishlarga duchor bo'lishiga sabab bo'ldi, bu esa o'z navbatida inson va jamiyat o'rtasidagi yangi turdagi munosabatlarning shakllanishiga sabab bo'ldi. G'arbdagi qarashlar davlatning shaxs oldidagi mas'uliyati va ma'naviy burchi to'g'risidagi tushunchalarning shakllanishiga sabab bo'lgan yangi intellektual yo'nalishlar vakillari vujudga keldi.

Va mazkur vaziyat oxir-oqibat aholining turli guruhlarini empirik jihatdan o'rganish va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga bo'lgan buyurtmalarining yuzaga kelishiga, pirovardida esa ijtimoiy islohotchilarning tashabbuslariga ko'ra, ijtimoiy xodimlarni tayyorlashning yangi shakllarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Yangi harakatning jadal sur'atlarda rivojlanishi, ixtisoslashtirilgan xizmatlarning tashkillashtirilishi natijasida ijtimoiy ishning nafaqat tezkor yordam ko'rsatishning eng samarali modellarini, balki oldini olish yoki ogohlantiruvchi tabiatga ega bo'lgan shakllarini izlashga yo'naltirilgan tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Ijtimoiy xodimlar muammolarning keng doirasiga duch keladilar. Bu ichkilikbozlik, xususiy mulkchilik huquqlarining buzilishi, bolalarga yomon munosabatda bo'lish, er-xotin o'rtasidagi nizolar, ruhiy va jismoniy kasalliklar, daydilik, jamiyatdan ajralib qolish va hokazo. Bularning bari maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Bu kabi faoliyat havaskorlik, yuzaki yondaShuvga toqat qilmaydi, chunki ijtimoiy xodimlar nafaqat tegishli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari, balki kasbiy-axloqiy me'yor va prinsiplarga amal qilishga, shaxsiy tayyorgarlikka ham ega bo'lishlari lozim.

Ijtimoiy ish kasb sifatida davlat, professional va tashkilot tomonidan inson huquqlariga amal qilish, o'z davlatining ijtimoiy qonunchiligini bilish, to'g'ri qo'llash, mijoz manfaatlarini himoya qilish va jamiyat farovonligi uchun xizmat qilish kabilarga asoslangan. Ijtimoiy ish turli shakllarda namoyon bo'ladi, mijozlar bilan o'zaro kompleks munosabatlarga kirishadi.

Ijtimoiy ishning vazifasi ijtimoiy munosabatlardagi buzilishlarni



bartaraf qilish maqsadida odamlar o'z imkoniyatlarini amalga oshirishlari, to'laqonli, sermazmun hayot kechirishlari uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat. Professional ijtimoiy xodimlar o'zlari xizmat ko'rsatayotgan alohida individlar, oilalar, uyushmalar va umuman jamiyatning hayotidagi o'zgarishlar vakillari hisoblanadi. Mazkur kasb qadriyatlar, nazariya va amaliyotning o'zaro bog'liq tizimi hisoblanadi, u insonparvarlik va demokratiyaga muvofiq ravishda shakllangan, tenglik va inson qadr-qimmatini hurmat qilish kabi qadriyatlarga asoslangan.

Evropa va SHimoliy Amerika mamlakatlarida yuz yildan avval vujudga kelgan professional ijtimoiy xodim amaliyoti ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishni himoya qilish va har bir sub'ektning munosib turmush kechirishi uchun inson imkoniyatlarini rivojlantirishdan iborat. Ijtimoiy xodim inson huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy adolatga erishish uchun harakatlarni amalga oshiradi. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj va past darajada himoya qilingan qatlamlari bilan birlashgan holda mazkur kasb kambag'allik darajasini pasaytirish va bartaraf qilish, ijtimoiy qamrab olish prinsipiga amal qilish maqsadida tobe va jabrlanganlarni ozod qilish uchun kurashadi.

Bo'lg'usi ijtimoiy xodimlarning bevosita faoliyati jarayonida zarur bo'lgan mazkur bilimlar va boshqa ko'plab ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim beriladi.

### **Nazorat savollari**

1. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minot tushunchalari o'rtasida qanday umumiylik mavjud?
2. Ijtimoiy ishga ta'rif bering va uning maqsadlarini ifodalang.

3. Ijtimoiy himoya institutlari qaysilar?

4. Jamiyatimizda ijtimoiy ta'minot tizimida qanday o'zgarishlar sodir bo'lmoqda?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ganieva M.X. Ijtimoiy ish asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: CHASHMA PRINT, 2009. – 112 b.

2. Ganieva M.X. Ijtimoiy ishga kirish. – Toshkent: O'zMU, 2011.

3. Ganieva M.X., N.M.Latipova. Ijtimoiy ish tarixi va nazariyasi. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: O'zMU, 2015. – 264 b.

4. Ambrosino R., Ambrosino R., Heffernan J., Shuttlesworth G. Social Work and Social Welfare: An Introduction. Sixth Edition. – Thomson Brooks/Cole, 2008. – 643 p.

5. Charles Zastrow. Introduction to Social work and social welfare. Empowering People. George Williams College of Aurora University. Printed in Canada: Brooks/Cole, Cengage Learning, 2010.

## **2-MAVZU. IJTIMOYIY ISH MOHIYATI VA O'ZIGA XOS**

### **XUSUSIYATLARI**

- 1. Ijtimoiy yordam mohiyati va turlari*
- 2. Ijtimoiy ish paydo bo'lishining tarixiy sabablari*
- 3. Ijtimoiy ish kasb sifatida*
- 4. Ijtimoiy ish fan va o'quv fani sifatida*
- 5. Ijtimoiy ish ob'ekti va predmeti*
- 6. Ijtimoiy ishning xalqaro ta'rifi*

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy ishning o'ziga xos xususiyatlari, inson, jamiyat, ijtimoiy ishning paydo bo'lishi, ijtimoiy ish fan sifatida, ijtimoiy himoyaning tarixiy shakllari, xayriya, homiylik, rahm-shafqat, xizmat ko'rsatish, filantropiya (insonparvarlik), davlat yordam tizimi, ijtimoiy ish ta'rifi, ob'ekt, predmet.

- 1. Ijtimoiy yordam mohiyati va turlari. Ijtimoiy ishning ijtimoiy hodisa*

sifatidagi ildizlari inson va jamiyat rivojlanishining dastlabki bosqichlariga to'g'ri keladi. Ijtimoiy yordam qalb amriga ko'ra amalga oshiriladi, bu jarayonda nochor aholiga g'amxo'rlik qilishning turli jamiyatlarda shakllangan an'analari mavjud. Qadimgi Misr ibodatxonalarida marosimga oid yordam amalga oshiriladi: ochlarga bepul non tarqatish. Qadimgi Gretsiyada, so'ngra qadimgi Rimda aholining qashshoq qatlami orasida non, kiyim-kechak, pul tarqatiladi.

Qadimgi slavyanlarda ijtimoiy himoyaning asosiy shakllari turli sakral jihatlariga ega bo'lgan ommaviy yordam, ijtimoiy-urug'chilikka oid, Shuningdek, xo'jalik yordami, nasl, oila, aholi doirasida o'zaro yordam ko'rsatish va himoya ko'rinishida bo'lgan.

O'z tarixiy rivojlanishida muhtojlarni ijtimoiy parvarish qilish turli shakllarga ega bo'lgan – sadaqadan ijtimoiy va xususiy xayriyaning turli ko'rinishlari bilan birgalikda amalga oshiriluvchi, uyushgan davlat tizimiga qadar ko'rinishlarda bo'lgan.

Sadaqa – bu muhtojlarga pul yoki moddiy vositalar ko'rinishida yordam berish. Bu odamlarga xos bo'lgan tabiiy-gumanistik xususiyatlarning eng qadimiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, keyinchalik u turli dinlar tomonidan majburiyat darajasiga olib chiqildi va bizning kunlarimizga qadar sadaqa qashshoqlarga hamdardlik ko'rsatishning bir shakli sifatida saqlanib qolgan. Xayriyaning mazkur turini uyushgan ko'rinishga keltirish mumkin emas. U qo'l cho'zgan har qanday kishiga beriladi va individning shaxsiy xislatlari, uning sub'ektiv hissiyotlari bilan belgilanadi. Baholi qudrat yordam ko'rsatish sadaqa (xayr-ehson)ning asosiy maqsadi hisoblanadi. Biroq katta miqdordagi sadaqalar qashshoqlik kasbining paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin.

Xayriya, mehr-shafqat ko'rsatish kambag'allarga moddiy yordam ko'rsatishga qaratilgan faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, bu – muhtojlarga ixtiyoriy va beg'araz ravishda pul, mol-mulk taqdim qilish, xizmat ko'rsatish demakdir. G'arb mamlakatlarida uni odatda karitativ (xayriya) faoliyati deb ataydilar (lotin tilidagi caritas – “mehr” ma'nosini anglatadi). Mazkur tuShunchalar ma'nosi o'zaro bir-biriga yaqin, biroq bir xil emas.

Xayriyani ko'p jihatdan uning asosida rivojlangan professional ijtimoiy ishdan farqlash lozim. Biroq u boshqa tashkiliy asoslarga quriladi. Ijtimoiy ish me'yoriy-huquqiy asos yordamida, maxsus uyushgan muassasalar va tashkilotlar tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi asosida aniq tartibga solingan. Xayriya faoliyati esa qat'iy tartiblarga amal qilmaydi, bu esa o'z navbatida vujudga kelgan ijtimoiy muammolarga vaziyatdan kelib chiqqan holda munosabatda bo'lish imkonini beradi. Xayriya muhtojlarga yordam ko'rsatish, ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muayyan ijtimoiy va xususiy harakatlarni amalga oshirish bo'yicha ijtimoiy faoliyat sifatida namoyon bo'ladi.

Xayriyaning asosiy tarkibiy qismini homiylikdan, ya'ni birinchi navbatda moddiy, Shuningdek, katta miqdordagi mablag'lar va jamiyatda ta'sir kuchiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan uyushgan yordam ko'rsatishdan tashkil topgan, deb hisoblash mumkin.

Rahm-shafqat ko'pincha xayriya ko'rsatishning sabablaridan biri sifatida namoyon bo'lgan holda xayriya faoliyatining asosini tashkil qiladi. Rahm-shafqat, hamdardlik, xayrixohlik va yordam ko'rsatish, qiynalayotganlarni qo'llab-quvvatlashga tayyorlikni anglatadi. Rahm-shafqat – bu boshqa kishiga yordam ko'rsatishdan ko'ra ko'proq uning azoblariga hissiy-emotsional aks-sado, demakdir.

Homiylik, aslida sovg'a qilish yoki xayr-ehson qilish tuShunchasiga mos keladi, biroq ular bir-biridan tamomila farq qiluvchi tuShunchalardir. Homiylik ostida yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan (mol-mulkni, intellektual faoliyat natijalarini taqdim qilish, xizmat ko'rsatish, ishlar olib borish ko'rinishidagi) boshqa yuridik yoki jismoniy shaxs faoliyatiga qabul qiluvchi tomonidan homiy haqida, uning mahsulotlari haqida reklama qilish sharti asosida sarmoya kiritish tuShuniladi.

Ijtimoiy yordam ob'ekti va sub'ektini aniq farqlab olish lozim. Yordam olish ob'ekti sifatida qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lgan yordam oluvchilar namoyon bo'ladi, ijtimoiy yordam sub'ekti ostida esa yordam manbai tuShuniladi. Ijtimoiy yordam sub'ekti tabiatidan kelib chiqqan holda uning qator asosiy turlari ajratib

ko'rsatiladi: xususiy (individual); guruhga oid, ijtimoiy (jumladan, uyushmaga oid); davlat.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zaro bir-biriga yordam ko'rsatishga intilish immanent ravishda insonga xos tuShunchadir. Barcha dunyo dinlarining asosida markaziy o'rinni muhtojlarga gumanitar xizmat ko'rsatish tizimi sifatidagi insonning burchi sifatida ifodalangan ijtimoiy yordam va xayriya tutgan.

## *2. Ijtimoiy ish vujudga kelishining tarixiy sabablari.*

Ijtimoiy ishning faoliyat turi va kasb sifatida vujudga kelishining tarixiy sarhadlarini u yoki bu darajada aniq belgilash mumkin. Shunday qilib, tadqiqotchilarning ko'pchiligi ijtimoiy ishning vujudga kelishini industrial jamiyat rivojlanishining boshlang'ich davri bilan bog'laydilar. XVIII asr oxirlarida va XIX boshlarida Evropa va Amerika mamlakatlari nafaqat ishlab chiqarishni texnik takomillashtirilishi bilan, balki ijtimoiy muammolarning – ijtimoiy tabaqalanishning kuchayishi, jinoyatchilikning rivojlanishi, ishsizlik kabi muammolarning keskin ortib ketishi bilan birga kechuvchi sanoat inqilobi yo'liga kirdilar.

Ijtimoiy muammolarning keskinlashuvi adolatli ravishda jamoatchilik fikrini kambag'allik masalalariga qaratdi. Ushbu masala jamoatchilik fikriga ko'ra ijtimoiy barqarorlik va tartibga tahdid soluvchi masalalardan biri ekanligi e'tirof etildi. Mazkur holat nafaqat Evropa va Amerika mamlakatlarida ijtimoiy muhitdagi munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy qonunchilikni yaratishda, balki aholining turli guruhlarini empirik jihatdan o'rganishda o'z ifodasini topgan. XIX asrning boshlaridayoq turli ijtimoiy muammolarni o'rganish, tahlil qilish va aholini ro'yxatga olish kabilar amalga oshirila boshladi. Biroq faqatgina XIX asrning oxiriga kelib ijtimoiy islohotchilar va xayriya tashkilotlari etakchilari kambag'allarga yordam ko'rsatish bilan Shug'ullanuvchi odamlar maxsus tayyorgarlikdan o'tishlari lozim, degan xulosaga keldilar.

XIX asrda ijtimoiy ishning faoliyatning professional turi sifatida shakllanishi Evropa mamlakatlarida jadal sanoatlashtirish va urbanizatsiya sababli ijtimoiy muammolarning keskinlashuvidan haqotirga tushgan G'arbiy Evropa va Amerika

filantropik jamiyatlarning faoliyatiga borib taqaladi. Odamlar xayriya faoliyati bilan hech bir maxsus tayyorgarliksiz Shug‘ullanganlar. XIX asrning birinchi yarmidayoq mazkur sohada din arboblari va xususiy shaxslar bilan hamkorlikda o‘z kuchlarini ijtimoiy muammolarni yumshatishga yo‘naltirgan qudratli ijtimoiy ijtimoiy tashkilotlar shakllana boshladi.

XIX asrning oxirlariga kelib, Evropa va Amerika mamlakatlarida muhtojlarga yordam ko‘rsatish davlat tizimi ikkita asosiy elementni qamrab olgan: qonunchilikni rivojlantirish va maxsus organlar hamda muassasalarni yaratish.

G‘arb mamlakatlari ijtimoiy tafakkurida muhtojlarga yordam ko‘rsatishning professionallashtirish g‘oyasi aniq anglana boshladi. Mazkur fikr XIX asrning oxirlaridayoq amalga oshirila boshladi va dunyoda birinchi bo‘lib ijtimoiy xodimlarni tayyorlash bo‘yicha institutga asos solish sharafiga 1899 yilda Ijtimoiy xodimlarni tayyorlash institutiga asos solgan amsterdamlilik ijtimoiy islohotchilar guruhi sazovor bo‘ldi.

XX asrning birinchi yarmi davlat rolining kuchayishi va “umummilliy farovonlik davlati” nazariyasi hamda amaliyotining rivojlanishi bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy xodimlarning kasbiy faoliyatining boshlanishi sifatida odatda ularning asosiy huquq va majburiyatlarining shakllanishi, rasmiy ravishda mehnatga haq to‘lash tizimini joriy qilish, ta‘lim muassasalarini, professional tashkilotlarni yaratish kabilar hisoblanadi. “Ijtimoiy xodim” kasb sifatida avval AQSHda, so‘ngra G‘arbiy Evropa mamlakatlarida ijtimoiy maqomga ega bo‘ldi.

Ijtimoiy xodimlar keng ko‘lamli muammolar bilan Shug‘ullanganlar – mazkur muammolar sirasiga immigrantlarni ingliz tiliga o‘qitishdan sanoatlashgan jamiyatda ish o‘rniga ega bo‘lish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni egallashda yordam ko‘rsatishga qadar muammolar kiradi. Ular ijtimoiy adolatsizlikni yo‘q qilishga, odamlarga o‘z muammolarini samarali tarzda hal etishda yordam ko‘rsatishga intilganlar.

Ijtimoiy xodimlarning kasbiy yo‘nalishlarini ifodalagan birinchi tashkilot Amerika Qo‘shma SHtatlarida paydo bo‘lgan. Bu 1917 yilda tashkil etilgan Ijtimoiy xodimlarning milliy birjasidir. Nisbatan kechroq ijtimoiy xodimlarning (tibbiyot

xodimlari, o'qituvchilar) boshqa professional tashkilotlari paydo bo'lgan. 1921 yilda ular birinchi marotaba rasmiy ro'yxatga olingan Amerika ijtimoiy xodimlar uyushmasiga birlashdi.

Ijtimoiy ishning tashkiliy tuzilmasini yaratish jarayoni G'arbning boshqa mamlakatlariga tarqala boshladi. Etitta Evropa mamlakatlarining milliy uyushmalari yaratildi va 1928 yilda ular Parijda Ijtimoiy farovonlik bo'yicha Xalqaro kengashga birlashtirildi.

Bugungi kundagi ijtimoiy xodimlar ajdodlarining harakatlari muhtojlarga yordam ko'rsatishga qaratilgan. Va faqatgina XX asrda ijtimoiy ta'minotning xayriya va ijtimoiy tashkilotlar o'z istaklarini jamiyatning pragmatik maqsadlariga muvofiq ravishda amalga oshirishlari mumkin bo'lgan usullari, tahlili va ta'riflariga jiddiy e'tibor qaratildi. Buni birinchi bo'lib AQSHda Meri Richmond amalga oshirishga erishdi. U o'z e'tiborini individ va uning oilasiga qaratgan holda xayriyani usul bilan birlashtirishga erishdi. U o'zining 1915 yilda chop etilgan "Ilmiy ijtimoiy ish" asarida Meri Richmond ijtimoiy ish sifatini baholash, ijtimoiy xodimlar hal qilishlari lozim bo'lgan ijtimoiy muammolarni o'rganish sxemalari to'plamini taklif etdi.

Meri Richmond o'z usulini 1917 yilda mijoz shaxsi kabi uning ijtimoiy holatini ham baholashni taqozo qiluvchi "Ijtimoiy tashxis" kitobida batafsil yoritib bergan. U ijtimoiy ishning keyinchalik terapevtik, deb nom olgan modelining asoschisi hisoblanadi. Mazkur modelga ko'ra, ijtimoiy xodim faoliyatining eng muhim jihati har bir alohida vaziyatni to'g'ri baholay olish, ijtimoiy tashxis qo'yish va Shu asosda davolash usulini tanlay bilish qobiliyati hisoblanadi. Kambag'allikni kasallik deb hisoblagan Richmond vrach va ijtimoiy xodim faoliyati o'rtasidagi o'xshashliklarni keltirib o'tgan.

20–30-yillarda Z.Freyd va uning izdoshlarining psixoanalitik g'oyalari ijtimoiy ishning psixodinamik nazariyasini birinchi o'ringa olib chiqdi. Shunday qilib, Virjiniya Robinson o'zining "Ijtimoiy vaziyatda o'zgarib turuvchi psixologiya" asarida birinchi marotaba faoliyatning ijtimoiy usulini psixologik jihatdan yangicha tushunchasining paydo bo'lishini angladi.

XX asrning birinchi choragi psixiatrik usullar va psixotahlilning ustunligi ostida o‘tdi. Ijtimoiy ish biologiya, iqtisodiyot, tibbiyot, psixiatriya, sotsiologiya, statistika, antropologiya, pedagogika, ijtimoiy psixologiyaga tayanishi lozim, deb hisoblangan. O‘sha davrdan buyon juda kam narsa o‘zgargan.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib tizimli, kompleks yondaShuv asosiy yondaShuvga aylandi. Endilikda ijtimoiy xodimdan faqat bitta sohadagi tor mutaxassislik emas, balki universallik, turli usul va sohalarni birlashtira olish ko‘nikmasi talab etila boshladi. Bir vaqtning o‘zida metodik madaniyat, ishonchli empirik ma’lumotlarga bo‘lgan ehtiyoj vujudga keldi.

Ijtimoiy ishning jadal shakllanish jarayoni AQSHda davom eta boshladi. Kichkina shaharchalarning katta shaharlarga aylanishi va boshqa joylardan kelganlar, daydilar va omadsizlar sonining ortib borishi, tutqinlik sharoitlari dahshatli bo‘lgan qamoqxonalarda sonining keskin ortib ketishiga olib keldi. XIX asrning 60-yillariga kelib shtatlarning xayriya va o‘zgartirish kengashlari vujudga keldi. Ular turli tuzilmaga va majburiyatlarga ega bo‘lganlar, biroq ularning asosiy vazifasi qonunchilarga turli muassasalarni boshqarish bo‘yicha konsultatsion yordam ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan. Kengashlar tarkibiga mashhur filantroplar, ko‘ngillilar, o‘sha davrning savodli kishilari kirgan va ularning mehnatiga haq to‘lanmagan.

Ijtimoiy ta’minot bo‘yicha dastlabki agentliklar 1800-yillar boshlarida shahar hududlarida yashayotgan odamlar ehtiyojlarini qondirish maqsadida tashkil etila boshlagan. Mazkur muassasalar birinchi navbatda ruhoniylar va diniy guruhlar tashabbuslari bilan xususiy agentliklar bo‘lgan. 1900 yil boshlariga qadar bu kabi xizmatlar faqatgina hech qanday maxsus ma’lumotga ega bo‘lmagan va inson xulqi to‘g‘risida deyarli bilimga ega bo‘lmagan ruhoniylar vakillari va boy xayriyachilar tomonidan ko‘rsatilgan. Asosiy urg‘u oziq-ovqat va boshpana bilan ta’minlash kabi asosiy jismoniy ehtiyojlarni qondirish, Shuningdek, diniy tasavvurlar va me’yorlarga asoslangan holda hissiy va shaxsiy qiyinchiliklardan “davolash”ga urinishlar amalga oshirilgan.

Ijtimoiy ta’minotning ilk tashkilotlari sifatida 1820 yilda Djon Gayskiy



tomonidan tashkil etilgan Pauperizm (ommaviy qashshoqlashish)ning oldini olish jamiyatini misol qilib ko'rsatish mumkin. Mazkur jamiyatning maqsadi kambag'al odamlarga o'z-o'ziga yordam berish yo'llarini taklif qilish uchun ularning hayotini o'rganishdan iborat bo'lgan. Mazkur maqsadlarda ushbu jamiyat a'zolari kambag'al odamlarning uylariga tashrif buyurardilar, bu esa o'z navbatida ijtimoiy ishning birlamchi, eng sodda usuli sifatida namoyon bo'ldi.

G'arbda keng tarqalgan ijtimoiy ishning o'zagi sifatida bir tomondan turli ilmiy fanlar, jumladan, psixoterapiyaning elementlarini, boshqa tomondan esa individlar va oilalarga inqirozli vaziyatlarda yordam ko'rsatish kabilarni o'ziga singdirgan "har bir muayyan vaziyatda ish olib borish"ning ishlab chiqilgan va umumlashtirilgan usuli hisoblangan. XXI asrning saksoninchi yillarida AQSHda ijtimoiy ishning ikkita yo'nalishiga asos solgan ikkita professional tashkilot vujudga keldi. Ulardan biri London uyushgan xayriya tashkiloti tipiga ko'ra tashkil etilgan xayriya tashkiloti 1887 yilda Buffaloda paydo bo'ldi. Boshqasi esa – Qo'shnilar (ko'chib kelganlar) gildiyasi 1886 yilda Nyu-Yorkda tashkil etilgan. Har ikki tashkilot ham o'z qarashlarini viktorien Angliya an'analaridan o'zlashtirgan va jadal sur'atlarda rivojlangan. 1892 yilga kelib AQSH va Kanadaning yirik shaharlarida 92 ta xayriya tashkilotlari tashkil etildi.

Emigrantlar qishloqlariga, settlmentlar deb nomlangan ko'chmanchilarga keladigan bo'lsak, 1986 yilga kelib ularning soni 44 nafarga etdi va bu ko'rsatkich doimiy ravishda o'sib borgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu kabi ko'chib o'tishlarni nafaqat AQSHda, balki Angliya, Germaniya, Finlyandiya va qator boshqa mamlakatlarda paydo bo'lganligini alohida ta'kidlab o'tish zarur.

Har ikki tashkilotlar yoki harakatlar kambag'allar va baxtsiz odamlar manfaatlarida amaliy harakatlar olib borish maqsadida tashkil etilgan. Ular o'z saflariga aholining oliy va o'rta qatlamlariga mansub bo'lgan ma'lumotli va savodxon insonlarni jalb qilganlar. Ularning faoliyati ayniqsa, ijtimoiy ishda o'zlarining ijtimoiy maqomini oshirish va iqtisodiy mustaqillikka erishish maqsadida bo'lgan yosh ayollar uchun juda qiziq bo'lgan. Har ikki harakat ham cherkovga yaqin bo'lgan.

Xayriya tashkilotlari har bir da'vogarni unga xizmat ko'rsatish va moliyaviy yordam ko'rsatishga uchun munosib yoki munosib emasligini batafsil o'rgangandilar, qayta xizmat ko'rsatishning oldini olish maqsadida mijozlarni ro'yxatga olishning markaziy tizimini tashkillashtirib, ko'ngillilardan, ya'ni murakkab vaziyatga tushib qolganlar bilan ishlash uchun "do'stona tashrifchilar"dan foydalandilar,

Do'stona tashrifchilar, yoki zamonaviy tilda aytadigan bo'lsak, volontyorlar, odatda moliyaviy emas, balki muhtojlarga hamdardlik shaklida an'anaviy yordam ko'rsatgan holda ularga ish o'rnini saqlab qolish yoki ish izlashda ko'maklashganlar. Shu bilan birga qashshoqlik shaxsiy kamchilik natijasi sifatida o'rganilgan. Mazkur harakat bilan bir vaqtning o'zida ko'chib kelayotganlar uchun uy-joylar qurildi. Shunday qilib, 1884 yilda Toyntbi Xoll Londondagi birinchi ko'chib kelganlar uyiga aylandi. Keyinroq bu kabi uylar AQSHning yirik shaharlarida shakllana boshladi.

Qiziqarli ma'lumot, ilk ko'chib kelganlar uylarida vazirlarning qizlari, odatda, o'rta va oliy sinflar vakilalari yashaganlar. Do'stona tashrifchilardan farqli ravishda ular kambag'al tumanlarda yashaganlar va istiqomat qiluvchilarga ta'lim berishda missionerlik yondaShuvidan foydalanganlar. Ularni ma'naviyatga o'rgatganlar, yashash joylari, salomatliklari va turmush sharoitlarini yaxshilashga, ish topishda yordam ko'rsatishga, ingliz tilini o'qitishga, gigiena va kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga intilganlar, o'zaro hamkorlikdagi harakatlar asosida ularning atrof muhitlarini o'zgartirishga harakat qilganlar. Ko'chib kelganlar yashash joylarida qo'llaniluvchi o'zgartirishlarning ushbu usullari endilikda "guruh, ijtimoiy uyushma, tashkilot bilan ijtimoiy ish olib borish", deb ataladi<sup>1</sup>.

Xayriya harakatiga Meri Richmond rahbarlik qilgan va u bevosita ijtimoiy islohotlar chegarasidan chiqmagan. Mazkur harakatning g'oyaviy asosi insonning kambag'alligi va ijtimoiy muammolarining sabablari uning o'ziga bog'liq ekanligini tan olishdan iborat bo'lgan. Ko'ngillilarning muloqot o'rganish maqsadidagi tashriflari kambag'allar bilan muloqot qilishning eng maqbul shakllaridan biri bo'lgan.

Janubiy Evropadan Amerika Qo‘shma Shtatlariga immigrantlar to‘lqinining ortib ketishi 1800-yillar oxiri 1900-yillar boshlarida ishsizlik, boshpanasizlik va kambag‘allik darajasining ortib ketishiga sabab bo‘ldi. Djeyn Adams 1869 yilda CHikagoning eng qo‘rqinchli xarobalarida Xoll Xauz (Hull House) tashkil etgan holda immigrantlarning o‘zlari uchun yangi bo‘lgan jamiyatga moslashishlarida muhim o‘rin egalladi. Xoll xauz va boshqa bu kabi uylar ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yirik agentliklariga aylandi. Ular turar joy tanqisligi, oylik maoshning past darajasi, bolalar mehnatidan foydalanish, bolalar jinoyatchiligi va ksalliklar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal etganlar<sup>1</sup>.

Ko‘chib kelganlar (settlementlar)ning harakati ijtimoiy islohotlar uchun kurashgan. Mazkur harakatning asosiy g‘oyasi atrof muhit kasallangan va kambag‘allik va odamlarning baxtsizligini tugatish uchun mazkur muhitni almashtirish zarur, degan fikrlardan iborat bo‘lgan. Mazkur harakat Amerika kvartallarida amalga oshirilgan. Mazkur harakatning asoschilari bo‘lgan Djeyn Adams va Elen Starlarning g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlagan ko‘ngillilar kambag‘allar kvartallariga ko‘chib o‘tganlar va yordamga muhtoj odamlar bilan yonma-yon yashaganlar. Biroq, agar xayriya tashkilotlari asosan o‘zlariga yordam so‘rab murojaat qilgan odamlarning turmush sharoitlarini o‘rganish bilan Shug‘ullangan bo‘lsalar, settlementlar harakati vakillari asosan, kasbga o‘qitish, bo‘sh vaqtni mazmunli tashkillashtirish bilan Shug‘ullangan holda asosan ta‘lim berish faoliyati bilan Shug‘ullanganlar.

Turli harakatlar o‘rtasidagi mafkuraviy nizolarga qaramasdan, settlementlar harakati zamonaviy ijtimoiy ishning shakllanishiga ulkan hissa qo‘shdi. Shunday qilib, SOS harakati tarafdorlari shahar kambag‘alligining sababi odamlar tabiatining ma‘naviy jihatlari va ularning kamchiliklariga bog‘liq va kambag‘allikka ular tomonidan o‘z xato va kamchiliklarini tan olish va tuzatish yo‘li bilan tamomila barham berish mumkin, deb hisoblaganlar. Bu kabi qarashlarning nazariy asosi “ilmiy xayriya”ni aks ettirgan – asosiy e‘tiborni kambag‘allarga ularning ijtimoiy va iqtisodiy erkinligi (ish izlash va topish)ga qaratgan ijtimoiy darvinizm bo‘lgan.

Turli agentliklarda faoliyat olib boruvchi “do‘stona tashrifchilar” o‘rtasida

o‘zaro tajriba almashinish vaqt o‘tishi bilan ta’lim beruvchi kurslar shakliga kirdi. 1898 yilda Richmond tashabbusiga ko‘ra, amaliy filantropiyaning birinchi milliy maktabi (bugungi kunda Kolumbiya universitetining ijtimoiy ish fakulteti) o‘z faoliyatini boshladi.

1865 yilda turli shtatlarning Kengash a‘zolari Amerika ijtimoiy fanlar uyushmasiga birlashdilar. Biroq ko‘p o‘tmay odamlarning turli guruhlarida odamlarga yordam ko‘rsatish kabi bitta ish bilan Shug‘ullana turib turli qarashlarni yoqlaydilar va turli maqsadlarni amalga oshirishga intiladilar.

Ko‘pchilik amaliy ijtimoiy muammolarni inson haqidagi ilmiy bilimlar asosida hal etish zarur, deb hisoblaganlar. Amaliyotchi xodimlar xasta odamlarni parvarish qilish bilan Shug‘ullangan holda, kambag‘allarga yordam ko‘rsatish nazoratini amalga oshirgan holda birinchi navbatda tajribada qo‘llash mumkin bo‘lgan sodda usullarini ishlab chiqishdan manfaatdor bo‘lganlar. Manfaatlarga to‘qnaShuvi keskin ko‘rinishga ega. 1874 yilda amaliyotchi xodimlar Uyushmadan chiqib ketdilar va o‘zlarining shaxsiy Uyushmalarini – Xayriya va o‘zgartirish milliy konferensiyasini tashkil etdilar (ayrim manbalarda u Xayriya va tuzatuvchi harakatlar milliy konferensiyasi deb ham keltirilgan).

Xayriya va o‘zgartirish milliy konferensiyasining tashkil etilishi mashhur Amerika sotsiologi Simbalistning fikriga ko‘ra, professional ijtimoiy ishning ibtidosi bo‘lib xizmat qildi.

Aynan Shu davrdan boshlab, deb yozadi olim, uyushgan ijtimoiy ish rivojlana boshladi. Ayniqsa uning jadal sur‘atlarda rivojlanishi Evropa uchun xos bo‘lgan. Londondagi uyushgan xayriya jamiyati 1903 yilda ijtimoiy xodimlarni tayyorlash uchun mo‘ljallangan birinchi ixtisoslashtirilgan o‘quv muassasasini ochadi va uni “Sotsiologiya maktabi” deb nomlaydi. 1912 yilda mazkur maktab London iqtisodiyot maktabining ijtimoiy ish fakultetiga o‘zgartiriladi. 1910 yilga kelib rivojlangan Evropa mamlakatlari va AQSHda ijtimoiy ishning 14 nafar maktabini ko‘rsatib o‘tish mumkin bo‘lgan. Ijtimoiy xodimlarning dastlabki maktablari odatda bir yillik ta’lim berganlar.

Biroq ijtimoiy xodimlarni tayyorlovchi birinchi haqiqiy ta’lim muassasini

ochish sharafi Gollandiyaga tegishli. 1899 yilda Amsterdamda ijtimoiy xodimlarni tayyorlash bo'yicha institut tashkil etildi. Undagi ta'lim muddati 2 yil bo'lgan, ta'lim shakli esa kunduzgi, deb belgilangan.

Eng savodli odamlar orasida ijtimoiy munosabatlarning keskin kuchayishi sharoitida xayriya va hamdardlik metodikasiga tayangan holda jamiyat kasallangan va uni davolash lozim, degan fikr shakllangan.

### *3. Ijtimoiy ish kasb sifatida.*

Xorijiy adabiyotda ijtimoiy ishning kasb sifatida vujudga kelishini odatda XIX asr oxiri XX asr boshlari, deb belgilanadi. Aynan Shu davrda qator industrial rivojlangan mamlakatlarda ijtimoiy ish bilan professional ravishda Shug'ullanuvchi, ta'lim muassasalarini tashkil etuvchi, ijtimoiy xodimlarga ta'lim beruvchi guruhlar paydo bo'la boshlaydi. Buyuk Britaniya va AQSH ijtimoiy ish avvalambor, faoliyatning alohida turi sifatida paydo bo'lgan va keyinchalik professional asos sifatida shakllangan mamlakatlar bo'lgan.

Ijtimoiy ishning professional faoliyat sifatida shakllanish jarayoni, ayniqsa, AQSHda jadal kechgan. "Ijtimoiy xodim" kasbi ijtimoiy maqomga dastavval AQSHda, so'ngra G'arbiy Evropa mamlakatlarida ega bo'lgan, biroq avval aytib o'tganimizdek, professional ijtimoiy xodimlarni tayyorlashni boshlagan birinchi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari Niderlandiyada, so'ngra AQSH, Buyuk Britaniya va Germaniyada tashkil etilgan. Birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'idagi davrda ijtimoiy ish maktablari ko'plab Osiyo mamlakatlarida, YAqin va O'rta SHarqda, G'arbiy Evropa mamlakatlarida va birmuncha kechroq Afrika mamlakatlarida tashkil etilgan.

Ijtimoiy xodimlarning professional faoliyatining ibtidosi, deb odatda, ularning asosiy huquq va majburiyatlarining rivojlanishi, rasman mehnatga haq to'lashning kiritilishi, ta'lim muassasalarini, professional tashkilotlarni tashkil etish hisoblanadi.

Ijtimoiy ish, yoki sotsionomiya (lotin tilidagi «socio» – jamiyat va «nomos» – qonun so'zidan) bir vaqtning o'zida ijtimoiy faoliyat shakli, ijtimoiy tajriba, ilmiy-nazariy bilimlar sintezi va o'quv fani hisoblanadi. Sotsionomiyaning diqqat

markazida ijtimoiy xodimning faoliyati turadi.

Faoliyati samarali bo'lishi uchun ijtimoiy xodim inson muammolarini farqlay bilishi, Shuningdek, ularni hal etish texnologiyalarini o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Ijtimoiy xodim ijtimoiy ish nazariyasining asoslarini egallaydi, uning predmet va ob'ektini, prinsiplari va usullarini aniq farqlay bilishi lozim. Unga hamdardlik, rahm-shafqat, mas'uliyat, insonparvarlik, fuqarolik va ijtimoiy adolatlilik hissi kabi maxsus professional va ma'naviy-axloqiy xislatlar xos bo'lishi lozim.

Kasbiy faoliyatning turli ko'rinishlari – iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ilmiy, texnik turlari mavjud. Ijtimoiy ish faoliyatning an'anaviy turlariga kirmaydi. Ijtimoiy ish – faoliyatning alohida turi hisoblanadi. U aholining turli qatlamlariga yordam ko'rsatishga yo'naltirilganligi sababli ham faoliyatning alohida turi hisoblanadi. Ijtimoiy ish o'ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida uchta ko'rinishda ifodalanadi: kasb, ilm va o'quv fani sifatida.

Kasb sifatida u shaxsga oid va ijtimoiy munosabatlarning alohida individlarga, odamlar guruhiga yordam ko'rsatish orqali uyg'unlashtirilishiga yo'naltirilgan; ilm – shaxsning, muayyan ijtimoiy guruh yoki uyushmaning hayot faoliyatiga bevosita aloqador bo'lgan ijtimoiy jarayonlar va ijtimoiy hodisalarni o'rganadi; o'quv fani ko'p darajali tabiatga ega va ta'lim muassasalarining turli ko'rinishlarida o'qitiladi.

Ijtimoiy xodim kasbi uni tabiatiga ko'ra ijtimoiy yo'naltirilganlikka ega bo'lgan boshqa kasblardan: vrach, psixolog, pedagog va boshqalardan ajratib turuvchi jihatlarga ega. Ajratib turuvchi jihatlardan biri ijtimoiy xodim va mijoz o'rtasidagi o'zaro munosabati tabiatining o'zi hisoblanadi. Yordam ko'rsatuvchi kasblarning boshqa turlariga ham xos bo'lgan sub'ekt-ob'ektga oid munosabatlardan farqli o'laroq ijtimoiy ishda o'zaro ishonchga asoslangan tabiatga ega bo'lgan sub'ekt-sub'ekt munosabatlari ustun turadi, bunda mijoz qaror qabul qilishda huquq yoki ustunlikni o'z tarafida saqlab qoladi.

Ijtimoiy ish ijtimoiy ta'minot, aholiga xizmat ko'rsatish tizimi doirasida asosiy kasb hisoblanadi. Ijtimoiy xodimlar ijtimoiy ta'minot muassasalari tomonidan belgilab qo'yilgan tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi. Ular

alohida shaxslar, oilalar, guruhlar, tashkilotlar va uyushmalar bilan ularning ijtimoiy faoliyatini yaxshilash maqsadida amalga oshiradigan faoliyatini engillashtiradi.

Ijtimoiy xodimlar ijtimoiy ta'minot tizimi doirasida ijtimoiy va iqtisodiy adolatni ta'minlash, aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlami – bolalar, keksalar, imkoniyati cheklangan shaxslar, Shuningdek, kambag'allikda yashovchilarni zarur manbalar bilan ta'minlash uchun zarur manbalarning tashkil etilishi maqsadida faoliyat olib boradilar.

Ijtimoiy ish aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamiga mazkur qiyinchiliklarni qo'llab-quvvatlash, himoya qilish, tuzatish va reabilitatsiya qilish vositasida yordam beradi. Patronaj, ijtimoiy yordam, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy ta'lim, ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslarni diagnostika qilish, nazorat qilish va reabilitatsiya qilishga yo'naltirilgan huquqbuzarlarni tuzatish va ularni nazorat qilish faoliyati hisoblanadi.

Professional faoliyat sifatida ijtimoiy xodim uchta darajani qamrab oladi: (a) mikro – inson bilan o'zaro munosabat asosida ish olib borish; (b) mezo – oilalar va boshqa kichik guruhlar bilan ish olib borish; (s) makro – yashash manziliga ko'ra tashkilotlar va uyushmalar bilan ish olib borish.

Xodimlar tomonidan amalga oshirilayotgan aniq tadbirlar quyidagilarni qamrab oladi: qamoqdan ozod qilingan shaxslarning shaxsiy va ijtimoiy muammolarini hal etish maqsadida ijtimoiy patronaj; Case work (vaziyatga qarab ish tutish) – ijtimoiy ta'minotning barcha agentliklari tomonidan aholiga to'g'ridan-to'g'ri xizmatlarni taklif qiluvchi xizmatlari.

Muayyan ijtimoiy vaziyatlarni o'rganish faoliyatning uyidan qochgan o'smirlarga maslahatlar tashkil etish, ishsizlarga yordam ko'rsatish, ularni kasbga tayyorlash yoki bandligini ta'minlash, o'z joniga qasd qilishi mumkin bo'lganlarga maslahat berish, ota-onasi qaramog'isiz qolgan bolalarni asrab oluvchi oilalarga topshirish yoki asrab olish, zo'ravonlikka duchor bo'lgan bolalar va ularning oilalarini himoya qilish bo'yicha xizmatlarni ta'minlash, og'ir kasallarga, tuzalmaydigan kasallikka chalingan bemorlarga yordam ko'rsatish, yolg'iz keksalarni internet muassasalariga joylashtirish, jinsiy buzilishlari mavjud

shaxslarga maslahat berish, ichkilikbozlik va giyohvandlikka berilgan shaxslarga yordam ko'rsatish, sinov muddati yoki shartli-vaqtidan oldin ozod qilingan odamlarga maslahat berish kabi faoliyat turlarining keng ko'lamini qamrab oladi.

Individual faoliyatning maqsadi individning ijtimoiy moslashtirilishi va rehabilitatsiya qilinishi, nizoli vaziyatlarni uni o'rab turgan atrof muhitining nizoli vaziyatlarini hal etishdan iborat. Masalan, bolaning oiladagi jismoniy va ruhiy rivojlanishi ota-onasining ijtimoiy-madaniy va moddiy maqomiga, ularning farzandalariga etarli e'tibor qaratishlari yoki qarata olmasliklariga, mazkur oila qaerda yashashiga, ta'lim olish manbalaridan foydalanish imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. YUqorida sanab o'tilgan barcha holatlarda bolalar va ularning ota-onalari qonunchilikda belgilangan huquqlaridan foydalana olishlari uchun ularga malakali yordamchilarning ko'maklari zarur. Aynan ijtimoiy ish potensial e'lon qilingan huquqlarni dolzarb ravishda amalga oshiriluvchi ijtimoiy mexanizm hisoblanadi. Ijtimoiy xodim qiyinchiliklarni namoyon qilishi, oila yoki individga ijtimoiy manbalarga murojaat qilishda yordam berishi mumkin.

Ijtimoiy yordam va qo'llab-quvvatlash zarur bo'lgan guruhlar yoshga oid (bolalar, yoshlar, keksa fuqarolar); jinsiga, yoki o'xshash muammolariga ko'ra (konfessional, yolg'iz ota-onalar, yolg'iz onalar ushmalari, sobiq ichkilikbozlar yoki giyohvandlar guruhlari va boshqalar). Ko'pincha ijtimoiy xodimlar asotsial yoki jinoyatga oid tabiatga (bolalar yoki o'smirlar jinoyatchiligi, daydilik, uyushgan fohishabozlik, asotsial qarashlarga ega bo'lgan guruhlar va h.k.) ega bo'lgan guruhlar bilan ishlashlariga to'g'ri keladi.

Ijtimoiy xodim faoliyatining muhim sohasi yashash joyi va uyushmalarda ish olib borishdan iborat. U ijtimoiy xizmatlar tarmog'ini kengaytirishga, uyushmalar orasidagi aloqalarni mustahkamlash, odamlarning zich yashash joylarida maqbul ijtimoiy-psixologik iqlimni yaratish, Shuningdek, turli ko'rinisdagi mahalliy tashabbuslarni, o'zaro yordam ko'rsatish guruhlarini kengaytirishga yo'naltirilgan. Mazkur sohada O'zbekistonning o'ziga xos ijtimoiy tashkiloti – mahallaning kuchi va ulkan imkoniyatlaridan foydalanish mumkin.

Ijtimoiy ish o'z shakllariga ko'ra turli-tuman. Ular orasida quyidagilarni



ajratib ko'rsatish mumkin: boshqaruv darajasidagi xodimlar, oilalar bilan ish olib borish, bolani tarbiyalash va rivojlantirish bo'yicha mutaxassislar, individ va guruh bilan ish olib borishning psixoterapevtik va psixologik usullariga ixtisoslashgan ijtimoiy xodimlar, ijtimoiy xizmatlar va agentliklar, boshpanalar, internatlar ijtimoiy xodimlari, tibbiyot muassasalari tizimida faoliyat olib boruvchi ijtimoiy xodimlar, bandlik, migratsiya xizmatlari xodimlari. Bu professional ijtimoiy xodimlar turlarining to'liq ro'yxati emas va bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin.

Shunday qilib, ijtimoiy ish mohiyatini individlar, oilalar, guruhlarga yordam ko'rsatish hamda ularning ijtimoiy huquqlarini va to'laqonli ijtimoiy faoliyat olib borishlariga to'sqinlik qiluvchi jismoniy, ruhiy, intellektual, ijtimoiy va boshqa kamchiliklarning o'rnini to'ldirish bo'yicha faoliyat sifatida ta'riflash mumkin.

4. *Ijtimoiy ish ilm va o'quv fani sifatida.* Ijtimoiy ish jamiyat, inson madaniyati va uning muammolari haqidagi ilmiy bilimlarning umumiy sohasiga mansub. U inson faoliyatining ijtimoiy muhitini qamrab oladi, u haqidagi ob'ektiv bilimlarni ishlab chiqishga imkoniyat yaratadi.

Ijtimoiy ishning nazariya sifatidagi o'ziga xos xususiyati, u shakllanish bosqichida turganligida. Yangi fanning rivojlanishiga jamiyatning shaxs va jamiyat o'rtasida jamiyat rivojlanishining yangi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy bosqichidagi ijtimoiy rivojlanishi va o'zaro munosabatlarini ilmiy-nazariy tadqiqotlarining paydo bo'lishi sabab bo'lgan.

O'z asosiga ko'ra ijtimoiy fan bo'lgan ijtimoiy ish texnik va tabiiy fanlar bilan chambarchas bog'liq. Ijtimoiy ish doirasida olib boriladigan tadqiqotlar ko'pincha tabiiy fanlar (jumladan, tibbiyot) bilan fanlararo bog'liqlik tabiatiga ega, boshqa tomondan esa – falsafa, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika, huquqshunoslik, siyosatshunoslik, iqtisodiyot va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'liq.

Ijtimoiy ishning, ilmiy bilimning har qanday boshqa sohasidagi kabi uning apparatining asosini tashkil etuvchi kalit tushunchalari – toifalari mavjud. Boshqa ijtimoiy fanlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ijtimoiy ish ularning toifaga oid apparatidan foydalanadi, biroq ularni ijtimoiy ish nuqtai nazaridan qo'llaydi,

masalan, “ijtimoiy munosabatlar”, “ijtimoiy faoliyat”, “ijtimoiylashtirish”, “psixosotsial faoliyat”, “ijtimoiy reabilitatsiya”, “oilaviy nizo” va h.k. Shu bilan birga ijtimoiy ish “ijtimoiy xodim”, “ijtimoiy xizmat ko‘rsatish”, “manzilli ijtimoiy yordam” kabi shaxsiy toifalariga ham ega.

Ijtimoiy ish nazariyasining asosiy toifalaridan biri sub’ekti ijtimoiy guruhlar, sotsium, oila, individ bo‘lgan ijtimoiy salomatlik tuShunchasi hisoblanadi. Ijtimoiy salomatlikni ijtimoiy maqom, farovon hayot, qulaylik va xavfsizlik bilan bog‘laydilar. Ijtimoiy maqom psixologik, iqtisodiy, oilaviy, kasbiy va boshqa omillarni qamrab olar ekan, ijtimoiy salomatlik ham ko‘p omilli tizim hisoblanadi, uni tahlil qilish esa fanlararo tabiatga ega. Ijtimoiy salomatlikka alternativ sifatida sotsiopatologiya (qashshoqlik, ochlik, ishsizlik, murosasizlik va boshq.) tuShunchasi namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy ishning eng muhim elementi uning qonuniyatlari hisoblanadi. Bugungi kunda ijtimoiy ishning fan sifatida qurish va bayon qilishning umum qabul qilingan me’yorlari mavjud emas, uning ilmiy apparati ham shakllanish va rasmiylashtirish jarayonida turibdi. Biroq bugungi kundayoq aytish mumkinki, ushbu fan ijtimoiy ishdagi hodisalar va jarayonlarning mohiyatlari o‘rtasidagi ob’ektiv jihatdan bog‘liq bo‘lgan, mustahkam, takrorlanuvchi bog‘liklarni ifodalovchi qonuniyatlarni tadqiq etadi.

Ijtimoiy ish metodologiyasi ijtimoiy ish tuzilmasini, uning mijoz va ijtimoiy xodimning o‘zi ham ishtirok etuvchi ob’ekti va predmetini, Shuningdek, ijtimoiy xodim va mijoz doirasida sodir bo‘luvchi ijtimoiy kontekstni taqozo qiladi<sup>1</sup>.

Ijtimoiy ish metodologiyasining maqsadi ijtimoiy salomatlikni qayta tiklash, maqomning barqarorligi, imkoniyatlar va manbalarning namoyon bo‘lish sharoitlarining o‘zgarishi, mijozning o‘z-o‘zini nazorat qilish darajasini oshirish, muammolarni mustaqil hal etish qobiliyati, shaxsiy qadr-qimmat va o‘z-o‘zini hurmat qilish hissiyotlarini qayta tiklashdan iborat.

Ijtimoiy ish o‘quv fani sifatida ta’lim muassasining ixtisosligiga nisbatan fanlar asosining o‘quv maqsadlarini tizimli ravishda bayon qilinishini aks ettiradi. Ijtimoiy ish sohasida ta’lim olayotganlar ularga muhtojlar va jamiyat o‘rtasidagi

vositachilikni ta'minlash imkonini beruvchi turli nazariy bilimlar va texnologiyalarni o'zlashtiradilar.

AQSHda ijtimoiy ish mutaxassisligi bo'yicha bitiruvchilar uchun minimal talab inson xulqi, ijtimoiy muhit, ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy siyosat, ilmiy-tadqiqot, amaliy usullarning bazaviy ta'limni ta'minlashga, ijtimoiy-iqtisodiy adolatni, ijtimoiy ish qadriyatlarini va uning madaniy xilma xilligini, axloqini ta'minlashga asoslanadi. BSW (bakalavriat) dasturini tugallagan barcha talabalar 400 soat darsni o'qib tugatishlari va amaliyotchi ijtimoiy xodim rahbarligi ostida ijtimoiy ish sohasida joylarda ish tajribasini orttirishlari zarur.

Ijtimoiy ish sohasida MSW (magistr) darajasi uchun dasturning o'quv rejasini bakalavrlar o'quv rejasiga nisbatan ko'proq ixtisoslashtirilgan. O'quv dasturi qay tarzda tashkillashtirilganligiga bog'liq ravishda talabalar to'g'ridan-to'g'ri xizmat ko'rsatish (klinik ijtimoiy ish), boshqaruv, rejalashtirish, tashkilotlarda tadqiqot olib borish yoki amaliy faoliyat (bolalarni ijtimoiy ta'minlash, tibbiy-ijtimoiy ish, ruhiy salomatlik, keksalar bilan ijtimoiy ish olib borish, ta'lim olish) sohasida ixtisoslikka ega bo'lishlari mumkin.

Barcha talabalar gumanitar asosga ega bo'lgan, inson xulqi va ijtimoiy muhitni, xizmatlar siyosatining ijtimoiy ta'minotini, tadqiqot usullari va ularning ixtisosligi bilan bog'liq bo'lgan amaliyotni qamrab oluvchi bazaviy bilimlarning umumiy o'zagini o'zlashtirishlari lozim. Ikki yillik magistratura dasturi darajasi auditoriyada ta'lim olish va amaliyot o'tash o'rtasidagi muvozanatlashtirilgan yondashuvini aks ettiradi<sup>1</sup>.

Ijtimoiy ishda ta'lim bo'yicha Kengash EPAS (2008) ijtimoiy ish amaliyoti uchun ijtimoiy ish bakalavriati va magistraturasining malakali yondashuvga asoslangan dasturlari uchun tasdiqlangan zaruriy bilim, ko'nikma va qadriyatlarni belgilab berdi<sup>2</sup>.

Bundan tashqari, talablar Ijtimoiy xodimlar milliy assotsiatsiyasining ijtimoiy xodimlari uchun axloq Kodeksiga (1996 yilda tasdiqlangan, 1999 yilda qayta ishlangan), Ijtimoiy xodimlar Xalqaro federatsiyasi va Ijtimoiy xodimlar maktablari Xalqaro uyushmasining (2004) ijtimoiy ish prinsiplari etikasiga asoslangan.

BSW (ijtimoiy ish bakalavri) va MSW (ijtimoiy ish magistri) o'quv dasturlari bitiruvchilarni bo'lg'usi professionallar uchun xos bo'lgan to'ldirilgan bilimlar va xulq tajribasi, malakaning asosiy muhitlarini o'zlashtirishning ilg'or tajribasi asosida tayyorlashga yo'naltirilgan.

Ta'limda layoqatlilikka erishish nazariy bilimlar, qadriyatlar va amaliy ko'nikmalarni o'zida mujassamlashtiruvchi o'quv dasturlarini ishlab chiqish natijasi hisoblanadi.

Ijtimoiy ishda professionalizmga erishish uchun zarur bo'lgan asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:

- 1) professionallarni tayyorlash sifatini aniqlash;
- 2) ijtimoiy ish etikasini qo'llash;
- 3) tanqidiy tafakkurning qo'llanilishi;
- 4) amaliyotdagi xilma-xillik;
- 5) inson huquqlarini va ijtimoiy-iqtisodiy adolatni ta'minlash;
- 6) tadqiqot usullaridan foydalanish;
- 7) ijtimoiy va iqtisodiy farovonlikka erishish maqsadida ijtimoiy siyosatni ishlab iqtishda ishtirok etish;
- 8) ijtimoiy ishda samaradorlikni oshirish;
- 9) amaliyot talablariga javoblar;
- 10) o'rganish, baholash, alohida shaxslar, oilalar, guruhlar, tashkilotlar va uyushmalar bilan ijtimoiy terapiya olib borish;

Shunday qilib, ijtimoiy ish mutaxassisligi bitiruvchisi quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- ijtimoiy ish kasbiga mos bo'lishi, uning missiyasini, asosiy qadriyatlarini, kasb tarixini bilishi lozim. Ijtimoiy xodimlar o'z kasbi rolini oshirish majburiyatini, shaxsiy professional o'sishiga, ta'lim olishiga, shaxsiy kareraga oid o'sishga imkon yaratish, professional xulqni namoyon qilish, tashqi ko'rinish va hokazolarni o'z zimmalariga oladilar;

- axloqiy me'yorlarga amal qilishi va axloqiy muammolarni hal qilishda ishtirok etishi, kasbning ahamiyati, uning axloqiy standartlari va tegishli

me'yorlaridan yaxshi xabardor bo'lishlari lozim;

- bilimning turli manbalarini baholash va integratsiya qila olishlari, baholash, oldini olish va aralaShuv modellarini tahlil qilishlari, Shuningdek, alohida shaxslar, oilalar, guruhlar, tashkilotlar, uyushmalar va o'z hamkasblari bilan ish olib borishning yozma va og'zaki ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim;

- turli madaniyatlar va ularning ahamiyatini tuShunishlari, turli individlar va guruhlar bilan ish olib borishda shaxsiy istak va qadriyatlarning ta'sirini bartaraf qilishlari zarur;

- insonning erkinlik, xavfsizlik, shaxsiy hayotning daxlsizligi, munosib turmush darajasini, sog'liqni saqlash va ta'lim kabi asosiy huquqlarini himoya qilishi zarur;

- ijtimoiy ishning samaradorligini oshirish uchun tadqiqot ishi olib borishi lozim<sup>1</sup>.

Mazkur sohadagi ta'lim tizimi nazariy va amaliy tarkibiy qismlarning majmuini ifodalashi lozim. Ta'limning asosiy maqsadi bilim olish, ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis tayyorlashning asosiy talablariga mos bo'lgan amaliy bilim va ko'nikmalarni egallashdan iborat. Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis deb muvofiq mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotli, bazaviy tayyorgarlikdan o'tgan mutaxassis hisoblanadi.

Ijtimoiy ishga o'qitish jarayoni turli mamlakatlarda bir-biridan katta farq qilishi mumkin bo'lgan milliy ta'lim tizimlarining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Ijtimoiy xodimlarni o'qitish ichida bitta ham o'xshash namuna mavjud emas. Biroq, maxsus bilimlarsiz muayyan sotsiumda murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan insonga malakali yordam ko'rsatish murakkab masala ekanligini anglash lozim. Ijtimoiy ish ko'nikmalariga o'qitish nafaqat bo'lg'usi mutaxassislarni ijtimoiy jarayonlarni ilmiy tahlil qilish metodologiyasi bilan qurollantirish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tahlil qilish, balki undan adekvat holat yoki xulq chegarasidan tashqariga chiqib qolgan alohida guruh yoki muayyan shaxsni ajratib olish imkonini beradi.

AQSHda ijtimoiy xodimlarni tayyorlash uchta darajada amalga oshiriladi.

O‘zlarini ijtimoiy xodim, deb atovchi xodimlarning ko‘pchiligi ijtimoiy ish ixtisosligi bo‘yicha to‘rt yillik universitet diplomiga ega bo‘lgan va ijtimoiy ish bo‘yicha bakalavr yoki magistr diplomiga ega mutaxassislardir.

Magistr darajasi ikki yillik amaliy tayyorgarlikdan, ma‘ruza va dala amaliyotidan va keyingi to‘rt yillik universitet ta‘limidan iborat. Bakalavr diplomiga ega bo‘lgan bitiruvchi universal mutaxassisga aylanadi – u keng ko‘lamli ijtimoiy muammolar bilan Shug‘ullanadi. Magistr darajasi individlar yoki guruhlar bilan klinik ish olib borish, mikrorayon hayotini tashkillashtirish, ijtimoiy siyosatni shakllantirish, menejment, supervayzerlik (ijtimoiy ishning samaradorligini nazorat qilish) yoki ta‘lim olish bo‘yicha chuqurlashtirilgan ixtisoslikni talab etadi.

Doktorlik daraja uchun magistr darajasidan so‘ng ikki yillik tayyorgarlik talab etiladi. Misol sifatida ijtimoiy xodimlarni magistraturada ta‘limini amalga oshiruvchi Kolumbiya va Vashington universitetlarini ko‘rsatish mumkin. Oxirgi yillar davomida Social Work Fellowship dasturi bo‘yicha har yili o‘zbekistonlik talabalar magistraturada ta‘lim olmoqdalar. Ta‘lim davomida asosiy e‘tibor amaliy faoliyatga qaratiladi. O‘quv haftasining ikki kuni OTMdagi darslarga to‘g‘ri keladi, uchta to‘liq kun – ijtimoiy agentliklardagi amaliyotga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, turli ixtisosliklar bo‘yicha “ilg‘or” kurslar, Shuningdek mahalliy kollejlarda texnik (yordamchi) xodimlarni tayyorlovchi ikki yillik dasturlar mavjud.

Yaponiyada dasturlarning keng tanlovi mavjud: mahalliy kollejdagi ikki yillik ta‘lim, kollej yoki universitetda to‘rt yillik ta‘lim va aspiranturada ikki yillik ta‘lim mavjud.

Evropada universitet ta‘limi bilan bir qatorda hukumat, diniy, dunyoviy va siyosiy tashkilotlarning vasiyligi ostidagi ijtimoiy ish ta‘lim muassasalari keng tarqalgan. Ijtimoiy ish sohasidagi mutaxassislarga amaliy ta‘lim berishning Evropa modeli tajribada tarixdan shakllangan an‘analar va boy tajribaga ega bo‘lgan Amerika modelidan tubdan farq qiladi.

*5. Ijtimoiy ish ob‘ekti va predmeti.* Ijtimoiy ish mazkur so‘zning keng ma‘nosida – bu jamiki odamlardir. Bu aholining barcha qatlamlari va guruhlarining hayot faoliyati jamiyat rivojlanishi darajasi, ijtimoiy muhitning holati, ijtimoiy

siyosatning mohiyati, uni amalga oshirish imkoniyati bilan belgilab beriluvchi sharoitlarga bog‘liq bo‘ldi.

Nisbatan tor ma’nodagi *ijtimoiy ish ob’ekti* sifatida murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan va atrofdagilar yordamiga muhtoj odamlar namoyon bo‘ladi: pensionerlar, nogironlar, og‘ir kasallar, bolalar. Murakkab hayotiy vaziyat individ, oila, guruh, uyushmaning me’yoriy ijtimoiy faoliyatini bizishi yoki buzilishiga sabab bo‘luvchi vaziyat tushuniladi. Kasbiy faoliyat ijtimoiy maqomga bog‘liq ravishda murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan barcha shaxslarga yordam ko‘rsatishni ta’minlashga qaratilgan. Ijtimoiy ishda ijtimoiy xodim yordami taqdim qilinuvchi shaxslarni mijoz deb atash lozim, degan fikr mustahkamlanib qolgan.

Professional faoliyat ob’ekti sifatida ijtimoiy ish mijozlari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin: ota-onalari farzandlaridan voz kechgan yoki ota-onalik huquqidan mahrum qilingan bolalar; imkoniyati cheklangan, alohida talablari mavjud bo‘lgan shaxslar va ularning oilalari; oilada zo‘ravonlikka oid munosabatga duchor bo‘lgan individlar; turli omillar sababli daromadlari etarli bo‘lmagan individlar va oilalar; muntazam ravishda spirtli ichimliklarga yoki giyohvand moddalarga ruju qo‘yganlar va ularning oilalari; doimiy yordamga muhtoj keksalar; inqirozli yoki nizoli vaziyatlarga tushib qolgan odamlar; oilalar, jumladan, to‘liq bo‘lmagan oilalar; qonun buzganligi sababli jazo muddatini o‘tagan odamlar, ularning oilalari va boshqalar.

Ayollar va bolalar an’anaviy ravishda ijtimoiy ish mijozlarining alohida toifalari sifatida ajratib ko‘rsatiladilar, chunki ularning holati ijtimoiy xavf tahdidini soladi. Bolalar zaif, nomustaqil va tobe, bu esa o‘z navbatida ularning yordamga bo‘lgan ehtiyojini oshiradi. O‘zbekiston ayollari ham Shuningdek, ko‘pincha madaniy an’analar va oiladagi feodal-boylar munosabatlarining saqlanib qolganligi sababli zaif va tobe holatida bo‘ladi.

Aholining mazkur toifalari yordamning maxsus turlariga va turli tashkilotlar xodimlarining ko‘magiga muhtojlar. Muhtojlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha barcha vazifalarni *ijtimoiy ish sub’ekti* bajaradi. Sub’ektga faoliyat olib boradigan tashkilotlari ijtimoiy ish olib boruvchi va uni professional darajada yoki ijtimoiy

asosda boshqaruvchi odamlar kiradi. Ular orasida asosan ijtimoiy ishni tashkillashtirish bilan Shug‘ullanuvchilar (ularni tashkilotchilar yoki boshqaruvchilar, deb atash mumkin) va bevosita ijtimoiy yordam ko‘rsatuvchilar mavjud. Ularni shartli ravishda amaliy ijtimoiy xodimlar, deb atash mumkin.

Ijtimoiy ish sub’ektlariga davlat barcha tuzilmalari bilan birgalikda, O‘zbekistonda nodavlat xayriya tashkilotlari, jumladan, “*Sog‘lom avlod uchun*”, “*Sen yolg‘iz emassan*” Ijtimoiy xayriya jamg‘armalari kiradi.

Va nihoyat, ijtimoiy ishning asosiy sub’ekti, amaliy ijtimoiy ish bilan professional darajada (ijtimoiy terapevt, ijtimoiy gerontolog, ijtimoiy ekolog, ijtimoiy pedagog) yoki ijtimoiy asoslarda Shug‘ullanuvchi (ko‘ngillilar) odamlar hisoblanadi. Ko‘rsatilayotgan ijtimoiy ish asosida ijtimoiy xodimning mijoz va uning uchun ahamiyatli bo‘lgan ijtimoiy muhiti bilan o‘zaro munosabatlari tizimi yotadi.

*Ijtimoiy ish predmeti* mijozning ijtimoiy xodim hal etish uchun o‘z kuchini sarf qiluvchi ijtimoiy vaziyati hisoblanadi. Uning faoliyatining maqsadi – mijozning ijtimoiy vaziyatini yaxshilash, uning holatini engillashtirish. Ijtimoiy vaziyatni o‘rganish bevosita muayyan mijozning ijtimoiy muammosi bilan bog‘liq bo‘lgan va muammoning hal etilishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan o‘zaro munosabatlarni ajratib olish imkonini beruvchi metodologik vosita sifatida xizmat qiladi. Individning dunyo bilan global aloqalarini inkor etmagan holda ijtimoiy vaziyatni anglash – birinchi navbatda uning muammosini hal etishga bevosita ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan omillarni ajratib olish imkonini beradi. Mazkur eng yaqin aloqalarni tahlil qilish individni u yoki bu harakatlarni sodir etishga undovchi psixologik, oilaviy, guruhga oid, tibbiy va boshqa sabablarni aniqlash imkonini beradi, uning shaxsida hayotiy qarashlarini o‘zgartirish uchun barqaror sabablarni yaratishda tayanch nuqtasini topishga yordam beradi<sup>1</sup>.

Ijtimoiy xodimning eng umumiy maqsadlari – o‘z mijozlarining ehtiyojlarini qondirishdan iborat. Bunga mijozlarning mustaqillik darajasi, muammolarning vujudga kelgan sabablarini hal etish, mijoz uchun qonuniy unga tegishli bo‘lgan barcha narsalarni olish imkonini berish yo‘li bilan erishiladi. Bundan tashqari,



mazkur maqsadlar sirasiga, odamlarni jamiyatga moslashtirish yoki qayta moslashtirish, mijozda ijtimoiy xodim yordamiga bo‘lgan ehtiyoj qolmaganda, bu kabi natijaga erishish kabilar kiradi.

Shunday qilib, ijtimoiy ishning maqsadi shaxsning ijtimoiy maqomini oshirish, jamiyatga ijtimoiy moslashtirishni ta’minlash, moddiy mustaqillikka erishishdan iborat. Mazkur maqsadga sub’ektning jamiki faoliyati bo‘ysunadi, unga muvofiq tarzda faoliyat mohiyati shakllanadi, boshqaruv tashkillashtiriladi, faoliyat vositalari, shakllari va usullari tanlab olinadi.

6. *Ijtimoiy ishning xalqaro ta’rifi*. Keng ma’noda aytadigan bo‘lsak, ijtimoiy ish jamiyat xodisasi bo‘lib, ijtimoiy yordamning o‘ziga xos madeli sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yordam jamiyatni ijtimoiy-siyosiy, madaniy va tarixiy kontekstda amalga oshiriladi.

Tor ma’noda ijtimoiy ish ijtimoiy zarur faoliyat turi bo‘lib, u odamlarga, ijtimoiy guruhlariga shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni engishda yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan. “Ijtimoiy ish” – butun dunyoda qabul qilingan, o‘zaro insoniy munosabatlarni, insonning jamiyatga moslashtirishidagi muvaffaqiyatsizligini engillashtirishga yo‘naltirilgan faoliyatini ifodalovchi ta’rifdir.

*Ijtimoiy ishning eng umumiy ta’rifi* – bu individ, guruh yoki jamiyat hayotidagi ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish bo‘yicha professional faoliyat, demakdir. Ijtimoiy xodimlarning Xalqaro federatsiyasining 2002 yil iyul oyida bo‘lib o‘tgan har yillik uchrashtirishida quyidagi ta’rif qabul qilingan:

Ijtimoiy xodim kasbi ijtimoiy o‘zgarishlarga asosan muammolarni turli hal etish, Shuningdek, odamlarning farovonligini oshirish va ularning erkinligini ta’minlash masalalarini hal etishga qaratilgan. Inson xulqi nazariyasini va ijtimoiy tizimlarni qo‘llagan holda, ijtimoiy ish odamlar jamiyat bilan o‘zaro munosabatga kirishgan erda vujudga keladi. Inson huquqlari va ijtimoiy adolat prinsiplari ijtimoiy ishning asosiy ustunlari hisoblanadi.

Ijtimoiy ish kasbining Ijtimoiy xodimlar xalqaro federatsiyasida (IFSW) qabul qilingan global ta’rifiga ko‘ra, ijtimoiy ish, ijtimoiy fanlar, gumanitar fanlar va tub xalqlar bilimlari asosidagi ijtimoiy ish odamlar va tuzilmalarni ularning

hayotiy muammolarini hal etish va farovonligini oshirish maqsadida o'ziga jalb qiladi<sup>1</sup>.

*Ijtimoiy ishni institutsionallashtirish.* Ijtimoiy ishni institutsionallashtirish ostida keng ma'noda jamiyatda yangi ijtimoiy institutni shakllantirish jarayonini tushunish lozim. Ijtimoiy ishni institutsionallashtirish jamiyatni isloh qilish, insonparvarlik an'analarini saqlash, ma'naviyatni tiklashga asoslangan. Ijtimoiy ishni institutsionallashtirish – demokratik rivojlanish, uni qayta qurish, ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtirish, jamiki aholining ijtimoiy salomatligini qayta tiklashning majburiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ijtimoiy ish institutini keng ma'noda faoliyatning ikkita asosiy yo'nalishini taqozo qiluvchi ijtimoiy madaniy jihatdan o'rganish lozim. Birinchi yo'nalish ijtimoiy ta'minot, jamiyatning muhtoj a'zolariga moliyaviy va moddiy yordam ko'rsatishga asoslangan. Ikkinchi yo'nalish – yordamga muhtoj odamlarga yoki salomatlik bilan bog'liq muammolarni hal etishda yordam ko'rsatishdan iborat. Har qanday holatda ham ijtimoiy samaradorlik qo'yilgan maqsadlarni amalga oshirish, ijtimoiy xodimning jamiyatdagi institutsional maqomiga bog'liq. U ayniqsa davlat, ijtimoiy va aralash bo'lishi mumkin. Davlat maqomi jamiyat a'zolarining sonini aniqlash, davlat tomonidan ajratiladigan manbalarni markazlashtirilgan holda nazorat qilish imkoniyatini anglatadi.

Muhtojlarga yordam ko'rsatuvchi ijtimoiy tashkilotlar taqdim qilinayotgan xizmatlar sifati nuqtai nazaridan ahamiyatli hisoblanadi. Bu holatda nafaqat moliyaviy va moddiy yordam amalga oshiriladi, balki muhtojlarni ijtimoiylashtirish, moslashtirish yo'llarini izlash, ijtimoiy ishtirokni tashkillashtirish ham amalga oshiriladi. Mujmal davlat tuzilmalari ustun rolga ega bo'lgan variantdan farqli ravishda, bu erda mahalliy uyushmalarning qator marginal guruhlar ustidan to'g'ridan-to'g'ri nazorati amalga oshiriladi. Biroq ijtimoiy yordam ustidan nazorat qilishning bu kabi shakllari ham salbiy jihatlarga ega. Tegishli nazoratsiz, maxsus rag'batlarsiz ijtimoiy tashkilotlar faoliyati ham doimiy ko'rinishga ega bo'lmaydi.

Mutaxassislarning fikriga ko'ra, zamonaviy sharoitda ijtimoiy ishni tashkillashtirining aralash turlari ko'proq e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Bunda

asosiy harakatlantiruvchi va tashkillashtiruvchi kuch hukmron tuzilmalar yoki ularning faol ishtirokidan iborat bo'ladi<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasining qonunchilik va boshqa me'yoriy hujjatlarida aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimini amalga oshirish prinsiplari shakllantirilgan. Ular orasida ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida inson va fuqaro huquqlarini himoya qilish va ularni davlat kafolati bilan ta'minlash alohida o'rin tutadi. Keyingi o'rinda fuqarolarning ijtimoiy xizmatlardan foydalanishlari, xizmat ko'rsatishning engilligi va manzilliligi, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdagi teng imkoniyatlar turadi. So'ngra onalik va bolalikni himoya qilish prinsiplari, Shuningdek, aholiga ijtimoiy xizmat va yordam ko'rsatish bo'yicha ijtimoiy faoliyatni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash kabi ahamiyatli yo'nalishlar belgilab berilgan.

### **Nazorat savollari**

1. XIX asrda Evropada ijtimoiy ishning shakllanishi uchun nima imkoniyat yaratgan?
2. «Keysvork» nima?
3. Settlementlar kim?
4. Ijtimoiy ishning faoliyatning professional turi sifatida shakllanishi qayerda va qachon sodir bo'lgan?
5. Ijtimoiy ish bo'yicha dastlabki ta'lim muassasalari qachon va qayerda ochilgan?
6. Ijtimoiy ishda layoqatlilikka erishish uchun qanday bilimlar zarur?
7. Ijtimoiy ish qaysi darajalarda amalga oshiriladi?
8. Nima sababdan ijtimoiy ish faoliyatning alohida turi hisoblanadi?
9. Ijtimoiy ish ob'ekti va sub'ektiga ta'rif bering.
10. Ijtimoiy ish predmetini ta'riflang.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ganieva M.X. Ijtimoiy ishga kirish. – Toshkent: O'zMU, 2011.
2. Ganieva M.X., N.M.Latipova. Ijtimoiy ish tarixi va nazariyasi. – Toshkent: O'zMU, 2015. – 264 b.

3. O‘zbekistonda bolalarni ijtimoiy himoyalash tizimiga oid terminologik lug‘at – Ma’lumotnoma. – Toshkent: Spectrum Media Group, 2015. – 152 b.
4. Ambrosino R., Ambrosino R., Heffernan J., Shuttlesworth G. Social Work and Social Welfare: An Introduction. Sixth Edition. – Thomson Brooks/Cole, 2008. – 643 p.
5. Charles Zastrow. Introduction to Social work and social welfare. Empowering People. George Williams College of Aurora University. Printed in Canada: Brooks/Cole, Cengage Learning, 2010.
6. Ganieva M.X. Ijtimoiy ish asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: CHASHMA PRINT, 2009. – 112 b.
7. Ijtimoiy ish nazariyasi. – M.: YUrist, 1998.
8. Ijtimoiy ish nazariyasi va metodikasi: darslik / I.V.Tumaykin va boshq. – Rostov n/D: Feniks, 2018. -205 b.

### **3-MAVZU. IJTIMOIIY ISHNING NAZARIY ASOSLARI**

1. *Nazariya: ijtimoiy ish amaliyoti ta’rifi, mohiyati va afzalliklari*
2. *Ijtimoiy ish nazariyasining asosiy turlari*
3. *Ijtimoiy ishda ekologik yondaShuvni tizimli tahlil qilish*
4. *Ijtimoiy ishda xulqqa oid nazariya*
5. *Kuchli tomonlar nazariyasi va manbalar ta’minoti*
6. *Inqirozli intervensiya va muammoga yo‘naltirilgan nazariya*

**Kalit so‘zlar:** nazariya, ijtimoiy ishda nazariya, usul, ijtimoiy ishda usullar, individual ish, guruhga oid ish, jamoaviy ish, ijtimoiy yo‘naltirilgan model, psixologik yo‘naltirilgan model, kompleks yo‘naltirilgan model, tizimlar nazariyasi, tizimli tahlil, ekotizim, makrotizim, mikrotizim, bixeviorizm, xulqqa oid yondaShuv, kuchli tomonlar va ustunlik nazariyasi, inqirozli intervensiya.

1. *Nazariya: ijtimoiy ish amaliyoti ta’rifi, mohiyati va afzalliklari.* Ijtimoiy ish deganda biz nimani tuShunamiz? Odatda lug‘atlarda nazariyaga quyidagicha ta’rif beriladi, bu –

- nimanidir izohlovchi g‘oyalar tizimi;
- fanni tashkil etuvchi umumlashtirilgan qoidalar majmui, qonuniyatlar majmui;
- amaliy tajribani mujassamlashtiruvchi prinsiplar, g‘oyalar va tabiat, jamiyat, tafakkur qonuniyatlarini aks ettiruvchi tizim;
- kimdadir paydo bo‘lgan fikr, mulohaza, nimagadir qarashlar.

Nazariyalar dunyo, hodisa, odamlarning “ishchi ta’riflari”ni ta’minlaydi. Nazariyalar biz ko‘rgan narsalarni ta’riflaydi. Nazariyalar bizga quyidagilarda yordam beradi:

- 1) ta’riflashda;
- 2) izohlashda;
- 3) avvaldan aytib berishda;
- 4) nazorat qilishda.

Ijtimoiy ish nazariyalari uning turli maktablarining evolyusiyasini, ijtimoiy ishning mohiyati va shakllaridagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. Har bir model nazariy qoidalarni qamrab oladi, inson va jamiyat haqidagi yondosh fanlar bilan bog‘liq, ijtimoiy ishning belgilab berilgan mohiyatini qamrab oladi.

Ijtimoiy ishning turli maktablar olimlarining ilmiy izlanishlarining natijalarini, ijtimoiy ishning rivojlanishini, ijtimoiy ish mohiyati va shakllaridagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. Har bir model nazariy qoidalarni qamrab oladi, inson va jamiyat haqidagi yondosh fanlar bilan bog‘liq, Shuningdek, ijtimoiy ishning muayn mohiyatini taqozo qiladi.

Nazariya nima uchun muhim? Nazariya amaliyotga quyidagi jihatlarda ta’sir ko‘rsatadi:

- kuzatish: nazariya nimani ko‘rish va nimani izlashni belgilab beradi;
- ta’rif: nazariya tuShunchaga oid apparat va kuzatish tashkillashtirilishi lozim bo‘lgan doiralarni ta’minlaydi;
- izoh: nazariya kuzatuvning turli ma’lumotlari qay tarzda o‘zaro bog‘lanishi mumkinligini ko‘rsatadi, bir hodisaning ikkinchi hodisa o‘rtasidagi ehtimoliy aloqalarini taklif qiladi;
- avvaldan aytib berish: nazariya kelgusida nima sodir bo‘lishini ko‘rsatib

beradi;

– aralaShuv: nazariya vaziyat o‘zgarishining ehtimoliy usullarini ko‘rsatib

beradi;

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, turli nazariyalar turli kuzatuvlarga va izohlarga olib keladi.

Ijtimoiy ish amaliyoti nazariyasi:

– amaliyot uchun zarur izohlar bilan ta’minlaydi va gid sifatida xizmat qiladi

– dunyo, odamlar, jamoa va guruhga oid dinamikani tuShuntirishga intilmaydilar, balki insonni ijtimoiy kontekstda tuShunishga harakat qiladilar va mazkur kontekstda undagi o‘zgarishlarga imkoniyat yaratadi.

Nazariyaning turli ko‘rinishlari va ijtimoiy ishning ko‘plab modellari mavjud, ular o‘z navbatida turli maktablar olimlarining ilmiy izlanishlari natijalari, ijtimoiy ishning rivojlanishi, ijtimoiy ish mohiyati va shakllaridagi o‘zgarishlarni aks ettiradi. Har bir model nazariy qoidalarni, inson va jamiyat haqidagi turdosh fanlar, hayotning ijtimoiy madaniy asoslari bilan o‘zaro aloqani qamrab oladi, Shuningdek, ijtimoiy ishning muayyan mohiyatini taqozo qiladi<sup>1</sup>.

1920-yillardan 1960-yillarga qadar ijtimoiy ishning ko‘plab dasturlari inson xulqini baholash va uni o‘zgartirish maqsadida tibbiy modeldan foydalanganlar. Mazkur model Zigmund Freyd tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ijtimoiy ish mijozlarini “bemorlar” sifatida o‘rgangan. Mazkur yondaShuvga ko‘ra xizmat ko‘rsatuvchining birinchi vazifasi kelgusida davolash uslubini ta’minlash maqsadida bemor muammolarining sabablarini diagnostika qilishdan iborat bo‘lgan.

Emotsional yoki xulqiy muammolari bo‘lgan odamlarga shizofrenik, psixopatik, o‘zgaruvchan shaxs va hokazolar kabi tibbiy yorliqlar tirkab qo‘yilgan. Tibbiy yondaShuv tarafdorlari insonning aqliy qobiliyatlarining buzilishi uning ichki holatining ayrim noma’lum xususiyatlariga bog‘liq, deb hisoblaydilar. Ushbu noma’lum holat, tibbiy yondaShuv tarafdorlarning fikriga ko‘ra, quyidagi omillarning natijasi bo‘lishi mumkin: genetik moyillik, moddalar almashinuvining

buzilishi, yuqumli kasalliklar, shaxs ichidagi nizolar, kimyoviy nomuvozanatlik, himoya mexanizmlarining ongsiz ravishda qo'llanilishi yoki hissiy qayd qilishga sabab bo'lgan va psixologik aspektlarni sekinlashtiruvchi kichik yoshdagi travmatik kechinmalar.

Tibbiy model hissiy va xulqqa oid muammolari mavjud bo'lgan odamlarni davolash uchun insonparvarlik yonda Shuvini ta'minladi. Freydga qadar hissiy buzilishlarni shaytonga ergashish bilan bog'laganlar, ko'pincha ularni "aqldan ozgan" deb hisoblab, ko'pincha kaltaklash yoki cheklangan erkinlik yordamida davolaganlar.

Ijtimoiy ishning tibbiy modelining foydaliligi XX asrning 60-yillarida Shubha ostiga tushdi. Olimlar mijozning yashash sharoitiga, ichki muammolariga e'tibor qarata boshladilar. Tadqiqotlar, Shuningdek, psixotahlil usuli muammolarni davolashda unchalik samarali emasligini namoyon qildi. Shunday qilib, ijtimoiy ishni nazariy anglashda xorijda tizimni mijozlar foydasiga o'zgartirishga yo'naltirilgan islohotlarga alohida urg'u berilgan<sup>1</sup>.

*Ijtimoiy ish usullari.* Usullar – bu qo'yilgan maqsadga erishish usullari, jarayonlari majmui va eng qisqa yo'lidir. Ijtimoiy ish – bu qandaydir maqsadga erishish, aniq vazifani hal etish usullaridir (ilmiy-tadqiqot yoki amaliy).

Agar ijtimoiy ish usullari klassifikatsiyasi asosi sifatida ta'sir ko'rsatilishi rejalashtirilgan odamlar olinsa, u holda ijtimoiy ishning individual va guruhga oid usullarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Individual ijtimoiy ish – xodimlar tomonidan individlarga ular bilan shaxsiy o'zaro munosabat yo'li bilan ularning psixologik, shaxslararo, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda yordam ko'rsatish uchun qo'llaniladigan yo'nalish, qadriyatlar tizimi, amaliyot turi demak.

Guruhga oid ijtimoiy ish – ijtimoiy ishning qiziqishlari va umumiy muammolari yaqin bo'lgan shaxslarning kichik guruhlarini muntazam to'planuvchi va umumiy maqsadlarga erishish maqsadida faoliyat olib borishini ifodalovchi shakllari va usullari. Psixoterapevtik guruhlardan farqli ravishda guruhga oid ijtimoiy ishning maqsadlari hissiy muammolarni hal etishdan iborat bo'lishi shart

emas.

Jamoaga oid ijtimoiy ish an'anaviy usullarni muvofiqlashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi va fuqarolarning manfaatlari, ehtiyojlari, umidlarini qondirishning ijtimoiy-siyosiy vositasi hisoblanadi. Jamoada ish olib borishda mijoz shaxsiy va ijtimoiy muammolarning chambarchas bog'liqligi va o'zaro aloqadorligini anglashga erishish vazifasi qo'yilgan. U nizoli vaziyatlarni hal etishga yo'naltirilgan o'zaro hamjihatlikda amalga oshiriladigan harakatlarda faol ishtirok etishi lozim.

Ijtimoiy ishda professional faoliyatning mazkur turiga oid bo'lgan usullar qo'llaniladi. Ularga, avvalambor quyidagilar kiritiladi: ijtimoiy diagnostika qilish usuli; keskin vaziyatlarda aralashish usuli; jamoada ishlash usuli; ko'chalarda ishlash usuli.

2. *Ijtimoiy ish nazariyasi turlari.* Ijtimoiy ishga bag'ishlangan adabiyotlarda<sup>1</sup> uning modellarini ijtimoiy yo'naltirilgan, psixologik yo'naltirilgan va kompleks yo'naltirilgan turlarga ajratilishi klassik holatga aylandi.

Bu kabi klassifikatsiyaning asosi ijtimoiy ishga eng kuchli ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatuvchi yondosh fanlarga nisbatan ijtimoiy ish sohasidagi nazariy yondaShuvlarni tahlil qilish hisoblanadi.

*Ijtimoiy yo'naltirilgan modellar* eng ko'p ijtimoiy konsepsiyalar bilan chambarchas bog'liq, ijtimoiy rivojlanish, jamiyatni tizimlashtirish, uning ijtimoiy institutlarining o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini anglashga tayanadi.

Zamonaviy ijtimoiy yo'naltirilgan modellar orasida quyidagilar eng ko'p mashhurlikka erishgan:

- ✓ Ekologik nazariyasi ("hayot modeli")
- ✓ Ijtimoiy-radikal model
- ✓ Tizimli model

*Ijtimoiy ishning psixologik yo'naltirilgan modeli* psixologik bilimlarga, psixologik maqom qonuniyatlari va inson rivojlanishini qayd qilishga tayanadi.

- ✓ *Psixodinamik model*
- ✓ *Kognitiv-bixevioral model*



Ijtimoiy ishning kompleks yo‘naltirilgan modeli himoya qilish muammosini bir butun ko‘ra bilish va insonning biopsixologik mavjudot sifatidagi hayotiy kuchlarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltiriladi. Mazkur modelga misol sifatida *rolga oid modelni* keltirishimiz mumkin. Ushbu model psixologik va sotsiologik bilim integratsiya asosiga qurilgan (YA.Moreno, Dj. G. Mid).

Ushbu yondaShuv avvalambor, shaxsni anglashga asoslanadi, mijozni avvlagi tajribasidan kelib chiqqan holda o‘zini qanday tutish va rivojlanishga o‘rgatadi, hayotidagi shaxsiy roli haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi.

G‘arbiy olimlardan birining fikriga ko‘ra, (Barber, 1991, Payne, 1991), nazariyalarning 4 turini ajratib ko‘rsatish mumkin<sup>1</sup>:

1) ijtimoiy ish to‘g‘risidagi jamiyatdagi ijtimoiy ish rolini va tabiatini izohlovchi nazariya;

2) ijtimoiy ishning faoliyatning qanday turlari tashkil etishini ta’riflovchi nazariyalari, professional ijtimoiy ish uchun maqsadlar, nima sababdan faoliyatning u yoki bu turlari to‘g‘ri va ijtimoiy ishning maqsadlariga javob berishini ta’riflovchi nazariyalar;

3) ijtimoiy ishga o‘z hissasini qo‘shgan, inson yoki guruh xulqini izohlovchi yoki ta’riflovchi psixologik, sotsiologik va boshqa nazariyalar ijtimoiy ish nazariyalarini muammolarning ijtimoiy tabiatini e’tiborga oluvchi tizimli qilish maqsadida qo‘llaniladi;

4) ijtimoiy ishning boshqa nazariyalar ijtimoiy xodim va mijozning o‘zaro munosabatlari jarayonida boshqa nazariyalar qay tarzda qo‘llanilishi mumkinligini ko‘rsatib beruvchi nazariyalari.

*3. Ijtimoiy ishda ekologik yondaShuvni tizimli tahlili.* Ijtimoiy ishda 60-yillardan boshlab asosan inson xulqini baholashda tizimli yondaShuv qo‘llanila boshladi. Ijtimoiy xodimlar alohida shaxslar, guruhlar, tashkilotlar va jamoalar bilan ish olib borish jarayonida tizimli yondaShuvlarni o‘rganadilar. Tizimlar nazariyasi va mijoz muammolari mijozning hayotiy vaziyatlarining barcha tomonlarini baholash nuqtai nazaridan o‘rganiluvchi tizimli tahlil asosiy qoida hisoblanadi. Tizimlar umumiy nazariyasining asosiy g‘oyalari *bir butunlik, munosabatlar va*

*gomeostaz* hisoblanadi.

*Bir butunlik tuShunchasi* ob'ektlarning (elementlar majmui) tizim ichida muayyan prinsiplar bilan tashkillashtirilish xususiyatini anglatadi<sup>1</sup>.

*Munosabatlar* – bu odamlarning yoki ularning uyushmalarining o'zaro munosabatlari yoki ular harakatlarining o'ziga xos yo'naltirilganligi.

“*Gomeostaz*” *tuShunchasi* o'z-o'zini tartibga solish, ochiq tizimning o'z ichki holatining doimiyligini dinamik barqarorlikni tutib turishga yo'naltirilgan muvofiqlashtirilgan reaksiyalar vositasida saqlash qobiliyatini anglatadi. Tizimning o'z-o'zini qayta tiklashga intilishi, yo'qotilgan muvozanatni qayta tiklash, tashqi muhit qarshiligini engib o'tish masalalari tuShuniladi.

*Tizimlar nazariyasida* ta'kidlanishicha, tizim to'g'ri anglanishi yoki uni alohida tarkibiy qismlar yoki bo'laklarga bo'linishi bilan to'liq tuShunarli bo'lishi mumkin (masalan, markaziy asab tizimi agar faqatgina qismlarni kuzatish jarayonida sodir bo'lmasligi mumkin bo'lgan tafakkur jarayonlarini bajarish imkoniyatiga ega).

*Tizim nazariyasi* soddalashtirilgan sababiy-oqibat izohlariga qarshi turadi. Masalan, bola xulqi quyidagilarning oqibati bo'la oladimi: ota-onalarning o'z g'azablarini nazorat qilish ko'nikmasi, bola va ota-ona o'rtasidagi munosabatlar, ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar, psixologik zo'riqish darajasi, Shuningdek, ota-onalarning o'z g'azablarini ifodalashning ijtimoiy maqbul usullari uchun imkoniyatlar.

Ijtimoiy tizimlar nazariyasi qoidalariga asoslangan holda ijtimoiy xodim, mijozning ijtimoiy muhiti omillarini namoyon qiladi, ijtimoiy o'zaro munosabatlarning mavjudligini hamda mijozning turli omillarga ta'sir ko'rsatishini qayd qiladi. Mijoz uchun nomaqbul holatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy muhit bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlarning “oldini olgan” holda mijozning belgilangan maqsadga erishishiga yordam beradi<sup>2</sup>.

*Gomeostaz konsepsiyasi* tirik tizimlarning ko'pchiligi tizimni qo'llab-quvvatlash va saqlab qolish uchun muvozanatni izlaydi. Oilalar odatda xulqiy muvozanat yoki barqarorlikni yaratadi va ularning barqarorligi darajasini

belgilab beruvchi qandaydir o'zgarishlarga qarshi turadi.

Va nihoyat nomuvozanatlik holatining vujudga kelishi oilaning gomeostatik qayta tiklanishiga ta'sir ko'rsatadi. Agar oilada bitta bola bilan yomon munosabatda bo'lsalar, u holda bu kabi munosabat mazkur oilaning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi (agar bu bola oiladan ajratilsa, u holda ikkinchi bola ham Shuningdek yomon munosabatga duch kelishi mumkin). YOki oila a'zolaridan biri maslahatlar natijasida xulqi yaxshilansa, u holda bu yaxshilik odatda oiladagi muvozanatni buzadi. Natijada, oilaning boshqa a'zolari ham oila a'zosining tuzatilgan xulqiga moslashish uchun o'zlari ham o'zgarishlari lozim<sup>1</sup>.

*Ekologik modelning o'ziga xos xususiyatlari.* Ijtimoiy ishdagi mazkur nazariya odamlar va ularning atrof muhiti o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini va moslashish munosabatlarini alohida ta'kidlab o'tadi.

U insonning ijtimoiy muhitini institutlar, ijtimoiy qarashlar va oilaviy dinamika odamlarning imkoniyatlarini va farovonligiga imkoniyat yaratiladi yoki ushbu imkoniyat darajasi pasayib ketishini ko'rsatib berishi mumkin bo'lgan konsentrik doiralar to'plami sifatida o'rganadi. Odamlar uy *mikrotizimida*, maktab, tuman va klublar va uyushmalar kabi boshqa mahalliy uyushmalar *mezotizimida* rivojlanadi va inson hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi nisbatan ko'zdan yiroq bo'lgan, biroq qudratli institutlar va o'rnashib qolgan an'analar *makrotizimi* orqali ifodalanadi.

Bola uchun bu kabi institutlar sifatida ota-onasining ish joyi (va ularning maoshi va mehnat sharoitlari), yoshlar klublari yoki kundalik narsalar, masalan, ijtimoiy transportning mahalliy tizimi namoyon bo'lishi mumkin. YOsh, balog'atga etgan inson uchun bu ishga joylashtirish yoki professional ta'limga tegishli ma'lumotlarni etkazib berish kabi bo'lishi mumkin. Imkoniyati cheklangan har bir inson uchun bu mahalliy ish beruvchilarning yo'riqnomalari yoki ishga joylashtirishdagi yordami yoki professional tayyorlash sharoitlari bo'lishi mumkin.

Va nihoyat, *makrotizim (ekotizim)* mavjud – jamiyat madaniy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va diniy kontekstni qamrab oluvchi keng ko'lamli maydon mavjud. U kundalik hayotda har doim ham sezilmaydigan, biroq odamlarning

hayotiga ulkan ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy qarashlar va qadriyatlarni qamrab oladi. Masalan, bizning jins, keksalar, jinoyat, jazo to'g'risidagi ustuvor obrazlarimiz va fikrlarimiz makrotizimdan kelib chiqadi.

Ekologik yondaShuv ijtimoiy xodimlarga inson, oila yoki mahalliy uyushma muammolari va ehtiyojlarini anglashda ko'ra bilish mumkin bo'lmagan qator omillarni yoritishga imkoniyat yaratadi. Ushbu omillar bola parvarish qilish va ishga joylashtirish imkoniyatlari kabi daromad va aniq manbalarni, Shuningdek, sog'liqni saqlash, ta'lim va turar joylarni eng yaxshi tarzda muvofiqlashtirilgan xizmatlarni ham qamrab oladi. Bu Shuningdek, faqatgina mahalliy istiqomat qiluvchilar va tuman tashkilotlari imkoniyatlari yaxshilangan ijtimoiy tuzilma yordamida erishish mumkin bo'lgan o'zgarishlarni ko'rsatib beradi.

“Hayot modeli” toifasi ijtimoiy ishda *ekologik tizim nazariyasining* bazaviy tuShunchasi hisoblanadi. Hayot modeli odamlarni o'z munosabatlarida turmush sharoitlarning ko'p turliligiga doimiy ravishda moslaShuvchi hayot faoliyati sub'ekti sifatida o'rganadi, hayotiy tizimlar (odamlar, ularning uyushmalari) jamiyat bilan yaxshi munosabatni qo'llab-quvvatlashga intilishlari lozim. Mazkur jihatdan ijtimoiy ishning asosiy maqsadi odamlarning moslashish qobiliyatlarini kuchaytirish, Shuningdek, ularning atrofida qiluvchilarga ta'sir ko'rsatishdan iborat. Tizimli ekologik yondaShuvlar keng ko'lamda ijtimoiy ta'minot va aholini qo'llab-quvvatlash tizimi faoliyatini tashkillashtirishda namoyon bo'ladi.

*Ijtimoiy ish tajribasida ekotizimli model.* Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mazkur modellar ijtimoiy xodimlarga odamlarning jamiyat bilan aloqalarini anglash va baholash usullarini taklif qiluvchi metanazariyalarga tegishli. Mazkur nazariyalar yuqorida ko'rib chiqilganidek, muammolarni aniq ta'riflash va uni hal etishni taklif etadi. Ijtimoiy xodimlar oila, jamoa, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar mijozning vaziyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkinligiga e'tibor qaratishlari mumkin. Mazkur nazariyalarning prinsiplari: barcha tizimlar muvozanatlashtirilgan bo'lishi lozim, ular chegaralarga ega, subtizimlardan iborat, bir butun barcha qismlarning oddiy yig'indisidan ko'proq, barcha tizimlar teskari aloqani yaratadilar.

Modellarning taxminlari: odamlarning barchasi ko'p tizimlarning bir qismi

sifatida harakatlanadi – ular tizimlar ta'siri ostida bo'ladi va ularga ta'sir ko'rsatadi, bitta tizimning o'zgarishi boshqasining o'zgarishiga olib keladi, ijtimoiy xodimning roli – tizimlar va inson o'rtasidagi aloqani mustahkamlashdan iborat.

*Ish bosqichlari:*

1. Tizimli tahlil – ko'plik tizimlarni tan olish, ko'plik darajalarni tan olish, har bir tizim boshqasi bilan o'zaro munosabatga kirishadi;

2. AralaShuv – ijtimoiy xodim mijozning vaziyatiga ta'sir ko'rsatuvchi turli tizimlarni o'zgartirish maqsadidagi imkoniyatlar va cheklovlar haqida startegik jihatdan fikrlashi, tizimlarning har biriga aralaShuv imkoniyatlari darajasini anglashi lozim<sup>1</sup>.

Ekologik model yashab qolish modelini yaxshilashga intiladi, chunki yaxshilashga individ, uning atrof muhiti ehtiyojlarini qondirish vositasida erishish mumkin. Ekologik modelda muhim urg'u odamlar ko'plab tizimlar bilan o'zaro munosabatlarga kiriShuvchi "muhitdagi inson" formulasiga beriladi. Mazkur konsepsiya yordamida ijtimoiy ish uchta alohida sohalarga e'tibora qaratishi lozim. Birinchidan, insonga e'tibor qaratish, uning muammolarini hal etishga intilish, qiyinchiliklarni engib o'tish va rivojlanish imkoniyatlariga qaratiladi. Ikkinchidan, o'zaro munosabatga kiriShuvchi inson va tizim o'rtasidagi munosabatlarga, insonning zarur manbalar bilan aloqasi, xizmatlar va imkoniyatlarga urg'u berilgan. Uchinchidan, tizimni inson ehtiyojlarini qondirish uchun samarali ravishda isloh qilishga intilish.

Ekologik model bir hayotiy bosqichdan boshqasiga o'tish davrida o'tish muammolari va ehtiyojlariga ega bo'lgan odamlarga, oilaga, kichik guruhlariga yo'naltirilgan<sup>2</sup>.

4. *Ijtimoiy ishda xulqqa oid nazariya (Bixeviorizm)*. Bu nazariya va amaliy psixologiyaning S-R (rag'bat-oqibat) sxemasiga asoslangan yo'nalishi hisoblanadi. U amerika psixologiyasida Dj.B.Uotson, E.L.Torndayklar tomonidan shakllantirilgan. Mazkur yo'nalish vakillari – E.K.Tolmen, E.R.Gutri, K.L.Xall, Skinner, N.E.Miller, Dj.Dollar hisoblanadi.

Bixeviorizm asoschisi hisoblangan, tajriba tadqiqotlarini amalga oshirgan va

mazkur yoʻnalishni “inson xulqi haqidagi fan” sifatida belgilab bergan amerikalik psixolog Djon Uotson (1878-1958) hisoblanadi. Kalamushlarda tajriba oʻtkazar ekan, Uotson, olingan maʼlumotlar insonlarni oʻrganishda yordam beradi, deb hisoblagan. 1913 yilda u psixologiyada bixeviorizm toʻgʻrisida maqolasini chop etgan. Mazkur yoʻnalishning rivojlanishiga insonning asab tizimini va tugʻma shartli reflekslarning muayyan taʼsir yoki xulqqa taʼsirini tadqiq qilgan rus fiziologi I.Pavlovning gʻoyalari katta taʼsir koʻrsatgan.

I.Pavlov itning reaksiyasini oʻrganar ekan, soʻlak ajralishi (R) nafaqat ovqatlanishdan, balki misol uchun ovqatning (S) navbatdagi vaqti kelganini anglatuvchi qoʻngʻiroqning jarangidan ham ajralishini aniqlagan. U buni shartli refleks deb nomladi, ayni vaqtda ovqatlanish bilan bogʻliq reaksiya shartsiz refleks, deb nomlandi. Shunday qilib, shartsiz reflekslar biologik jarayonlar bilan bogʻliq, ayni vaqtda shartli reflekslarga oʻrganish mumkin (Pavlov, 1928)<sup>1</sup>.

*Xulqqa oid yondaShuv* tajribaning qurilishi, jarayon, natijalarning ilmiy aniqligi va nazorat qilinishiga alohida eʼtibor qaratishi bilan ajralib turadi. Metodik vositalar sifatida shaxsga taʼsir koʻrsatish va muayyan xulq oʻrtasidagi aloqalarning shakllanish jarayoni hisoblanadi.

*Xulqqa oid nazariyada* odatlar, koʻnikmalar, xulqiy namunalarning shakllanish, mustahkamlanish, yoʻqolib borish sharoitlari oʻrganiladi. SHaxs intilish va harakat oʻrtasidagi oraliq oʻzgaruvchilarga tenglashtiriladi. Tugʻma omillarni inkor qilmagan holda, bixeviorizm vakillari avvalambor kuzatilayotgan xulq va muhitning uni belgilab beruvchi omillarini oʻrganadilar.

*B.Skinnerning operant oʻrganish nazariyasi.* B.Skinner (1904-1990) bixeviorizm gʻoyalarini ishlab chiqish sohasidagi etakchi olim hisoblanadi. U xulq natijalariga qiziqqan. U barcha jismoniy shaxslar faol ravishda oʻz atrofidagilarga taʼsir koʻrsatishga urinadilar (atrofdagilar uchun ishlaydi), deb taxmin qilgan.

Tirik organizmlar uchun ayniqsa faollik xos: har qanday vaqtda organizm oʻz ehtiyojlarini qondirish yoki xavfli vaziyatlardan qochishga intilgan holda jamiyat bilan oʻzaro munosabatlarga kirishishi lozim. Shu sababli organizm tushib qolgan va u yoki bu harakatlarni tanlagan holda unga moslashishga majbur boʻlgan

vaziyatlar xulqning ko‘plab yangi shakllarining shakllanishiga imkoniyat yaratadi.

*Bixevioristlar* xulqning bu kabi shakllarini *operant* (lotin tilidan operatic – harakat), deb nomlaydilar, chunki bu holatda barcha narsalar atrof muhit ustidan amalga oshiriladigan harakatlardan boshlanadi; u organizm mazkur harakatlarni takrorlashi yoki aksincha undan qochishi bog‘liq bo‘lgan qandaydir oqibatlariga sabab bo‘ladi. Shunday qilib, xulqning bu kabi shakllarini ishlab chiqish oqibatlari organizm uchun istalgan va ulardan voz kechish nomaqbul oqibatlariga olib kelgan harakatlarning mustahkamlanib qolishi natijasida amalga oshiriladi.

*Operant o‘rgatishga* uning uchta turini kiritish mumkin: urinish va xatolar usuli yordamida o‘rgatish, aks ta’sirni shakllantirish va kuzatish yo‘li bilan.

*Tajriba va xatolar usuli yordamida o‘rgatish. Tajriba va xatolar yordamida o‘rgatishda* individ qandaydir to‘siqqa duch kelganida uni engib o‘tishga va Shu bilan birgalikda sekin-astalik bilan samarasiz harakatlardan voz kechgan holda oxir-oqibat vazifa echimini topadi.

*Reaksiyalarni shakllantirish.* Skinner nuqtai nazaridan, xulq har doim ham tasodifiy tarzda vujudga kelmaydi – ko‘pincha u asoslovchi omil natijasida shakllanadi. Bu kabi omil sifatida u yoki bu xulqiy harakatdan so‘ng paydo bo‘luvchi yoki yo‘q bo‘luvchi xulqiy jarayon va ushbu harakatni qo‘llab-quvvatlash maqsadida takrorlanish ehtimolini oshiruvchi har qanday rag‘batlantiruvchi kuch bo‘lishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida o‘ta murakkab xulqiy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishini izohlash imkonini beradi, o‘z navbatida har bir bosqich mustahkamlanib boradi.

Mazkur fikrlardan kelib chiqqan holda, Skinner operant bog‘liqlikning asosini tashkil etuvchi *xulqni ketma-ket yaqinlashishlar usuli yordamida shakllantirish* uslubini ishlab chiqdi. Mazkur usulning mohiyati Shundan iboratki, tadqiqotchi jonivor (hayvon)da shakllantirishga intilgan dastlabki xulqdan (o‘rgatishni boshlashdan avval) yakuniy harakatgacha bo‘lgan butun jarayon bir nechta bosqichlarga bo‘linadi. Keyinchalik esa ushbu bosqichlarning har birini izchillik bilan, tizimli ravishda mustahkamlash va Shu tarzda jonivorni xulqning kerakli shakliga o‘rgatishga erishish mumkin. O‘rgatishning bu kabi usulida

jonivorni yakuniy maqsadga yaqinlashtiruvchi har bir harakati uchun muntazam ravishda mukofotlab boriladi va unda sekin-astalik bilan belgilangan xulq shakllantiriladi.

Skinner nuqta nazaridan bolani birinchi soʻzlarni tezlik bilan oʻrgatishni izohlash mumkin (biroq buni umuman til oʻrganish konsepsiyasiga tadbiiq qilmagan holda). Dastavval, bola qandaydir aniiq tovushlarni talaffuz qilishni boshlaganida “me-me-me”ga oʻxshash tovushlar chiiqarishining oʻziyoq atrofdagilarni zavqlantiradi va ayniqsa hammadan ham baxtiyor onaga farzandi uni chaqirayotgandek tuyuladi. Biroq tez fursatda ota-onalarning bu kabi tovushlarga nisbatan boʻlgan hayratlari goʻdak barchaning xursandligiga sabab boʻluvchi “MO...MO” tovushlarini chiiqarmagunga qadar soʻnib qoladi. Soʻngra ushbu tovushlar ham nisbatan aniiq “MO...MO” paydo boʻlmagunga qadar yangi tugʻilgan goʻdak tilida mustahkamlanib qolmaydi. Oʻz navbatida ushbu soʻz ham aynan yuqoridagi sabablarga koʻra “moma” birikmasi bilan almashinadi va nihoyat bola oʻzining birinchi “mama” soʻzini aniiq talaffuz qiladi. Boshqa barcha soʻzlar esa atrofdagilar tomonidan “bolaning gu-gulashi” sifatida qabul qilinadi va ular sekin-astalik bilan yangi tugʻilgan goʻdakning leksikonidan yoʻqolib ketadi.

Shunday qilib, aynan oila aʼzolarining tanlov asosidagi ragʻbatlantirishari sababli *ijtimoiy qoʻllab-quvvatlanmagan* notoʻgʻri harakatlaridan voz kechadi, oqibatda, faqatgina kutilayotgan natijaga eng yaqin boʻlgan harakatlarini saqlab qoladi<sup>1</sup>.

*Ijtimoiy oʻrgatish nazariyasi.* Bu nazariya XX asr ikkinchi yarmiga mansub shaxs kognitiv nazariyasi boʻlib, amerikalik psixolog *Rotter* tomonidan ishlab chiiqilgan. Unga koʻra shaxsning ijtimoiy *xulqini* “xulqiy imkoniyat”, “kutilgan natija”, “mustahkamlash (qoʻllab-quvvatlash)”, “qoʻllab-quvvatlashning ahamiyati”, “psixologik vaziyat”, “*nazorat lokusi*” kabi tuShunchalar yordamida oʻrganish va taʼriflash mumkin. “Xulqiy imkoniyat” iborasi ostida qoʻllab-quvvatlash mavjud boʻlgan *vaziyatlarda* uchrashi mumkin boʻlgan xulq ehtimoli tuShuniladi: har bir inson *hayoti* davomida shakllangan harakatlar va xulqiy harakatlarning muayyan imkoniyatlariga va toʻplamiga ega boʻlishi nazarda



tutiladi. “Kutilgan natija” muayyan qo‘llab-quvvatlash o‘xshash vaziyatlarda xulqda kuzatilishi mumkinligining sub’ektiv ehtimoliga tegishli. O‘tmishdagi tajriba asosida birinchi o‘ringa olib chiqilgan barqaror kutish shaxsning barqarorligi va bir butunligini izohlaydi. Ijtimoiy o‘rgatish nazariyalarida bir vaziyat uchun xos bo‘lgan kutilgan natijalar (o‘ziga xos kutilgan natijalar) va nisbatan umumiy yoki qator vaziyatlarga qo‘llash mumkin bo‘lgan, turli vaziyatlar tajribasini aks ettiruvchi kutilgan natijalar (birinchi o‘rindagi) o‘zaro bir-biridan farqlanadi. “Psixologik vaziyat” shaxs uni qanday qabul qilsa, Shunday ko‘rinishda bo‘ladi. Vaziyatga oid kontekst roli va uning inson xulqi hamda vaziyat psixologiyasiga bo‘lgan ta’siri, ayniqsa, muhim hisoblanadi.

Rotgerning fikriga ko‘ra, odamlar doimo rag‘batlarni maksimallashtirish va jazoni minimallashtirish yoki undan qochishga intiladilar. Maqsad inson xulqining o‘zining asosiy *ehtiyotlarini* qondirishdagi, xulqning turli ko‘rinishlari to‘plamini, o‘z navbatida, qo‘llab-quvvatlashlarning turli to‘plamlarini belgilab beruvchi izlanishlari yo‘nalishini belgilab beradi.

*6. Kuchli tomonlar nazariyasi va ularni manbalar bilan ta’minlanishi.* Oxirgi o‘n yilliklarning katta qismi davomida ijtimoiy ishda va boshqa kasblarda birinchi navbatda mijozlarning patologiyalariga, kamchiliklariga va ulardagi buzilishlarga ahamiyat qaratilgan. Buning asosiy sabablaridan biri Freydning inson xulqini tahlil qiluvchi nazariyasiga haddan ziyod e’tibor qaratilganligidir.

Tibbiy modelga asoslangan Freyd psixologiyasi kasallik yoki patologiyani aniqlashga yo‘naltirilgan. Bugungi kunda ijtimoiy ishda avval aytib o‘tilganidek, inson xulqini baholashda tizimli model qo‘llaniladi. Mazkur model *shaxsning kuchli tomonlarini* aniqlash va rivojlantirishga e’tibor qaratadi<sup>1</sup>.

*Kuchli tomonlar nazariyasi va manbalar bilan ta’minlanganlik* beshta asosiy prinsiplarga asoslanadi:

1. Har bir inson, guruh, oila va jamoa kuchli tomonlarga ega. Mustahkamlikning istiqboli mazkur manbalardan foydalanishdan iborat. Mijozlar barcha narsalardan ko‘proq sizning ular muvaffaqiyatsizlikni eng olishlari to‘g‘risidagi fikrlaringizni bilishni xohlaydilar.

2. Jarohatlanish va suiste'mol qilish, kasallik va kurash zarar etkazishi mumkin, biroq ular Shuningdek, rivojlanish imkoniyatlari manbai bo'lib ham xizmat qilishlari mumkin. Mijozlar ularga o'z muammolarini hal etish, to'siqlarni engib o'tishga yordam beruvchi shaxsiy xislatlarini rivojlantiruvchi va ko'nikmalarni egallovchi faol va rivojlanayotgan odamlar sifatida o'rganiladi.

3. Xodimlar mijozlarning umidlari, ishonchlari va qadriyatlarini yuqori darajada tutib turishlari lozim. Individlari, oilalar va jamoalar qayta tiklanish qobiliyatiga ega. Mijozlar o'zlariga ishonishlari kerak, ijtimoiy xodimlar esa faoliyatning mijozlar umidlari va orzularini amalga oshirishlari imkoniyatlariga asoslashlari lozim.

4. Eng maqbul usul mijozlar bilan o'zaro hamkorlikda ishlashdir. Ijtimoiy xodim ekspert yoki professional sifatida emas, mijozning hammuallifi yoki maslahatchisi sifatida o'rganilganda eng samarali faoliyat olib borgan hisoblanadi. O'zaro hamkorlikdagi qarash ishni nisbatan barqaror qiladi.

5. Har qanday muhit manbalarga boy. Har qanday muhitda ham individlari, guruhlar uyushmalar va muassasalar ularga juda muhtoj bo'lgan manbalarga ega bo'ladilar. *Kuchli tomonlar istiqboli* mazkur manbalarni aniqlashga va ularni jamiyatdagi alohida shaxslar, oilalar va guruhlar uchun ochib berishga intiladi. *Kuchli tomonlar istiqboli* guruhlar, oilalar, tashkilotlar va jamoalarning alohida shaxslari muammolar va qiyinchiliklarga ega ekanligini tan oladi. Kuchli tomonlar nazariyasining asosiy afzalliklaridan biri, u manbalar va aktivlarga muhtoj odamlar, guruhlar, jamoalarning muammolarini hal etish maqsadida e'tibor qaratadilar.

*Shunday qilib, kuchli tomonlar amaliyoti va imkoniyatlarga ega bo'lish quyidagilarga sabab bo'ladi:*

- ajralmas kuchli tomonlarga asoslanishdan ko'ra ko'proq ularni baholaydi;
- insonlarning shaxsga oid kuchli tomonlarini uning o'zgarishi va o'z manbalarini faollashtirishi uchun yo'naltiradi;
- mijozning atrofida mavjud bo'lgan ijobiy bloklarni rivojlanish va o'zgarish asoslari sifatida tadqiq qiladi;
- mijozga o'zi tushib qolgan vaziyatda unga yordam berishi yoki bermasligi to'g'risida fikr yuritishi mumkin bo'lgan ekspert rolini taqdim qilgan holda mijoz

va ijtimoiy xodim o'rtasidagi to'siqni kamaytirish imkonini beradi;

– ijtimoiy xodimga hamkor yoki gid rolini taqdim qilgan holda mijoz va ijtimoiy xodim o'rtasidagi to'siqni kamaytirish imkonini beradi;

– mijozlarning o'zlari qo'llaydigan va ular uchun o'zgarish imkoniyati mavjud emasligini alohida ta'kidlovchi stigmatsiyalangan til yoki terminologiyani qo'llashdan qochadi.

Manbalar bilan ta'minlanganlik (vakillik) ijtimoiy xodimga emas, mijozga yo'naltiriladi, ijtimoiy to'siq sifatidagi stratifikatsiya va tengsizlikka e'tibor qaratadi, muammolarning paydo bo'lishi insonning shaxsiy kamchiliklari bilan bog'liq ekanligini inkor qiladi. Bu insonning shaxs ichidagi, shaxslararo va siyosiy kuchini oshirish jarayonidir.

Manbalar bilan ta'minlanganlik – bu individuумlar yoki guruhlar hukmronlik, moliyaviy-moddiy manbalarga erishish va shaxsiy hayotlarini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'luvchi jarayondir. Mazkur jarayonda odamlar eng oliy shaxsiy va jamoaviy intilishlar va g'oyalarga erishish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Hukmronlikka erishish uchun ulkan imkoniyatga o'z-o'ziga yordam berish tadbirlari kiradi. Mazkur nuqtai nazar professionallar bilan faoliyat olib borishni emas, balki Shu kabi muammolari bo'lgan yoki mavjud boshqalarning tajribasini o'zlashtirishni nazarda tutadi. Masalan, yolg'iz onalar yoki otalarning o'z-o'ziga yordam berish guruhlari, o'tmishda giyohvandlikka ruju qo'yganlar, alohida ehtiyojlari mavjud bo'lganlar guruhlari.

Shunday qilib, imkoniyatlarga ega bo'lish – bu “xizmatlar iste'molchisi – professional” munosabatlarini tahlil qilishni talab etuvchi tushunchadir. Ushbu o'zaro munosabatlarni xizmatlardan foydalanuvchilar /fuqarolar va sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot bilan Shug'ullanuvchi siyosiy institutlar va tashkilotlarni qamrab olgan ijtimoiy institutlar o'rtasidagi munosabatlarda muvozanat o'rnatgan holda tenglikka (xizmatlardan foydalanuvchiga ham, professionalga ham huquq bergan holda) asoslangan holda qayta qurish lozim. Umuman olganda, hukmronlik taqdim qilish asosiy shaxsga oid munosabatlardagi kabi, odamlar va ijtimoiy hamda siyosiy tuzilmalar o'rtasidagi munosabatlarda ham

o'zgarishlar mavjud bo'lishini taqozo qiladi.

7. *Inqirozli intervensiya va muammoga yo'naltirilgan nazariya.* Inqirozli nazariya psixodinamik psixologiya va quyidagi taxminlarga asoslanadi:

- insonning mavjud muammolarni hal eta olish qobiliyati uning o'tmishdagi muammolarni hal qilgani va kelajakdagi qiyinchiliklarni qanday engib o'tishini aks ettiradi;
- har bir shaxs hayotida qiyinchiliklarga yoki xavfli hayotiy voqealarga duch keladi;
- inqirozli vaziyat inson murakkab hayotiy vaziyatlarda o'zining engib o'tish qobiliyatini yo'qotib qo'ygan holatlarda vujudga keladi;
- barcha inqirozlar 6-8 hafta davomida hal etiladi;
- inqiroz davrida aralaShuv boshqa vaqtga oid davrlardagiga ko'ra muvaffaqiyatliroq bo'lishi mumkin, chunki inson yordam uchun ochiq bo'ladi;
- hal etishning yangi usullari kelajakda qiyinchiliklarni engib o'tish qobiliyatining yaxshilanishiga olib kelishi mumkin.

*Ijtimoiy ish amaliyotida intervensiyani qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari.*

Ijtimoiy xodimning roli: qo'llab-quvvatlash, tinglash, manbalar bilan ta'minlash.

*YAxshi tomonlari:*

- yordam vaqtga oid tarzda cheklangan va Shu sababli kuchlanishlar va manbalar nuqtai nazaridan samarali;
- inqirozli intervensiya ichki inqirozni tashqi o'zgarishlar bilan bog'laydi;
- odamlar engib o'tishning yangi moslaShuv usullarini rivojlantirish qobiliyatiga ega bo'lsalar, ular ijtimoiy darajada yaxshiroq faoliyat olib boradilar;
- inqiroz-intervensiya qisqa muddatli inqirozli vaziyatlarda (falokat, tabiiy ofatlar va h.k.) mos va foydali.

*CHeklovlar:*

- inqiroz-intervensiya ijtimoiy xodimlar yuqori darajada buyruq berishga moyil bo'lishlari mumkin (bu qator axloqiy ikkilanishlarga olib keladi);
- inqirozning surunkali holati va inqirozli vaziyatlar o'rtasidagi

differentiatsiyada murakkabliklar vujudga keladi;

– manbalardagi qisqa muddatlilik va cheklanganlikni inobatga oladigan bo‘lsak, mazkur model har doim ham ijobiy o‘zgarishlarga olib kelmaydi.

### **Nazorat savollari**

1. Ijtimoiy ish nazariyasi mohiyati nimadan iborat?
2. Amaliy faoliyatda nazariyadan foydalanishning qanday afzalliklari mavjud?
3. Nima sababdan ijtimoiy ish nazariyasining uchta asosiy turlari ajratib ko‘rsatiladi: psixologik yo‘naltirilgan, ijtimoiy yo‘natirilgan va kompleks yo‘naltirilgan?
4. Quyidagilarni amalga oshirish maqsadida muammolarni va ularning ehtimoliy echimini ijtimoiy ishning ekotizimli modeli nuqtai nazaridan tahlil qilish:
  - alohida ehtiyojlari mavjud farzandi bo‘lgan oilalar;
  - farzandlarini yolg‘iz tarbiyalayotgan ona;
  - inqirozli vaziyatga tushib qolgan oilalar farzandlari;
  - ko‘cha bolalari.
5. Ijtimoiy ishda kuchli tomonlar nazariyasi va manbalarga egalik nazariyasining mijoz, oila, atrof muhit (oila, qarashlar va qadriyatlar, ko‘nikma va qobiliyatlar, jihatlar, ta‘lim, qonunchilik, mablag‘lar, ijtimoiy omillar) hayotining turli sohalarini e‘tiborga olgan holda qo‘llash.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ganieva M.X., Latipova N.M. Ijtimoiy ish tarixi va nazariyasi. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: O‘zMU. 2015. – 264 b.
2. Ganieva M.X. Ijtimoiy ishga kirish. – Toshkent: O‘zMU, 2010.
3. Ganieva M.X., Karamyan M.X., Latipova N.M. Ijtimoiy ish asoslari. O‘quv-metodik ko‘llanma. Toshkent: JAHON PRINT, 2012. – 82 b.
4. Gunn Strand, Hutchinson SivOltedal. Five Theories in Social Work. *Oslo: Universitets for laget Universitete ti Nordland*, 2014. – R. 119. [www.uin.no](http://www.uin.no)
5. Charles Zastrow. Introduction to Social work and social welfare.

Empowering People. George Williams College of Aurora University. Printed in Canada: Brooks/Cole, Cengage Learning, 2010. – R.48.

6. Romm M.V., Romm T.A. Ijtimoiy ish nazariyasi. — Novosibirsk, 1999.

7. Ijtimoiy ish: O‘quv qo‘llanma/ V. I. Kurbatov tahriri ostida – Rostov n/D: Feniks, 2003.

8. Ijtimoiy ish nazariyasi va metodikasi: darslik / I.V.Tumaykin va boshq. – Rostov n/D: Feniks, 2018. – 87 b.

9. “O‘zbekistonda ijtimoiy ish bo‘yicha qayta tayyorlash dasturini rivojlantirish” loyihasi doirasida ishlab chiqilgan “Ijtimoiy ish asoslari” kursi materiallari (Ganieva M.X., Karamyan M.X.) OO‘MTV-ToshGIK-RSSAD-YUNISEF. Toshkent, 2010 y.

#### **4-MAVZU. IJTIMOYIY ISHNING ODOB VA AXLOQ MUAMMOLARI**

1. *Etika: tushuncha, manbalar*

2. *Qadriyatlar: tushuncha, qadriyatga oid tizimlar, “qadriyat” tuShunchasi turlari*

3. *Ijtimoiy ishda axloq kodekslari*

4. *Ijtimoiy ish amaliyotida axloqiy ikkilanishlar*

5. *Yorliqlar nazariyasi*

6. *Stereotiplar, xurofotlar, tahqirlashlar*

**Kalit so‘zlar:** etika, ma’naviyat, ijtimoiy ishda axloq, qadriyatlar, ijtimoiy ishda qadriyatlar, shaxsiy qadriyatlar, ijtimoiy qadriyatlar, ijtimoiy adolat, insonparvarlik, ijtimoiy ish prinsiplari, inson huquqlari, axloqiy ikkilanishlar, axloqiy echimlarni qabul qilish, yorliqlar, stereotiplar, tahqirlash.

1. *Etika: tuShuncha, manbalar.* Etika – (grek tilidan odat, urf-odatlar) – o‘rganish ob’ekti ma’naviyat bo‘lgan ilmiy nazariy fanlardan biri. “Etika (axloq)” atamasi odatda ikkita ma’noda qo‘llaniladi: etika ma’naviy falsafa sifatida va etika ma’naviy me’yorlar va standartlar sifatida.

Aхлоqing vazifalari odamlarning individual xulqini tartibga solish va baholash, uni mazkur jamiyatda qabul qilingan me’yorlar va prinsiplarga mos

holatga olib kelishdan iborat. Ahloqiy me'yorlar nafaqat munosib axloqiy me'yorlarni qamrab oladi, ular Shuningdek, shaxsning me'yoriy jihatdan maqbul hisoblangan xulq uchun zarur bo'lgan ma'naviy jihatlarini qayd qiladi, chunki ma'naviyat nuqtai nazaridan nafaqat harakatlar va muomalasi, balki faoliyatning sabablari, maqsad, vositalar, istaklar o'rganilishi va baholanishi mumkin.

*Ahloq* – ijtimoiy tafakkur va inson xulqini tartibga soluvchilarining ilk shakllaridan biri hisoblanadi. Ma'naviyatning kelib chiqishiga nisbatan ikkita nuqtai nazar mavjud:

1) ahloqning kelib chiqishi o'zaro hamkorlikdagi mehnat faoliyatining dastlabki shakllari bilan bog'liq, chunki o'zaro hamkorlikdagi faoliyat mazkur faoliyat sotsiumning barqarorligini muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish va saqlab qolish kabi ma'naviy holatlar zaruriyatini keltirib chiqaradi.

2) Ahloq individning fe'l atvorini boshqarish shakli bo'lib, u mehnat taqsimotidan oldin ibtidoiy jamiyat davrida mavjud bo'lgan. „Ezgulik“, „yaxshilik“, „yomonlik“ tushunchalarining o'zi mazkur davrda inson uchun hayvon hissiyotlaridan deyarli hech nimasi bilan farq qilmagan: issiq, qorni to'q, xavfsiz – yaxshilik, ezgulik; xavf, ochlik, sovuq – yomonlik. Ibtidoiy odam o'z ma'naviyati sababli emas, balki yashash uchun kurashish zarurati tufayli kollektivist bo'lgan. Shunday qilib, yordam va o'zaro yordam ma'naviyati ildizlari inson tabiati va inson jamiyatiga tutashib ketgan.

Etika (ahloqiy burchning) hosila qiymati hisoblanadi. Professional etika tushunchasi esa, amaliyotning ma'naviy prinsiplariga tegishli. Ijtimoiy ish qadriyatlari ijtimoiy xodimlarning odamlar va jamiyat haqidagi fikrlari uchun asosni shakllantiradi, etika esa muayyan vaziyatlarda nima qilinishi lozim ekanligining doirasini belgilab beradi. Har ikki tushuncha – qadriyatlar, axloqiy ikkilanishlar va nizolar ijtimoiy ish amaliyotida odatiy hodisa hisoblanadi<sup>1</sup>.

Ijtimoiy xodimlar ularning mijozlari kabi ko'pincha bir birlarining manfaatlariga nisbatan nizoga kirishuvchi referent guruhlar hisoblanadi. Masalan, mijoz kasallikka chalingan holatda professional tibbiy aralashuvdan foydalanishni ta'qiqlovchi va malomat qiluvchi diniy guruhga mansub bo'lishi mumkin. Ijtimoiy

xodim bu kabi holatlarda tibbiy aralaShuv zaruriyat ekanligini ta'kidlashi mumkin. Bu kabi holatlarda xodimning ijtimoiy ma'naviy majburiyati nimadan iborat? Mazkur nizoli vaziyatda u mijoz manfaatlariga qay tarzda eng maqbul usulda rioya qilishi mumkin? Bu kabi holatlarda mijozlarning tanlash huquqi mavjudmi? Bu kabi holatlarda javob berish o'ta murakkab ekanligi ko'rinib turibdi.

Ijtimoiy xodimlar barcha darajalarda ham inson xulqi haqida qo'shimcha bilimlar olishi mumkin bo'lgan insonparvarlik xislatlariga ega bo'lishlari zarur.

Talabalar tomonidan o'zlashtiriladigan kurslar: ona tili va adabiyoti; chet tili; huquq, tarix va iqtisodiyot; sotsiologiya va psixologiya; matematika va fan; madaniyat va san'at – bularning bari talabalarni o'tmish bilan tanishtiradi, ijtimoiy voqelik va inson faoliyati to'g'risidagi dunyoqarashlarini kengaytiradi. Mazkur kurslar, Shuningdek, tanqidiy fikr yuritish qobiliyatini mustahkamlashga imkoniyat yaratadi va muammolarni hal etish ko'nikmalarini shakllantiradi, Shuningdek, biz yashayotgan dunyoni bir butun sifatida anglashga yordam beradi<sup>1</sup>.

*Ijtimoiy ishda etika (axloq) manbalari.* Prinsip – bu xulqning boshqa standartlar yoki mulohazalar bog'liq bo'lgan fundamental standarti. Prinsip – ma'naviy izohlar uchun asosni shakllantiruvchi fikrlar, mulohazalar tizimidagi muhim ahamiyatga ega bo'lgan me'yor.

*AQSHning ijtimoiy ish bo'yicha Kengashi* ijtimoiy xodimlar uchun zarur bo'lgan asosiy bilim va ko'nikmalar orasida ular amaliy faoliyati davomida amal qilishi lozim bo'lgan qadriyatlarni ham belgilab berdi.

Ijtimoiy xodimlar axloqiy me'yorlarga amal qilishi va axloqiy muammolarni hal qilishda ishtirok etishi lozim:

- Ijtimoiy xodimlar kasbning asosiy mohiyati, uning axloqiy standartlari va tegishli yo'riqnomalaridan yaxshi xabardor bo'lishlari;
- Ijtimoiy xodimlar shaxsiy qadriyatlarini kasbiy qadriyatlardan foydalanish imkoniyatini taqdim qilgan holda anglashlari va boshqarishlari;
- Axloqiy echimlarni Ijtimoiy xodimlar milliy uyushmasi, Ijtimoiy xodimlar Xalqaro Federatsiyasi axloq Kodeksi va Ijtimoiy ish maktablari xalqaro assotsiatsiyasi standartlardan foydalangan holda qabul qilishlari;



- Ijtimoiy ishning bayon qilingan axloqiy prinsiplariga amal qilish;
- Axloqiy nizolarni hal etishda ikki fikrlilikka yo‘l qo‘ymaslik;
- Ularni hal etishda axloqiy ikkilanishlarning echimini topish strategiyasini qo‘llash<sup>1</sup>.

Ijtimoiy xodimning kasbiy burchi – barcha odamlarga teng ravishda tegishli bo‘lgan ma’naviyat talablarini muayyan mutaxassisning shaxsiy holatlarga nisbatan qo‘llaniluvchi, biroq ijtimoiy ish sohasidagi professional faoliyatning umumme’yoriy talablariga asoslanuvchi shaxsiy vazifasiga aylantirish.

2. *Qadriyatlar: tuShuncha, qadriyatga oid tizimlar; “qadriyat” tuShunchasi turlari.* *Qadriyatlar tuShunchasi* ob’ektlar, ularning xususiyatlari, Shuningdek, o‘zida ijtimoiy ideallarni mujassamlashtirgan va Shu sababli munosiblik namunasi sifatida namoyon bo‘luvchi mavhum g‘oyalarni belgilash uchun qo‘llaniladi.

*Qadriyatning uchta shakli:*

✓ Qadriyat ijtimoiy ideal, munosiblik haqidagi ijtimoiy tafakkur tomonidan ishlab chiqilgan tasavvur (haqiqat, go‘zallik, adolatlilik va patriarxat, tenglik, demokratiya) sifatida namoyon bo‘ladi.

✓ Qadriyat ob’ektlashtirilgan shaklda moddiy va ma’naviy madaniyat asari ko‘rinishida yoki ijtimoiy qadriyatga oid ideallarning muayyan predmetga oid timsoli bo‘lgan inson harakatlari sifatida namoyon bo‘ladi.

✓ Ijtimoiy qadriyatlar individual hayot faoliyati prizmasida singan holda shaxsning psixologik tuzilmasiga inson xulqini asoslovchi shaxsiy qadriyatlar shaklida kirib boradi.

✓ Ijtimoiy ish etikasining qadriyatga oid me’yoriy asosi ijtimoiy xodimning me’yoriy xulqining bazaviy tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi ma’naviy qadriyatlar tizimini qamrab oladi.

*Qadriyatlar turlari.*

*SHaxsiy qadriyatlar* – ijtimoiy ish bilan Shug‘ullanuvchi ko‘plab odamlar ijtimoiy muhofazaga muhtojlar uchun nimadir qilish muhim, degan fikrdan rag‘batlanadilar. Kimlardir diniy e’tiqodi yoki siyosiy qarashlari sababli ushbu harakatlarni amalga oshiradi. Qanday qadriyatlar va ular qaerdan kelib

chiqqanligini anglash muhim o‘rin tutadi.

*Ijtimoiy qadriyatlar* – garchi barcha odamlar o‘ziga xos bo‘lsa-da, biz bilgan qadriyatlar va e‘tiqodlar o‘ylaganimizdek, o‘ta shaxsiy emas. Ular jamiyatda – yoshga oid guruhda jinsiy tegishlilik ta’siri ostida, millatga, ijtimoiy maqomga va hokazolarga qoida tarzida shakllanadi. Ko‘plab hodisalarga nisbatan odamlarning munosabati vaqtga oid tarzda o‘zgaradi. Masalan, shahvoniy xulq, bolalarga bo‘lgan munosabat, o‘z fikrini ifoda qilish erkinligi, bolalarni nazorat qilish, inson hayoti qadri. Ijtimoiy qadriyatlar ijtimoiylashtirish jarayoni bilan bog‘liq.

Ijtimoiy ishning kasbiy qadriyatlari ijtimoiy xodimni muayyan majburiyatlarni bajarish va ularga amal qilishga, o‘z faoliyati uchun kasbiy ma’suliyatni his qilishga yo‘naltiradi. Ijtimoiy ishdagi asos hosil qiluvchi qadriyatlar quyidagi qoidalarda aks ettirilgan:

- 1) Shaxs jamiyatning asosiy tashvishi hisoblanadi.
- 2) Shaxs va jamiyat o‘zaro bog‘liq.
- 3) Shaxs bir-biri oldida ijtimoiy majburiyatlarga ega.
- 4) Odamlar boshqa birovning huquqini buzmagunlariga qadar o‘z erkinliklariga haqlidir.
- 5) Demokratik jamiyatning katta ahamiyatga ega bo‘lgan xususiyati har bir shaxsning o‘z imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etish orqali mas’uliyatni qabul qilishi hisoblanadi.
- 6) Jamiyat individning o‘zini faol namoyon qilishi yo‘lidagi har bir to‘siq engib o‘tilishi va bartaraf qilinishi uchun ma’sul<sup>1</sup>.

Ijtimoiy xodim har bir insonning qadrli ekanligi va uning o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish, munosib turmush tarzi va farovonlik, bir odamning huquqlari boshqa odamlar yoki guruhlarining huquq va manfaatlarini amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilmasligi sharti bilan hayotiy qarashlarini erkin tanlash huquqini tan oladi.

Ijtimoiy adolatlilik va insonparvarlik manbalarning adolatli va teng taqsimlanishini, davlat va ijtimoiy xizmatlar va tashkilotlarning imkoniyatlaridan foydalanishning ta’minlanishini taqozo qiladi.

Layoqatlilik (professionalizm) doimiy ravishda kasbiy malakani oshirib borishga, yangi bilimlarni o'zlashtirishga, amaliy faoliyat, malaka va ko'nikmalarini rivojlantirishga, ijtimoiy qadriyatlarni chuqur anglash va ijtimoiy muhit jarayonlarini ilmiy tadqiq qilish usullarini o'zlashtirishga undaydi.

Shunday qilib, ijtimoiy xodimning professional qadriyatlari majmui insonparvarlik prinsiplariga asoslanadi va tarkibiy qismlari ijtimoiy ish jarayonining yo'nalishlari, mohiyati va mazmuniga tegishli bo'lgan tuzilmaga ega. Ijtimoiy xodim kasbiy faoliyatining barcha jihatlarining o'ziga xos xususiyatlari insonparvarlik va ijtimoiy ishning asosini tashkil etuvchi har bir inson shaxsiga hurmat qadriyatlariga bo'ysunadi. Kasbga oid qadriyatlar umuman kasb mohiyati asosi sifatida har bir ijtimoiy xodim faoliyatining asosi sifatidagi axloqiy me'yorlarning tartibli manbalari hisoblanadi.

3. *Ijtimoiy adolatlilik va insonparvarlik.* Ijtimoiy xizmat xodimi o'z xulqining oliy ma'naviy standartlarini ushlab turishi lozim, o'z navbatida, u qandaydir nayranglardan foydalanmasligi, kimnidir adashtirishi, vijdonsizlarcha harakat qilmasligi, u tomonidan xususiy shaxs yoki kasb vakili sifatidagi harakatlarni aniq farqlagan holda harakat qilishlari lozim.

Ijtimoiy xodim o'zining kasbiy amaliyotida va o'z kasbiy majburiyatlarini bajarishda ekspert-mutaxassis bo'lib etishish va qolish uchun barcha kuchlaridan foydalanishi lozim. U faqatgina o'z bilimi doirasida amalga oshirish huquqiga ega. Ijtimoiy xizmat xodimi o'zi individual ravishda amalga oshirayotgan, belgilagan yoki ijro qilayotgan ishi sifati uchun shaxsan javobgarlikni o'z zimmasiga olishi lozim.

Ijtimoiy xodim shaxsga yoki odamlar guruhiga nisbatan insonparvarlikka oid bo'lmagan yoki kamsituvchi harakatlarning oldini olishga harakat qilgan holda faoliyat olib borishi lozim.

Axloqiy savodxonlik ijtimoiy xodimlarning professional amaliyotining eng muhim qismi hisoblanadi. 2001 yil may oyida Kopengagenda Ijtimoiy xodimlar xalqaro federatsiyasi (IXXF) va Ijtimoiy ish bo'yicha maktablar xalqaro uyushmasi tomonidan alohida qabul qilingan Axloqiy kodeksning maqsadi butun dunyodagi

ijtimoiy xodimlarni ular tomonidan qabul qilinayotgan muayyan qarorlarga nisbatan to‘g‘ri fikr yuritishga undaydi<sup>1</sup>.

Shunday qilib, Ijtimoiy xodimlar xalqaro federatsiyasi (IXXF) va Ijtimoiy ish bo‘yicha maktablar xalqaro uyushmasi axloqiy prinsiplariga ko‘ra, ijtimoiy xodim quyidagilarga amal qilishi lozim:

- Inson huquqlari va Inson qadr-qimmatini
- Ijtimoiy adolatlilik
- Kasbiy xulq

Shunday qilib, ijtimoiy xodim o‘z harakatlarini kasbiy vijdonlilikning oliy standartlari bilan qiyoslashi lozim<sup>2</sup>:

a) ijtimoiy xodim o‘zining professional faoliyati davomida uchrashi mumkin bo‘lgan ta’sirlar va tazyiqlarga bo‘ysunmasligi, o‘z kasbiy majburiyatlarini xolislik bilan bajarishi lozim;

b) ijtimoiy xodim o‘z kasbiy munosabatlaridan shaxsiy maqsadlarda foydalanish huquqiga ega emas.

Ijtimoiy xodimlarga qo‘yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat: inson qadr-qimmatini saqlash; ijtimoiy adolatlilik; insonparvarlik g‘oyalariga sodiqlik; vijdonlilik, odamlar bilan ochiq muomalada bo‘lish; layoqatlilik.

Ijtimoiy xodim o‘z faoliyati davomida mijozlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi, sir saqlash, hisobot topshirish, institutsional yo‘nalish, mijozlarning ma’naviy va diniy e’tiqodlariga hurmat, inson huquqlariga amal qilish va ijtimoiy adolatlilik prinsiplarini qo‘llash kabi prinsiplarga qat’iy amal qilishlari lozim.

*Mijozlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash prinsipida* ta’kidlanishicha, mijozlar o‘z fikrlarini ifodalash va boshqalarning huquqlari buzilmagunga qadar o‘zaro munosabatlarga kirishish huquqiga egalar. Mazkur prinsip mijozlarning o‘z fikrini bayon qilish qobiliyatini oshirishga yo‘naltirilgan va mantiqan har bir insonga xos bo‘lgan qadr-qimmatga ishonchdan kelib chiqadi.

*Sir saqlash prinsipi* professional va mijoz o‘rtasidagi ma’lumotlarning sir saqlanishini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi ochiq yoki yashirish keliShuvini

anglatadi. Mazkur prinsipning amalga oshirilishi mijoz haqidagi ma'lumotlarning professional tomonidan yoki boshqa birov bilan hamkorlikda oshkor qilinishi mumkin emas, mijozning o'zi rozilik bildirgan holatlar bundan mustasno. Mutaxassislar mijozga zarar keltirishi mumkin bo'lgan yashirin ma'lumotlarni oshkor qilganliklari uchun sudga jalb qilinishi mumkin.

*Hisobot topshirish prinsipi* ijtimoiy xodim yuqori sifatli ma'lumotlarni moliyalashtirgan tashkilotlarga taqdim qilishi lozimligini taqozo qiladi. Ko'pincha bu davlat hukumat muassasalari va moliyalashtirishning xususiy manbalari. Shu bilan birga, ayrim ijtimoiy xodimlarning fikriga ko'ra, hujjatlar mijozlarga xizmat ko'rsatishga xalal beradi, biroq ijtimoiy xodimlar moliyalashtirish manbalariga nisbatan muayyan majburiyatlarga ega va ularni bajarishi lozim.

*Institutsional yo'naltirilganlik.* Bugungi kunda jamiyatda ijtimoiy ta'minot roli haqida ikkita bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan tasavvurlar mavjud: o'tmishdan qolgan yo'naltirilganlik va institutsional yo'naltirilganlik. Ijtimoiy ish institutsional yondaShuvni qo'llab-quvvatlaydi va mazkur yo'nalishdagi dasturlarni rivojlantirish va amalga oshirishga intiladi. Jamiyat o'sish va rivojlanish ta'minlashi lozim, bu esa o'z navbatida har bir insonga o'z imkoniyatlarini to'liq amalga oshirish imkonini beradi. Ijtimoiy ish jamiyat xavfsizlikni ta'minlash, asosiy madaniy va biologik ehtiyojlarni qondirishni o'z a'zolari oldidagi mas'ul vazifa deb hisoblaydi. Ijtimoiy xodimlar individualizm va ijtimoiy darvinizm qarashlarini inkor qiladi.

*Boshqalarning ma'naviy va diniy e'tiqodlarini hurmat qilish prinsipi* ijtimoiy ishning eng muhim prinsiplaridan biri hisoblanadi. Ta'lim sohasidagi asosiy yo'nalish talabalarni odamlarning madaniy o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda amaliy faoliyatga tayyorlash hisoblanadi. Din va ma'naviyat barcha jamiyatlarda muhim o'rin tutadi, ijtimoiy xodimlar din va madaniyatning inson hayotiga ta'sirini anglashlari muhim. Ijtimoiy ish Kengashining ta'lim va akkreditatsiya sohasidagi siyosat standartlari bakalavriat va magistrlik dasturlari talabalarni turli madaniyatlar vakillari bilan ish olib borish ko'nikmalariga ega bo'lishi uchun tayyorlashni talab etadi.

*Ijtimoiy va iqtisodiy adolatlilik hamda inson huquqlarini himoya qilishga*

*imkoniyat yaratish prinsipi* ijtimoiy xodim zimmasiga azoblangan yoki tahqirlash qurboniga aylanganlar uchun ijtimoiy va iqtisodiy adolatga erishishga ko'maklashish mas'uliyatini yuklaydi. Ijtimoiy xodimlar milliy uyushmasi, Shuningdek, Ijtimoiy ish maktablari xalqaro uyushmasi hujjatlarida ta'lim dasturlarida "ta'limning barcha odamlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish va ularning turli-tumanligini tushunish uchun sharoit yaratish" zarurati to'g'risida aytib o'tilgan (2008). Ijtimoiy ish ta'lim dasturlarida xilma-xillikni tan olish majburiy hisoblanadi, ular esa o'z navbatida yosh, sinf, rang, madaniyat, nogironlik, etnik tegishlilik, jins, gender mansublik va ifoda, immigratsion maqom, siyosiy mafkura, irq, dinlar, jins va jinsiy yo'naltirilganlik"larni qamrab oladi.

*Ijtimoiy xodimlarning xalqaro uyushmasi axloq kodeksi:*

"Ijtimoiy xodimlar har qanday shaxs, guruh yoki sinfga nisbatan ularning irqiy, etnik tegishliliigi, milliy kelib chiqishi, teri rangi, jinsi, jinsiy yo'naltirilganligi, yoshi, oilaviy ahvoli, siyosiy qarashlari, dini, aqliy yoki jismoniy zaifligiga qaramasdan, ular ustidan hukmronlik qilish, ekspluatatsiya va tahqirlashning oldini olishlari va bartaraf qilishlari zarur".

*Asosiy "inson huquqlari" nimalardan iborat?*

Bu kabi huquqlarni shakllantirishning asosiy boshlang'ich nuqtasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hisoblanadi<sup>1</sup>. Mazkur hujjatda belgilab berilgan huquqlar orasida quyidagilar ham mavjud:

– Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar;

– yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egalik;

– shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashishdan ozodlik huquqi;

– shaxsining erkin rivojlanishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalaridagi huquqini amalga oshirish huquqi; farovon turmush tarzi, jumladan, kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmatga ega bo'lish huquqi;

– har bir inson o'z jamiyati oldida ma'sul;

– huquqlar faqatgina boshqalarning huquqlariga amal qilishga nisbatan cheklanishi zarur (tarqatma materiallarga qarang).

Bugungi kunda ko‘plab mamlakatlar inson huquqlarini ta’minlash asos hosil qiluvchi maqsad ekanligini tan olmoqdalar.

4. *Ijtimoiy ish amaliyotida axloqiy ikkilanishlar. Ikkilanish (grek tilidan “jo‘natma”)* – ikkita teng darajadagi noxush imkoniyatlar o‘rtasidagi qiyin tanlov.

5. *Ma’naviy yoki axloqiy ikkilanish* – bu har ikkisi ham teng qiymatga ega bo‘lgan qadriyatlar o‘rtasida tanlov amalga oshirish lozim bo‘lgan vaziyat.

Ijtimoiy xodimlar xizmatlarining ko‘plab sohalarida har kuni axloqiy ikkilanishlarga duch keladilar. Ushbu murakkab masalalarni hal etish uchun ijtimoiy ish qadriyatlari va etikasi, Shuningdek, o‘z faoliyatlariga tegishli bo‘lgan huquqiy majburiyatlarni chuqur anglashlari talab etiladi. Bu kabi anglash huquqiy hujjatlar, sud amaliyoti, Shuningdek, axloqiy me’yorlar bilan umumiy tanishishdan ko‘ra ko‘proq narsani qamrab oladi.

Ma’naviy paradigmalarda va qadriyatga oid qarashlar – hayot, inson qadr-qimmat, insonparvarlik, ezgulik, mehr-muhabbat, odamlar farovonligi, ijtimoiy adolatlilik, mas’uliyat – bularning bari aniq ijtimoiy ishning asoslari hisoblanadi. Amaliyotda ijtimoiy xodimlar o‘zlarining mijozlarga, hamkasblariga va umuman jamiyatga nisbatan munosabatlariga ko‘ra turli axloqiy muammolarga duch keladilar. Mazkur muammolar aksariyat holatlarda mujmal bo‘ladi va o‘ziga ishonchsizlik, ularni ko‘rmaslikka olish kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Gapda monografiya va darsliklarda bayon qilingan oliy qadriyatlarga amal qilish va Shu tarzda o‘z mas’uliyatini namoyon qilish oson. Biroq kundalik faoliyatda amal qilish uchun, masalan, o‘z taqdirini o‘zi belgilash yoki mijoz shaxsining mustaqilligi kabi mavhum qadriyatlarga amal qilish nafaqat murakkab, balki bir vaqtning o‘zida agar ijtimoiy xodimda mijoz ushbu erkinlikdan to‘g‘ri foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan holatlarda yolg‘on xotirjamlikka sabab bo‘lsa o‘ta xavfli<sup>1</sup>.

Ijtimoiy xodimlar axloqiy prinsiplarni batafsil o‘rganishlari talab etiladi. Ular axloqning shaxsiy ijtimoiy kodeksini to‘liq bilishlari va muayyan vaziyatlarda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan huquqiy va axloqiy prinsiplarni ajrata olishlari zarur.

Nizo kelib chiqqan holatlarda ijtimoiy xodimlar ikkilanishlarni o'rganish va hal etish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim. Qadriyatlar va axloq me'yori mavzusi ijtimoiy ish amaliyotida o'ta murakkab hisoblanadi<sup>1</sup>.

Ijtimoiy xodim uchun ko'plab qiyinchiliklar ikki yoki undan ortiq ziddiyatli vaziyatlar orasidan tanlab olish zarurati bilan bog'liq. Shunday qilib, ko'plab milliy axloqiy kodekslar va nizomlar ijtimoiy xodimlardan mijozlarning fuqarolik yoki yuridik huquqlarni buzuvchi yoki kamaytiruvchi harakatlarda ishtirok etmaslikni talab etadi.

Ayni vaqtda ijtimoiy xodimlar ish beruvchi tashkilot oldidagi o'z majburiyatlariga amal qilishlari lozim. Agar huquq taqdim qilingan muassasaning siyosati mijozlarning fuqarolik huquqlarining masalan, gumanitar yordamning "taqsimlanishi" holatida moliyaviy manfaatlar yoki huquqlarining buzilishiga olib kelsa, ushbu ikki prinsip bir-biri bilan ziddiyatga kirishish vaziyati real bo'lishi mumkin.

Muammoli sohalar va axloqiy ikkilanishlar turli mamlakatlar uchun madaniyat va davlat boshqaruvidagi farqlar sababli umumiy bo'la olmaydi. Ijtimoiy xodimlarning har bir milliy uyushmasi mazkur mamlakat uchun xos bo'lgan muhim masalalar va muammolarni aniqlash maqsadida munozaralarni rag'batlantirishlari lozim.

Axloqiy ikkilanishlarning vujudga kelishining ehtimoliy sabablari<sup>2</sup>:

➤ Ijtimoiy xodimning etarli darajada tayyorlanmaganligi yoki yangi vaziyatga oid bilimlarning etarli miqdorining mavjud emasligi;

*Misol* – kunduzgi markazda ishlovchi volontyor oldiga u bilan yaxshi aloqada bo'lgan 9 yoshli qiz keldi va otasi uni itarib yuborishini va do'pposlashini aytdi. Qiz volontyordan u va ota-onalari bilan bo'ladigan uchraShuvda ularning o'rtasida o'tirishni iltimos qildi. Markaz menedjeri bitta xona ajratdi. UchraShuvda ota albatta, sir saqlashga amal qilinishini so'radi. Volontyor, o'zi aytganidek, o'zining soddaligi uchun bunga rozi bo'ldi. Uchrashuv vaqtida unga jismoniy va jinsiy zo'ravonlik haqida gapirib berishdi.

➤ U yoki bu vaziyatda ijtimoiy xodim sifatidagi rolini aniq anglamaslik



(nazoratchi yoki g'amxo'rlikni amalga oshirayotgan shaxs). Qarashlarning maxfiylik bilan bog'liq ravishdagi noaniqligi.

*Misol* – yosh ona o'zini ijtimoiy jihatdan ajratib qo'yilgandek his qilganligi sababli oilaviy markazga murojaat qilgan. Ijtimoiy xodim bilan muammolarini muhokama qilar ekan, mablag' etishmasligi, o'z qiziga kam vaqt ajratayotganini aytib, moddiy yordam so'radi. Ijtimoiy xodimda vujudga kelgan savol: yosh ayol moddiy yordam olishi bilan birga ishlashini ham oshkor qilishi lozimmi? Bunda u mijozning noqonuniy harakatlarini qo'llab-quvvatlayaptimikan?

➤ O'z shaxsiy maqomiga ishonchsizlik, ayniqsa, boshqa professionallar bilan o'zaro munosabatlarda.

*Misol* – serebral falajlikka chalingan muassasada yashagan 22 yoshli yosh ayol bilan ishlayotgan amaliyotchi tajribasi. Ayolda ruhiy zo'riqish alomatlari bo'lgan, u muloqot qilish va ovqatlanishdan bosh tortgan. Xodimlar uning bir o'zini xonaga qamab qo'yganlar. Yangi kelgan xodim u bilan gaplashganda ayol uydan chiqishni va kollejda qandaydir kurs o'qish istagida ekanligini aytgan hamda ma'lumotni asosiy xodimlarga etkazishni iltimos qilgan. Hech qanday o'zgarish sezilmadi. Amaliyotchida u mazkur muassasaning madaniyatini buzganligi bilan bog'liq bo'lgan qarama-qarshi hissiyotlar vujudga kelgan.

➤ Jamiki vaziyatning murakkabligini anglamay turib bitta iste'molchining ehtiyojlari yoki huquqlarini tor doirada o'rganish.

*Misol* – keksa yoshdagi er-xotinlar o'zlari yashayotgan uydan keksalar uyiga ko'chirib o'tkazildi. Ular oddiy xo'jalikdagi ishlarni yurita olmasliklari, ayol kechasi yiqilib tushganligi aytilgan. Oila, yotoqxonaga uchun mas'ul shaxs va boshqa ijtimoiy xodimlar tomonidan ular keksalar uyiga joylashtirilishi masalasida bosim o'tkazilgan. Amaliyotchi ularni uyga qaytarishni talab qilgan. Xulosa – Ijtimoiy xodimning vazifasi vaziyatni umumiy baholash va vaziyatga aloqador bo'lgan barcha odamlar uchun eng maqbul qarorni ishlab chiqishdan iborat.

Har qanday jamiyatda ertami yoki kech vujudga kelishi mumkin bo'lgan

axloqiy ikkilanishlarning butun bir guruhini ajratib ko'rsatish mumkin va ularni engib o'tishdagi mas'uliyat sababli ijtimoiy xodim yuqori darajadagi malakaga ega bo'lishi talab etiladi.

✓ *Mustaqillik va boshqarish.* Inson mustaqilligini bazaviy qadriyatlardan biri, deb hisoblaydigan ijtimoiy xodim uchun uning xulqini boshqarish bilan bog'liq bo'lgan har qanday harakat uni boshqarish va o'z navbatida insonparvarlikning o'zining mohiyatini buzish bo'lib ko'rinadi. Masalaning inson irodasini boshqarmasdan turib, qadriyatlar to'g'risida gapirish mumkin emas. Biroq qaror qabul qilish uchun juda past darajada bo'lsa-da, ta'sir ko'rsatish yoki qadriyatlarni majburan singdirish talab etilsa, maqsad esa jozibador va real bo'lsa, u holda ijtimoiy xodim axloqiy dilemmaga duch keladi. Masalan, ijtimoiy xodim mavjud murakkab vaziyatni o'zgartirish lozimligini ta'kidlasa, hayotni aniq oqilona reja asosida rivojlantirish keragligini ta'shuntirishiga qaramay u istiqboldagi ijobiy o'zgarishlar uning harakatlari tufayli sodir bo'lganligiga to'liq ishonch xosil qila olmaydi. Shuningdek u o'zining aralashuvi tufayli vaziyat yomonlashishiga ham hech qanday kafolat bera olmaydi.

✓ *Paternalizm va o'z taqdirini o'zi belgilash.* Ijtimoiy ishning asosiy qadriyatlaridan biri – mijozlarning farovon hayoti – paternalizm muammosi bilan chambarchas bog'liq. Paternalistik paradigma ijtimoiy xodim va mijoz munosabatlarining vasiylik modelini taqozo qiladi, bunda mijozning "boshqarilishi" uning o'z foydasi uchun uning istaklari yoki erkinligiga aralashishga ruxsat beradi. Paternalizm mijoz manfaatlari yo'lida uni o'z-o'zidan himoya qilish maqsadida mijozning o'z-o'zini yo'q qiluvchi harakatlarini cheklash, uni xizmatlarni o'z istagiga qarshi yoki majburan qabul qilishga majburlash, to'g'ri ma'lumotlarni yashirish yoki noto'g'ri ma'lumotlar va hokazolarni taqdim qilishga ham yo'l beradi. Bu kabi amaliyot barcha tomonidan to'g'ri qabul qilinmaydi va paternalizmning o'rinli ekanligi haqidagi bahslarga sabab bo'ladi. Bir tomondan, mijozga o'ziga zarar etkazuvchi va xavfli xulqning muayyan shakllarini amalga oshirishga ruxsat beriladi, boshqa tomondan esa – ijtimoiy xodimlar mijozlar dunyoni noto'g'ri ta'shinishlari va xavfli harakatlarni amalga oshirishlarining oldini

olish va ularni o‘z-o‘zidan himoya qilish uchun mas‘uldirlar. Mazkur axloqiy ikkilanish mijozlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashi va o‘z vaziyatini to‘g‘ri anglashi hamda maqbul echim topishi bilan bog‘liq.

✓ *Rost gapirish zarurati.* Mazkur holatni ham avvalgisidan ajratib bo‘lmaydi. Bir tomondan mijozlarni o‘zi haqidagi, o‘zining ahvoli va ruhiyati haqidagi to‘g‘ri ma‘lumotlarni olishga qonuniy haqqi bo‘lib, ularga to‘g‘ri ma‘lumot taqdim qilishni rad qilish yoki noto‘g‘ri ma‘lumot berish mumkin emas. Boshqa tomondan esa, alohida holatlarda hattoki mijozlardan to‘g‘ri ma‘lumotlarni yashirish, hattoki uning foydasi uchun noto‘g‘ri (“najotbaxsh yolg‘on”) ma‘lumot etkazish ham axloqiy jihatdan maqbul va zarur, deb hisoblanadi. Ijtimoiy ishning g‘arb amaliyotida birinchi qarash ustunlikka ega. Past darajadagi huquqiy madaniyat bilan birga qandaydir yolg‘onga urg‘u berilishi, garchi bu yolg‘on “najotbaxsh” bo‘lsa-da, ma‘naviy qadriyatlar va kasbiy axloqning emirilishi, deb hisoblanadi, Shuningdek u nafaqat qonunning buzilishiga, balki “ijtimoiy xodim – mijoz” munosabatlarining kriminallashtirilishiga olib keladi.

✓ *Maxfiylik va xabarning shaxsiy tabiati.* Barcha milliy axloqiy kodekslar va ustavlarda ijtimoiy xodim mijoz shaxsi va qadr-qimmatini hurmat qilgan holda undan olingan ma‘lumotlarni qat‘iy sir saqlashi lozim, degan qoida mavjud. Bir marotaba foydalanilgan ma‘lumot tegishli ruxsatlarsiz boshqa maqsadlarda qo‘llanilishi mumkin emas. Garchi bu qoida har doim adolatli bo‘lsa-da, ayrim holatlarda ijtimoiy xodimlar masalan, mijoz tomonidan uchinchi shaxsga nisbatan xavf tug‘dirilgan vaqtda maxfiy ma‘lumotni oshkor qilish imkoniyatini ko‘rib chiqishga majbur bo‘ladilar. Aynan Shu sababli mijozni u yoki bu vaziyatda maxfiylikning chegaralari haqida, ma‘lumotni olish va undan foydalanish to‘g‘risida ogohlantirish va bir vaqtning o‘zida suhbatni yozib olish, uchinchi shaxsning ishtiroki to‘g‘risida roziligini olish zarur.

✓ *CHaqimchilik.* Ko‘pincha ijtimoiy xodimlar majburliklari sababli yoki ongli ravishda qonunni chetlab o‘tadilar yoki o‘zlari faoliyat olib borayotgan muassasalarning qoidalarini buzadilar. Bu holatda ular mazkur qonunbuzarliklarni anglab qolgan hamkasblarini ma‘naviy tanlov oldida qoldiradilar. Tarozining bir

pallasida kasbiy axloq me'yorlari, boshqa pallasida esa – kasbiy sadoqat va birdamlik, do'stlik hissi, obro'-e'tibor, o'z shaxsiy maqomiga xavf turadi. Bu kabi tanlovning og'irligi va murakkabligi ijtimoiy xodimlarni o'z kasbidagi qonunbuzarliklarni aniqlamaslik va oshkoralik predmetiga aylantirmaslikka undaydi. Shu sababli o'z hamkasblarining axloqiy va huquqiy jihatdan noqonuniy harakatlari to'g'risida ma'lumot va isbot olgan ijtimoiy xodimlar kasbi, mijozlar, hamkasblari, tashkilot va o'z kelajagiga nisbatan majburiyatlarini nazarda tutgan holda o'z harakatlarini har tomonlama ko'rib chiqishlari zarur.

✓ *Qonunlar va mijozning xotirjamligi.* Qonunchilik ijtimoiy hayotning jamiki xilma-xilligini avvaldan ko'ra bilish imkoniyatiga ega emas, Shu sababli ayrim holatlarda mijoz xotirjamligi va tinchligi qonun bilan qarama-qarshi munosabatga kelib qoladi. Qator holatlarda qonunga so'zsiz amal qilish mijozga zarar etkazishi mumkin, buning natijasida esa ijtimoiy xodimlar murakkab tanlov oldida qoladilar. Ularning ayrimlari hattoki ular qonun yoki boshqa axloqiy me'yorlarni buzsalar ham o'z mijozlari manfaatlarini himoya qiladilar; ijtimoiy xodimlarning ko'pchiligi qonunga amal qilishni tanlaydilar.

✓ *Shaxsiy va kasbiy qadriyatlar.* Ijtimoiy xodimlarning qanday qadriyatlarni ustun qo'yish haqidagi fikrlari har doim ham mos kelmaydi. Har bir alohida holatda ijtimoiy xodim mijoz, kasbi, tashkilot, hamkasblari, uchinchi shaxslar, o'z o'zi oldidagi majburiyatini solishtirib ko'rishi lozim. Bunda Shuningdek, sub'ektiv qadriyatlarning boshqalarning, ya'ni mijozning muammolarini anglashga, ijtimoiy ishning o'ziga xosligini, maxsus bilimlarni qo'llashni usullarini ta'Shunishga ta'sirini anglash muhim o'rin tutadi.

Boshqa so'zlar bilan aytadigan bo'lsak, Ijtimoiy ishning ko'p uchraydigan axloqiy ikkilanishlari orasida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

1. O'z taqdirini o'zi hal qilish tizimini ta'minlash vs<sup>1</sup> (ruhiy kasal inson tomonidan qaror qabul qilingan holatda);
2. Madaniy farqlar qadriyati, alohida shaxslarni himoya qilish vs;
3. Vs ning sir saqlanishi, agentliklar o'rtasidagi yaxshi aloqalar;
4. O'z taqdirini o'zi belgilash vs, uyushma manfaatlari;

5. Vs uyushmalari ehtiyojlari, alohida odamlarning ehtiyojlari.

*Axloqiy qarorlarning qabul qilinishi.* Mattison (Mattison, 2000) axloqiy ikkilanishlarni tahlil qilish sxemasini taklif qiladi<sup>1</sup>:

1. Ma'lumotlarni aniqlang va to'plang. Ijtimoiy xodim axloqiy ikkilanishni aniqlashi bilan mijozning barcha vaziyatlarini to'liq tushunib olish maqsadida holatga taalluqli barcha detallarini o'rganish va kerakli ma'lumotlarni to'playdi va qaror qabul qilish jarayonini boshlaydi.

2. So'ngra ijtimoiy xodim uchun vaziyatning amaliy jihatlarini (keys) uning axloqiy jihatlaridan ajratib olish mumkin ahamiyatga ega bo'ladi.

3. Qadriyatlar bilan bog'liq masalalar aniqlanadi.

4. Ijtimoiy xodim axloqning kasbiy kodeksiga murojaat qilishi mumkin – bu unga majburiyatlarini aniqlab olish va ikkilanishga nima sabab bo'layotganini aniqlash imkonini beradi.

5. Ijtimoiy xodim ehtimoliy harakatlar va ularning ehtimoliy oqibatlarini prognoz qiladi, o'ylab, chamalab ko'radi.

6. Ijtimoiy xodim ehtimoliy variantlarni chamalab ko'rganidan so'ng ikkilanishni hal etish uchun zarur harakatni tanlab olishi lozim.

7. Ijtimoiy xodim echim topish bosqichiga etib kelganidan so'ng, o'z qarorini asoslab bera olishi lozim.

Ijtimoiy xodim axloqiy ikkilanishlar to'g'risida qaror qabul qilishning to'g'ri yoki noto'g'ri usullari yo'q ekanligidan kelib chiqishi lozim. Ijtimoiy xodim uchun axloqiy kodeksini bilish, hamkasblar va supervizorlar o'rtasidagi ikkilanishlarni muhokama qilish muhim. Bundan tashqari, ijtimoiy xodimlar refleksiv amaliyotga yo'naltirilganlik va "men" sifatida e'tiborga olishi lozim.

5. *Yorliqlar nazariyasi.* Yorliqlarning sotsiologik nazariyasi yoki stigmatizatsiya (ot grech. stigma – kleymo) harakatlar, shaxslar yoki guruhlarining ijobiy yoki (ko'pincha) salbiy xususiyatlarning ijtimoiy qayd qilinishiga qamrab olingan ijtimoiy jarayonlarni tahlil qiladi.

Ushbu nazariya, birinchidan, jamiyatdagi ayrim individlar boshqa individlarga ularni deviant, deb hisoblagan holda yorliq yopishtirishi mumkin

bo'lgan ijtimoiy tabiat jarayoniga e'tibor qaratadi. Ikkinchidan, deviant xulqqa ega, deb ta'riflangan individ o'zi haqidagi bu fikrga qanday ko'nikishini tahlil qiladi ("deviant yorlig'i"ni qabul qiladi). Shunday qilib, jamiyatning qandaydir a'zolari "jinoyatchilar", "ichkilikbozlar" yoki "ruhiy kasal" deb nomlangan barcha holatlarda yorliqlar yopishtirish holati sodir bo'ladi.

Yorliq ostida inson yoki guruhning "yaxshi/yomon" qadriyatga oid shkalasidagi o'rnini qayd qiluvchi salbiy ta'rifi tushuniladi (bu holatda – salbiy qutbga yaqin). Yorliqlarning ta'siri ikki turli bo'ladi: ular jamiyatga qarshi harakatlarning oldini oladi, biroq ularni noto'g'ri qo'llansa, ular jamiyatga qarshi xulqqa sabab bo'lishi mumkin.

Yorliqlar nazariyasiga ko'ra, xulqni deviant deb hisoblash uchun u guruhlar buzilishi deviant, deb hisoblanishi lozim bo'lgan qoidalarni belgilashi va ularni alohida odamlarga qo'llagan holda ularni autsayderlar, deb belgilashi lozim va deviant xulq Shu kabi ifodalanishi zarur. Shu nuqtai nazardan deviantlik inson tomonidan amalga oshirilgan harakatlarning oqibati emas, balki boshqalar tomonidan "qoidabuzar"ga qonunni qo'llash oqibati hisoblanadi.

Boshqacha aytganda, hech qanday o'ziga xos xulq aslida o'z-o'zidan deviant hisoblanmaydi; xulq faqatgina boshqalar uni deviant, deb belgilaganda Shunga aylanadi.

Stigmatizatsiya tarafdorlari nizoshunoslikning asosiy qoidasi sifatida individlar ko'pincha o'z qiziqishlari va hayotga qarashlari turlicha bo'lganligi sababli bir-birlari bilan kelisha olmasliklari qabul qilingan. Bunda hukumat tepasida turganlar institutsional hayotni boshqaruvchi qarashlar va prinsiplarni ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladilar va mazkur me'yorlarni buzganlarga salbiy yorliqlarni muvaffaqiyat bilan yopishtiradilar.

6. *Stereotiplar, noto'g'ri fikrlar, tahqirlashlar.* Ijtimoiy xodim axloqi va qadriyatlarini o'rganishda *stereotiplar – ijtimoiy ob'ektlardagi soddalashtirilgan, sxemalashtirilgan namunalar, jumladan, bir millat vakillarining boshqa millat vakillari to'g'risidagi tasavvurlari muhim o'rin tutadi.* Stereotiplar bolalikda o'zlashtiriladi – odatda bevosita bolaning tajribasidan emas, ikkilamchi

manbalardan o'zlashtiriladi. Bolalar o'zlari mansub bo'lgan guruh to'g'risida bilmay turib mazkur tasavvurlardan foydalanadilar.

*Ijtimoiy stereotip tuShunchasini* birinchi marotaba amerikalik jurnalist va siyosatshunos U.Lippman qo'llagan. Uning nuqtai nazariga ko'ra stereotiplar – bu inson miyasidagi tartibga solingan “dunyo manzarasi”, ular, birinchidan, uning murakkab ijtimoiy ob'ektlarni qabul qilishga sarflanadigan kuchini iqtisod qiladi, ikkinchidan, uning qadriyatlari, qarashlari va huquqlarini himoya qiladi. Boshqacha aytganda, stereotiplar insonni ijtimoiy ma'lumotlar dengizida yo'naltirib turadi va o'zi haqidagi yuqori fikrni saqlab qolishga yordam beradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, stereotiplar ijobiy kabi, salbiy tomonlarga ham ega. Bir tomondan ular anglash jarayonini qisqartiradi, individga o'z hayotiy yo'lini aniqlashga yordam beradi, uning xulqini boshqarib boradi. Boshqa tomondan esa, stereotip turli ko'rinishdagi salbiy fikrlarning shakllanishiga olib keladi. Agar stereotip cheklangan tajribaga asoslangan bo'lsa va ushbu tajriba salbiy bo'lsa, u holda masalan, qandaydir etnik guruhning qabul qilinishi salbiy baholar asosida bo'ladi.

Har bir xalq madaniyatida boshqa xalqlar haqidagi barqaror tasavvurlar ishlab chiqilgan. Ular turli xalqlar vakillari ularga an'anaviy ravishda taqdim qilingan tabiatga ko'ra aynan bir vaziyatga munosabat bildirishlari ko'rsatilgan anekdotlarda keltirilgan. Ularda fransuzlar doimo engiltak va sermuhabbat, inglizlar quruq va o'ta rasmiyatchi, nemislar sinchkov va anqovroq, ispaniyaliklar ehtirosli va tiyiqsiz va h.k.

*Stereotip tuShunchasi.* Bizning odamlarni qabul qilishimiz, biz ularni qay tarzda “tabaqalashtirishimiz”ga bog'liq – o'smirlar, ayollar, o'qituvchilar, gomoseksualistlar, ishsizlar, siyosiy arboblardan va hokazo. O'xshash xususiyatlarga ega bo'lgan alohida predmetlar yoki hodisalarning qabul qilinishi bizga tuShunchalarni hosil qilishga imkoniyat yaratgani kabi, odamlar ham odatda biz tomonimizdan ularning u yoki bu guruhga, ijtimoiy-iqtisodiy sinfga mansubligi yoki ularning jismoniy xususiyatlariga (yoshi, jinsi, tana rangi va h.k.) ko'ra klassifikatsiya qilinadi. Toifalarga ajratishning ushbu ikki turi bir-biridan ahamiyatli

darajada farq qiladi, chunki oxirgi holatda gap ijtimoiy voqelik va jamiyatni tashkil etuvchi odamlarning nihoyasiz xilma xilligi haqida boradi.

Shu tarzda vujudga keluvchi stereotiplar (grek tilidan stereos – qattiq, typos – tamg‘a) ko‘pincha odamlar haqidagi o‘ta shartli va sodda tasavvurlarni hosil qiladi. Stereotiplar – ijtimoiy ob‘ektning ma‘lumot tanqisligi sharoitida individning shaxsiy tajribasini umumlashtirish natijasi sifatida shakllanuvchi nisbatan barqaror va sodda namunasi demakdir. Bu guruhga mansub bo‘lgan alohida shaxslar o‘rtasidagi real farqlarga qaramasdan, guruhning barcha a‘zolariga o‘xshash xususiyatlar taqdim qilinadigan odamlar guruhi haqidagi umumiy fikr hisoblanadi.

*Stereotiplarning paydo bo‘lishi.* Stereotiplar juda kam holatlarda bizning shaxsiy tajribamiz mahsuli bo‘ladi. Ko‘pincha biz ularni o‘zimiz mansub bo‘lgan guruhdan, ayniqsa stereotiplari shakllanib ulgurgan odamlardan (ota-onalar, o‘qituvchilar, tanishlar) o‘zlashtiramiz.

*Noto‘g‘ri fikrlar.* Noto‘g‘ri fikrlar stereotipdan farq qiladi. Agar stereotip bir guruh a‘zolari boshqa guruh to‘g‘risidagi umumiy fikrlarni yoqlasalar, xurofotlar Shuningdek, inson boshqa odamlarning o‘zini, ularning harakatlari sabablarini bilmay turib “yaxshi” yoki “yomon” atamaları yordamida xulosa qilishini ham taqozo qiladi. Noto‘g‘ri fikrlar – insonning o‘zi mansub bo‘lgan guruhdan farq qiluvchi guruhdagi odamlarga nisbatan adovatli yoki salbiy munosabati. Bu munosabat faqatgina odamlarning mazkur guruhga mansbuligiga asoslanadi.

Ijtimoiy adolatsizlik va ijtimoiy tengsizlik, odatda, tahqirlash, kamsitishlar mahsuli hisoblanadi. Noto‘g‘ri fikrlar ijtimoiylashtirish jarayonida shakllanadi. Ular o‘zlashtirilganidan so‘ng noto‘g‘ri fikrlar individual qadriyatlar tizimining bir qismiga aylanadi.

Ayrim guruh vakillari o‘zlarini muayyan tarzda tutadi, degan fikrlarning stereotiplari mavjud. Demak, ayrim jamiyatlarda qaror qabul qilishda ayollar erkaklar kabi ziyrak emas; afroamerikaliklar aqlsizroq va bekorchilik va jinoyatchilikka moyil; lotin amaerikaliklar qishloq hayotining sekinlashtirilgan sur‘atlarini afzal ko‘radilar va hokazo, degan fikrlar mavjud. Bu mazkur guruhlarning har biri bilan bog‘liq bo‘lgan salbiy stereotiplarning ko‘plab



ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Bunga qarama-qarshi tarzda ijobiy stereotiplarga aylar tarbiya qiladi va qo‘llab-quvvatlaydi; afroamerikaliklar o‘ta dindor; lotin amerikaliklar uchun ularning katta, ko‘p a‘zoli oilalari juda qadrli, degan fikrlar bayon qilinadi.

Ayrim millatlar boshqalaridan ko‘ra ko‘proq intellektual va ijodiy qobiliyatlarga ega ekanligi haqidagi fikrni quyidagi misol yordamida yoritib beramiz:

Kavkazlik konservativ (eskilikni yoqlovchi) juftlikning katta qizi kollejni bitirgandan so‘ng Floridaga mashhur korporatsiyaga ishlash uchun ko‘chib ketgan. U erda u aynan Shu korporatsiyada ishlaydigan advokatni sevib qoladi. Dastavval oilasi ularning munosabatlaridan juda xursand bo‘ldilar, biroq advokat puertorikanets ekanligi eshitib, xafa bo‘ldilar. Oilasidagilarning qat’iy noroziliklari va bosimlariga qaramasdan, qiz advokatga turmushga chiqdi va katolik cherkoviga kirdi. Natijada uning ota-onasi, to‘rt nafar aka-opalaridan ikkitasi, Shuningdek, buvilari va bobolari u bilan aloqani uzdilar. Fikrlardagi keskin farqlar, ushbu nikohning noto‘g‘ri ekanligi to‘g‘risidagi ziddiyatli fikrlar natijasida oila parchalanib ketdi.

Mazkur vaziyatda katta qiz guruhning oilaviy e‘tiqodlari va qadriyatlarini inkor qilgan holda institutsionallashtirilgan barqaror qadriyatlar va an‘analarni buzdi. Kuyovning benuqson tabiati, uning yuqori darajadagi kasbiy mahorati, xotiniga nisbatan sevgisi va g‘amxo‘rligi e‘tiborga olinmagan. Ushbu xislatlar oilaning yoshlarga oq fотиha berishlariga kamlik qildi. Haqiqatan ham, ota-onalar nuqtai nazaridan kavkazlik bo‘lmagan har bir erkak ularning qizlari uchun nikoh qurish mumkin bo‘lgan inson sifatida to‘g‘ri kelmaydi<sup>1</sup>.

Noto‘g‘ri (yanglish) fikr qarashlarning hissiy tarkibiy qismiga tegishli va odatda salbiy qarashlar to‘g‘risida gapiriladi. Masalan, biz insonlar qora tanlilarga nisbatan yanglish fikrda ekanligini gapirsak, odatda biz u qora tanlilarga nisbatan sovuq yoki hattoki adovatli munosabatda bo‘lishini yoki qora tanlilarning barcha vakillari bir xil, deb hisoblashini nazarda tutamiz. Shunday qilib, bu inson qora tanli

kishilarni avval boshdanoq salbiy jihatdan ta'riflaydi va sekin-astalik bilan salbiy xususiyatlarni umuman guruhga tirkab qo'yadi – bunda odamlarning individual xislatlari yoki xulqi yanglish talqin qilinadi – ular atayin yoki g'ayriShuuriy tarzda e'tiborsiz qoldiriladi.

“Tahqirlash (kamsitish) o‘zi nima?” Lotin tilidan Discriminatio –ajratish, taqsimlash. Fuqarolarning har qanday guruhining huquqlarini ularning millati, irqi, jinsi, diniy e'tiqodi va hokazolarga ko'ra kamsitish. Xalqaro munosabatlar sohasida – bu qaysidir davlat fuqarolari va tashkilotlariga boshqa davlatlar fuqarolari va tashkilotlariga nisbatan kamroq huquq va imtiyozlarni taqdim qilish.

Tahqirlash – bu yanglish fikrlarni qo'llab-quvvatlovchi harakat. Yanglish fikr alohida shaxslar yoki guruhlar to'g'risidagi xolis bo'lmagan fikrlar sababli harakatlarni amalga oshirishni qamrab oladi: ta'lim, kommunal xizmatlar, bandlik imkoniyati, rayonlar, turar joylar, ayrim diniy yoki ijtimoiy tashkilotlarda a'zolik kabilarda teng imkoniyatlar taqdim qilmaslik. Har bir kishida yanglish fikrlar mavjudligiga qaramasdan, yanglish fikrlarga ega bo'lgan odamlarning ko'pchiligi ustun guruhlarining vakillari hisoblanadi. Vaqt o'tishi bilan yanglish fikr va kamsitishlar jamiyatning kundalik hayotining bir qismiga aylanib qoladi. Har ikki guruh a'zolari – ustun va kamsitilgan guruh a'zolari ayrim ijtimoiy guruhlariga nisbatan tahqirlashni o'z-o'zidan Shunday bo'lishi kerak bo'lgan munosabat sifatida qabul qila boshlaydilar<sup>1</sup>.

Odamlar odata quyidagi jihatlariga ko'ra diskriminatsiya qilinadi:

- jinsiy
- kasbiy
- milliy, etnik
- diniy
- salomatlik holati
- siyosiy qarashlari
- irqiy
- kambag'allik jihatiga ko'ra
- past ijtimoiy maqomi va hokazolarga ko'ra.

Tarixdan ijtimoiy ishning vazifasi odamlar va odamlar guruhlarini o'rtasidagi adolatsizlik bilan kurashishdan iborat bo'lgan. Ijtimoiy ish ularga amal qilish tahqirlash va manbalarni adolatsiz ravishda taqsimlashga qarshi kurashga olib keluvchi gumanitar va demokratik g'oyalardan tashkil topgan. Ushbu asosiy jihat – adolatsizlikka qarshi kurashish va demokratik g'oyalarni ilgari surish – bugungi kunda ijtimoiy xodimning axloqiy kodeksining bir qismini tashkil etadi (HASW 1996).

### **Nazorat savollari**

1. Ijtimoiy ishda axloqning asosiy manbalarini aytib o'ting.
2. Jamiyatimizga xos bo'lgan ijtimoiy qadriyatlarni sanab o'ting.
3. Ularga nisbatan jamiyatning munosabati o'zgargan, tarixiy davrlar tufayli qadri o'zgarib borgan hodisalar, vaziyatlarga misol keltiring.
4. Ijtimoiy ish qadriyatlari nimalardan iborat? Ularning axloq bilan qanday bog'liqlik tomonlari mavjud? Siz ijtimoiy ish qadriyatlari haqida nima deb o'ylaysiz?
5. Ijtimoiy xodim mijoz bilan ish olib borar ekan, qanday ikkilanishlarga duch kelishi mumkinligini ayting?
6. Axloq kodeksi nima sababdan ijtimoiy ish kasbi uchun muhim ahamiyatga ega?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ijtimoiy ish etikasi. Darslik. Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. 432 b.
2. Ganieva M.X. Ijtimoiy ishga kirish. – Toshkent; O'zMU, 2011.
3. O'zbekiston ijtimoiy xodimining kasbiy va axloqiy kodeksi. J.Bola va zamon, Toshkent: SealMAG markazi, 2009. – № 4 (17). – 22-25 b.
4. Ganieva M.X., Karamyan M.X., Latipova N.M. Ijtimoiy ish asoslari. O'quv-metodik ko'llanma. Toshkent: JAHON PRINT, 2012. – 82 b.
5. Ijtimoiy xodimning axloqiy va professional kodeksi / "Ijtimoiy ish asoslari" o'quv kursi bo'yicha xrestomatiya. – O'zR OO'MTV, YUNISEFning "O'zbekistonda ijtimoiy ish bo'yicha qayta tayyorlash dasturi va "ijtimoiy xodim" kasbining ommalashtirilishi" loyihasi xrestomatiyasi. – Toshkent, 2009.

6. YArskaya-Smirnova E. Ijtimoiy xodimning kasbiy etikasi: Darslik. – M.: Klyuch-S, 1998. – 96 b.

7. OO‘MTV-ToSHGIK-RSSAD-YUNISEF tashkilotlari hamkorligida amalga oshirilgan “O‘zbekistonda ijtimoiy ish bo‘yicha qayta tayyorlash dasturi” loyihasi doirasida ishlab chiqilgan “Ijtimoiy ish asoslari” kursi materiallari (Ganieva M.X., Karamyan M.X.). Toshkent, 2010 g.

8. Charles Zastrow. Introduction to Social work and social welfare. Empowering People. George Williams College of Aurora University.

9. Ambrosino R., Ambrosino R., Heffernan J., Shuttlesworth G. Social Work and Social Welfare: An Introduction. Sixth Edition. – Thomson Brooks/Cole, 2008.

10. Council on Social Work Education, Educational Policy and Accreditation Standards (Alexandria, VA: Council on Social Work Education, 2008).

11. National Association of Social Workers, Code of Ethics, Revised and adopted by the 1996. Delegate Assembly of NASW (Washington, DC: NASW Press, 1996), p. 27.

12. Mattison M. Ethical decision making: the person in the process. Soc. Work. 2000 May; 45 (3):201-12.

## **5-MAVZU. IJTIMOIIY ISH YO‘NALISHLARI.**

### **IJTIMOIIY XODIMLAR ROLI VA VAZIFALARI**

1. *Ijtimoiy ish yo‘nalishlari va mijozlari*
2. *Ijtimoiy xodimlar majburiyatlari*
3. *Ijtimoiy xodim roli va vazifalari*
4. *Ijtimoiy ishda bilim, qadriyatlar va ko‘nikmalar*
5. *Ijtimoiy himoya tizimidagi muassasalar va tashkilotlar*

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy ish mijozlari, ijtimoiy xodim majburiyatlari, ijtimoiy muammolar, ijtimoiy xodim roli va vazifalari, bilim va ko‘nikmalar, ijtimoiy ish muassasalari va tashkilotlari, uyushma.

4. *Ijtimoiy ish yo‘nalishlari va mijozlari.* Ijtimoiy ish faoliyatning yordamga muhtoj odamlarga yordam ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan alohida turiga

kiradi. Har qanday faoliyat, jumladan, ijtimoiy ish ham, har bir elementi zarur bo'lgan o'z tuzilmasiga ega, boshqalar bilan bog'liq va o'zaro munosabatlarga kirishadi. Ijtimoiy ish asosiy elementlari ijtimoiy xodimlar, mijozlar, faoliyat mundarijasi, boshqaruv, vazifa va maqsadlardan iborat bo'lgan bir butun tizimni aks ettiradi.

Ijtimoiy ishning asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

- ✓ tibbiy-ijtimoiy ish
- ✓ oilalar va bolalar bilan ijtimoiy ish
- ✓ bandlik sohasida ijtimoiy ish
- ✓ ayollar va erkaklar bilan ijtimoiy ish
- ✓ alohida ehtiyojlari mavjud odamlar bilan ijtimoiy ish
- ✓ keksalar bilan ijtimoiy ish va boshq.

Turli darajadagi ijtimoiy xodim doimiy ravishda faol bo'lganligi sababli uning faoliyati murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan individlar, oilalar, guruhlar, uyushmalarga yo'naltirilgan, deb aytish mumkin.

Ijtimoiy xodim yordami taqdim qilinadigan shaxslarni mijozlar, deb atash mumkin. mijoz individual yoki guruhga oid bo'lishi mumkin (oilalar, maktab sinfi, nogironlar guruhi, mehnat jamoasi va boshq.). Uning aniqroq ta'rifi ijtimoiy ishni tashkillashtirish darajasi bilan bog'liq.

Murakkab hayotiy vaziyat – bu ko'rsatib o'tilgan ob'ektlarning me'yoriy ijtimoiy faoliyati imkoniyatlarini buzuvchi yoki buzilishiga sabab bo'luvchi vaziyatdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, individlarning o'zlari, tashqi yordamsiz mazkur vaziyatdan chiqib keta olmaydilar.

Ijtimoiy xodim haqida gapirilganda, odamlarda darhol yolg'iz nogironlar va keksalarni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlovchi sumkali xodim to'g'risida tasavvur paydo bo'ladi. Shuningdek, ijtimoiy ish mijozlari o'rtasida kam ta'minlangan va kambag'al insonlarni ajratib ko'rsatish odat tusiga kirgan. Biroq, kambag'allik bilan kurash ijtimoiy ishning "nasliy vazifasi", deb hisoblanishiga qaramay, uni faqatgina bu kabi shaxslar doirasi bilan cheklab qo'yishga hech bir asos yo'q.

Ijtimoiy xodim kimga yordam ko'rsatadi?

Mijozlar ro'yxati mazkur faoliyat turining o'ta qisqa, biroq sarmazmun tarixga ega. Ijtimoiy ish individga yo'naltirilgan. Har bir alohida inson baxtli bo'lish, farovon yashash va o'z imkoniyatlarini rivojlantirish huquqiga ega.

Dastlab ijtimoiy ish aynan individlar bilan olib borish sifatida amalga oshirilgan. Biroq keyinroq vaziyatni va mijoz xulqini o'zgartirishga urinishlar, agar bevosita mijozning atrof muhitiga, ular qamrab olingan eng yaqin ijtimoiy tarmoqqa ta'sir ko'rsatilmasa, juda kam hollarda samara berishi ma'lum bo'lib qoldi. Bu esa o'z navbatida oilaviy yoki guruhga oid ijtimoiy ishning shakllanishiga olib keldi. Har bir a'zosiga ta'sir ko'rsatmasdan turib, oilaga ta'sir ko'rsatish mumkin emas. Oilaning alohida a'zolarining xulqi va o'z hissiyotlaridagi o'zgarishlar oila ichidagi o'zaro munosabatlarning keskinlashishi, oilaviy muloqotlarning o'zgarib ketishiga sabab bo'ladi.

Guruh bilan ishlash to'g'risida ham aynan Shularni aytish mumkin. Bevosita atrof muhitning ta'siriga ortiqcha baho berish imkoni mavjud emas, ayniqsa, gap o'smirlar va yoshlar haqida, birovlariga tobe, beqaror tabiatga ega bo'lgan odamlar haqida borganida. Bu kabi faoliyat esa o'z navbatida mazkur individ, mazkur guruh yoki oila yashovchi aholi punktining jamiki keng qamrovli muhitining muammolarini hal etishni talab etadi.

Ijtimoiy xodim yordam beruvchilarning ijtimoiy muammolari Shuningdek, ularning muayyan ijtimoiy-demografik guruhga mansubligiga bog'liq. Shunday qilib, o'ziga xos muammolar odamlarni keksaygan va qartaygan davrlarida ularni qarshi oladi. Ularni engib o'tish esa boy yoki kambag'al insonda, atrofida sevimli oila a'zolari bo'lgan yoki bir o'zi yolg'iz qolgan insonda turlicha sodir bo'ladi, biroq yoshga oid fiziologik va ijtimoiy o'zgarishlar barchaga birdek ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, alohida muammolari mavjud bo'lgan mijozlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Shunday qilib, imkoniyati cheklangan shaxslar davlat tomonidan ko'rsatiladigan maxsus yordamga muhtojlar, chunki ularning jismoniy, ruhiy yoki intellektual imkoniyatlari ularning jamiyatda me'yoriy hayot

kechirishlariga to'sqinlik qiladi. Shu sababli arxitektura va transportni imkoniyati cheklangan insonlarga moslashtirish, mehnat va yashashning xavfsiz sharoitlarini yaratish, o'z hayot faoliyatini mustaqil boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmaganlarni parvarishlashni ta'minlash zarur.

Ishsizlar, harbiy harakatlarda ishtirok etgan va jarohatdan keyingi ruhiy buzilish sindromidan aziyat chekayotganlar, ko'p bolali oilalarda va farzandlari ta'lim olishda qiyinchiliklarga duch kelgan ota-onalarning alohida ehtiyojlari mavjud. Barcha toifalar yordamning maxsus ko'rinishlari va turli ixtisoslik va faoliyatning turli yo'nalishlaridagi xodimlar yordami va ko'magiga muhtojlar.

2. *Ijtimoiy xodimlarning majburiyatlari.* Ijtimoiy xodimning professional faoliyati mohiyati uning aholini ijtimoiy himoya qilish sohasidagi mehnat taqsimotiga, umuman jamiyatning ijtimoiy sohasining keng ma'nosiga ko'ra amalga oshiruvchi faoliyatiga bog'liq ravishda belgilab beriladi. Ijtimoiy xodimning professional mehnati o'zaro bog'liq va o'zaro bir-birini to'ldiruvchi shaxsga oid, funksional va moddiylashtirilgan, mulkiy tarkibiy qismlardan iborat.

Ijtimoiy ishda professionalizm – bu mutaxassisning odamlarga ularning muammolarini hal etishda yuqori malakali yordam ko'rsatishni, yuqori natijalarga erishishni ta'minlovchi, sekin-astalik bilan yuqori darajaga olib chiqiladigan bilimlari, malaka va ko'nikmalaridir.

Ijtimoiy ish o'zida ham kasbni, ham malakani birlashtiradi, Shu sababli professionalizm mazkur tarkibiy qismlarning darajasi, ularning bir butunligi va tizimlilik bilan o'lchanishi mumkin.

Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassisning kasbiy-shaxsga oid shakllanishi va rivojlanishi professional layoqatlilikning shakllanishini, kasbiy ma'lumot olishni, kasbiy mahoratning shakllanishi va ma'naviy-axloqiy xususiyatlarning, Shuningdek, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini takomillashtirish ko'nikmalarining rivojlanishini taqozo qiladi.

Kasbiy layoqatlilik ijtimoiy ishdagi professionalizmning tarkibiy qismi sifatida mutaxassisning aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha tadbirlar majmuini amalga oshirishdagi malaka darajasini, bilim va ko'nikmalari darajasini aks ettiradi.

Ijtimoiy xodimlar o‘zlarining barcha bilim va ko‘nikmalarini alohida insonlar, guruhlar, uyushmalarga ularning rivojlanishi, shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi nizolarni hal etish uchun qo‘llaydilar. Ijtimoiy xodimlar ularga yordam yoki maslahat so‘rab murojaat qilganlarning barchasiga, ularning jinsi, yoshi, jismoniy va aqliy norasoligi, ijtimoiy va irqiy tegishliligi, diniy e‘tiqodi, tili, siyosiy qarashlari, jinsiy qarashlaridan qat’iy nazar, yordam ko‘rsatadilar.

Ijtimoiy xodimlar individlar va guruhlarining asosiy huquqlarini BMTning Inson huquqlari deklaratsiyasi va Deklaratsiya asosida yaratilgan boshqa xalqaro konvensiyalarga muvofiq ravishda hurmat qiladilar. Ijtimoiy xodimlar shaxsiy daxlsizlik, maxfiylik va o‘z ishida ma’lumotlardan mas’uliyat bilan foydalanish prinsiplariga amal qiladilar.

Ijtimoiy xodimlar mamlakatlar qonunchiligi mazkur talablar bilan ziddiyatga kirishgan hollarda ham o‘zini oqlagan maxfiylikni saqlab qoladilar. Ijtimoiy xodimlar o‘z mijozlarining foydasini ko‘zlab ular bilan yaqin hamkorlik qiladilar, biroq bu boshqalarga zarar etkazish hisobiga amalga oshirilmaydi; ijtimoiy ish individlar, guruhlar, terrorizm, qiynash yoki odamlarni azoblashga yo‘naltirilgan boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi hukmron guruhlar bilan bevosita yoki bilvosita mos bo‘la olmaydi.

Ijtimoiy xodim – o‘rta maxsus ta’lim muassasini ijtimoiy ish mutaxassisligi bo‘yicha bitirgan shaxs. Ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassis – ijtimoiy ish mutaxassisligi bo‘yicha oliy ta’lim muassasini bitirgan shaxs. Ijtimoiy xodimlarning huquqlari, burch va majburiyatlari lavozim yo‘riqnomalarida aks ettirilgan.

Layoqatlilik muayyan xodimning bilim va ko‘nikmalarining darajasi va mohiyatining u tomonidan bajarilayotgan lavozimga oid vazifa va majburiyatlarining darajasi va mohiyatiga, taqdim qilingan huquqlariga mos ekanligini; ish olib borish davomida xodimning amaliy jihatdan harakat qilish va zarur natijalarga erishish ko‘nikmasini ifodalaydi.

*3. Ijtimoiy xodimning roli va vazifalari.* Rol, ijtimoiy ish lug‘atiga ko‘ra, bu “xulqning muayyan maqomga ega bo‘lgan inson uchun madaniy jihatdan belgilab qo‘yilgan turi”dir. Shunday qilib, rolga oid xulq avvalambor inson egallab turgan



o'zni va u amalga oshirayotgan faoliyat turiga bog'liq. Shu sababli ijtimoiy xodimning roli va xulqi xodimning o'zi bilan emas, balki ko'proq ijtimoiy ish bilan qiyoslanadi. Rol qay tarzda amalga oshirilayotganligi esa individual jarayon bo'lib, ijtimoiy xodim o'zining yordam ko'rsatishda qo'llaydigan ko'nikmalari va bilimlarining o'ziga xos majmuiga bog'liq bo'ladi.

Ijtimoiy ishdagi turli rollarni bajarish uchun ko'p sonli vazifalarni bajarish zarur. Ish vazifasi o'ziga xos professional rol bilan bog'liq bo'lgan majburiyat, vazifa yoki faoliyat sifatida ta'riflanishi mumkin. Shunday qilib, samarali faoliyat olib borish uchun ijtimoiy xodim ijtimoiy xodimlar tomonidan bajariladigan rollarni to'g'ri anglashi va undan kutilayotgan vazifalar va faoliyat turlarini chuqur o'rganilganligi talab etiladi.

Odamlarga yordam berishga yo'naltirilgan, jismoniy terapiya, tibbiy parvarish, maslahatlar va hokazo kabi ko'plab kasblarning rollari ijtimoiy me'yorlar, xizmatlar turi, Shuningdek, bu kabi faoliyatga ruxsat beruvchi ma'muriy qoidalar yoki qonunlar tomonidan belgilab qo'yilgan. Ijtimoiy ish sohasi ijtimoiy xodimdan ularni bajarilishi kutiladigan o'z rollarini shakllantiradi. Garchi odamlar o'zlarining kasbiy rollari sarhadlaridan chiqib ketuvchi imkoniyatlar va qobiliyatlarga ega bo'lsalar-da, mazkur kasbning har bir vakili kamida unga ijtimoiy ishdagi ajratilgan rollarni bajarishga tayyor bo'lishi lozim.

U yoki bu lavozimga oid vazifalarni bajarar ekan, ijtimoiy xodim bitta yoki ko'pincha sodir bo'lganidek, bir nechta rollarni birdaniga bajarishi mumkin. Har qanday amaliy rolni bajarishda bir nechta bir-biridan farq qiluvchi rollardan foydalanish talab etiladi. Shuningdek, aynan bitta o'ziga xos vazifa yoki faoliyat turli rollarni bajarishda qo'llanilishi mumkin. Masalan, inson ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish brokeri, mazkur mijozga xizmat ko'rsatuvchi maslahatchi yoki klinika vrachi rovida bo'lib turib ham mijoz vaziyatini baholash vazifasini bajarishi mumkin.

Ijtimoiy xodim bajarayotgan rollar orasida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin: xizmat ko'rsatish sohasi brokeri (vositachi), ijtimoiy va moslashish ko'nikmalari o'qituvchisi, maslahatchi/klinik vrach, keys menedjer (keys ingliz

tilidan “holat”), ish yuklamasi menedjeri, xodimlar shtatini rivojlantirish tashkilotchisi yoki administrator, ijtimoiy o‘zgarishlar agenti, o‘z ishining ustasi.

Qator amerikalik olimlar ijtimoiy xodim rollarining quyidagi ro‘yxatini taklif qiladilar:

*Vositachi:* ijtimoiy tizimning bir yoki undan ortiq darajalarida mijozlar o‘rtasidagi nizolarni neytral holatni saqlagan holda hal etuvchi, kasbiy ma’lumotga ega professional.

*Integrator yoki muvofiqlashtiruvchi:* tizimning turli tarkibiy qismlarini ijobiy o‘zgarishlarni shakllantirish maqsadida bir butunga birlashtirish vazifasi yuklatilgan professional.

*Bosh menejer:* muayyan loyiha, dastur yoki agentlikka ma’muriy mas’ul bo‘lgan professional.

*Tarbiyachi:* asosiy vazifasi ko‘nikmalarni rivojlantirish maqsadida ma’lumot etkazib berishdan iborat bo‘lgan ijtimoiy xodim.

*Tahlilchi yoki baholovchi:* roli mijozlar yoki mijoz bilan ishlash tizimi faoliyatining samaradorligini baholash uchun ma’lumotlar to‘plash va zarurat tug‘ilganda uni o‘zgartirish uchun tavsiyanomalar ishlab chiqishdan iborat bo‘lgan ijtimoiy xodim.

*Broker:* mijozlar tizimini mavjud manbalar yordamida, Shu bilan birga mijozni insonparvar va samarali usul yordamida davolash tizimi manbalari bilan ta’minlagan holda bog‘lovchi ijtimoiy xodim.

*Etakchi:* o‘zgarishlarga odamlar guruhini birlashtirish va ularga o‘z shaxsiy manbalaridan, Shuningdek, ijobiy o‘zgarishlarga erishish maqsadida boshqa tizimlar manbalaridan foydalanishda yordam ko‘rsatgan holda erishishga imkoniyat yaratuvchi ijtimoiy xodim.

*Tashabbuskor:* hal etilmagan muammolar yoki zaruratga e’tibor qaratuvchi ijtimoiy xodim.

*Muzokara olib boruvchi:* mijozlar tizimi nomidan ish yurituvchi ijtimoiy xodim.

*Safarbar qiluvchi:* quvvat to‘plovchi, boshqalarni ham quvvatlantiruvchi,

Shuningdek, yangi yoki mavjud guruhlarni tashkillashtiruvchi ijtimoiy xodim.

*Advokat:* yordamga muhtoj kishilarning huquq va manfaatlari uchun kuraShuvchi ijtimoiy xodim.

*Autrich-xodim:* muayyan mijozlar tizimini belgilovchi va yordam ko'rsatish maqsadida ular bilan faoliyat olib boruvchi ijtimoiy xodim<sup>1</sup>.

Vositachi rolida ijtimoiy xodim mijoz vaziyati va yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan manbalarni baholash ishlarini amalga oshiradi, ma'lumot taqdim qiladi va mavjud manbalarni birlashtiradi. Ijtimoiy va moslashish ko'nikmalari o'rgatuvchisi sifatida ijtimoiy xodim mijoz xulqini o'zgartirishga ko'maklashadi. Maslahatchi sifatida esa uning holatini baholaydi, ma'lumot to'playdi va ijtimoiy davolashni tashkillashtiradi.

Keys-menedjer rolida ijtimoiy xodim holatni baholagandan so'ng iste'mol qilinayotgan xizmatlarni, aloqalarni va nazoratni amalga oshiradi, muayyan faoliyat bo'yicha ish bilan ta'minlashni himoya qiladi. Ishchi yuklama hajmi menedjeri xizmatlarni rejalashtiradi, xizmatlarning nazoratini amalga oshiradi, olingan ma'lumotlarni qayta ishlaydi. Xodimlar shtatini rivojlantirish tashkilotchisi va ma'muriyat boshlig'i xodimlarni va dasturlarni boshqarish vazifasini bajaradi, ishni nazorat qiladi, ichki va tashqi faoliyatni muvofiqlashtiradi, maslahat beradi, xodimlarni o'qitadi.

Ijtimoiy o'zgarishlar agenti sifatida ijtimoiy xodim ijtimoiy muammolarni va ijtimoiy siyosatni tahlil qiladi, jamoaviy manfaatlarni himoya qiladi, tashkilotning ijtimoiy manbalarini rivojlantiradi, ijtimoiy e'tiborni safarbar qiladi.

Barcha holatlarda ham ijtimoiy xodim o'zining o'z ishi ustasi bo'lish kabi asosiy vazifasini bajarishi lozim. Buning uchun u doimiy ravishda o'z faoliyatini baholab borishi, professional va shaxsiy rivojlanishi bilan Shug'ullanishi, ijtimoiy ish kasbini yaxshilashi lozim ( 4 ilovaga qarang).

Ayrim hollarda ijtimoiy xodim, uyushmada ishlash jarayonida odamlarga yordam ko'rsatish, ularning muammolarini namoyon qilish va aniqlash (baholash) rag'batlantiruvchisi bo'lib xizmat qiladi, Shuningdek, guruhlarning o'zgarishlarni ta'minlash bo'yicha kuchlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishga intiladi.

Masalan, kalamushlar makon qilgan kvartiradagi yashovchilar guruhiga huquqiy himoyaga erishish maqsadida uy egasiga qarshi birlashish va qarshi chiqish taklif qilingan.

Boshqa holatlarda uyushmadagi ijtimoiy xodim o'z vazifalarini jamoaviy muassasalar vakillarining qo'llab-quvvatlamasligiga qarshi kuraShuvchi *advokat* (mijozlarning zarur manbalardan foydalanishlarida adolatlilik va teng huquqlilikni ta'minlash) roliga bajaradi. Advokat rolini assotsial xodim muassasalarni chora ko'rishga qaratilgan talablarga javob berishga chaqirgan holda mijoz tizimi bilan birga olib boradi. Ijtimoiy xodim, masalan, politsiyadan himoya qilishga urinishlarni amalga oshirishda mijozni nomidan ish yuritishi mumkin.

Jamoalar darajasidagi ijtimoiy xodimlar ham Shuningdek, pedagog rolini (o'zgarishlarga imkon yaratish maqsadida bilim/ta'lim ko'nikmalari mavjud bo'lgan hollarda) bajarishlari mumkin. Masalan, jamiyatdagi ingliz tilini bilmaydigan ayollarni mammolog ko'rigidan o'tishlari qanchalik muhim ekanligini o'qitishni tashkil etish yo'li bilan.

Boshqa rollarga quyidagilar kiradi:

- *analitik (tahlilchi)* / baholovchi (dasturlar yoki muassasalar faoliyatining samaradorligini aniqlash)
- *etakchi* (muloqotni yaxshilash yo'li bilan o'zgarishlarga erishish bo'yicha o'zaro hamkorlikdagi faoliyat).

Ijtimoiy xodimlar oila a'zolari bilan ish olib boruvchi amaliyotchi vrachlarga yordam ko'rsatishda tobora markaziy o'rinni egallab bormoqdalar. Ijtimoiy xodimlar tobora ko'proq ixtisoslashtirilgan kasalxonalarda, oilaviy klinikalarda, zo'ravonlik qurbonlarining inqirozli markazlarida, uyda sog'liqni saqlash dasturlarida, xospislarda parvarishlash bo'yicha xizmat ko'rsatish kabi salomatlik bilan bog'liq turli xizmatlar ko'rsatmoqdalar<sup>1</sup>.

4. *Ijtimoiy ishda bilim, qadriyatlar va ko'nikmalar.* Ijtimoiy ishning professional amaliyoti bilimlar, qadriyatlar, axloq va ko'nikmalarga asoslangan. Bilimlarning umumiy hajmi, avvalambor, gumanitar bazaga, Shuningdek, rejalashtirilgan o'zgarishlarga bog'liq. Har bir jihat ijtimoiy xodimning professional

faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy ish bo'yicha Kengash (CSWE) mazkur jihatlarni ijtimoiy ish bo'yicha bakalavrlar (BSW) va magistrning (MSW) o'quv rejalariga va ta'lim dasturlarining aniq predmetlariga kiritgan.

Ijtimoiy xodimlar uchun asosiy prinsip odamlarning ijtimoiy maqomi, irqi, teri rangi, diniy e'tiqodi, jinsi, jinsiy qarashlari/jinsiy mansubligi yoki yoshidan qat'iy nazar, barcha insonlarning qadrliligi hisoblanadi. Inson hayotining qiymati barcha qadriyatlardan ustun va inson manfaatlarini himoya qilish jamiyatda insonparvarlikka va ijobiylikka asoslangan munosabatni talab etadi. Muammolari mavjud odamlarni, ushbu muammolar tabiatidan qat'iy nazar, muhokama qilish yoki ayblash mumkin emas.

Ijtimoiy xoimlarning ta'kidlashicha, xolisona munosabat qadr-qimmat, shaxsiy daxlsizlikka ega bo'lishda muhim ahamiyatga ega va mijozlar hech bir shartlarsiz qabul qilinishi zarur. Bundan tashqari, mijozlar (bittadan ortiq odamlarni, oila yoki salomatlik va imkoniyatlari cheklangan katta yoshli insonlar guruhini qamarab oluvchi mijozlar tizimi) avtonomlik huquqiga – ularning hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi harakatlarning yo'nalishlarini belgilash huquqiga egadirlar.

Xuddi Shu kabi, guruhlar va uyushmalar mazkur asosiy huquqlarni qo'llab-quvvatlaydilar. NASW o'z a'zolari uchun barcha qiymatlarni qamrab olgan holda axloq kodekslarini belgilab berdi. Kuchli professional madaniyat ishlab chiqilgan va ijtimoiy ish amaliyotchilarining davlat va milliy uyushmalari orqali ifodalanmoqda.

Kasbiy axloq tuShunchasi, Shunday qilib, amaliyotning ma'naviy prinsiplariga kiradi. Ijtimoiy ish qadriyatlari ijtimoiy xodimlarning odamlar va jamiyat haqidagi fikrlarining asosini shakllantiradi, axloq (etika) esa aniq vaziyatlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar chegarasini belgilab beradi. Har ikki tuShuncha, qadriyatlar va axloqiy ikkilanishlar, nizolar odatiy hodisalar hisoblanadi.

Ijtimoiy xodimlarda, ularning mijozlari kabi ko'pincha boshqa guruhlar manfaatlarini bilan o'zaro ixtiloflarga kirishuvchi referent guruhlar ham mavjud. Masalan, mijoz kasallik holatida professional tibbiy yordamdan foydalanishni

ta'qiqlovchi diniy guruhga mansub bo'lishi mumkin. Ijtimoiy xodim bu holatda tibbiy aralaShuvni amalga oshirish uchun keskin harakatlarni amalga oshirishi mumkin.

Bu kabi holatlarda ijtimoiy xodimning ma'naviy (axloqiy) burchi nimadan iborat? Nizo paydo bo'lganida mijoz manfaatlarini qay tarzda yuqori darajada himoya qilishi mumkin? Bu kabi holatlarda mijozda o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi mavjudmi? O'zingizdan so'rab ko'ring, siz nima qilgan bo'lar edingiz? Savolga javob berayotganingizda bu kabi vaziyatlarda oson bo'lmasligini anglab etasiz. IJMUning axloq kodeksini o'qib chiqib, bu holatda tegishli paragrafni axloqiy xulqqa qay tarzda bog'lash mumkinligini anglash mumkin<sup>1</sup>.

Amaliyotchi ijtimoiy xodimlar quyidagilarni bilishlari talab etiladi: ijtimoiy ish amaliyoti kontekstida tanqidiy fikr yuritish ko'nikmalarini qo'llash; kasbning qadriyatlari, uning axloqiy me'yorlari va prinsiplarini tuShunishlari; hech qanday kamsitish va tahqirlashlarga yo'l qo'ymasliklari; alohida shaxslar, oilalar, guruhlar, tashkilotlar va uyushmalar bilan ijtimoiy ish olib borish jarayonida amaliy bilim va ko'nikmalaridan foydalanishlari; tahlil qilish, ta'riflash va ijtimoiy siyosatga ta'sir o'tkazishlari.

5. *Ijtimoiy himoya tizimida boshqaruv va tashkillashtirish.* Professional ijtimoiy xodim faoliyat olib borish huquqini davlat va xususiy idoralardan oladi va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi ishlanmalar, fikrlar va baholashlarni amalga oshiruvchi asosiy shaxs hisoblanadi. Professional ijtimoiy xodimlar global kontekstda xizmat ko'rsatish tizimining turli tashkilotlarida etakchilar hisoblanadi. Ijtimoiy ish kasbi xizmat ko'rsatish, ijtimoiy va iqtisodiy adolatlilik, inson qadr-qimmatini va qadriyatlari, insonlar o'rtasidagi munosabatlarning muhimligi, Shuningdek, amaliyotdagi bir butunlik va layoqatlilikka asoslanadi.

Mazkur prinsiplar asosidagi ijtimoiy ishning maqsadi quyidagilardan iborat:

- Insonlarning xotirjamligini va osoyishtaligi darajasini oshirish, kambag'allik, azoblash va ijtimoiy adolatsizlikning boshqa shakllarining oldini olish;
- Alohida shaxslar, oilalar, guruhlar, tashkilotlar va uyushmalarning ijtimoiy

faoliyati va o‘zaro munosabatlarining sifatini ularni o‘z maqsadlariga erishish, manbalarni o‘zlashtirish, qiyinchiliklarni engillashtirish va bartaraf qilishga jalb qilish yo‘li bilan oshirish;

- Insonning asosiy ehtiyojlari va talablariga javob beruvchi hamda inson imkoniyatlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvatlovchi ijtimoiy siyosat, xizmatlar va dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- Siyosat, xizmatlar va manbalarni ijtimoiy-iqtisodiy adolatlilikka imkoniyat yaratuvchi ijtimoiy yoki siyosiy harakatlar va targ‘ibot ishlari vositasida amalga oshirish;

- Ijtimoiy ish amaliyotini rivojlantirishga imkoniyat yaratuvchi tadqiqotlar, bilim va ko‘nikmalarni ishlab chiqish va qo‘llash;

- Ijtimoiy ish amaliyotini turli madaniyatlar kontekstida ishlab chiqish va qo‘llash.

(Manba: Standartlarni akkreditatsiya qilish siyosati masalalari bo‘yicha ijtimoiy ish Kengashi. Vashington, Kolumbiya okrugi: “Ta’lim” ijtimoiy ish Kengashi, 2004. – 5 b.)<sup>1</sup>.

Bolalar, yoshlar va oilalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarda ham ijtimoiy xodimlar muhim o‘rin tutadi. Bu oilaviy xizmat ko‘rsatish mahalliy agentliklari hisoblanadi. Shunday qilib, AQSHdagi qator agentliklar oilalardagi noxushliklarning oldini olish, Shuningdek, alohida ehtiyojlari mavjud bo‘lgan oilalarga yordam berish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshiradilar. Bu kabi agentliklar ota-onalarni bola o‘smirlik yoshiga etganida bolalarni tarbiyalashga o‘rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqadi, axborot-targ‘ibot ishlarini amalga oshiradi, ruhiy tushkunlikka tushgan yoki bola tarbiyasida yordamga muhtoj bo‘lgan ota-onalar bilan ish olib boradi, Shuningdek, bolalar va oilaning barcha yoshdagi a‘zolariga maslahat bergan holda alohida shaxslar, oilalar va guruhlariga yordam ko‘rsatadi.

Jamoda ishlash AQSHdagi ijtimoiy ishning eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Jamoa deb, muayyan sarhadlar doirasida yashovchi insonlarga aytiladi. Umumiy e‘tiqodga ega bo‘lgan insonlar guruhi mansub bo‘lgan “diniy jamoa” turi

ham mavjud. Shuningdek, muayyan geografik hududda yashovchi etnik guruh a'zolari ham jamoa (uyushma) bo'lishi mumkin.

Jamoa (uyushma)ning ishchi ta'rifi sifatida o'ziga xos hudud doirasidagi odamlarning o'zaro munosabatlari va mansubliklarini, makonni qabul qilish mumkin. Uyushmaning ijtimoiy xodimlar jalb qilingan ko'p uchraydigan turlaridan, ehtimol geografik yoki hududiy jamoalar, mansublik va manfaatlar jihatidan bir xil bo'lgan jamoalar, an'anaviy jamoalar va turli-tuman uyushmalarni aytib o'tish mumkin.

Geografik yoki hududiy uyushmalar kvartallarni, shaharlarni, qishloq va aniq belgilangan geosiyosiy chegaralarga ega bo'lgan hududlarni qamrab oladi; manfaatlariga ko'ra uyushmalar (etnik, din, turmush tarzi, jinsiy yo'naltirilganlik yoki kasb); o'zlarining o'ziga xosligini, noyobligini, madaniy yaxlitligini va tarixiy mansubligini saqlab qolishga intilayotgan an'anaviy uyushmalar.

Zamonaviy jamiyatda turli-tuman uyushmalar juda ko'p, ulardagi ijtimoiy xodimlarning roli odamlar bilan samarali ish olib borish amaliyoti uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalardan iborat. Ijtimoiy ish amaliyotchilari aynan bir xil kasbiy rol o'ynaydi, xuddi alohida shaxslar, oilalar va guruhlar bilan ish olib borishda qo'llanilgani kabi. Uyushmadagi ijtimoiy ish muammolar va masalalarning keng doirasini qamrab olishi mumkin, misol sifatida quyidagi holatni keltirib o'tish mumkin<sup>1</sup>:

Norma Karleson, BSW diplomiga ega bo'lgan ijtimoiy xodim Brenda Bostiuk bilan bir necha oy davomida ishlaydi. Brenda (16 yosh) o'rta maktabni muvaffaqiyatli tamomlab, yaxshi ish topishga va o'z farzandini yaxshiroq ta'minlashga intilayotgan ota-onalardan biri hisoblanadi. U maktabdagi mashg'ulotlari davomida muammoga duch keladi, chunki bola parvarishi tufayli ko'p dars qoldirishiga to'g'ri keladi. Qator holatlarda maktab rahbariyati unga mashg'ulotlarni ko'p qoldirgani uchun tanbeh beradilar.

Brendaning ruxsati bilan Norma maktab ma'muriyati bilan uchrashdi va ularni Brendaning qolib ketgan darslarini etkazib olishi uchun unga individual ta'lim dasturi bo'yicha ishlashni taklif qiladi. Norma bola parvarishi bo'yicha



mahalliy markaz bilan bogʻlanadi va Brendaga oʻqishda boʻlgan vaqtida bola parvarishiga yordamni tashkillashtirishda yordam berdi. Norma xususiy avtobus kompaniyasi bilan kelishib, Brendaga maktabdan bola paravarishi markazigacha oʻz bolasi oldiga bora olishi uchun imkoniyat yaratib berdi.

Norma manfaatdor ijtimoiy xodimlar va maktabning mansabdor shaxslari tarmogʻini tashkillashtirishga yordam berdi. Natijada manfaatdor tomonlarning kuchlarni oʻzaro birlashtirgan holda barcha oʻsmirlar uchun transport taʼriflari pasaytirildi, homiladorlar bilan ishlash va oʻsmir yoshdagi bolalarni tarbiyalash dasturini moliyalashtirish uchun grant yutib olindi.

Normaning bilim va koʻnikmalarisiz, muammoni ijobiy hal qilishga sabab boʻlgan mexanizmlarsiz, ehtimol, Brenda maktabni tugata olmas va oʻrta maʼlumotga ham ega boʻla olmas edi. Mijozlar koʻpincha oʻz muammolarini muvaffaqiyatli ravishda hal etish imkonini beruvchi manbalar yoki jarayonlarning mavjudligi haqida bilmaydilar. Ayrim holatlarda mijozlar oʻzlariga ishonchsizliklari tufayli maqsadga erishishga olib keluvchi imkoniyatlarni izlashdan qoʻrqadilar. Bundan tashqari, zarur manbalardan foydalanish imkoniyati har doim ham mavjud boʻlavermaydi.

Shunday qilib, ijtimoiy xodimlar bevosita amaliyot davomida koʻpincha jamoa bilan ish olib borish muammolarni hal qilish jarayonida muhim oʻrin tutishini anglab etadilar.

### **Nazorat savollari**

1. Ijtimoiy xodimlarga qanday bilimlar zarur?
2. Ijtimoiy ish mohiyati va vositalari nimalardan iborat?
3. Xorijdagi ijtimoiy himoya tizimi muassasalari va tashkilotlarini aytib oʻting.
4. Ijtimoiy ish boʻyicha mutaxassisning rolga oid repertuari qanday?
5. Ijtimoiy ishda kasbiy layoqatlilikning asosiy tarkibiy qismi nimalardan iborat?
6. Oʻzbekistonda aholini ijtimoiy himoya qilish muassasalari va tashkilotlarini sanab oʻting.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ganieva M.X. Ijtimoiy ishga kirish. – Toshkent; O‘zMU, 2011.
6. Ganieva M.X. Ijtimoiy ish asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: CHASHMAPRINT, 2009. – 112 b.
7. O‘zbekiston ijtimoiy xodimining kasbiy va axloqiy kodeksi. J.Bola va zamon, Toshkent: SealMAG Markazi, 2009. – № 4 (17). – 11-21 b.
13. Ijtimoiy xodimning xalqaro axloqiy va kasbiy Kodeksi / “Ijtimoiy ish asoslari” o‘quv kursi bo‘yicha xrestomatiya. – O‘zR OO‘MTV, YUNISEFning “O‘zbekistonda ijtimoiy ish bo‘yicha qayta tayyorlash dasturi va “ijtimoiy xodim” kasbining ommalashtirilishi” loyihasi xrestomatiyasi. – Toshkent, 2009.
2. Charles Zastrow. Introduction to Social work and social welfare. Empowering People. George Williams College of Aurora University. Printed in Canada: Brooks/Cole, Cengage Learning, 2010.
3. Ambrosino R., Ambrosino R., Heffernan J., Shuttlesworth G. Social Work and Social Welfare: An Introduction. Sixth Edition. – Thomson Brooks/Cole, 2008.
4. Introduction to social work in the United States. Ed. Andrew Hamid, PhD. – School of Social Work, Columbia University

## 6-MAVZU. ZAMONAVIY DUNYODA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH MODELLARI

1. *Aholini ijtimoiy himoya qilish: tuShuncha, maqsad va vazifalari.*
2. *Ijtimoiy himoya modellari.*
3. *G‘arbiy Evropa va AQSHda ijtimoiy ta’minotning zamonaviy shakllari.*

**Kalit so‘zlar:** aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy himoya ob’ekti, ijtimoiy himoya modellari, liberal model, konservativ model, ijtimoiy-demokratik model, umumiy farovonlik davlati konsepsiyasi, ijtimoiy sug‘urta, ijtimoiy yordam, pensiya, nafaqa, ijtimoiy yordam dasturlari.

1. *Aholini ijtimoiy himoya qilish: tuShuncha, maqsad va vazifalari.* Ijtimoiy himoya tuShunchasi nimani anglatadi? Ijtimoiy himoya jamiyat va uning turli tuzilmalari tomonidan hayotning minimal etarli kafolatlangan sharoitlarini

ta'minlash, hayot ta'minotini qo'llab-quvvatlash va insonning faol harakatlarini ta'minlash bo'yicha amalga oshiradigan tadbirlar tizimi demakdir.

Ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta'minot tushunchalari bir-biriga bog'liq, biroq ular bir xil emas. Ularni ilmiy ta'riflar sifatida qo'llash jarayonida ijtimoiy ish o'zini ijtimoiy ta'minotning bir qismi sifatida ifodalaydi, bundan tashqari, inson hayot faoliyatining me'yoriy sharoitlarini ta'minlovchi mehnatni, salomatlikni va tabiiy muhitni muhofaza qilishni qamrab oladi.

Bugungi kunda aholini ijtimoiy himoya qilish ostida qonuniy jihatdan belgilab qo'yilgan iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy kafolatlar va huquqlar majmui, ularning amalga oshirilishini ta'minlovchi va avvalambor, aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj bo'lgan turli qatlamlarini va guruhlarining hayot faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun sharoitlarni yaratuvchi ijtimoiy institutlar va muassasalar tushuniladi.

Ijtimoiy himoya ob'ekti – aholining barcha guruhlari. Biroq bunda aholining himoyaga muhtoj qatlamlari: past darajadagi daromadga ega oilalar, nogironlar, keksalar, etim bolalar, yolg'izlar va ko'p bolali oilalar, ekologik ofatlar qurbonlari va hokazolar alohida ustunlikka ega.

Dunyo amaliyotida aholini ijtimoiy himoya qilishning ikki turi – faol va passiv ijtimoiy himoya ajratib ko'rsatiladi. Faol ijtimoiy himoya jamiyatning mehnatga layoqatli a'zolariga yo'naltirilgan va odamlarning o'z-o'zini mehnat bozoridagi faol harakatlari va ularning ijtimoiy sug'urtada ishtirok etishlari orqali himoya qilishi uchun sharoit yaratishni taqozo qiladi. Passiv ijtimoiy himoya aholining mehnatga layoqatsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga qaratilgan va avvalambor to'g'ridan-to'g'ri moliyaviy qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ijtimoiy himoyaga ijtimoiy sug'urta va ijtimoiy yordamni kiritadi. XMT konvensiyalarida aholini ijtimoiy himoya qilishning asosiy prinsiplari shakllantirilgan, ijtimoiy himoyaning ular ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan turli ko'rinishlarining asosiy minimal darajasi belgilangan.

Ijtimoiy himoyaning milliy tizimlari XMT konvensiyalari asosida muayyan

mamlakatning madaniy rivojlanishining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda shakllanadi.

Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi va professional ijtimoiy ish o'zaro chambarchas bog'liq va bir-biriga aloqador. Faoliyatning professional turi sifatida ijtimoiy ish zarur qonuniy va me'yoriy baza, rivojlangan infratuzilma, tayyorlangan kadrlarni, bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy ish ijtimoiy institut sifatida ifodalashi mumkin bo'lgan barcha narsalarning mavjudligini taqozo qiladi.

Ijtimoiy himoya turlari quyidagilarga bo'linadi:

Davlat shakllari: bepul sog'liqni saqlash xizmatlari; imtiyozlar; bepul ta'lim; pensiya ta'minoti; ijtimoiy xizmat ko'rsatish va ijtimoiy xizmatlarni taqdim qilish; nafaqa va kompensatsiyalar to'lash.

Nodavlat shakllari: ixtiyoriy ijtimoiy sug'urta; xayriya; sog'liqni saqlashning xususiy tizimlari va boshq.

2. *Ijtimoiy himoya modellari.* Gesta Esping-Andersen (1947 y.t.) – ijtimoiy davlat va uning kapitalistik iqtisodiyotdagi o'rniga asosiy e'tibor qaratgan daniyalik sotsiolog. O'zining 1990 yilda chop etilgan “Kapitalizm farovonligining uchta dunyosi” nomli asosiy va eng mashhur kitobida G.Esping-Andersen <http://www.strana-oz.ru/?article=523&numid=12> ijtimoiy davlatlarning uchta asosiy modellarini ajratib ko'rsatgan: *liberal, konservativ (korporativ) va ijtimoiy-demokratik.*

Mazkur modelni tadbqiq qilishning asosiy shartlari (AQSH, Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya) davlatning bozor iqtisodiyotiga minimal darajada qamrab olinganligi va davlat boshqaruvi tadbirlarining cheklangan holda qo'llanilishi.

*Liberal model* fuqarolarni sug'urtaning rivojlangan tizimi hisobiga va muayyan kafolatlarning tartibga soluvchisi bo'lgan davlatning minimal aralaShuviga asoslangan. Sug'urta to'lovlarining miqdori, odatda, uncha yuqori emas. Moddiy yordam manzilli yo'naltirilganlikka esa va faqatgina muhtojlikni tekshirish asosida taqdim qilinadi.

*Konservativ (korporativ) model* ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga

ega bo'lgan mamlakatlar (Avstriya, Germaniya, Italiya, Fransiya) uchun xos. Bu o'rinda davlatning o'rni yuqori ahamiyatga ega: ijtimoiy tadbirlarga ajratiladigan byudjet mablag'lari xodimlar va ish beruvchilarning sug'urta to'lovlariga deyarli teng, qayta taqsimlashning asosiy kanallari davlat qo'lida yoki uning nazorati ostida bo'ladi. Shu bilan birga davlat fuqarolarni moddiy qo'llab-quvvatlashni sug'urta himoyasi tizimiga topshiradi. Aynan Shu sababli ijtimoiy nafaqalarning miqdori mehnat daromadlari va mos ravishda sug'urta to'lovlariga ajratmalar miqdoriga proporsional bog'liq. Ishsizlik holatida kafolatlangan to'lovlar miqdori mehnat stajiga bog'liq, to'lash muddatlari esa – sug'urta to'lovlarini to'lash davomiyligi, ularning miqdori va xodimning yoshiga bog'liq bo'ladi.

*Ijtimoiy-demokratik model* (ayrim hollarda uni yakdillik modeli, deb ataydilar) davlatning aholini himoya qilishdagi etakchi rolini nazarda tutadi. Davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari aholi daromadlarini tenglashtirish va umumiy bandlik hisoblanadi (SHvetsiyada, Norvegiyada, Finlyandiyada, Daniyada, Shuningdek, Niderlandiyada va SHveysariyada). Ijtimoiy muhitni moliyalashtirishning asosi sifatida iqtisodiyotning barqarorlashtirilishiga birinchi navbatda soliqqa tortishning yuqori darajasi imkoniyat yaratuvchi rivojlangan davlat sektori xizmat qiladi.

*Ijtimoiy davlatning ko'pincha egalitar*, deb nomlangan *shved doktrinasi* yuqori darajadagi mashhurlikka erishdi. U davlatning o'z fuqarolari to'g'risidagi g'amxo'rlikni, ularga "xavfsizlik, ishonchlilik va xavfli vaziyatlarga himoyani, Shuningdek, himoyani tashkillashtirish va boshqarishni va'da qilgan holda" milliy marosim darajasiga olib chiqadi. SHvedlar uchun qarindoshlarga yoki xayriyaga, ayniqsa, bozorga tobe bo'lish zarurati mavjud emas. Beshikdan to qabrgacha ularga davlat g'amxo'rlik qiladi"<sup>1</sup>.

Bu kabi oliy maqsadni amalga oshirish uchun 1977 yilda SHvetsiyada ijtimoiy idoralarning qayta tashkillashtirilishi amalga oshirildi va ijtimoiy xizmatning keng ko'lamli, biroq aniq va aholiga tuShunarli vazifalari shakllantirildi. Ular orasida to'rtta asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin: daromadni kafolatlash, atrof muhit va xizmat ko'rsatishga qaratilgan tadbirlar,

mehnat sohasini (jumladan, sog‘liqni saqlash tizimini) boshqarish va himoya qilish. Yo‘nalishlarning har biri uchun muayyan ijtimoiy institut javobgar.

Qayd qilingan uchta model dunyoning hech bir erida, ijtimoiy davlatning har biri o‘z afzalliklari va kamchiliklariga ega bo‘lgan “ideal turi”ni aks ettirgan holda, sof holatda uchramaydi. Amaliyotda odatda liberal, korporativ va ijtimoiy-demokratik modellar elementlarining, ulardan birining jihatlari aniq ustunlikka ega bo‘lgan birikmasini kuzatish mumkin.

3. *G‘arbiy Evropa va AQSHda ijtimoiy ta‘minotning zamonaviy shakllari.* G‘arbiy Evropaning deyarli barcha mamlakatlari ijtimoiy xavf holatlarini nazarda tutgan holda ijtimoiy sug‘urtadan foydalanadilar va qashshoqlik chegarasida bo‘lgan odamlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatadilar. Biroq mazkur mamlakatlarda ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy yordam turlicha amalga oshiriladi va Shu sababli ular to‘rt guruhga bo‘linishi mumkin:

1. To‘lovlar va nafaqalar miqdori individual sug‘urta to‘lovlariga bog‘liq bo‘lgan mamlakatlar.

2. Nafaqa va to‘lovlar miqdori ko‘proq individual ehtiyojlarga mos bo‘lgan, moliyalashtirish esa asosan soliq jamg‘armalaridan to‘lanuvchi mamlakatlar.

3. YUqoridagi ikki holat o‘rtasidagi oraliq vaziyatni egallab turuvchi mamlakatlar.

4. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimlari mavjud bo‘lmagan va endigina shakllanayotgan mamlakatlar.

*Birinchi guruhga* Germaniya, Fransiya, Belgiya va Lyuksemburg kiradi. Bu mamlakatlarda aholini himoya qilish tizimi shartnoma-sug‘urta prinsiplariga asoslangan. Yollanma ishchilar o‘z daromadlarining muayyan qismini sug‘urta jamg‘armasiga o‘tkazadi, bu esa o‘z navbatida ularga o‘zlarining sug‘urta jamg‘armalarida to‘plangan mablag‘lariga mos bo‘lgan miqdorda yordam zarur bo‘lganda jamg‘arma xizmatlaridan foydalanish imkonini beradi. Bir vaqtning o‘zida ish beruvchilar o‘zlarining yollanma ishchilari nomidan muayyan miqdordagi mablag‘larni sug‘urta jamg‘armasiga o‘tkazadilar.

Ko‘p hollarda sug‘urta jamg‘armasidan to‘lanadigan mablag‘lar miqdori

oylik maoshga bog‘liq bo‘ladi va ishchi va ish beruvchi to‘lovlari hisobiga to‘plangan mablag‘ miqdori bilan bog‘liq bo‘ladi. Tibbiy xizmat va oilaviy nafaqalar uchun xarajatlar bundan mustasno. Mazkur tizimning asosiy maqsadi – kasallik, nogironlik va ishsiz qolish holatlarida insonning turmush darajasini tushirib yubormaslikdan iborat. Bu kabi tizim inson daromadlarini uning jismoniy hayoti davomida qayta taqsimlash imkonini beradi. Barcha Evropa mamlakatlarida sug‘urta to‘lovlari ijtimoiy himoyani moliyalashtirishning asosiy manbai hisoblanadi.

Biroq mazkur guruhdagi mamlakatlarning barchasida davlat o‘z zimmasiga fuqarolar oldida har bir fuqaroning daromadi u avval qanday daromadga ega bo‘lganidan va sug‘urta jamg‘armasiga qancha to‘lov qilganligidan qat’iy nazar, kafolatlangan minimumdan pasayib ketmasligini ta’minlashni oladi. To‘lovlarning bu turi umummilliy byudjet mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

Sog‘liqni saqlash tizimi asosan sug‘urta to‘lovlari hisobidan qoplanadi, biroq tibbiy xizmat ko‘rsatish minimumi byudjet hisobidan amalga oshiriladi. Tibbiy xizmat ko‘rsatish asosan xususiy sektor zimmasiga, fuqarolarning sarf-xarajatlarini keyinchalik davlat tomonidan qoplab berish sharti bilan amalga oshiriladi.

Buyuk Britaniya, Daniya, Irlandiya kabi davlatlardan tashkil topgan *ikkinchi guruh* birinchi guruhdan ijtimoiy himoya sug‘urta jamg‘armalari bilan eng kam darajada bog‘langanligi bilan ajralib turadi. Mazkur mamlakatlarda ijtimoiy muhitni moliyalashtirishda davlat byudjeti muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy to‘lovlar va nafaqalar nisbatan bir tekisda taqsimlanadi. Bu kabi taqsimlash asosida muhtojlikdagi barcha odamlar teng degan g‘oya yotadi va Shu sababli ijtimoiy yordam insonning avvalgi daromadlariga ko‘ra emas, balki ayni vaqtdagi ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ko‘rsatilishi lozim. To‘lovlar va nafaqalar o‘rtasidagi farq asosan ijtimoiy to‘lovlar majburiy, qonun bo‘yicha ularga har bir fuqaro da’vogar bo‘lishi mumkinligi bilan bog‘liq, nafaqalar esa hammaga ham berilavermaydi, ular faqatgina muhtojlik darajasi va ijtimoiy xavf tabiatiga ko‘ra ajratiladi. Bu davlatlarda tibbiy xizmat ko‘rsatish asosan ijtimoiy sektorda amalga oshiriladi.

Mamlakatlarning *uchinchi guruhiga* ijtimoiy ta’minotning aralash tizimini

taqdim qiluvchi Niderlandiya va Italiya kiradi. Biroq ularning tizimlari birinchi guruh mamlakatlari tizimlariga yaqinroq. Biroq muayyan farqlar mavjud. Italiyada, masalan, davlat daromadlarning ijtimoiy kafolatlangan minimumini to'lash bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olmaydi. Bu kabi kafolatlarni faqatgina alohida viloyatlardagi mahalliy hokimiyat organlari amalga oshirishi mumkin. Niderlandiyada, aksincha, ijtimoiy ta'minot rivojlanishning juda yuqori darajasida turadi va tizim mamlakatning har bir fuqarosini qamrab oladi.

*To'rtinchi guruhga* Ispaniya, Portugaliya va Gretsiya kiradi. Bu mamlakatlarda aholini ijtimoiy himoya qilish bugungi kunda murtak holatida. Mazkur mamlakatlarda kafolatlangan minimal daromad mavjud emas va ijtimoiy xizmat ko'rsatish barcha fuqarolar uchun ham shakllantirilmagan.

Barcha mamlakatlarda bolalar uchun ajratiladigan nafaqalar miqdori har bir yangi chaqaloq tug'ilishi bilan ortib bormoqda. Irlandiya, Niderlandiya, Portugaliya va Buyuk Britaniya bundan mustasno, bu erda nafaqa miqdori ikkinchi va uchinchi farzand tug'ilishi bilan o'zgaradi. Belgiya, Germaniya, Italiya va ayniqsa, Fransiyada to'lovlar ikkinchi farzand tug'ilishidan boshlab ortib boradi.

Ko'plab mamlakatlarda homiladorlik va tug'ruq bilan bog'liq nafaqalar miqdori oshirilgan. Bu kabi siyosat ish, karera hamda uy va oila tashvishlarini o'zaro birlashtirish uchun sharoit yaratish bilan bog'liq bo'lgan. Shu munosabat bilan oxirgi besh yil davomida ko'plab mamlakatlarda homiladorlik va tug'ruq bilan bog'liq ta'tillar davomiyligi uzaytirilgan. Homiladorlik va tug'ruq bilan bog'liq eng uzoq muddatli ta'til bugungi kunda Daniya (28 hafta) va Fransiyada (26 hafta). Boshqa mamlakatlarda 13 haftadan 20 haftagacha o'zgarib turadi.

*Ijtimoiy ta'minotning Evropa tizimi.* Turli mamlakatlarda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi hal etiladigan masalalarning o'xshashligi va bir turliligiga qaramasdan, tarixiy sharoitlar, Shuningdek, muammoni hal etish usullari va yondaShuvlaridan kelib chiqqan holda shakllangan. Ijtimoiy himoyaning o'ziga xos xususiyati Shuningdek, aholining katta qismini turli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va yordam turlari bilan ta'minlashdan iborat.

Ijtimoiy himoyaning Evropa modeli davlatning asosida insonning "tabiiy



huquqlari” konsepsiyasi yotuvchi umumiy farovonlik nazariyasiga asoslanadi. Mazkur nazariyaning asosiy postulatlarini barcha fuqarolar uchun hayotiy rejalarni amalga oshirishning deyarli bir xil boshlang‘ich imkoniyatlarini yaratishni, ular uchun munosib hayot darajasini ta’minlashni, ijtimoiy tenglik va adolatlilik darajasini oshirishga intilishni taqozo qiladi.

Barcha teng tarzda farovon hayot kechirishini ta’minlovchi davlat barcha fuqarolarga yordam ko’rsatish imkoniyatiga ega bo’lgan, rivojlangan ijtimoiy himoya tizimini shakllantiradi, tibbiy, ta’lim, psixologik, huquqiy va boshqa hayotiy muhim xizmatlarni ta’minlaydi.

*Umumiy farovonlik davlat konsepsiyasi.* “Ummumiy farovonlik davlat” tuShunchasi ikkinchi jahon urushidan so’ng rusumga kirdi. Biroq 70 yillarning oxiri, 80 yillarning boshlariga kelib mazkur nazariya tanqid qilina boshladi. Bunga ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning hamda odamlar, ijtimoiy guruhlar va umuman aholi ehtiyojlarining o’zgarishi sabab bo’lgan. Rivojlangan davlatlarning etakchi ekspertlarining fikriga ko’ra, 80-yillarning ikkinchi yarmiga kelib, g’arb mamlakatlarida ijtimoiy ta’minot tizimi uning oldiga qo’yilgan, aholini ijtimoiy to’lovlarning turliko’rinishlari bilan qamrab olish vazifasini to’liq bajardi. 90-yillarda mazkur tizimni iqtisodiy o’sishning o’zgargan sharoitlariga, manbalar cheklanganlik darajasining ortib borishiga, yuqori darajadagi ishsizlik sharoitlariga moslashtirish vazifasi ilgari surildi.

Evropa mamlakatlarida ijtimoiy ta’minot tizimining ustuvor yo’nalishlarini belgilab bergan omillar orasida tug‘ilish darajasining pasayishi va hayot davomiylik darajasining uzayishi natijasida sodir bo’layotgan aholining tez sur’atlarda qarishi qayd qilinmoqda. Qator davlatlarda ijtimoiy dasturlarning kamaytirilishiga G’arbiy Evropa mamlakatlari boshdan kechirayotgan iqtisodiy qiyinchiliklar va ularning oqibatlarini katta ta’sir ko’rsatmoqda. Iqtisodiy inqiroz, byudjetning ortib boruvchi defitsiti, ishsizlar va kambag‘allar miqdorining ortib ketishi, aholining qarib borishi, to’liq bo’lmagan oilalar sonining ortishi va boshqa omillar davlat ijtimoiy siyosatidagi o’zgarishlarga sabab bo’ldi.

Shu bilan birga, hech bir G’arbiy Evropa mamlakati “farovon davlat”dan

to'liq voz kechish niyatida emas. Bu holat odamlar ongida davlat muhtojlar to'g'risida qayg'urishi shart, degan fikrning mustahkam o'rnatilganligi bilan bog'liq. Turli yo'nalishlarda faoliyat olib borayotgan siyosatchilar G'arb mamlakatlarida ijtimoiy ta'minot tizimini islohot qilishni davom ettirish zarurligini tan olishga majburlar.

O'n yillar davomida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy tajribasi bozor iqtisodiyoti davlatlarining ijtimoiy faoliyati amaliyotidagi umumiy va o'ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Deyarli barcha davlatlar ijtimoiy xavf tug'ilgan vaziyatda: qarilik, kasallik, nogironlik, ishsizlik va hokazolarda aholining ko'p qismi ta'minoti uchun ijtimoiy sug'urtadan foydalanishlari qayd qilingan va kambag'allik chegarasidan chiqib ketgan shaxslar uchun ijtimoiy yordam ko'rsatadilar.

*Ijtimoiy ta'minotning amerikaga xos tizimi* aniq ifodalangan ikkita yo'nalishga ega: *ijtimoiy sug'urta tizimi va ijtimoiy yordam tizimi*.

*Ijtimoiy sug'urta dasturlari* yuqori ijtimoiy maqomga ega, chunki oylik maoshi hisobiga kun kechiruvchilar muntazam ravishda tegishli jamg'armalarga soliq to'laydilar. Bu tizim aholining iqtisodiy faol qismini asosiy ijtimoiy-iqtisodiy xavflardan: qarilik, boquvchisini yo'qotish, nogironlik, kasallik, ishlab chiqarishdagi jarohatlar, ishsizlik kabilardan saqlaydi.

AQSHda ijtimoiy ta'minot tizimi murakkab va ko'p turli. AQSHda ijtimoiy ta'minotning yagona umummilliy markazlashtirilgan tizimi mavjud emas. U federal qonunchilik yoki shtat qonunchiligi, qolaversa, federal organlar va shtat hukumat organlari tomonidan belgilangan turli dasturlardan tashkil topadi.

*Ijtimoiy sug'urta dasturlari* – bu jamg'armasiga nafaqa (pensiya) oluvchining o'zi, kelgusida nafaqa oluvchi yoki uning ish beruvchisi, yoki har ikkisi tomonidan to'lanadigan maxsus soliq shakliga ega bo'lgan to'lovlarni amalga oshirishini taqozo qiluvchi dasturlar.

Qashshoqlik har qanday boshqa ijtimoiy muammoga tegishli bo'lganligi sababli mavjud bo'lgan deyarli barcha ijtimoiy xizmatlar qaysidir darajada kambag'allik (jumladan, "Anonim ichkilikbozlar" guruhlarini, sog'liqni saqlash,

professional rehabilitatsiya qilish dasturlari, yolg'iz ota-onalar, sanitar yordam qabulxonalari, kunduzgi parvarish, turar joy dasturlari, Shuningdek, mahalliy uyushma harakatlari dasturlari).

Bu kabi dasturlar qashshoqlikni qisqartirishga bilvosita ta'sir ko'rsatish, ular bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy muammolarni engillashtirishga qaratilgan<sup>1</sup>.

1935 yilda qabul qilingan qonunda ijtimoiy sug'urtaning ikki turi belgilab qo'yilgan: qarilikka (pensiya) ko'ra va ishsizlikka ko'ra (nafaqa). Qonun Shuningdek, kambag'allarning nogironlar va etimlar kabi ayrim toifalariga yordam ko'rsatishning cheklangan tadbirlarini nazarda tutadi.

*Keksalikka ko'ra davlat pensiyasini* to'liq miqdorda faqatgina 65 yoshga etgan odamlar olishi mumkin (ayollar ham, erkaklar ham bir xilda). To'liq pensiya olish uchun talab etiladigan mehnat staji 35 yil. Agar staj kamroq bo'lsa, u holda pensiya miqdori ham kamayadi.

*Ishsizlik sug'urtasi.* Mazkur sug'urta ish beruvchilarga solinadigan soliqlar hisobidan moliyalashtiriladi. Ko'plab shtatlarda ishsizlar deyarli bir yil davomida nafaqa olish huquqiga egalar. Mazkur nafaqani olish uchun ko'plab shtatlarda inson quyidagi talablarga javob berishi lozim: a) bandlik sohalarida muayyan haftalar davomida ishlash; b) ishlash qobiliyatiga ega bo'lish; s) nafaqa ajratilishiga so'rov taqdim qilish va davlat xizmatida ro'yxatdan o'tgan bo'lish; d) ishsizlik shaxsning malakasiga mos bo'lgan ishning yo'qligi bilan bog'liq ekanligini isbotlash.

*Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqa* vafot etgan kishining oila a'zolariga, agar vafot etgan shaxs qarilik pensiyasini olish huquqiga ega bo'lgan, uning oila a'zolari (turmush o'rtog'i, bolalari, ota-onalari) esa uning qaramog'ida bo'lgan holatlarda ajratiladi.

*Mehnatga layoqatsizlik bo'yicha nafaqa* ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan kasallik yoki baxtsiz hodisa natijasida nogiron bo'lib qolgan shaxslarga belgilanadi.

AQSHdagi ijtimoiy himoya tizimining ikkinchi yo'nalishi *ijtimoiy yordam* hisoblanadi. Ijtimoiy sug'urtadan farqli ravishda ijtimoiy yordam olish uchun ko'maklashish tizimida maxsus avvalgi to'lovlar talab etilmaydi. YOrdamni taqdim

qilish uchun asosiy mezon aynan muhtojlik hisoblanadi.

Ijtimoiy yordamning ko‘plab dasturlari mavjud. Adabiyotlarda 70 ga yaqin kichik va bir nechta yirik dasturlar keltirib o‘tilgan. *Ularning asosiylari quyidagilar:* kafolatlangan daromadni ta‘minlash dasturi, farzandlari mavjud muhtoj oilalar yordam ko‘rsatish dasturi, oziq-ovqat dasturi, turar joy subsidiyalari dasturi va tibbiy yordam dasturi.

Mazkur dasturlarga ko‘ra kambag‘allikda yashovchi odamlar pul ko‘rinishida nafaqa, oziq-ovqat, subsidiyalangan turar joy, ta‘lim olish, kasbiy tayyorgarlik uchun yordam oladilar. Ijtimoiy yordam olish huquqiga rasmiy ravishda kambag‘allik chegarasidan past darajada yashovchi, deb tan olinganlar ega bo‘ladi. Umumiy jihatdan AQSHda bu kabi aholi 12-15%ni tashkil etadi.

*Moddiy yordam dasturi.* Moddiy yordam dasturlarining eng mashhurlaridan biri Welfare («Velfer»), tarjimasi “farovonlik” ma‘nosini anglatadi. Dasturning boshqa nomi: Public Assistance. Dastur federal hukumat tomonidan moliyalashtiriladi va ko‘pincha shtat va shahar byudjetidan to‘ldiriladi. “Velfer”ni olish sharti turli holatlar (ish o‘rnini yo‘qotish, ishsizlik bo‘yicha nafaqa olmaslik, kichik farzandlari bo‘lgan yolg‘iz ona (ota) bilan bog‘liq ravishda muayyan darajada barqaror daromad manbasining mavjud emasligi).

SSI (Supplemental Security Income) – keksalarga (65 yoshdan oshganlarga), nogironlarga, daromad miqdori past darajada bo‘lgan kasal kishilarga pullik yordam ko‘rsatish federal dasturi.

1965 yilda qabul qilingan *Medikeyd dasturi* (Medicaid) ikki qismdan – daromad darajasi past bo‘lgan shaxslar yoki oilalar uchun kasalhona sug‘urtasi yoki tibbiy sug‘urta. U ham federal hukumat tomonidan ta‘minlanadi, biroq shtat qonunlari tomonidan boshqariladi. Medikeyt muayyan doiralarda dori-darmon uchun pul to‘lash, kasalxonada yotish, tez yordam chaqirish, vrach qabuliga tashrif buyurish, maxsus oyoq kiyimlarini, tibbiy uskunalari va hokazolarni sotib olish imkonini beradi. Odatda «Velfer» va SSI bo‘yicha to‘liq hajmda yordam olayotganlar Medikeytdan foydalanish huquqiga ham ega bo‘ladilar.

Kasalxonaning sug‘urta qismi ijtimoiy sug‘urta solig‘iga ustama qo‘yish

hisobiga moliyalashtiriladi va ish beruvchi va xodimlar tomonidan to'lanadi. Tibbiy sug'urta – sug'urtaning har oy to'lovlar undiriladigan ixtiyoriy turi hisoblanadi.

*Kafolatlangan daromadni ta'minlash dasturi* keksalarni, to'liq va doimiy nogironlarni hamda ko'zi ojizlarni qamrab oladi. u 1974 yildan buyon amal qilib kelmoqda. Mazkur dasturga ko'ra aholining ko'rsatib o'tilgan toifalariga federal hukumat ularning yashashlari uchun minimal darajadagi mablag'larni (kafolatlangan daromad) ta'minlash maqsadida pul mablag'larini to'laydi. Mazkur minimum juda past darajada – “kambag'allik chegarasi” bo'yicha daromadning taxminan 60 foizni tashkil etadi.

*Naqd pul ko'rinishida* taqdim qilinuvchi moddiy yordam berish bo'yicha boshqa bir dastur – bu farzandlari mavjud bo'lgan muhtoj oilalarga yordam ko'rsatish dasturidir. Odatda, mazkur dastur doirasida past daromadli, oila boshlig'i beva ajrashgan yoki yolg'iz-ona bo'lgan ko'p bolali oilalar yordam oladilar. Qator shtatlarda mazkur dastur bo'yicha nafaqalar oila boshlig'i ishsiz bo'lgan kambag'al oilalarga taqdim qilingan, biroq bu kabi oilalar juda kam.

Oziq-ovqat ko'rinishida yordam berish doirasida *oziq-ovqat talonlari dasturi* keng tarqaldi. Talonlarga ega bo'lish huquqiga daromadi “kambag'allik chegarasi”da 125 foizdan ortmagan shaxslar yoki oilalar ega bo'lganlar (taxminan 14 ming dol.).

Biroq boshqa oziq-ovqat dasturlari, masalan, *maktab nonushtalari va bir yoshgacha bo'lgan go'daklari bor bo'lgan kambag'al onalarga oziq-ovqat ko'rinishidagi yordam* dasturlari mavjud.

*Turar joy subsidiyalari* past daromadli va o'rtacha yiliga 2000 dollar bo'lgan oilalarga taqdim qilinadi. Bu juda kam, chunki Amerikada turar joylar narxi juda yuqori. Davlat tomonidan u yoki bu dastur tomonidan qamrab olingan shaxslarga davlat ijtimoiy ta'minot organlari tomonidan taqdim qilinadigan pensiyalardan, ishsizlik, kambag'allik va boshqalar bo'yicha nafaqalar farqli ravishda turar joy subsidiyalari muhtoj oilalarga mazkur organlarning qaroriga ko'ra taqdim qilinadi.

Dunyo tajribasini tahlil qilish ijtimoiy himoya institutining bazaviy asoslarini ajratib olish imkonini beradi:

1) Mehnatga layoqatliligi, ish o‘rni, daromadlar manbai mavjud bo‘lmaganligi sababli o‘zining moddiy mavjudligini mustaqil ravishda ta‘minlash imkoniyatiga ega bo‘lmagan shaxslarga ijtimoiy yordam. Ijtimoiy yordam hajmi odatda, avvalgi daromadlar hajmi yoki aholining umumiy turmush darajasi bilan bog‘liq emas.

Ushbu ijtimoiy himoyaning belgilab beruvchi xususiyati – davlatning aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj guruhlariga yordam ko‘rsatish bo‘yicha ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi, kelishib olinmagan munosabatlari. Odatda mazkur tizimdan amalga oshirilgan to‘lovlar muhtojlikni tekshirib ko‘rgandan so‘ng mavjud daromadlarga qo‘shimcha shakliga ega bo‘ladi, bosh asos – minimal hayotiy ehtiyojlarni ta‘minlash uchun mablag‘larning mavjud emasligi yoki etishmasligi hisoblanadi.

2) Majburiy ijtimoiy sug‘urta shaklida amalga oshiriladigan, ijtimoiy faol aholini mehnatga layoqatliligini (pensiya yoshiga etganlikni ham qamrab olgan holda) yoki ish o‘rnini yo‘qotganligi sababli daromadsiz qolish xavfidan ijtimoiy himoya qilish instituti ko‘rinishidagi davlat ijtimoiy va pensiya ta‘minoti. Moliyaviy manbalari ish beruvchilarning to‘lovlari, jismoniy shaxslar (xodimlar)ning to‘lovlari – va alohida toifalar uchun – davlat byudjeti mablag‘lari.

Ijtimoiy himoya tizimlarini tashkillashtirishning dunyo tajribasini tahlil qilishdan kelib chiqqan holda ijtimoiy himoyaning umumiy prinsiplariga quyidagilar kiradi:

- ✓ davlat va jamiyatning barcha qatlamlari uchun maqbul hayot sharoitlarini ta‘minlash uchun ijtimoiy mas‘uliyati;
- ✓ zarur holatlarda tibbiy va ijtimoiy yordamni ta‘minlash;
- ✓ ish bilan band aholini ijtimoiy va kasbiy xavflardan himoya qilishning umumiy tabiati;
- ✓ ijtimoiy himoyaning jamiyatning katta qismiga nisbatan qo‘llash sohasini kengaytirish.

YUqorida keltirilgan prinsiplardan kelib chiqqan holda, zamonaviy dunyo tajribasida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan:

✓ aholining muhtoj qatlamlariga bir-birini takrorlovchi kam ahamiyatli nafaqalari o‘rniga yuqori manzillilikka ega bo‘lgan yagona nafaqalarning joriy qilinishi;

✓ aholining ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan toifalarini qayd qilish shartlariga qo‘yiladigan talablar darajasini oshirish, o‘z navbatida ularning muhtojlik darajasini tekshirish;

✓ ijtimoiy sohalarni (sog‘liqni saqlash, ta‘lim, uy-joy kommunal xo‘jalik) moliyalashtirishda o‘zaro hamkorlikda ishtirok etish mexanizmlarini kengaytirish yordamida ijtimoiy muhitning etakchi sohalarida ijtimoiy sektorni rivojlantirish;

✓ ijtimoiy himoya bo‘yicha moliyaviy og‘irlikni markaziy va mahalliy byudjet o‘rtasida qayta taqsimlash;

✓ ijtimoiy soha tarmoqlarida xo‘jalik yuritishning xususiy shakllari va notijorat tashkilotlar faoliyatini rivojlantirish;

✓ ijtimoiy sohani dasturiy moliyalashtirishga o‘tish, moliyaviy mablag‘lar sarfini nazorat qilishning ijtimoiy me‘yorlaridan va jamoat nazorati ko‘rinishlaridan foydalanish;

✓ Ijtimoiy buyurtmani shakllantirish va uni bajarish maqsadida xo‘jalik faoliyati sub‘ektlarini jalb qilish.

Ijtimoiy xodim kasbi barcha odamlarning farovonligini oshirishga intiladi, butun jamiyat farovonligini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Ijtimoiy xodimlar har doim amaliy faoliyati aholining kambag‘al qismiga yordam ko‘rsatiga yo‘naltirilgan, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqarish g‘oyasini yoqlaganlar.

### **Nazorat savollari**

1. Aholini ijtimoiy himoya qilish shakllari nimalardan iborat?
2. Sug‘urta prinsiplari asosida nima yotadi?
3. Ijtimoiy soha nima hisobidan moliyalashtiriladi?
4. Ijtimoiy himoya Evropa modelining mohiyati nimadan iborat?
5. Umumfarovon davlat Konsepsiyasi nimani anglatadi?
6. AQSHda ijtimoiy ta‘minotning asosiy shakllari qanday?

7. Ijtimoiy himoyaning “Amerika modeli” nimani aks ettiradi?
8. Welfare («Velfer») moddiy yordam dasturi nimani aks ettiradi?

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ganieva M.X., Latipova N.M. Ijtimoiy ish tarixi va nazariyasi. – Toshkent; O‘zMU, 2015.

1. *Serkasevich L. V.* Evropa Ittifoqi mamlakatlarida ijtimoiy siyosatning zamonaviy yo‘nalishlari. SPb., 2002. 27 b.

2. *Esping-Andersen G.* The three worlds of welfare capitalism. Princeton? New Jersey: Princeton University Press, 1993.

3. Charles Zastrow. Introduction to Social work and social welfare. Empowering People. George Williams College of Aurora University. Printed in Canada: Brooks/Cole, Cengage Learning, 2010.

4. Ambrosino R., Ambrosino R., Heffernan J., Shuttlesworth G. Social Work and Social Welfare: An Introduction. Sixth Edition. – Thomson Brooks/Cole, 2008.

## 7-MAVZU. BOLALAR, YOSHLAR VA OILALAR BILAN

### IJTIMOYIY ISH OLIB BORISH

1. *Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning asosiy toifalari*
2. *Yoshlar – alohida ijtimoiy-demografik guruh*
3. *Oilaviy o‘zaro munosabatlar va oila muammolari*
4. *Bolalar, yoshlar va ularning oilalariga xizmat ko‘rsatishda ijtimoiy xodimlar roli*
5. *Oilalar bilan ijtimoiy ish olib borish (aralaShuv, baholash, oilaviy terapiya)*

**Kalit so‘zlar:** bola huquqlari kafolatlari, bolalar ehtiyojlari, bolaning eng maqbul manfaatlarini ta’minlash, shafqatsiz munosabat, xavf guruhi, zo‘ravonlik, yoshlar, yoshlar bilan ijtimoiy ish olib borish, xizmat, individual psixologik maslahat, autrich-faoliyat, oila, aralaShuv, baholash, oilaviy terapiya, casework, genogramma, oilani ijtimoiy himoya qilish tizimlari.

1. *Bolalar ehtiyojlari. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning asosiy toifalari.* Kimni va qanday asosda bola, deb hisoblash mumkinligi haqidagi tasavvurlar turdi



madaniyatlar va an'analarda o'xshash. BMTning bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasiga muvofiq (1989 y.): "Har bir inson mavjudoti 18 yoshga etgunga qadar, agar mazkur bolaga qo'llanilgan qonunga ko'ra avvalroq voyaga etmasa, bola deb hisoblanadi". (1-modda)<sup>1</sup>.

O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari kafolati to'g'risida"gi Qonunida shaxs 18 yoshga etmagunga qadar bola, deb hisoblanadi. Mazkur qonunga ko'ra, davlat siyosati yo'nalishlaridan biri bolaning or-nomusi va qadr-qimmatini himoya qilish, bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy rivojlanishiga imkoniyat yaratishdan iborat. Qonunda bolaning tenglik va tahqirlashdan himoya qilish, uning or-nomusi va qadr-qimmatiga tajovuz qilish hamda uning shaxsiy hayotiga noqonuniy tarzda aralashuvdan himoya qilish huquqlari belgilab qo'yilgan. Qonunda jamiyatning barcha sohalarida, jumladan, adolat qilishni ham qamrab olgan holda bola qadr-qimmatini himoya qilishning kafolatlari nazarda tutilgan<sup>2</sup>.

Bugungi kunda O'zbekiston jamiyatida 15 yoshdan kichik bo'lgan bolalar 8 million nafarni tashkil etadi, bu esa mamlakatning butun aholisining 27%ni tashkil etadi<sup>3</sup>. Bolalardan iborat aholining bu kabi ahamiyatli ravishdagi solishtirma og'irligi jamiyatning demografik tuzilmasida bolalarni ijtimoiy himoya qilish muammosi, ular ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va zarur yordam ko'rsatish muhim ijtimoiy va davlat ahamiyatiga ega.

Bola bilan ayni vaqtda nima sodir bo'layotganini baholashda bola rivojlanishining barcha jihatlarini yoshga oid o'ziga xos xususiyatlar va rivojlanish bosqichidan kelib chiqqan holda baholash talab etiladi. Bu bola rivojlanishning kutilgan bosqichlariga erishdimi yoki yo'qmi ekanligi haqidagi bilimlarni qamrab oladi. Yomon munosabatga duchor bo'lgan bolalarning etkazilgan jarohatlar yoki zo'rvonlik natijasida psixologik nuqsonlar kuzatilishi mumkin. Bolaning umumiy imkoniyatlarini rivojlanish imkoniyatlarini ta'minlash uchun bola nimalarda muvaffaqiyatga erishishi mumkinligini aniq belgilab olish va anglash lozim.

Madaniyat va uyushmalardan kelib chiqqan holda odamlarda bolaga nisbatan turli qadriyatlar va umidlar vujudga kelishi mumkin. Bolaga bir sharoitda yashab

qolish imkonini beruvchi holatlar boshqa sharoitlarda unga xavf tug'dirishi mumkin. Bolaning rivojlanish darajasini baholashda u yashayotgan muhitni e'tiborga olish muhim ahamiyatga ega.

Bolaning ehtiyojlari nimadan iborat?

Avvalambor, bolalar va ularning oilalarining ehtiyojlarini qondirish muammolari bolaning eng oliy manfaatlariga amal qilishga asoslangan bo'lishi lozim. Ayrim hollarda, bir qarashda eng maqbul bo'lib ko'ringan aralaShuv Shubhali bo'lishi mumkin, chunki bolaning eng oliy manfaatlari oilaning qolgan a'zolarini e'tiborga olgan holda amalga oshiriladi. Bu sharoitda bolani joylashtirish to'g'risida qaror qabul qilish lozim (uni o'z oilasi bilan qoldirish yoki boshqa erga joylashtirish).

Bu vaziyatda nima asosiy muammo bo'lishi mumkin: bolaning manfaatlari, ota-onalarning manfaatlari yoki butun oilaning eng oliy manfaatlarini e'tiborga olishmi? Garchi ekspertlar ota-onalarning huquqlari ham, bolalarning huquqlari ham e'tiborga olinishi lozim, degan fikrda yakdil bo'lsalar-da, birinchi navbatda bolaning eng oliy manfaatlaridan kelib chiqish zarur. Bu esa, har qanday qaror qabul qilishdan avval bola uchun eng foydali bo'lgan natijalarga erishishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Bolaning eng oliy manfaatlarini ta'minlash muammosini hal etishga yo'naltirish sifatida bolaning ehtiyojlarini ta'minlash uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlardan eng xavfsizi tanlab olinishi lozim, deb hisoblagan olimlarning fikrlari xizmat qilishi mumkin<sup>1</sup>.

Bolaning farovonligini va rivojlanishini himoya qilish prinsipi ularning eng oliy manfaatlarini ta'minlash prinsipi bilan bog'liq. U bolaning himoyasizligi tufayli uni himoya qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar va vositalarni amalga oshirish zaruratini yana qayta ta'kidlaydi va davlat bu kabi himoyani ta'minlashi zarur. Bolaning farovonligini himoya qilish faqatgina bolani zararlardan, masalan, bolalar parvarish qilinadigan muassasalarni tekshirish yo'li bilan himoya qilishni, yoki jismoniy jazolarni qo'llashni ta'qiqlovchi qonunni qabul qilishdan iborat emas. Bu kabi himoya bolaga sog'lom rivojlanishi uchun imkoniyat taqdim qiluvchi

nisbatan faol yonda Shuv va harakatlarni taqozo qiladi. Bu voyaga etmaganlar uchun mo'ljallangan tuzatish muassasalarida ta'lim va kasbiy tayyorgarlik bo'yicha xizmatlarni taqdim qilish va bolaning bu kabi rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin bo'lgan har qanday ta'sirlardan himoya qilish tadbirlarini joriy qilishni anglatishi mumkin.

Masalan, Shotlandiya hukumati bolalar farovonligining 8 ko'rsatkichini belgilab berdi. Farovon hayot kechirishi uchun bolalar quyidagilarga ega bo'lishlari zarur: xavfsizlik, sog'lomlik, faollik, tarbiyalilik, intiluvchan, hurmatga sazovor, mas'uliyatli va odobli. Ushbu ko'rsatkichlar amaliyotchi mutaxassislariga kerakli ma'lumotlar olish, Shuningdek, bola yoki o'smir uchun tuzilmaga oid reja tuzish imkonini beradi.

Qonunchilik bugungi kunda, sudlar bolalarni ijtimoiy himoya qilishning ayrim vaziyatlarida, masalan, ota-onalik huquqidan mahrum qilish bo'yicha ishlarni tinglaganlarida vasiylarni tayinlashlarini talab qilmoqda. Vasiylarni tayinlashdan yagona maqsad bolaning eng maqbul manfaatlarini himoya qilish va manfaatlaridan kelib chiqqan holda sudga tavsiyani taqdim qilishdan iborat. Bu ayniqsa, bolani, ota-onalarni ijtimoiy himoya qilish xizmatlari va hukumatning bola manfaatlari haqidagi fikrlari bir joydan chiqqan vaziyatlarda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda bola huquqlarini himoya qilish oila, jinoyat, fuqaro va mehnat qonunchiligiga muvofiq ravishda ta'minlanadi. "Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda bolalarning sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy ta'minot va har tomonlama rivojlantirish sohalarida huquqlari kafolatlari belgilab qo'yilgan. Mazkur qonunda ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar va alohida ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalar huquqlari kafolatlariga alohida urg'u berilgan. Qonunchilikda belgilangan asosiy masalalar bolaning oiladagi shaxsiy huquqlarini amalga oshirishda bolaning manfaatlarini; ota-onalar tomonidan huquq va majburiyatlarini amalga oshirish jarayonini; sud tomonidan vasiylik masalasi bo'yicha ish olib borish jarayonida bola manfaatlarini e'tiborga olish zarurati; oilaviy bahslarni hal etishda sud tomonidan bola manfaatlarini e'tiborga olish zaruriyatini qamrab oladi. Oilaviy kodeks mazkur sohalarni qamrab olishi mumkin bo'lgan asosiy qonunchilik

hujjati hisoblanadi.

Milliy darajada bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini boshqarishning amaliy natijalarga olib keluvchi asoslarini takomillashtirish masalalari O‘zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. keng ko‘lamli, kompleks chora-tadbirlar natijasida mamlakatda aholining hayot davomiyligi 1990 yilda 67 yosh bo‘lgan bo‘lsa, 2017 yilga kelib 74 yoshga qadar uzaydi. Bolalar o‘limi 3 marotabaga kamaydi. Mamlakat oldida mazkur ko‘rsatkichlarni yanada yaxshilash muammosi turibdi. Shu munosabat bilan mamlakat Prezidenti O‘zbekistonda amal qilayotgan ijtimoiy himoya modelini butun jahon tomonidan tan olingan xalqaro standartlar va zamonaviy talablar darajasiga moslashtirishni ta’minlash zarurligini ta’kidlab o‘tdi<sup>1</sup>.

Xavfsizlikni ta’minlash jarayonidagi asosiy jihatlardan biri bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi hisoblanadi. Bolalar hayotini ijtimoiy himoya qilish tizimining rivojlanganligi sababli ularning hayoti xavfsizroq bo‘ladi. Ijtimoiy himoya bolalarning muhofazaga muhtoj qatlami hayotining sifatini yaxshilashi, xavfsizlik mavjud emasligi, salomatlikning yomonlashishi, iqtisodiy va ijtimoiy xavfsizlik oqibatlarini yumshatishi hamda barcha uchun hayotning bazaviy darajasini saqlashga yordam berishi zarur<sup>2</sup>.

Kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish O‘zbekiston bozor islohotlari milliy modelining eng muhim prinsiplaridan biri hisoblanadi. Mazkur islohotlarning asosiy komponenti aholining turli guruhlari, jumladan, oila, bolalar, yoshlar va ayollarni ijtimoiy himoya qilish tizimining samaradorligi oshirishdan iborat.

Bola manfaatlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy himoya tizimi – bu bolalarning bevosita oilaning iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy manbalari, Shu bilan birga barcha asosiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lgan farovonlik prinsipi asosida yotuvchi tizim demakdir. Ijtimoiy himoyaning amaliy tizimi bolalar va ularning oilalarining ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini oldini olish va bartaraf qilishga imkoniyat yaratadi.

Bolalar doimiy ravishda o‘sadilar va jismoniy, bilishga oid va hissiy jihatdan

rivojlanib boradilar. Bolalar tabiiyki, o'z muhitlarida faol bo'lishga moyil va yangi ko'nikmalarni egallashga harakat qiladilar. Shu sababli, rivojlanish jarayoni ularni ichki tomondan rag'batlantirishi bilan bir qatorda unga tashqi muhit ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Qisqa qilib aytganda, bolaning qanday rivojlanishi qisman tashqi omillarning ta'siriga ham bog'liq. Bola, odamlar va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, masalan, bolaning hayot qaynagan, gavjum shaharda rivojlanish tajribasi qishloq hududida ulg'ayayotgan bolaning rivojlanishidan farq qiladi.

Bola qanchalik yaxshi o'sayotganligi va rivojlanayotganligini aniqlash uchun qanday omillardan foydalaniladi?

Umuman olganda, o'sish va rivojlanishning muhim bosqichlari rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan mezonlar yordamida belgilangan. Dunyoning turli qismlarida amalga oshirilgan tadqiqotlar bolalar etuk inson bo'lib etishishlari uchun ularning rivojlanishining turli sohalarida va turli bosqichlarida erishishlari lozim bo'lgan vazifalarni aniqlash imkonini berdi. Rivojlanishning bu sohaları quyidagilarni qamrab oladi: bilishga oid, ijtimoiy, hissiy, jismoniy, jinsiy, ma'naviy rivojlanish.

*Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar* uchun asosiy vazifalar bolalarga g'amxo'rlik qiluvchi (ota-onalar yoki vasiylar) shaxslar bilan yaqin munosabatlar mavjudligi kontekstida belgilanadi. Ular ta'minlovchi munosabatlar va xavfsizlik bolaga rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barcha narsalarga erishish qobiliyatini taqdim qiladi. Mazkur munosabatlarning buzilishi bolaning o'sishi va rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Biologiya va ijtimoiy ta'sir *bolalikdagi rivojlanishning* ko'plab jihatlarini harakatga keltiruvchi kuch hisoblanadi. Rivojlanishning hech bir bosqichi o'smirlik davridagi kabi boshqarishni talab etmaydi, chunki aynan Shu davrda yosh bolalarda mutlaqo barcha narsalar o'zgarishni boshlaydi. Ularning tanalari, hissiyotlari va ruhiy kechinmalari, oiladagi va tengdoshlari bilan bo'lgan munosabatlari tez sur'atlarda o'zgarib boradi – barcha narsalar o'zgaradi va yangi ma'no kasb etadi. O'smirning dunyo haqidagi tasavvurlari ham o'zgaradi.

Bolaning rivojlanish davridagi ehtiyojlarini baholash quyidagi mezonlarga

asoslanadi:

*Salomatlik.* O'sish va rivojlanish, jismoniy va aqliy holat, zarur tibbiy xizmatlardan fodalana olish, to'laqonli ovqatlanish, jismoniy mashqlar, vaksinatsiya, o'sishi davomida tekshiruvlardan o'tish, okulist va dantist tekshiruvlaridan o'tish. Katta yoshdagi bolalar uchun salomatlikka ta'sir ko'rsatuvchi, jumladan, jinsiy ta'lim va turli moddalarni suiste'mol qilish masalalari bo'yicha maslahat va ma'lumot berish talab etiladi.

*Ta'lim olish.* Bolaning tug'ilganidan boshlab aqliy rivojlanishining barcha sohalarini qamrab oladi. Boshqa bolalar bilan o'ynash va muloqot qilish, kitoblar bilan ta'minlash, qator ko'nikma va bilimlarni egallash, muvaffaqiyat va yutuq hissiyotlarini his qilish kabilarni taqozo qiladi.

*Hissiy rivojlanish va xulqiy rivojlanish.* Bola dastavval ota-onasi yoki eng yaqin bo'lgan kattalar oldida, so'ngra, bolaning o'sishi davomida oila tarkibiga kirmaydigan, begona odamlarning oldida o'zining hissiyotlari va harakatlarini to'g'ri namoyon qila olishini o'rganadi.

*Identifikatsiya (o'xshatish).* Bolada rivojlanib borayotgan, alohida va o'z qadriga ega bo'lgan inson sifatidagi shaxsiy individuallik hissiyotini o'rganadi. Quyidagilarni qamrab oladi: bolaning o'z-o'ziga va qobiliyatlariga bo'lgan munosabati. Bular sirasiga Shuningdek, irqiy, diniy tegishlilikni, yosh, jinsiy ehtiyojlarni, cheklangan imkoniyatlarni ham kiritish mumkin. Oilaga tegishlilik hissi, tengdoshlar guruhi va umuman boshqa madaniy guruhlarini ham qamrab olgan holda jamiyatga qabul qilinganlik hissi.

*Oila va ijtimoiy o'zaro munosabatlar.* Empatiya (hamdardlik) va o'zini boshqa odam o'rniga qo'ya olish ko'nikmasini rivojlantirish. Ota-ona yoki ularni o'rnini bosuvchi odamlar bilan barqaror va hissiy o'zaro munosabatlar, aka-uka, opa-singillari bilan yaxshi o'zaro munosabatlar, tengdoshlari va bolaning hayotida muhim o'rin egallagan boshqa odamlar bilan yoshiga mos bo'lgan do'stona munosabatlarni o'rnatish, oilaning mazkur munosabatlarga bo'lgan munosabatini qamrab oladi.

*Ijtimoiy taqdimot.* Bola tomonidan tashqi ko'rinish, xulq yoki kamchiliklar

tashqi dunyo tomonidan qanday qabul qilinishi va anglash ko'nikmasining o'sib borishini e'tiborga oladi. Kiyimning yosh, jins, madaniyat va dinga, tozalik va shaxsiy gigienaga mosligi, ota-ona yoki ularni o'rnini bosuvchi odamlarning to'g'ri yo'l ko'rsata olishini qamrab oladi.

*O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalari.* Bolaning mustaqilligini ta'minlashi uchun zarur bo'lgan amaliy, hissiy va kommunikatsion ko'nikmalarni o'zlashtirilishini e'tiborga oladi. Kiyinish va ovqatlanish, o'ziga ishonchini his qilish va oiladan tashqarida yashashning amaliy ko'nikmalari, katta yoshdagi bolalar uchun mustaqil hayot kechirish ko'nikmalarini qamrab oladi.

Bolalarning asosiy ijtimoiy muammolari birinchidan, ularning ob'ektiv psixofiziologik, intellektual va ijtimoiy maqomi, ikkinchidan, ular yashayotgan jamiyatning holati bilan bog'liq. Har qanday jamiyatda bola hayot faoliyatini cheklovchi ikkita asosiy tizim mavjud.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning asosiy toifalariga quyidagilar kiradi:

*1. Moslasha olmagan bolalar,* ular uchun ijtimoiylashtirish, ijtimoiy faoliyat va rivojlanish jarayonlarining buzilishi xos. Moslasha olmagan bolalar sirasiga bugungi kunda nazoratsiz bolalar, ya'ni ota-ona nazorati, e'tibori va parvarishsiz, kattalar tomonidan ijobiy ta'sirsiz qolgan bolalarni kiritish mumkin.

Tashlab ketilgan bolalar ham moslasha olmagan bolalar sirasiga kiradi. Ko'pincha bu yangi tug'ilgan chaqaloqlar, og'ir yoki tuzalmas kasallikka chalingan bolalar, og'ir jismoniy yoki ruhiy nuqsonlari mavjud bolalardir.

Qarovsiz bolalar, ya'ni ota-ona yoki davlat qaramog'ida bo'lmagan, doimiy turar joyi, yoshiga mos mashg'ulotlari, zarur parvarish, tizimli o'qish va rivojlantiruvchi tarbiyaga ega bo'lmagan bolalar.

*2. Kattalar tomonidan shafqatsiz munosabatga duchor bo'lgan bolalar.* SHafqatsiz munosabat va ehtiyojlarni e'tiborga olmaslik bola bilan nomunosib munosabatda bo'lish shakllari hisoblanadi. Kimdir bola bilan yomon munosabatda bo'lishi yoki uning ehtiyojlariga jiddiy zarar etkazish yoki bu kabi zarar etishining oldini olmaslik yo'li bilan e'tiborga olmasligi mumkin. Bolalar oilada yoki ixtisoslashtirilgan muassasalarda ularga tanish yoki ularga notanish bo'lgan

shaxslar tomonidan shafqatsiz munosabatga duchor bo‘lishlari mumkin. Baholashni amalga oshirish jarayonida yomon munosabat sodir etilganmi yoki bu kabi munosabat namoyon qilinishi mumkin yoki mumkin emasligini e’tiborga olish talab etiladi.

*Bola ustidan* aniq yoki yashirin jismoniy zararga olib keluvchi *jismoniy zo‘ravonlik*, nazorat qiluvchi ota-ona yoki bola uchun javobgar bo‘lgan yoki bola unga ishonib topshirilgan shaxslar bilan o‘zaro munosabatlarning etarli emasligi sababli vujudga kelishi mumkin.

Jismoniy zo‘ravonlikka zarba berish, silkitish, otib yuborish, zaharlash, yoqib yuborish yoki qaynoq suvda kuydirish, cho‘ktirish yoki bo‘g‘ishni kiritish mumkin. Jismoniy zarar, Shuningdek, ota yoki ona yoki bolani parvarish qilayotgan shaxslar boladagi kasallik alomatlarini rag‘batlantirishi yoki ongli ravishda bolani kasal qilishiholatlarida ham etkazilishi mumkin.

*Bola ehtiyojlariga e’tiborsizlik bilan munosabatda bo‘lish* – bolani parvarish qilayotgan shaxs tomonidan uning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur ehtiyojlarga: salomatlik, ta’lim olish, hissiy rivojlanish, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, oila yoki bola parvarishi bilan Shug‘ullanayotgan shaxslar tomonidan barcha manbalarning mavjud bo‘lishiga qaramasdan, turar joy va xavfsiz hayot ta’minoti kabilarga e’tiborsizlik yoki ularni bajarmaslikni anglatadi. Bu holatlarning barchasi bola salomatligiga yoki uning jismoniy, ruhiy, ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga zarar etkazilishiga olib keladi yoki bunga yuqori darajada sabab bo‘ladi.

*Hissiy zo‘ravonlik* bola bog‘lanib qolgan asosiy shaxsda bola o‘zining shaxsiy imkoniyatlari va o‘zi yashayotgan jamiyat kontekstiga mos bo‘lgan hissiy va ijtimoiy ko‘nikmalarning barqaror va to‘liq doirasini shakllantirishi uchun tegishli sharoitlarni rivojlantirish qobiliyatining mavjud emasligi. Bunga Shuningdek, zarar etkazilgan yoki uning salomatligiga, Shuningdek, jismoniy, aqliy, ma’naviy, axloqiy yoki ijtimoiy rivojlanishiga zarar etkazilishining yuqori ehtimoli mavjud bo‘lgan bolaga tegishli bo‘lgan qonunchilik hujjatlari ham kiritiladi.



*Jinsiy zo'rvonlik* – bolani bunga rozi bo'lgan yoki bo'lmaganligidan qat'iy nazar, boshqa odamning jinsiy nafsini qondirish bilan bog'liq bo'lgan har qanday harakat. Jinsiy zo'rvonlik bola nima sodir bo'layotganini tuShunishi yoki yo'qligidan qat'iy nazar, uni jinsiy harakatlarda ishtirok etishga majburlash yoki qiziqtirishni ham qamrab oladi.

Bular jumlasiga jismoniy bo'lmagan harakatlar ham kiritilishi mumkin, masalan, bolani pornografik materialni tayyorlashda ishtirok etish yoki jarayonni kuzatish, amalga oshirilayotgan jinsiy harakatlarni tomosha qilishga taklif qilish, bolaga nisbatan jinsiy tilni qo'llash yoki bolani o'zi uchun mos bo'lmagan, seksual usullar bilan harakat qilishga rag'batlantirish.

3. *O'ziga xos ijtimoiy va shaxsga oid ehtiyojlari hamda muammolari mavjud bo'lgan bolalar*, bu davlat va jamiyat yordamiga muhtoj bo'lgan bolalarning yana bir ko'p sonli toifasi. Ushbu ijtimoiy toifani qator sabablarga imkoniyatlari va ehtiyojlari jamiyatdagi ko'pchilik bolalarning o'xshash xususiyatlaridan faqr qiluvchi bolalar tashkil etadi. Ushbu ehtiyojlarning o'ziga xosligi bolaning jismoniy va intellektual (nogiron bola yoki yuqori intellektual xislatlarga ega bo'lgan bola) rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, bola hayot faoliyatining ijtimoiy tabiiy muhitining o'ziga xos xususiyatlari (Uzoq SHimol sharoitida, ozodlikdan mahrum qilish joylarida hayot kechirayotgan bolalar), ular jalb qilinayotgan ijtimoiy jarayonlar va hodisalarning o'ziga xos xususiyatlari (qochoq bolalar) bilan belgilanadi.

4. *Qurolli nizolar hududlaridagi bolalar*. Millionlab bolalar hayotining har kunini urush sharoitida yashamoqdalar. Ko'plar uchun – bu hayotning ular bilgan yagona turi hisoblanadi. Boshqalari qochishga majbur va oxir-oqibat qochqinlar yoki ko'pincha o'z oilasidan ajralgan ko'chmanchilar sifatida hayot kechirishga mahkumdirlar.

5. *OITSga chalingan yoki oila a'zosi bo'lgan, OITSga chalingan kattalar orasida yashovchi bolalar* xizmatlardan foydalanish huquqidan mahrumdirlar. Butun dunyo bo'ylab taxminan 15 million bolalar ota-onalaridan birini yoki har ikkalasini OITS tufayli yo'qotgan. Millionlab bolalar himoyasiz qolgan, chunki

kasallik salomatlik va oilaning rivojlanishi, Shuningdek, jamiyat, millatning sog'lom avlodlarini tarbiyalash yo'lida ulkan muammoga aylangan.

Uzoq muddatga cho'zilgan kasallik va oxir-oqibat ota-onalarini o'limi ko'pincha o'z zimmalariga kattalarni davolatish, parvarishlash va qo'llab-quvvatlashni olgan bolalarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. YAshab qolishga muvaffaq bo'lgan aka-uka va opa-singillar ko'pincha o'z uyushmalari va jamiyatda kamsitish va tahqirlanishga duch keladilar, zo'ravonlik, shafqatsiz munosabat va ekspluatatsiyani qurboniga aylanadilar.

Bolalar oldida turgan boshqa xavflar orasida quyidagilarni aytib o'tish mumkin: ularga hech qanday huquq bermaydigan dala, ishlab chiqarish, fohishaxona va boshqa Shu kabi xavfli va salomatlik uchun zararli bo'lgan muhitlarda majburiy ishlash, bola savdosi ham mavjud. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, butun dunyo bo'ylab 100 millionlab bolalar ko'chada yashaydilar va ishlaydilar: tilanchilik; mevalar, tamaki mahsulotlari, breloklarning chakana savdosi bilan Shug'ullanadilar; oyoq-kiyim tozalaydilar, mayda o'g'irlik yoki fohishalik bilan Shug'ullanadilar. Ularning ko'pchiligi ota-onalari tomonidan tashlab ketilgan, etimlar yoki uydan qochib ketgan bolalardir. Ularning ko'pchiligi giyohvand moddalarga ruju qo'ygan. Ko'cha bolalari ko'pincha biznesning mahalliy egalari pul to'laydigan kompaniyalarning "ijtimoiy tozalash" qurbonlariga aylanadilar<sup>1</sup>.

Bolalar muhitida himoya kabi, bolaning zaifligini taqozo qiluvchi salbiy omillar ham mavjud. Qarorlarni qabul qilishda amaliyotchilar eng muhim omillar nimalardan iborat ekanligini anglash maqsadida ma'lumotlarni batafsil o'rganishlari va barcha ta'sirlarni solishtirib ko'rishlari lozim. Turli omillarning o'zaro munosabatlarini kuzatish davomida ularning ta'siri salbiy yoki ijobiy ekanligi haqida xulosa qilish mumkin. Bolaning ehtiyojlarini baholagandan so'ng, bolaga yordam ko'rsatish bo'yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshirish lozimligiga e'tibor qaratish lozim – ushbu yordam har doim bolaning mavjud muammolarini hal etishga mos bo'lishi lozim. Bu kabi tahlil bola, oila bilan bolaning individual rejasiga kiritilishi zarur bo'lgan masalalarni muhokama qilishga asos yaratadi. U tadbirlar va ularni bajarilishi uchun javobgar bo'lgan shaxslarni qamrab oladi.

Kichik muvaffaqiyatlarga erishish – ijobiy ko‘rsatkich hisoblanadi, bu erishib bo‘lmas yuqori maqsadlarni qo‘yishdan yaxshiroq.

2. *Yoshlar – alohida ijtimoiy-demografik guruh bo‘lib*, ular jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini ishlab chiqish tizimida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. O‘zining alohida xususiyatlari tufayli yoshlar ijtimoiy munosabatlarni nafaqat o‘zlashtiradilar, balki ularning shakllanib ulgurgan turlarini o‘zgartiradilar, bu esa ushbu munosabatlarni jamiyat hayotining rivojlanish manbaiga, taraqqiyotga oid o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. YOshlar ijtimoiy voqelikning turli sohalariga qanchalik kirib borishi millatning kelajagini belgilab beradi. Shu sababli yoshlar haqida qayg‘urish birinchi darajali masala hisoblanadi.

Mamlakatimiz va xorijiy mamlakatlar fanida yoshlar o‘zi kim, ularning ijtimoiy roli nimalardan iborat ekanligini anglashning bir nechta yondaShuvlari shakllangan. Agar psixotahliliy konsepsiyalarda yoshlar o‘smirlikning psixofizik xususiyatlari taShuvchilari sifatida ifodalansa, uning rivojlanishi esa asosan biologik omillar bilan bog‘lansa, nisbatan kechroq ishlab chiqilgan sotsiologik va ijtimoiy-antropologik nazariyalarda yoshlar asosan madaniyat fenomeni (hodisasi) sifatida ifodalangan. Va nihoyat, yoshlar haqidagi nazariyalarning uchinchi guruhi uning ijtimoiy vazifalariga e‘tibor qaratadi, ya‘ni yoshlarda merosiylik va avlodlar almashinuvi jarayonining ob‘ekti va sub‘ektini ko‘radi. YOshlik davri chegaralari ulg‘ayish jihatiga ko‘ra, turlicha ifodalanadi va asosan 14 dan 35 yoshgacha va 14 dan 30 yoshgacha belgilanadi.

YOshlarning o‘rganilishi lozim bo‘lgan muammolari orasida o‘ziga bo‘lgan munosabati (o‘z-o‘zini anglash) muammosini aytib o‘tish joiz. YOshlik davrida o‘z-o‘zini anglashning o‘ziga xos xususiyatlari yoshlarning birlamchi ijtimoiylashtirilishi va ikkilamchi boshlang‘ich bosqichini qamrab oluvchi xususiyatlari bilan bog‘liq.

Asosiy o‘rinni ota-onalar, oila egallovchi birlamchi ijtimoiylashtirish jarayonida individ dunyoning ob‘ektiv voqeligini shakllantiruvchi umumiy qadriyatlarini o‘ziga “singdiradi”. Ikkilamchi ijtimoiylashtirish esa jamiyat va uning o‘zi ham o‘z tasavvurlarida boshqa odam bo‘lgan ijtimoiylashtirilgan individ bilan

sodir bo‘ladi. Bolalikdan yoshlikka o‘tar ekan, individ o‘zini yoshiga ko‘ra ham, ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra ham yoshlar uyushmasiga tegishli bo‘lgan, individning sub’ektivligini aniq harakatlar, muomalalarda tasdiqlovchi inson bilan tenglashtiradi. Bu esa o‘z navbatida individning nafaqat aniq ahamiyatga ega bo‘lgan boshqalar bilan tenglashtirilishi, umumlashtirilgan boshqaga yo‘naltirilganligi bilan, balki o‘zini boshqalar ommasi, ya’ni jamiyat bilan tenglashtirishi bilan ham bog‘liq. Sub’ektivlikning taqdim qilinishi bilan individ ijtimoiy voqelikni yaratish va o‘zgartirishga intiladi.

Insonni davlat – ijtimoiy tizim yordamida kuzatib borish kabi yoshlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimida quyidagi yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. YOshlarning boshlang‘ich muammolarini hal etishda yordam ko‘rsatish.
2. Assotsial xulqni aniqlash va nazorat qilish.
3. Murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan yoshlarga tezkor yordam ko‘rsatish.
4. Mustaqillik darajasini, muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirish.

YOshlar bilan yashash joyiga ko‘ra ishlash (community youth work) ijtimoiy rivojlanishda ishtirok etishni xohlovchi yoshlarning turli imkoniyatlari va talantlarini ochib berishga, o‘z hayotida, ijtimoiy muhitida ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishga qaratilgan. YOshlar bilan ish olib borishning mazkur turi o‘zlarining shaxsiy, ijtimoiy yoki ta’limga oid xususiyatlari sababli alohida ehtiyojlarga ega bo‘lgan yoki turli qobiliyatlarga ega bo‘lgan va atrofdagilarga foyda va xursandchilik keltirishni xohlagan odamlar bilan rag‘batlantiruvchi va qoniqarli munosabatlarning shakllanishi bo‘yicha faoliyatni taqozo qiladi.

Faoliyatning muhim sohasi – ijobiy qabul qilish va odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga xalal beruvchi dastlabki stereotiplarni o‘zgartirish hisoblanadi.

YOshlar bilan ishlashning xorijiy tajribasi Shuni ko‘rsatadiki, bu kabi faoliyatda ko‘ngillilar sifatida yoshlar, o‘rta yoshdagi kishilar va keksalar ishtirok etishlari mumkin. Bu kabi faoliyat guruh bilan ishlashning rivojlanib borayotgan imkoniyatlarini va eksperimental ta’limdan faol foydalanadi. Ko‘plab faoliyat

yoʻnalishlari orasida rekreatsion, madaniy, taʼlim loyihalari mavjud.

*YOshlarni ijtimoiy himoya qilish xizmatlari. Ijtimoiy agentlik.* Ijtimoiy xodimlarning koʻpchiligi oʻz professional faoliyatlarini ijtimoiy agentliklar orqali amalga oshiradilar. Ijtimoiy agentliklar mamlakatlar va hamjamiyatlar tomonidan oʻz fuqarolarining ijtimoiy muammolarini hal etish maqsadida tashkil etilgan tashkilotlar hisoblanadi. agentliklar ommaviy (soliqlar hisobiga moliyalashtiriladi), koʻngilli (badallar hisobiga moliyalashtiriladi), yoki koʻp qismi xususiy (daromad olishga yoʻnaltirilgan) boʻlishi mumkin.

Ijtimoiy agentliklar hamjamiyatiga agentliklar faoliyatini oʻrganish va ularni boshqarish siyosatini belgilab olish maqsadida muntazam ravishda uchrashib turuvchi mahalliy aholi direktorlar kengashi rahbarlik qiladi. Koʻplab yirik agentliklar barcha sohalarida va faoliyatining barcha turlarida nazorat qilib turuvchi boshqaruvchiga ega. Kichik agentliklarda boshqaruvchi oʻz faoliyati bilan bir qatorda mijozlarga yordam koʻrsatishga ham jalb qilinishi mumkin.

Ijtimoiy manbalarning mahalliy organlari yordamga muhtoj odamlar bilan ish olib borishni har kuni nazorat qilgan holda ularning ehtiyojlarini qondirishga tayyor turadilar. Ijtimoiy xodimlar agentliklarda faoliyat olib borish uchun yollanadi. Koʻplab agentliklar taqdim qilingan xizmatlar uchun haq olmaydi. Biroq ayrim hollarda agentliklar mijozning toʻlovni amalga oshirish imkoniyatiga koʻra toʻlovni tartibga solgan holda “ish hajmiga koʻra egiluvchan haq” olishlari mumkin. Barcha mijozlarga, ularning iqtisodiy manbalaridan qatʼiy nazar, bir xil sifatdagi xizmat koʻrsatiladi.

Boshlangʻich darajadagi ijtimoiy xodimlar koʻp turli xizmatlarni taqdim qiluvchi agentliklarning xodimlari hisoblanadi. Keng koʻlamli ixtisoslikka ega boʻlgan ijtimoiy xodimlar kabi ular ham davlat ijtimoiy xizmat idoralarida ham faoliyat olib borishlari mumkin:

- bolalar va oilalar bilan ishlash;
- bolalarni shafqatsiz munosabatlar va eʼtiborsiz qolishdan himoya qilish;
- bolalar va kattalar, ayniqsa keksalar uchun xizmat koʻrsatuvchi

vasiylik muassasalarida faoliyat olib borish;

- maktab ijtimoiy ishida ishtirok etish;
- qarish muammolari bo'yicha dasturlarda qatnashish;
- markazlar yoki muassasalarda ruhiy salomatlikni saqlash sohasida

faoliyat olib borish;

- vatanida urush ketayotgan qochoqlarga yordam ko'rsatish;
- o'z kasbiy vazifalarini xizmat ko'rsatish faoliyatini olib borayotgan

boshqa ko'plab tashkilotlarda amalga oshirish<sup>1</sup>.

Bandlik xizmati faoliyatining muhim yo'nalishi yoshlarning qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlari va mehnat bozorining talablaridan kelib chiqqan holda kasbiy yo'nalishini tanlashda yordam ko'rsatish bo'yicha kasbga yo'naltirish bo'yicha maslahatlar berishdan iborat.

“Ishonch xonasi” inqirozli, nizoli vaziyatlarga tushib qolgan o'smirlar va yoshlarga og'uvchi va o'z joniga qasd qilishga olib keluvchi xulqning oldini olish maqsadida individual psixologik, konsultativ va psixoterapevtik yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etiladi. Individual psixologik maslahat berishdan asosiy maqsad – mijoz tomonidan muammoli vaziyatlarda to'liq anglangan, andozaga solinmagan harakatlarni amalga oshirish va unga shaxsiy qiyinchiliklarni engib o'tishda yordam beruvchi yangi imkoniyatlardan foydalanish uchun sharot yaratishdan iborat.

“Ishonch telefoni” telefon orqali tezkor psixologik yordam ko'rsatish xizmati sifatida ayniqsa, oilada va tengdoshlari jamoasida hamfikrlarni topa olmagan va yolg'izlik, sodir bo'layotgan hodisalarning ma'nosizligidan tushkunlikka tushib qolgan o'smirlarga ayniqsa zarur. Bu kabi muassasada faoliyat olib borayotgan psixolog, ijtimoiy xodimdan o'smir yoshidagi suhbatdoshi bilan o'zaro ishonchga asoslangan munosabatga kirishish qobiliyati, unga ruhiy tushkunlik vaziyatidan mustaqil chiqib keta olishga yordam berish ko'nikmalari talab etiladi.

YOsh oilaga yordam ko'rsatish Markazi nafaqat nikohdan o'tgan yoshlarga, balki fuqarolik nikohida yashayotgan, Shuningdek, nikoh qurishni rejalashtirgan yoki endigina o'z juftini izlashni boshlaganlarga ham maslahatlar beradi. Markaz faoliyatining maqsadi yosh oilalarga psixologik yordam ko'rsatish, diadli o'zaro

munosabatlarning hissiy sohasini uyg'unlashtirish uslublariga o'rgatish<sup>1</sup>, nizolarni samarali hal etishning kommunikativ ko'nikmalari va bilimlarini rivojlantirishdan iborat.

YOshlar uchun huquqiy xizmat huquqiy madaniyat darajasini oshirish, o'smirlarga va yoshlarga malakali bepul yordam ko'rsatish, yoshlar muhitida huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida tashkil etiladi.

Tarbiyasi og'ir o'smirlar uchun klublar yoshlarning bo'sh vaqtlarini aqlli va foydali mashg'ulotlar, o'yinlar va ko'ngilochar tadbirlar bilan to'ldirish imkonini beradi. "Tarbiyasi og'ir" o'smirlar deyarli bo'sh vaqt sohasida o'zgarishni boshlaydilar, aynan Shu sababli ularning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkillashtirish muammosi Shu qadar muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-madaniy jamiyatlar turli shakllarda taqdim qilinishi mumkin – to'garaklar, studiyalar, havaskorlik uyushmalari, tashabbuskor guruhlar.

Mahalliy hamjamiyatda autrich-faoliyatni (dala ishlari) – ko'chalarda, diskotekalarda, yoshlar va o'smirlar "to'planadigan" va ishlaydigan joylarda olib borish ayniqsa "xavf guruhi" o'smirlariga nisbatan dolzarb masala hisoblanadi.

Bu holatda ijtimoiy xodimlar ko'chada yashovchi bolalarning hayot sharoitlari va xulqini o'rganadilar va o'smirlarning to'liq ijtimoiy, psixologik va zarurat tug'ilganda tibbiy rehabilitatsiyasini amalga oshirishni o'z oldilariga vazifa qilib qo'yadilar. Psixologik xizmat tomonidan ishlab chiqilgan rehabilitatsiya dasturini turli davlat, huquqni muhofaza qilish tashkilotlari, ijtimoiy xodimlar, volontyorlar etimxona, bolalar klublari, rehabilitatsion markazlar amalga oshiradilar.

Oxirgi yillarda autrich-faoliyatning 12-16 yoshdagi volontyorlarni tayyorlashni o'z zimmasiga olgan turi keng tarqalmoqda, ushbu volontyorlar o'z navbatida masalan, o'z tengdoshlari o'rtasida giyohvandlikni dastlabki oldini olishda ishtirok etadilar.

"YAshab qolish maktablari" ("Diskaveri", boy-skautlar, harbiy-patriotik tarbiya va h.k.) ijtimoiy hayotga moslasha olmaslikning yuqori darajasiga, hissiy va xulqiy buzilishlar, oilasi bilan murakkab munosabatlar, maktabda o'zlashtirish bilan bog'liq muammolari bo'lgan o'smirlar va yoshlar uchun tashkil etiladi.

Bu kabi maktab-otomgohlar o'rmonda joylashgan bo'lib, tabiiy muhit va guruhga oid terapiyaning ta'sirini mujassamlashtiradi. "YAshab qolish maktablari"ning maqsadi yoshlarda o'z-o'zini hurmat qilish va mas'uliyatni, Shuningdek, o'z-o'zini nazorat qilish va muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'smirlar to'rt o'rinli palatkalarda yashaydilar, hayot uchun zarur bo'lgan narsalarni o'zlari ta'minlaydi, darsdan tashqari guruhga oid mashg'ulotlarda, sport o'yinlarida va kundalik majlislarda qatnashadilar. O'nta o'smirdan tashkil topgan har bir guruhga o'smirlarga o'zini va boshqalarni tushinishda etuklikka erishishda do'stona yordam ko'rsatuvchi ikkita tarbiyachi va bitta supervizor tayinlanadi<sup>1</sup>.

Shunday qilib, yoshlar bilan ijtimoiy ish olib borish shakllari va usullari davlat yoshlar siyosati hal etishi lozim bo'lgan vazifalar doirasi tomonidan belgilanadi.

Bolalar, yoshlar va oilalar ehtiyojlariga yo'naltirilgan siyosat va dasturlar jamiyat kontekstida uning qadriyatlari, ehtiyojlari va manbalarning mavjudligini e'tiborga olgan holda ishlab chiqilgan va amalga oshiriladi. Bugungi kunda asosiy urg'u profilaktika va erta aralashuvga, oilani saqlash va bolalarga eng past darajada zarar etkazish asosida qarorlar qabul qilishga beriladi. Biroq shunga qaramasdan, profilaktika va aralashuvning ilk manbalarining mavjud emasligi, shuningdek, e'tiborni eng jiddiy vaziyatlarga qaratish farzandlari mavjud bo'lgan oilalarning ko'p qismining parchalanib ketishiga sabab bo'ladi, bu esa ko'pincha bolalarni farzandlikka olish yoki oilalarga joylashtirishga olib keladi.

*3. Oilaviy o'zaro munosabatlar va oila muammolari.* Oila va ota-onalar bolaning va umuman oilaning farovonligini ta'minlashda markaziy o'rinni egallashi barcha tomonidan tan olingan. Biroq Shunga qaramasdan, ko'p oilalar u yoki bu inqirozli vaziyatlarga tushib qolganlarida ijtimoiy himoya organlarining qo'llab-quvvatlashlariga muhtoj bo'ladilar. Oilalar ko'p sabablarga ko'ra muhtoj oilaga aylanishlari mumkin, bu sabablar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: kambag'allik, baxtsizlik, ichkilikbozlik, giyohvand moddalarga ruju qo'yish, tahqirlash yoki zo'ravonlik.



Bolalarni himoya qilish sohasida faoliyat olib boruvchi professional bo'lishi bilan bir qatorda ijtimoiy xodimlar oilaning muhimligini tushinishlari va oilalar bilan ishlash uchun qator ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim.

Ijtimoiy himoya sohasida (6-mavzuda ko'rsatib o'tilganidek) oila tabiatini va uning hayot bosqichlari davomida rivojlanishini anglashni talab etadi. Oilani tushinish ijtimoiy xodimlarga mazkur oilaga haqiqatan ham yordam berish imkonini beradi. Oilaning roli va vazifalarini anglash ijtimoiy ishning samarali amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. O'z navbatida mutaxassislar tomonidan shaxsning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi psixologik va ijtimoiy omillarni anglash ularning shaxsiy layoqatlilik darajasini oshirishni talab etadi.

*Oilaviy qonunchilik va uning maqsadlari.* Oilaviy qonunchilikning vazifalari oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni o'zaro mehr-muhabbat, ishonch va hurmat, hamkorlik asosida qurish, o'zaro yordam hamda oila va uning barcha a'zolari oldidagi mas'uliyat, oila ishlariga kimningdir ixtiyoriy ravishda aralashuviga yo'l qo'ymaslik, oila a'zolarining o'z huquqlarini to'siqlarsiz amalga oshirilishi va ularning himoyasini ta'minlashdan iborat.

Oila eng ahamiyatli ijtimoiy tizim hisoblanadi. Oilada uning a'zolari o'rtasida o'zaro ishonchli munosabatlar va shaxsiy qadr-qimmat hissi shakllantiriladi. An'anaviy tarzda oila tarbiya, mehr-muhabbat, himoya bandargohi hisoblanadi. Biroq, zamonaviy, tez sur'atlarda o'zgaruvchi dunyoda oila ulkan qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bolalar tobora ko'proq oilaning moliyaviy bosimidan, ota-onalardan birining yoki har ikkisinin uzoq vaqt davomida ishda qolib ketishidan, oila a'zolarining ayrimlariga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlikning qo'llanishidan azoblanmoqdalar.

Ko'pincha, muammolarni hal eta olmagan oila a'zolari spirtli ichimliklarga yoki giyohvand moddalarga ruju qo'yadilar, zo'ravonlikka moyil bo'lib qoladilar, ajrashib ketadilar. Ayrim holatlarda, bolalariga mehribon ota-ona bo'lishlariga qaramasdan, o'z shaxsiy bolalariga sog'lom muhitni ta'minlash imkoniyatiga ega emaslar. Ayrim holatlarda ota-onalar o'z bolalarini qanday ta'minlashni bilmaydilar, chunki ular bolalarning turli yoshdagi ehtiyojlarini bilmaydilar. Ko'pchilik

ota-onalar jiddiy kasallik yoki inqirozli holatlarda oilaning boshqa a'zolarining ehtiyojlarini hissiy jihatdan qondirish imkoniyatiga ega emaslar.

Oila o'z a'zolarining ehtiyojlarini qanchalik yaxshi qondirishi mumkinligi, Shuningdek, oila o'zaro munosabatlarga kirishuvchi boshqa tizimlarga – mahalliy hamjamiyat, Shuningdek, butun jamiyatga bog'liq. Ushbu o'zaro munosabatlarning sifati va ketma-ketligi oilaviy farovonlikka katta ta'sir ko'rsatadi.

Oila o'zi nima? Oila – bu murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa. Oilani a'zolari nikoh yoki qarindoshlik aloqalari, turmushning umumiyligi, hissiy aloqalar va o'zaro ma'naviy majburiyatlari bilan bog'langan, er-xotinlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning tarixdan shakllangan muayyan tizimi sifatida ta'riflash mumkin.

Oilaning turli ta'riflari mavjud. Ayrimlar uni ijtimoiy institut, deb hisoblaydilar, boshqalar esa – kichik ijtimoiy guruh.

Olimlarning fikriga ko'ra, oila har bir madaniyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy institut hisoblanadi. Oilaning umumiy ta'rifi – nikoh, kelib chiqishi umumiy bo'lgan uy xo'jaligi bilan bog'langan odamlar guruhi demakdir.

Jamiyatning turning biologik yashovchanligini va madaniy tajribani etkazib berishning merosiyligini ta'minlovchi birlamchi ijtimoiy bo'g'ini bo'lgan oila ko'plab vazifalarni bajaradi. Ularning asosiy turlari quyidagilardan iborat: reproduktiv, birlamchi ijtimoiylashtirish, iqtisodiy, xo'jalik-turmushga oid, hissiy, jinsiy, birlamchi ijtimoiy nazorat muhiti, bo'sh vaqt, ma'naviy muloqot.

Oida bir vaqtning o'zida ham ijtimoiy institut, ham kichik guruh ekanligidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, oida – jamiyatning ijtimoiy instituti, shaxsiy turmushni tashkillashtirishning er-xotin ittifoqiga va qarindoshlik aloqalariga, ya'ni er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar va birga yashovchi va umumiy xo'jalik yurituvchi boshqa qarindoshlar munosabatlariga asoslangan eng muhim shaklidir. Oila eng muhim sohalardan va ijtimoiy ishning asosiy ob'ektlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining "Oila" Kodeksida oilaning umumiy ta'rifi mavjud emas. "Oila" tushunchasining ta'rifini qamrab olish va oila a'zolarining mukammal ro'yxatini belgilab qo'yish oila a'zolari doirasini asossiz

ravishda kengayishi yoki ularning huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkin.

Biroq “oila”, “oila a’zosi” atamaları O‘zR Oila kodeksida ko‘p qo‘llaniladi. Mazkur atamalarning O‘zbekiston Respublikasi “Oila” kodeksida tuShunilishi oilaviy huquq nazariyasi qoidalaridan kelib chiqqan holda belgilanadi. Oila (huquqiy jihatdan) nikohdan, qarindoshlikdan, farzandlikka olish yoki bolalarni oila tarbiyasiga olishning boshqa shakllaridan kelib chiquvchi shaxsiy nomoddiy va mulkiy huquqlar va majburiyatlar bilan bog‘langan shaxslar doirasi sifatida ta’riflanadi. Mazkur ta’rifda o‘zaro birgalikda yashash va umumiy xo‘jalik yuritish faktlari e’tiborga olinmaydi.

Barcha oilalar kuchli tomonlariga, Shuningdek, yashab qolishning turli usullariga ega. Oila qanchalik kuchli tomonlarga ega bo‘lmasin, biroq nisbatan kengroq muhit ta’siriga (o‘tmishda ham, bugungi kunda ham) tushib qolishi mumkin. Qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlashsiz, hattoki, ayrim holatlarda oila inqiroz bilan ham kurasha olmaydi. Aslida, barcha oilalar o‘zining ichki kuchli tomonlarini mustahkamlash uchun ko‘makka muhtoj.

Jamiyatni globalashtirish va modernizatsiyalash jarayonlari oilaning individuallashtirishi va avtonomlashtirishining o‘shishiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida ajralishlar sonining ortishi, tug‘ilish darajasining pasayishi, nikohsiz tug‘ilgan bolalar sonining ko‘payishiga, yolg‘iz odamlar sonining o‘shishiga sabab bo‘ladi. Bularning barchasi ko‘plab xorijiy tadqiqotchilarni oilaning inqirozga yuz tutishi va hattoki ijtimoiy institut sifatida yo‘q bo‘lib ketishi haqida xabar berishiga sabab bo‘ldi.

Biroq o‘zbekistonliklarning 86,7 foizi oilani ustun qadryat sifatida bilishadi<sup>1</sup>. O‘zbekistonning 9/10 aholisi oilalarda yashaydi, oilaning yangi shakllarining paydo bo‘lishi an’analarning sekin astalik bilan yo‘q bo‘lib ketmasligini ta’minlaydi.

4. *Oilalar bilan ijtimoiy ish olib borish (aralaShuv, baholash, oilaviy terapiya)*. Ijtimoiy ishda, dunyo va mamlakatimiz madaniyatida oilaning dunyo bilan o‘zaro munosabatlar sohasida boy tajriba to‘plangan. Xorijiy va mamlakatimiz olimlarining ta’kidlashicha, ijtimoiy terapiyaning asosi barcha azoblanuvchi, kamsitilgan, to‘laqonli ijodiy hayot chegarasidan uloqtirib yuborilganlarga yordam

ko'rsatishning yaratuvchanlik jarayoni hisoblanadi.

Ijtimoiy xodim "shaxs – muhit" kompleksiga alohida e'tibor qaratadi, ayni vaqtda birinchi o'ringa oilani va mijozning yaqin odamlariga alohida e'tibor qaratadi.

Ijtimoiy xodim avvalambor, muqarrar aralaShuv vaziyatini ekspert baholashda nimalarga e'tibor qaratishi lozim? Bu oila atrofida qilargilarni o'rganish, oilaning o'zaro munosabatlarining kelishilganligi yoki kelishilmaganligini, yaqin va uzoq muhitni qayd qilishdn iborat.

Xorijiy tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, oila bilan ijtimoiy ish olib borish mazkur soha mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan ekologik prinsiplar va konsepsiyalarga asoslangan. Oila muammolari bilan Shug'ullanuvchi ijtimoiy xodimning asosiy maqsadi oila hamda muhit bilan o'zaro muvofqlikka erishishdan iborat.

Oila o'zaro munosabatga kiriShuvchi va o'zaro bog'liq tizim hisoblanadi. Har qanday odam duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar, odatda oila ichidagi dinamika ta'siri ostida sodir bo'ladi. Oila qay tarzda o'zaro munosabat tizim ekanligiga qarab, uning bitta a'zosidagi o'zgarishlar uning boshqa a'zolariga ham ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy xodimlar odamlarga shaxsiy yoki ijtimoiy muammolarini hal etishda yordam berar ekanlar, o'zlari huzurlanadilar.

*AralaShuv strategiyasi* oilaviy urug' atrofida qilargilarning o'zgarishlariga e'tiborni qaratishni talab etadi. Xorijiy olimlar mavjud imkoniyatlardan foydalanishning quyidagi yo'nalishlari va usullarini shakllantiradilar: yangi manbalarni izlash; oilaga eng maqbul tarzda yordam berish imkoniga ega bo'lgan brokerlar, advokatlar va mutaxassislarni izlash; mavjud imkoniyatlardan foydalanish.

Ijtimoiy xodimlarning fikriga ko'ra, oxirgi yillarda ko'plab oilalar hayotining asosiy muammosi ijtimoiy kolliziyalar (to'qnaShuvlar) oldidagi ojizlik, kuchsizlik hisoblanadi. Shunday qilib, ekologik faoliyatning asosiy maqsadi oila va uning yaqin va uzoq muhit o'rtasidagi munosabatlaridagi o'zgarishlari bilan bog'liq.

Mutaxassis oilaga uni o'rab turgan tizimlarga quyidagi tarzda ta'sir

ko'rsatishga yordamlashadi: tengsiz yoki javobsiz munosabatlarni ochish yordamida; mahsulotlar va xizmatlar to'g'risida muzokaralar olib borgan holda; urug' a'zolarining ijtimoiy muhitdagi boshqa odamlar bilan kelisha olmaydigan kuchsiz yoki noto'g'ri aloqalarini mustahkamlagan holda. Oilaga yordam bergan holda hamjamiyat va ularning atrofidagi odamlarning ustunliklaridan eng maqbul tarzda foydalanish imkonini beradi. Masalan, vaqt va makonni rejalashtirish yordamida.

Bola va oila ehtiyojlarini *baholash* bola va oila haqidagi turli ma'lumotlarni to'plash uchun zarur. Bu mutaxassislariga bolaning ehtiyojlari va manfaatlariga maksimal darajada javob beruvchi rehabilitatsiya rejasini yaratishga, Shuningdek, bolaning keyingi hayoti uchun muhim bo'lgan qarorlarni qabul qilish imkonini beradi. Baholashni amalga oshirish – bir necha kundan bir necha hafatagacha cho'zilishi mumkin bo'lgan jarayon.

Bola va oila ehtiyojlarini baholash mezonlari uch o'lchamni qamrab oluvchi kompleks diagnostikani anglatadi<sup>1</sup>:

- Bolaning rivojlanish ehtiyojlari
- Bola ehtiyojlarini baholash mezonlari
- Ota-onalar imkoniyatlarini baholash mezonlari
- Oilaviy omillar va atrof muhit omillari

*Oilaviy terapiya* oilaviy o'zaro munosabatlarni uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan psixoterapevtik metodikalar kompleksi hisoblanadi. Oilaviy terapiyaning vazifasi oilani jipslashtirish, uning a'zolarida oilaning boshqa a'zolarining ehtiyojini qondirish bo'yicha ijodiy tafakkurni rivojlantirishdan iborat.

Oilaviy terapiya madaniy-mohiyatga oid muhitda kompromisni topishni qamrab oladi. To'planib qolgan ijtimoiy-psixologik stereotiplarni tuzatish, nizoga kirishmaydigan ko'nikmalarga o'rgatish. Bu kabi faoliyat individual suhbatlar va intervyular, guruhga oid yoki o'yinga oid terapiya yo'li bilan amalga oshiriladi.

*Jismoniy shaxslar va oilalar bilan ijtimoiy ish olib borish (Casework).* Ijtimoiy xodimning intilishlari alohida shaxslar yoki oilalar bilan to'g'ridan-to'g'ri ish olib borishga yo'naltirilgan, mazkur jarayon to'g'ridan-to'g'ri jarayon, deb

nomlanadi. Mazkur usul odamlarga va oilalarga yordam berishga, ijtimoiy faoliyat olib borishdagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy yoki boshqa muammolarni hal etishni identifikatsiya qilishga yo‘naltirilgan. Ko‘p holatlarda muammolar ijtimoiy nomaqbullik, hissiy va shaxslararo nizolar, ijtimoiy zo‘riqishlar yoki manbalar bilan to‘liq tanishmaslik bilan bog‘liq. Mazkur sohada faoliyat olib borayotgan amaliyotchi mutaxassislar muammoni yaxshilash uchun aralaShuv strategiyasini qo‘llaydilar. Bu kabi bevosita tajriba ko‘pincha terapevtik amaliyot hisoblanadi.

Ma‘lumotning asosiy manbasi, poydevori *genogramma* – qarindoshlik aloqalariga ega bo‘lgan, hayotdagi qayd qilingan asosiy hodisalarga asoslangan oilaviy karta hisoblanadi. So‘rovnoma o‘tkazish metodikasi oilaviy madaniyatni takomillashtirish, har bir individning o‘zini va atrofidagi dunyoni anglash ko‘nikmasi bilan bog‘liq. Ijtimoiy xodimlar oilaviy afsonalar, rivoyatlar, marosimlar, ayrim ramziy harakatlarni tadqiq qilish bilan Shug‘ullanadilar. Mazkur oilada ustuvor hisoblangan fikrlar va e‘tiqodlar namunasi, faqatgina mazkur uruqqa juda yaqin bo‘lgan odamlargina tuShuna oladigan alohida muloqot tili o‘rganiladi. Mazkur yo‘nalishda faoliyat yuritadigan ijtimoiy xodim uchun eng muhim jihat har bir oiladagi hayotiy qarashlar, qadriyatlar tizimi, deyarli bir-biridan farq qiluvchi, ayrim hollarda bir-biriga zid bo‘lgan qadriyatlar tizimini bilish hisoblanadi.

Bu holatda o‘tmish, bugungi kun va kelajak mantiqqa zid ravishda, ajoyib tarzda aralashib ketadi.

Oilaviy urug‘lar bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy xodimlar alohida kontekstda u yoki bu yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatadilar. Oilada u yoki bu ekstremal vaziyat bilan bog‘liq ravishda tug‘iladigan munosabatlar o‘rganiladi. Oila bilan ijtimoiy ish olib borish amaliyotining asosiy maqsadi keskin o‘zgarishlar bilan bog‘liq, biroq bu holatda o‘tmishdagi rivojlanishning barcha boyliklari saqlab qolinadi.

Ijtimoiy xodimning oila bilan olib boradigan faoliyatining muhim yo‘nalishlariga quyidagi *yo‘nalishlar* kiradi:

1. Er-xotin juftliklari bilan shaxsiy, norasmiy muloqot;
2. Oilalar, odamlar guruhleri bilan ularga o‘z oilalarining genealogiyasining

haqiqiy ekspertlariga, tadqiqotchilariga aylanishlari uchun yordam berishga yoʻnaltirilgan holda ish olib borish.

Ushbu oilaviy urugʻlarning vakillari oʻz ijtimoiy tuzilmasining afsonalari, rivoyatlari, sirlarini oʻrganadilar, tarixiy jihatdan buzilishlarning yoʻl qoʻyilishining oldini olishga harakat qiladilar.

Ijtimoiy xodim mijozlarga xulqning turli modellarini oʻrganish imkoniyatini yaratib beradi; oila aʼzolari bilan munosabatlarning ijobiy tomonga oʻzgarishiga imkoniyat yaratuvchi turli strategiyalarni taklif qiladi. Maʼnaviy, ijobiy tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlaydi, oʻz ijtimoiy tadqiqotlari va eksperimentlarining natijalarini kuzatib boradi. Ijtimoiy xodim keskin, jiddiy, ekstremal vaziyatlarni tushunishga, uning aslini, tub mohiyatini koʻrishga, asosiy ishtirokchilarining xulqiga sabab boʻlgan narsalarni aniqlashga, avvalgi hayotining real oilaviy dramaning asosiy ishtirokchilarining fikrlarining shakllanishiga taʼsirini anglashga intiladi.

Mijozning maʼnaviy, professional ehtiyojlari va ijtimoiy hayotdagi tajribasini qayd qilishni taqozo qiluvchi oʻta zarur jihatlarni tanlab olish zarur. Ayni vaqtda ijtimoiy xodimning oʻzining hayotiy tajribasi va nazariy bazasi ham muhim ahamiyatga ega. Oilaning boshqa ijtimoiy xizmatlar bilan oʻzaro munosabati natijasida toʻplangan (ijobiy yoki salbiy) tajribasini ham eʼtibordan chetda qoldirmaslik lozim. Oila tuzilmasini chuqur eʼtibor, sinchkovlik bilan oʻrganish va koʻplab boshqa jihatlar ham shular jumlasiga kiradi.

Ayni vaqtda agar oila notoʻgʻri tashkillashtirilgan boʻlsa, undagi oʻzgarishlar ham dolzarb masala hisolanadi; oila va atrofdagi dunyo oʻrtasida, oila aʼzolari oʻrtasida, turli avlodlar vakillari oʻrtasida, erkak va ayol jinsiga mansub shaxslar oʻrtasida boʻlishi mumkin boʻlmagan yoki notoʻgʻri chegaralar paydo boʻladi. Oiladagi oʻzgarishlar ierarxiyaning (oʻtib ketganlar, ayni vaqtda yashayotganlar va kelajak avlod oʻrtasidagi maʼnaviy aloqalarning uzilishi) parchalanishi kuzatilganda ham dolzarb boʻlib qoladi, xato uchburchak yuzaga keladi, yaʼni, er-xotinlik munosabatlarining inqirozga uchraganini his qilgan holda oʻz mehrini bolaga berishga urinadi.

Yuqori professional darajasiga ega bo'lgan ijtimoiy xodim o'z sezgirligi va individual yondashuvidan foydalangan holda oilada alohida muhitni yaratishga intiladi.

Yuqori madaniyatli jamiyat bolalarning ijtimoiy maqomi, milliy tegishliligi, diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, ularning farovonligini ta'minlanishidan manfaatdor. Buning natijasida esa oilaning to'liqligini saqlab qolishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekistonda oilani ijtimoiy himoya qilish tizimi asosiy tomonlari me'yoriy-huquqiy baza, davlat hokimiyat organlari, ularning ijtimoiy himoyasini amalga oshiruvchi va bevosita mazkur tizim orqali taqdim qilinadigan xizmatlarni amalga oshiruvchi tashkilotlar va muassasalardan iborat bo'lgan barcha fuqarolarni qamrab oluvchi tizimni aks ettiradi.

O'zbekistonda ijtimoiy yordam va xizmatlar yirik dasturlar doirasida – ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga taqdim qilinadi. Ijtimoiy yordamning manzilliligini oshirish va ma'muriy xarajatlarni kamaytirish maqsadida O'zbekistonda 1994 yildan boshlab kam ta'minlangan oilalarga yordam ko'rsatish bo'yicha, 1997 yildan boshlab esa ko'p bolali oilalarga yordam ko'rsatish dasturiga ko'ra byudjetdan ajratilgan mablag'lar mahalliy o'z-o'zini boshqarish organi – mahalla tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur tizim davlat tomonidan ko'rsatilayotgan yordamning turi kabi uning hajmini belgilashga ham nisbatan ob'ektiv yondashishni taqozo qiladi.

Jamoada ijtimoiy ish bir hududda yashovchi va umumiy muammolari mavjud bo'lgan individuumlarga, guruhlariga, jamoalarga professional yordam ko'rsatishni nazarda tutadi. Asosiy usullari: ijtimoiy tashxis qo'yish; ijtimoiy prognozlash; makroiijtimoiy muhitni ijtimoiy rejalashtirish; hududiy boshqaruv tizimini rivojlantirish; mahalladagi xayriya aksiyalari; amaliy ish olib borish<sup>1</sup>.

O'zbekistonda ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi zamonaviy boshqaruv texnologiyalarining ko'plab mumlakatlar va xalqaro tashkilotlar vakillarining e'tiborini jalb qiluvchi xalq mentalitetiga moslashtirishning muvaffaqiyatli tajribasini aks ettiradi. Manzillilik – uning asosiy mohiyati Shundan ioratki, davlat



himoyasiga faqatgina aholining haqiqatan ham muhtoj qatlamlari tushishi lozim. Imkoniyat – ijtimoiy xizmatlarning potensial iste'molchilarining qancha miqdori mazkur xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Samaradorlik tizimning ichki xususiyatlari kabi (imkoniyat va manbalarni xarakterlovchi ko'rsatkichlar), tizim faoliyat olib borayotgan sharoitlar bilan ham belgilanadi. Shu sababli umuman samaradorlik haqida emas, balki tizimning muayyan vaziyatlarda va vaqt davomida muayyan vaziflarni bajarishidagi faoliyatining samaradorligi haqida gapirish maqsadga muvofiq<sup>1</sup>.

Davlatning oilalar haqidagi g'amxo'rliqi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– mamlakat aholisining hayot ta'minoti uchun maqbul sharoitlarni yaratish: turar joy, tibbiy xizmat ko'rsatish, ta'lim, maishiy xizmatlar, madaniyat, dam olish va xavfsizlikni ta'minlash;

– mamlakat aholisining pensiyalari, nafaqalari, alimetlari, stipendiyalari va boshqa to'lovlari mamlakat qonunchiligi tomonidan belgilanadigan va davlat tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladigan muayyan toifalarining (nogironlar, etimlar, o'quvchilar, keksalar, vaqtincha ishga layoqatsiz shaxslar, to'liq bo'lmagan oilalar va boshq.) ijtimoiy himoyasi;

– ijtimoiy yordam xizmatiga ixtiyoriy ravishda yordam so'rab murojaat qilgan barchaga va bu kabi yordamga muhtoj, biroq ayrim sabablarga ko'ra o'zi mustaqil ravishda yordam so'rab murojaat qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxslarga (bolalar, o'zlari mustaqil harakat qila olmaydigan bemorlar va h.k.) individual ijtimoiy yordam ko'rsatish. Bu erda ijtimoiy yordam odamlarga ularning shaxsiy hayotiy muammolari va qiyinchiliklarni (qiyin vaziyatlarni) avvalambor ularda intilish va o'z-o'ziga yordam ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali engib o'tishda yordam ko'rsatish va imkoniyat yaratish sifatida tushuniladi.

Yoshlarning oilaviy siyosatini yanada takomillashtirish yosh oilani shakllanish bosqichlarida qo'llab-quvvatlovchi va ularning tezkor sur'atlarda rivojlanish bosqichiga o'tishi uchun zarur sharoitlarni yaratib beruvchi chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Yosh oilalar bilan ish olib borish va ulardagi mavjud muammolarni hal

etishda, O‘zbekistonda yangi bo‘lgan, biroq oxirgi yillarda jadal rivojlanib borayotgan kasbiy faoliyat – ijtimoiy ish muhim o‘rin tutadi<sup>1</sup>.

Oilalar bilan ijtimoiy ish olib borishning asosiy ustuvor yo‘nalishlari orasida mamlakatimiz olimlari bola huquq va manfaatlari ekanligini alohida ta’kidlaydilar; oiladagi vaziyatni ijtimoiy xizmatlar tomonidan malakali va ob’ektiv baholash; bolalar ustidan zo‘ravonlik qilish holatlari kuztilmaganda ijtimoiy xodimlar tomonidan maxfiylikka amal qilish; oiladagi nomaqbul omillarni qayd qilish va boshqalar<sup>2</sup>.

Ijtimoiy xizmatlar vazifalariga ijtimoiy himoya, kunduzgi parvarish, uy xo‘jaligini yuritish, oilaviy hayotga tayyorlash, bolalar tarbiyasi, oilaviy terapiya bilan Shug‘ullanish, nizolarni hal etish, oilaga parchalanib ketmaslikda yordam berish kabilar kiradi, bu esa o‘z navbatida yosh oila hayotining dastlabki bosqichida muhim ahamiyatga ega.

*5. Ijtimoiy xodimlarning bolalarga, yoshlarga va ularning oilalariga xizmat ko‘rsatishdagi roli.* Ijtimoiy xodimlar bolalar, yoshlar va ularning oilalariga xizmat ko‘rsatish jarayonida ko‘p vaziyatlarda asosiy o‘rin tutadi. Aslida bu ijtimoiy ish tajribasining eng an’anaviy sohasi hisoblanadi. Avval bu 1880 yillarda tashkil etilgan “Bolalarning ijtimoiy ta’minoti” tashkilotining birinchi ko‘ngillilari bo‘lgan, so‘ngra bu vazifani 1900 yillarda kasbiy ta’lim olgan, ijtimoiy xodimning stereotip namunasi bo‘lgan ijtimoiy xodimlar amalga oshirgan.

bugungi kunda ijtimoiy xodimlarning mazkur sohadagi roli nisbatan kengaydi, bakalavriat, magistratura bitiruvchilari va PhD darajasiga ega bo‘lgan mutaxassislar bolalar, yoshlar va oilalarga xizmat ko‘rsatishda faol ishtirok etmoqdalar. Baklavr darajasidani ijtimoiy xodimlar quyidagilarda ishtirok etadilar:

- guruhga oid uylar va boshpana markazlarida bola parvarishi bilan Shug‘ullanuvchi xodimlar sifatida;
- zo‘ravonlik qurboniga aylangan ayollar va bolalar uchun ajratilgan boshpana marakazlarida maslahatchi sifatida;
- yoshlar uchun ajratilgan boshpana marakazlarida maslahatchi sifatida;
- huquqni muhofaza qilish organlari inqirozli markazlarida;

- davlat ijtimoiy xizmat ko'rsatish muassasalarida bolalarni ijtimoiy himoya qilish va ularni parvarishlash xizmatlarida.

Bolalarga, yoshlarga va oilalarga xizmat ko'rsatish sohasidagi qarashlarning boshlang'ich darajasi odatda boshqa ishga (bevosita yordam ko'rsatishga yoki rahbarlik lavozimlariga o'tish) yoki ijtimoiy ishning boshqa sohalariga shtish uchun katta tajribaga ega bo'lish imkonini beradi. Ayrim davlatlar mijozlarning bu toifasi bilan ishlash uchun kamida bakalavr darajasini talab qiladilar. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish markazlarida faoliyat olib borayotgan ijtimoiy xodimlarning ko'p qismi shafqatsiz munosabat, tahqirlash holatlari yuz berganligi haqidagi xabarlarni o'rganish bilan Shug'ullanadilar va zarurat tug'ilganda vaziyatni yumshatish maqsadida aralaShuvni amalga oshiradilar. Ular sudlar, huquqni muhofaza qilish organlari, Shuningdek, oilalarga yordam berish, oilalarning o'z-o'ziga yordam berish, volontyorlar dasturlarida hamjamiyatlar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib boradilar. Foster dasturi doirasida xodimlar va farzandlikka oluvchi oilalarni tanlash bilan Shug'ullanadilar hamda ularni tayyorlashni nazorat qiladilar.

Ijtimoiy xodimlar bolalar bilan ish olib borar ekanlar, qabul qiluvchi oilani shakllantirishga imkoniyat yaratadilar. Ko'plab bakalavriat (BSW) bitiruvchilari jamoa a'zolari sifatida namoyon bo'lgan holda, bevosita bolalar va o'smirlar ishlagan holda jamoaviy dasturni amalga oshirish maqsadida jamoa a'zosi sifatida namoyon bo'ladilar va statsionar hamda psixiatrik sanitar yordam xizmatlarida bolalarga g'amxo'rlik qiladilar. Ushbu tajriba hissiy buzilishlarga ega bo'lgan bolalar va ularning oila a'zolari bilan ish olib borish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Boshqa ijtimoiy xodimlar Amerikadagi bolalarni va potensial volontyorlarni baholovchi, ularni nazorat qiluvchi Big Brothers, Big Sisters kabi agentliklarda faoliyat olib boradilar.

BSW bitiruvchilari tobora ko'proq ularga oilalarga davlat yordamini ko'rsatishda yordam beruvchi oilalarni saqlash, oilalarni qo'llab-quvvatlash dasturlariga, Shuningdek, rivojlanishida ortda qolgan bolalarga, nogironlarga va ularning oilalariga xizmat ko'rsatuvchi dasturlarga ijtimoiy xodimlar sifatida yollanmoqdalar. BSW darajasidagi ijtimoiy xodimlar Shuningdek, kattalar uchun

statsionarlar va uyushmalarga maslahatchilar sifatida yollanadilar, o'smirlarning giyohvandlikka tobeligidan davolashda ishtirok etadilar.

Maktab ijtimoiy xodimlariga bir shtatdan boshqa shtatga o'tish davomida o'zgaruvchi davlat attestatsiyasi talab etiladi. Ayrim shtatlarda BSW bitiruvchilari maktab ijtimoiy xodimlari sifatida yollanadilar, ayni vaqtda boshqa shtatlarda dars berish tajribasi va tayyorlov kurslari darajasi yoki magistr darajasi talab etiladi.

Maktabda o'qishni tashlagan va zo'ravonlikka duch kelgan, o'smirlik davridagi homiladorlikka duch kelgan bolalarga alohida e'tibor qaratiladi. Bu ijtimoiy ishning tez rivojlanib borayotgan sohasi hisoblanadi. Maktab ijtimoiy xodimlari:

- ota-onalar va oilalarga individual maslahatlar taqdim qiladilar;
- ota-onalari sinov muddatida bo'lgan, turli ichkilikbozlik va giyohvandlikdan so'ng davolanayotgan, oilada ajralish yoki ichkilikbozlik bilan bog'liq, o'qituvchilar va tengdoshlari bilan muammolari mavjud bo'lgan o'smirlar guruhlarini bilan ish olib boradilar;
- o'z joniga qasd qilish kabi inqirozli vaziyatlarda aralaShuvlar bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi;
- ota-onalarni o'qitish va ota-onalar guruhlarini qo'llab-quvvatlashda yordami sifatida namoyon bo'ladilar;
- tizimda ota-onalarga va ularning farzandlariga tegishli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratish maqsadida hamjamiyatlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning boshqa muassasalari bilan hamkorlik qiladilar.

Ijtimoiy xodimlarning milliy uyushmasi ijtimoiy ish maktablarida o'z bo'linmalariga ega, Shuningdek, milliy darajada ikkita jurnal chop etadi.

BSWning boshqa bitiruvchilari Bolalarni himoya qilish jamg'armasi kabi oilaviy xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar yoki muassasalarda, davlat, federal qonunchilik muassasalarida faoliyat olib boradilar.

Magistrlar ijtimoiy siyosatni amalga oshirish va tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan, Shuningdek, bolalar, oilalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatishning turli xizmatlarida lavozimlarni egallab turadilar.

Ijtimoiy ish bo'yicha nomzod ilmiy darajasiga talabgorlikda xizmatlar ko'rsatuvchi qandaydir xizmatda amaliy ish tajribasi zarur. Agentliklar direktorlari lavozimini ko'pincha ilmiy darajaga ega bo'lgan professionallar egallab turadilar. Bundan tashqari, tor ixtisoslikka, klinik tajribaga ega bo'lishni xohlagan shaxslar falsafa doktori darajasini himoya qiladilar, bu esa o'z navbatida ularga bolalar, yoshlar va oilalar bilan tezkor terapiyani amalga oshirish imkonini beradi<sup>1</sup>.

### **Mustaqil ta'limi uchun savollar**

1. Bolaning eng oliy manfaatlari nimalardan iborat?
2. Bolani rivojlantirish ehtiyojlarini baholash mezonlari nimalardan iborat?
3. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarning asosiy toifalarini sanab o'ting.
4. YOshlik davrining chegaralari qanday?
5. YOshlar muhitida ijtimoiy tabaqlanish.
6. Oilalardagi muammolarning asosiy turlari nimalardan iborat?
7. Oilani ijtimoiy himoya qilish nimadan iborat?
8. Oilalarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish vazifasi nimadan iborat?
9. Muammolarga duch kelgan oilalarga tahdid solish omillari qanday?
10. Ijtimoiy xodim oila hayotining qaysi jihatlari bilan qiziqishlari lozim? Nima sababdan?
11. Xorijda bolalar, yoshlar va oilalar muammolarini hal etish yoki ularning oldini olishga yo'naltirilgan xizmatlar nimalardan iborat?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya (20.11.1989 da BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan ma'qullangan). <http://www.consultant.ru>
2. Ganieva M.X., Latipova N.M., Alekseeva V.S. Bolalar va yoshlarning ijtimoiy ta'minoti va himoyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: YANGI NASHR, 2017. – 588 b.
2. Ganieva M.X. O'zbekistonda ijtimoiy ishni rivojlantirish // Falsafa va huquq. Ilmiy-nazariy, ma'rifiy jurnal. №1. 2013. – B. 50-55.

3. Timoti Xant, Lyudmila Kim. O‘zbekiston Milliy univertiteti, BMT YUNISEF bolalar jamg‘armasi, Kolumbiya universiteti (AQSH) hamkorligidagi “O‘zbekistonda ijtimoiy ish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish” loyihasi doirasidagi “Bolalar va oilalar bilan ijtimoiy ish olib borish amaliyoti” treningi materiallari. – Nyu-York-Toshkent, 2019.

4. Kamalov O.A. Zamonaviy jamiyatda yosh oila: O‘quv-metodik qo‘llanma / O.A.Kamalov, A.R.YArmuxamedova A.A.Kurbanova B.A.Artykov. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 28 b.

5. Latipova N.M. Bolaga nisbatan nomaqbul munosabatda bo‘lishning oldini olish. Metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2016. – 94 b.

6. Ambrosino R., Ambrosino R., Heffernan J., Shuttlesworth G. Social Work and Social Welfare: An Introduction. Sixth Edition. – ThomsonBrooks/Cole, 2008.

7. Charles Zastrow. Introduction to Social work and social welfare. Empowering People. George Williams College of Aurora University. Printed in Canada: Brooks/Cole, Cengage Learning, 2010.

8. Romanov P., YArskaya-Smirnova E. Ijtimoiy ish va ijtimoiy siyosat: tadqiqotlar, amaliyot, ta’lim / YOzgi maktab xrestomatiyasi. – Toshkent, 6-11 iyun 2003 y.

9. Erikson E. Mansublik: o‘smirlik va inqiroz: Ingl. Til. Tarj. – M.: «Progress», 1996.

## 8-MAVZU. SALOMATLIK VA NOGIRONLIK

1. *Salomatlik va kasallik tuShunchalari*
2. *Tibbiy-ijtimoiy xodimlar vazifalari va ko‘nikmalari*
3. *Nogironlik: tuShuncha, omillar, yondaShuvlar*
4. *Rivojlanib borayotgan nogironlik. Nogironlarga xizmat ko‘rsatishning xorijiy tajribasi*

**Kalit so‘zlar:** salomatlik, kasallik, salomatlik bilan bog‘liq muammolar, tibbiy-ijtimoiy xodim, maslahat xizmati, nogironlik, nogiron shaxslar, cheklovlar, to‘siqlar, rivojlanib borayotgan nogironlik, mikrotizim, mezotizim, ekotizim,

makrotizim, geteroxronlik, abilitatsiya, reabilitatsiya

1. *Salomatlik va kasallik tuShunchasi*. Ijtimoiy ish salomatliklarida muammolari bo‘lgan odamlarga xizmat ko‘rsatuvchi ijtimoiy ta‘minot tizimi doirasida asosiy kasb hisoblanadi.

Salomatlik murakkab toifa hisoblanadi. Zamonaviy adabiyotlarda “salomatlik” va “kasallik” atamalarining yuzdan ortiq ta‘riflari mavjud. Umuman olganda bir nechta asosiy variantlarni ajratib ko‘rsatish mumkin: 1) salomatlik kasalliklarning mavjud emasligi sifatida ta‘riflanadi; 2) salomatlik va me‘yor sinonim tuShunchalar sifatida qo‘llaniladi; 3) salomatlik yoki kasallik biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro munosabatlari natijasi hisoblanadi.

Ushbu ta‘riflar orasida eng to‘liq va ko‘p iqtibos keltiriladigan ta‘rif, 1948 yilda Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan taklif qilingan ta‘rif hisoblanadi: “Salomatlik – bu nafaqat kasallik yoki zaiflik emas, balki to‘liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holatidir”<sup>1</sup>. Mazkur ta‘rifdan kelib chiqadiki, odamlar salomatligi nafaqat biologik omillar va o‘zgaruvchilardan, balki psixologik va ijtimoiy omillarga ham bog‘liq. Ushbu omillarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo‘lgan holda ko‘rib chiqamiz:

1. Ijtimoiy demografik (yosh, etnik/milliy tegishlilik, jins, yashash manzili: shahar/qishloq, yashash mamlakati).

2. Ijtimoiy-iqtisodiy (ta‘lim darajasi, daromadlar darajasi, mashg‘ulot turi, umuman oilaning moddiy holati).

3. Ijtimoiy-tibbiy (yashash sharoiti, ekologik va tabiiy-iqlimga oid, oilaviy ahvoli, ijtimoiy maqomi, tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati, tibbiy yordam sifati).

4. Ijtimoiy-psixologik va psixologik (psixoijtimoiy yordamning mavjudligi/mavjud emasligi, turmush tarzi, hayotning sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarining mavjudligi/mavjud emasligi, psixologik va hissiy bosim darajasi, shaxsga oid o‘ziga xos xususiyatlar).

5. Biologik va fiziologik (bo‘yi, og‘irligi, kasalliklarga moyilligi, asab

tizimining turi).

Ta'kidlash lozimki, ushbu omillar salomatlik – kasallikning jamiki kontinuumida har qanday holatlarga moyil, sabab bo'luvchi va ularni qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida ta'sir ko'rsatishi mumkin<sup>1</sup>. Salomatlik holati va turli kasalliklarning ijtimoiy va psixosijtimoiy bog'liqliklarni ochib beruvchi ayrim raqamlarni keltirib o'tamiz. Masalan, infarkt miokarddan o'lganlar miqdorini o'rganish, mazkur kasallikni boshidan o'tkazgan bemorlarning o'lim ehtimoli, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash etishmagan, ijtimoiy izolyasiya holatida bo'lgan, qator ijtimoiy muammolarni boshidan kechirganlardan ko'ra 4-5 marotaba yuqori ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, salomatlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillar daromadlar, etnik tegishlilik, jins, yosh, nogironlik va yashash manzili bilan bog'liq.

*Daromadlar.* Daromad qanchalik yuqori bo'lsa, ehtimol, inson o'zini Shunchalik yaxshi his qilishi lozim. Kambag'allarda salomatlik bilan bog'liq muammolarga ega bo'lishlari ehtimoli nisbatan ko'proq. Sabab Shundan iboratki, odamlar ko'pchiligi tibbiy sug'urtaga ega, tibbiy yordam olishga ertaroq murojaat qilishlari mumkin, ko'pincha to'yimli va sifatli mahsulotlarni iste'mol qiladilar va aqliy jihatdan kamroq kuch sarf qiladilar. Sug'urta qilinmagan 10 ta amerikalikdan 8 tasi "ishchi oilasi"dan. 70% ishchilarga ish beruvchilar tibbiy sug'urta taqdim qilmaydilar<sup>2</sup>.

*Jins.* Hayotning o'rtacha davomiyligi erkaklar kabi ayollar uchun ham ortib bormoqda. Garchi ayollar uchun hayotning o'rtacha davomiyligining ortishini afzallik sifatida ifodalasak-da, Shu bilan birga bu holat bilan bog'liq muammolar ham mavjud. Hayotning kutilgan davomiyligidagi farq va ayollar uy ishlari va bola tarbiyasi bilan ko'proq mashg'ul bo'lganliklari sababli qari ayollar bevaga aylanadilar va ijtimoiy ta'minotning cheklangan nafaqalari bilan qamrab olingan.

*YOsh.* Keksalar kabi yosh fuqarolar ham salomatlikning yomon holatiga ko'ra eng yuqori xavf hududida turadilar. Keksayish tufayli xavfning ortib borishiga sabab, ularning ko'pchiligi kambag'allikda yashaganliklari. Aholining kambag'al



qatlamlaridan bo'lgan keksa insonlarning bir qismi zarurat tug'ilgan holatlarda tibbiy yordam so'rab murojaat qilmaydilar, chunki moliyaviy xarajatlar juda yuqori.

*Kasalliklar va salomatlik bilan bog'liq muammolar.* Alohida e'tiborni talab qiluvchi kasalliklar orasida qandli diabet, artirit va osteoporoz kabi tayanch-harakat apparati kasalliklari, respiratorli kasalliklar. Hayot uchun xavfli bo'lgan ayrim kasalliklar, masalan, Xantington kasalligi va ksitali fibroz genetik kasalliklar sirasiga kiradi. Bugungi kunda perinatal genetik skrining Daun sindromini, Tey Saks kasalligini, fibrozli-genetik degenarsiyani va o'roqsimon hujayrali anemiyaning mavjudligini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, kim gipertoniya, dispepsiyaga, saratonga, maniakal depressiyaga, shizofreniyaga, 1 tur diabetiga, Alsgeymer nasliy kasalligiga, bu faqatgina vaqt masalasi, parishonxotir sklerozga, miotonik mushak distrofiyasiga, alkogol va giyohvand moddalarni suiste'mol qilishga moyilligini aniqlash imkonini beruvchi perinatal genetik test o'tkazish masalasi bu faqatgina vaqt masalasi.

Agar umuman kasalliklarning epidemiologiyasi haqida gapiradigan bo'lsak, u holda quyidagi umumiy yo'nalishlarni qayd qilish mumkin. Birinchidan, bugungi kunda o'lim va kasalliklarning to'rtdan uch qismi yuqumli kasalliklar emas, balki surunkali kasalliklar sababli yuz bermoqda (yurak, qon-tomir kasalliklari, saraton, nafas organlari va oshqozon-ichak trakti kasalliklari).

Ushbu kasalliklar uzoq davom etganligi sababli kasallikka chalingan kishidan va uning atrofida gilardan odatiy turmush tarzini o'zgartirishni talab etadi, psixoiqtimoiy muammolarning vujudga kelishiga olib keladi.

Ikkinchidan, inson hayotining sanitar sharoitlarini yaxshilash, vaksinatsiyaning paydo bo'lishi bo'g'ma, qoqshol, sil, ich terlama va boshqa kasalliklarning tarqalishini o'tgan asr bilan qiyoslaganda nisbatan kamaytirdi. Biroq oxirgi yillarda turmush darajasining, rivojlanayotgan mamlakatlarda tibbiy yordam sifatining tushib ketishi ayrim yuqumli kasalliklar (sil, bezgak) darajasining ortib borishi kuzatiladi.

Uchinchidan, XX asrda davolash usullari tibbiyot tomonidan hali topilmagan yangi yuqumli kasalliklar (OITS, Ebola bezgagi) paydo bo'ldi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda o‘lim sabablari tizimida birinchi o‘rinni qon aylanish organlari kasalliklari egallaydi – 59,7%, ularning asosiy sabablari yurakning ishemiya kasalligi, arterial gipertoniya va ularning asorati (miokard infarkti, miya insulti va boshq.). Ulardan keyingi o‘rinlarda xatarli yangi kasalliklar (9,4%), nafas organlari kasalliklari (5,0%) va qandli diabet (3,5%)<sup>1</sup>.

Yenadagi Fridrix Shiller nomidagi universitet olimlari taxminiga ko‘ra, o‘zbek oshxonasi Evrosiyo hududida salomtalik uchun eng xavfli oshxonalardan hisoblanadi. Zararli oziq-ovqat odatlari tufayli o‘lim holatining eng yuqori darajasi MDH davlatlarida qayd qilingan. Avval SSSR tarkibiga kirgan respublikalar reytingning birinchi o‘n bitta o‘rnini egallagan. O‘limlar soniga ko‘ra birinchi o‘rinni O‘zbekiston egalladi. Mamlakatimizda noto‘g‘ri ovqatlanish qurbonlari soni har 100 kishidan 394 taga teng. O‘zbekistonda noto‘g‘ri ovqatlanish bilan bog‘liq yurak-qon tomir kasalliklaridan har yili 65 mingga yaqin kishi vafot etadi<sup>2</sup>.

O‘zbekistonda ayollar va erkaklarning sil bilan kasallanish darajasi sekin-astalik bilan o‘sib bormoqda (aholining 100 ming kishisiga hisoblangan). Sildan vafot etish ayollarda 1990 yilda 100 ming kishidan 4,9 ayollarga, 2000 yilda 8,1ga, erkaklarda esa 8,1dan 19,1ga ortdi<sup>3</sup>.

Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, kasalliklarning vujudga kelishida, salomatlikni saqlash va mustahkamlashda ijtimoiy va psixologik omillarning roli aniq ko‘rinib turibdi. Va aynan ijtimoiy ish amaliy faoliyatning bir turi sifatida aholiga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega.

Tibbiy-ijtimoiy muhitda faoliyat olib borish uchun huquqiy bazasini O‘zbekiston Respublikasining quyidagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlari tashkil etadi: “Fuqarolar salomatligini saqlash to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoyalanganligi to‘g‘risida”, “Psixitarik yordam to‘g‘risida”, “Insondagi immunotantqislik virusi sababli vujudga keluvchi kasalliklarning oldini olish to‘g‘risida (OITS-infeksiyasi)”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oiladagi tibbiy madaniyatni oshirish, ayollar salomatligini saqlash, sog‘lom avlodning tug‘ilishi va ularni tarbiyalashning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, “Ijtimoiy ahamiyatga

ega bo'lgan kasalliklarning tasdiqlanishi va ulardan aziyat chekayotgan shaxslarga imtiyozlarni belgilash to'g'risida"gi Qarorlari, "Sog'lom avlod" davlat dasturi to'g'risidagi va boshq.

2. *Tibbiy-ijtimoiy xodimlarning vaziflari va ko'nikmalari.* Tibbiy-ijtimoiy xodim faoliyati uchun zarur bo'lgan vazifalar va ko'nikmalar salomatlik va kasallikning yuqorida ko'rib chiqilgan biopsixoiijtimoiy modellariga asoslanadi.

Jamoada ishlash ko'nikmasi muhim amaliy ko'nikma hisoblanadi. Kommunikativ ko'nikmalar barcha fanlar vakillari o'rtasida muloqotni ta'minlash uchun muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, tibbiy muassasada samarali faoliyat olib boruvchi yoki mijozlarning salomatligi bilan bog'liq bo'lgan muammolarini hal etuvchi ijtimoiy xodim u yoki bu kasallikning tibbiy-ijtimoiy jihatlari to'g'risida xabardor, kasallik kechishining o'ziga xos xususiyatlari va sharoitlari to'g'risida, u bemorga va uning atrofida qilargalarga ko'rsatadigan ta'siri haqida xabardor bo'lishi lozim.

Tibbiy-ijtimoiy xodim aholining qaysi toifalari (jins, yosh, ijtimoiy o'rni) ko'proq kasallikka moyil ekanligini, uning psixoiijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun bemor qaysi xizmatlarga murojaat qilishi lozim ekanligidan xabardor bo'lishi lozim. Ijtimoiy xodimlar uyda parvarish qilish agentliklari, qo'llab-quvvatlash va o'z-o'ziga yordam ko'rsatish guruhlari, muayyan kasalliklari mavjud bo'lgan bemorlar uchun dasturlar kabi manbalarni topish va ulardan foydalanish ko'nikmalariga o'qitiladilar.

Kasallik haqidagi tibbiy va psixologik ma'lumotlarni bilish, bemorlarning kasallikning paydo bo'lish sabablari haqidagi izohlarini tushunish tibbiy-ijtimoiy xodimga bemor va uning ijtimoiy muhitdagilarning savollariga javob berish imkonini beradi.

Agar tibbiy-ijtimoiy xodimning ish joyi va muammolarining o'ziga xos xususiyatlaridan qat'iy nazar, uning vazifalari va imkoniyatlari haqida aniq gapiradigan bo'lsak, u holda mijozlar va ularning oilalarining ijtimoiy, maishiy, psixoiijtimoiy, huquqiy muammolarini hal etish bilan bog'liq bo'lgan asosiy vazifalaridir.

– Bemorda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ijobiy yoki salbiy hayotiy hodisalarning mavjud yoki mavjud emasligini, kopingning mavjud ekanligini qamrab oluvchi *psixoijtimoiy baholash*<sup>1</sup>. Psixoijtimoiy baholashga bemor va uning oilasining davolash yoki kasalxonadan chiqishning tavsiya qilingan yo‘nalishiga amal qilish imkoniyatlarini aniqlash kiradi. Psixoijtimoiy baholash, Shuningdek, ko‘rsatilayotgan xizmatlarning doimiy monitoringini bemor va uning oilasi bilan doimiy o‘zaro munosabatlar hamda xizmatlardan qoniqish hosil qilmagan mijozlarni aniqlash orqali amalga oshirilishini taqozo qiladi.

– *Bemorlarga*, Shuningdek, ularning hissiy jihatdan og‘ir kunlarni boshdan kechirayotgan oila a‘zolariga *maslahat berish, ularni qo‘llab-quvvatlash* (masalan, jiddiy qayg‘uni boshdan kechirish natijasi sifatida), ularning ichki va tashqi manbalarini rivojlantirish.

– *Bemorlar va ularning oilalariga* axloqiy tabiatga ega bo‘lgan, kasallikning psixoijtimoiy holatlari, ularga moslashish, unga bo‘lgan munosabat, rollarning o‘zgarishi bilan bog‘liq qarorlarni qabul qilishda yordam ko‘rsatish.

– *Bemorlarni* kasallik vaziyatida gigienik ko‘nikmalarga, oilalarini esa bemorni parvarish qilish qoidalari va ko‘nikmalariga o‘rgatish.

–*Imtiyozlarni aniqlash va ularni olishda yordam ko‘rsatish*, huquqiy himoyani tashkillashtirish. Masalan, “Bizning uyimiz” (Toshkent) markazi tomonidan ruhiy buzilishlardan aziyat chekayotgan shaxslar va ularning qarindoshlari uchun “Psiatrik yordam haqidagi qonun bo‘yicha ommabop qo‘llanma” va “Huquqiy alifbo. Savollar va javoblar” broshyuralari chop etilgan. Markazning xodimlari tomonidan ruhiy buzilishlari mavjud bo‘lgan shaxslar uchun maqsadi “Psixiatrik yordam to‘g‘risidagi Qonun” ta‘minlovchi ijtimoiy kafolatlar, imtiyozlarni izohlashdan iborat bo‘lgan mashg‘ulotlar o‘tkaziladi<sup>2</sup>.

– *Notibbiy va tibbiy ijtimoiy manbalarni*, masalan qo‘llab-quvvatlash va o‘z-o‘ziga yordam ko‘rsatish guruhlariga yordam ko‘rsatish. Shunday qilib, bronxial astmasi (bo‘g‘ilish xuruji, bo‘g‘ilishdagi birinchi yordam) bo‘lgan odamlarning tibbiy muammolarini hal etish uchun Toshkentda Respublika Allergiya Markazida Astma-maktabi faoliyat olib bormoqda.

– *Tibbiyot xodimlari jamoasiga* bemor va uning oilasining xulqiy muammolarini hal etishda yordam ko‘rsatish. Shunday qilib, ijtimoiy xodimlar mijozning ijtimoiy va hissiy ehtiyojlari bilan ishlar ekanlar, somatizatsiyani kamaytiradilar, bu bilan vrachning vaqtini iqtisod qiladilar<sup>1</sup>.

Har qanday amaliy faoliyat o‘z qiyinchiliklari va cheklovlariga ega. Kasalxonalarda ijtimoiy ish olib borish muammolariga bag‘ishlangan adabiyotlarni tahlil qilish ushbu kasb salomatlik sohasida faoliyat olib boruvchi boshqa professionallar tomonidan to‘liq tan olinmagan. Ijtimoiy xodimlar ularning ekspertizasini tor doirada qabul qilinishi, kasallikka tashxis qo‘yish va uni davolashda jismoniy omillarni alohida ta’kidlash, ijtimoiy xodim lavozimini moliyalashtirishda barqarorlikning mavjud emasligi, kasbiy izolyasiya kabi muammolarni ko‘rsatib o‘tadilar. Ijtimoiy xodimlar o‘z faoliyatlarining asosiy turi mijozlarning hissiy va xulqiy muammolari, mijozni jamiyatning zarur manbalari bilan aloqalarini o‘rnatishdan iborat, deb hisoblaydilar.

Shunday qilib, tibbiy-ijtimoiy faoliyat sog‘liqni saqlash tizimining zaruriy tarkibiy qismi hisoblanadi. U tibbiyot muassasalarida, inson kasalxonadan chiqqandan so‘ng, reabilitatsion tadbirlar jarayonida amalga oshirilishi mumkin.

3. *Nogironlik: tuShuncha, omillar, yondaShuvlar.* O‘zbekiston Respublikasining nogironlarga nisbatan davlat siyosati aholining mazkur guruhi huquq va manfaatlarini ularga boshqa barcha fuqarolar bilan teng, to‘laqonli turmush tarzini kechirish, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotida faol ishtirok etish, Shuningdek, o‘z fuqarolik majburiyatlarini bajarish imkoniyatlarni yaratish maqsadida himoya qilish chora-tadbirlari tizimini taqozo qiluvchi “Nogironlarni ijtimoiy himoyalanganligi to‘g‘risida”gi Qonun bilan belgilanadi.

Qonun etti bobdan iborat: 1. Umumiy qoidalar; 2. Nogironlarning ijtimoiy infratuzilmadan to‘siqlarsiz foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish; 3. Nogironlarning tibbiy, kasbiy va ijtimoiy reabilitatsiyasi; 4. Nogironlarning ta’lim olishi va kasbiy tayyorgarligi; 5. Nogironlar mehnati; 6. Nogironlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish; 7. Nogironlarning ijtimoiy birlashmalari.

“O‘zbekistonda nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunga

ko'ra, jismoniy yoki aqliy nuqsonlari mavjudligi sababli ijtimoiy yordam va himoyaga muhtojligi mavjudligi natijasida hayot faoliyatining cheklangan shaxs nogiron hisoblanadi.

Shaxsning hayot faoliyatining cheklanganligi u tomonidan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, harakatlanish, yo'nalish, muloqotni amalga oshirish, Shuningdek, mehnat faoliyati bilan Shug'ullanish qobiliyati yoki imkoniyatini to'liq yoki qisman yo'qotganligida ifodalanadi.

Shubahsiz, ushbu ta'rifda asosiy e'tibor nogironning barcha ijtimoiy va kasbiy qiyinchiliklarining sababi bo'lgan kasalligiga qaratilgan. Kasallikni davolash lozim, bu jarayonda barcha muammolar hal etiladi, Shu sababli barcha harakatlar aynan Shu tomonga yo'naltirilishi lozim. Shunday qilib, muammolarning barcha ildizlari insonning o'zida, uning kasalligi yoki nuqsonida. Mazkur fikr nogironlikni qabul qilishning *tibbiy modeli* uchun xos.

Unga muqobil bo'lgan *ijtimoiy modelda* nogironlik – bu jismoniy yoki ijtimoiy to'siqlar tufayli jamiyat hayotida boshqalar bilan teng shartlarda ishtirok etish imkoniyatining yo'qotilganligi yoki cheklanganligi, deb ta'rif berilgan.

Ijtimoiy modelga *siyosiy-huquqiy model* yaqin, deb hisoblanadi. Unga muvofiq nogironlikka ega bo'lgan insonlar huquq va erkinliklari tashqi cheklovlar: arxitekturaviy muhitdan foydalanish imkoniyati mavjud emasligi, ijtimoiy, madaniy hayotda ishtirok etish imkoniyatining cheklanganligi sababli buzilgan ijtimoiy kamchilik sifatida ifodalanadi.

Insonga salomatligida jiddiy nuqsonlar mavjud insonga jamiyatda to'laqonli faoliyat olib borishga xalal beruvchi to'siqlar quyidagilardan iborat:

– Predmet-makonga oid holatda vujudga keluvchi jismoniy cheklovlar. Bu ehtimol, nogiron bo'lgan insonda garchi uning oldini olish oson bo'lsa-da, qandaydir qiyinchiliklarga sabab bo'ladigan to'siqdir. Mazkur muammoni hal etishning ikki jihati mavjud: a) alohida ehtiyojlari mavjud kishilarni maxsus maishiy moslamalar, harakatlanish vositalari, uskunalari (o'rindiqlik-kolyaska, qoshiq va sanchiqi ushlagichlar, sun'iy nafas olish ko'chma apparati, eshitish apparatlari, ko'zi ojizlar uchun hassalar) bilan ta'minlash; b) do'stona yoki nodo'stona, deb

ta'riflash qabul qilingan arxitekturaviy-sanoat muhitini moslashtirish (zinapoyalarda, shahar binolarida pandus (qiya nishab)larning mavjudligi, guruhlar foydalanuvchi joylarni sensorli buzilishlarga ega bo'lgan odamlar uchun rangga oid, akustik, taktil kontrastlar asosida standart yo'naltiruvchi-ko'rsatish belgilari tizimi va intellektual cheklovlari mavjud kishilar uchun piktogrammalar bilan jihozlash, shahar transportini maxsus ko'targichlar va o'rindiqlik-kolyaskalar bilan ta'minlash va h.k.).

Nogironlarga do'stona munosabtda bo'lgan muhit bola uchun ham, keksalar uchun ham, homilador ayol yoki yosh ona uchun ham do'stona bo'lishini alohida ta'kidlash lozim.

– Axborotga oid cheklovlar maxsus ma'lumot ta'Shuvchilarining tanqisligi bilan bog'liq (brayl yozuvidagi kitoblar, surdotarjimali ko'rsatuvlar, maxsus dasturlar va h.k.).

– Muloqotdagi to'siqlar – axborot to'sig'i bilan chambarchas bog'liq. Ma'lumotni qabul qilishdagi to'siqlardan tashqari nogironlar muloqot qilishda nogironlarning barcha guruhlariga bolaligidan va katta yoshdagi nogironlarning ayrimlari uchun xos bo'lgan, psixologik va fiziologik omillar bilan bog'liq bo'lgan muloqot qilishdagi qiyinchiliklar majmuini boshdan kechiradilar. Biroq bunda ham ijtimoiy omillarning roli yorqin namoyon bo'ladi: ilk tibbiy va psixologik-pedagogik tashxis va arala'Shuvning mavjud emasligi, ovoz hosil qiluvchi apparatlarning, takomillashtirilgan axborot texnologiyalarining tanqisligi.

Muloqotdagi nutqiy rivojlanish muammolari bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar ko'pincha mavjud hissiy muammolar sababli chuqurlashib ketadi. Ko'pincha nogironning asosiy kasalligining oqibati bo'lgan hissiy muammolar atrofdagilarning nomaqbul ta'sirlari – qiziqishlari, qo'rquvlari, masxara qilishlari, noqulay ahvolga tushishlari sababli yanada ortib borishi mumkin.

– Nogironning o'z-o'zini cheklashi. Ko'pincha imkoniyati cheklangan odam jamiyatda unga majburan singdiriladigan “noraso” shaxs roliga rozi bo'ladi va Shu tamg'a bilan birga yashay boshlaydi. Unda gipervasiylikka qaram bo'lib yashash kabi qarashlar shakllanadi. U o'z-o'ziga yordam berish va o'z-o'zini

tashkillashtirishga emas, balki “unga haqli ravishda tegishli bo‘lgan” nafaqa, navbatdagi gumanitra oziq-ovqat mahsulotlarini kutib yashashni maqsad qilib olgan. Hattoki o‘zi yuqori natijalarga erishishi mumkin bo‘lgan, salomatiligidagi muammolar ob’ektiv cheklovlarni hosil qilmaydigan sohalarda ham u “nogiron” rolini o‘ynashni davom ettiradi. Shunday qilib, yosh, sog‘lom, yuqori intellektual imkoniyatlarga ega bo‘lgan, oyoqlari amputatsiya qilingan erkak nogironligini bahona qilib, aytaylik dasturlovchi karerasidan voz kechadi.

– Ta’lim olishdagi cheklovlar. Ta’lim olish huquqi barcha uchun teng ekanligi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilganligiga qaramasdan, yuqorida keltirib o‘tilgan barcha to‘siqlar umumta’lim maktablari va OTMlarda ta’lim olayotgan o‘qiuvcchi va talabalarni juda kam uchratish mumkin. Bundan tashqari, rehabilitatsion markazlarda etuk yoshda nogironlikni orttirib olgan va shu sababli o‘z mutaxassisligini o‘zgartirishga majbur bo‘lgan odamlarni qayta tayyorlash, past nufuzli kasblarning tor doirasi bilan cheklanib qolmoqda.

– Mehnat strategiyasi yuqorida sanab o‘tilgan barcha cheklovlar, jumladan, mehnat bozorining nogironligi mavjud odamlarga moslashtirilmagani bilan bog‘liq. Beshafqat bozor raqobati sharoitida nogironligi mavjud bo‘lgan shaxs nufuzli ish o‘rniga ega bo‘lish uchun juda kam imkoniyatga ega, byudjet tashkilotlarida nogironlar uchun ajratilgan o‘rinlar odatda zerikarli, past malakali mehnat va yuqori bo‘lmagan, ko‘pincha taklif qilinayotgan nafaqadan kam bo‘lgan oylik maoshiga ega bo‘ladi.

4. *Rivojlanayotgan nogironlik* nisbatan yangi atama bo‘lib, ko‘p odamlar uni xato ravishda kognitiv nogironlikning sinonimlari, deb hisoblaydilar. Biroq Shunga qaramasdan, bu nafaqat kognitiv buzilishlarni, balki 22 yoshga qadar sodir bo‘luvchi va rivojlanishga to‘sqinlik qiluvchi qator boshqa sharoitlarni ham qamrab oluvchi keng ko‘lamli atama hisoblanadi. Mazkur shartlar bolalar autizmini, serebral falajlikni, ayrim holatlarda esa disleksiya (o‘rgatish)ni qamrab oladi.

Rivojlanuvchi nogironlik yigirma ikki yoshga qadar namoyon bo‘luvchi ruhiy yoki jismoniy buzilishlarni yoki ruhiy va jismoniy rivojlanishdagi nuqsonlar majmui bilan bog‘liq bo‘lgan og‘ir nogironlikni anglatadi. U o‘z-o‘zini parvarish



qilish, ta'lim olish, mustaqil hayotga moslashish kasbi sohalarda ahamiyatli darajadagi cheklovlarga olib keladi va insonning ko'pincha butun hayoti davomida ko'plab xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini aks ettiradi<sup>1</sup>.

*Rivojlanuvchi nogironlik bilan bog'liq bo'lgan omillar.*

- Homila rivojlanishidagi irsiy omillar: nogironlikning bu kabi shakllarining kelib chiqishiga sabab bo'luvchi modda almashinuvining buzilishi, miyadagi nuqsonlar yoki xromosomadagi me'yoriy bo'lmagan holatlar, xuddi Teya-Saks kasalligi va Daun sindromi kabi. Aqliy zaiflikning asosiy sabablari X sindrom nuqsonlari, genetik kasalliklar.

- Perinatal ominlar: algokog, giyohvandlik, nurlanish, qizilcha, zaxm, OITS kabi kasalliklar yoki atrof muhitni ifloslantiruvchilar ta'siri, ayolning homiladorlik davrida to'yib ovqatlanmasligi, tug'ruqdan avval tegishli ravishda parvarish qilinmasligi nogironlikka olib kelishi mumkin.

Perinatal omillarga Shuningdek, vaqtdan avvalgi tug'uruq ham kiradi, tug'uruq vaqtida herpes kabi yuqumli infeksiyalarning yuqib qolishi rivojlanuvchi nogironlikka olib kelishi mumkin.

- Tug'uruqdan keyingi omillar: tug'uruqdan keyingi meningit kabi infeksiyalar, baxtsiz hodisa yoki bolalar bilan shafqatsiz munosabatda bo'lish natijasida olingan jarohatlar, kasallik davrida kislorodning yo'qligi yoki baxtsiz hodisa, oziqlantiruvchi moddalar etishmasligi rivojlanishdagi nuqsaonlarga sabab bo'lishi mumkin.

- Qo'rg'oshindan zaharlanish kabi ekologik omillar, ota-onalarning jiddiy hissiy muammolari yoki ota-onalar deprivatsiyasi ham Shuningdek, bola rivojlanishidagi buzilishlarni tezlashtirish mumkin bo'lgan qo'shimcha ekologik omillarga kiradi.

Autizm bola rivojlanishidagi eng sirli, jumboqli nuqson hisoblanadi. Bugungi kunda bu nuqsonning sabablari ma'lum emas. Autizmning eng ahamiyatli belgisi, bolaning boshqalar ta'siriga javob berish qobiliyati bola hayotining dastlabki o'ttiz oyi davomida rivojlanmasligida namoyon bo'ladi. Hayotining hattoki Shu kabi ilk davrida ham kommunikativ ko'nikmalarning buzilganligi, xuddi bolalarning ularni

o‘rab turgan muhitga bo‘lgan g‘alati munosabati kabi etarli darajada aniq. Ular qiziqish va odamlarga javob qaytarishda etishmovchilikni namoyon qiladilar, ular me‘yoriy munosabatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega emaslar. Go‘daklikda ushbu jihatlar ularning quchoqlasha olmasligida, birovning ko‘ziga qaramasliklarida yoki jismoniy yaqinlik va bog‘lanib qolishdan jirkanish kabilarda namoyon bo‘ladi.

Autizm alomatlari uch yoshgacha bo‘lgan davrda namoyon bo‘ladi. Autizmning bir nechta turlari mavjud. Mazkur kasallikning eng keng tarqalgan turi Asperger nuqsonidir. Bunday nuqsoni mavjud bolalar odatda me‘yoriy va hattoki juda yuqori verbal intellektga ega bo‘ladilar, maktab topshiriqlarini yaxshi bajaradilar, cheklangan, aniq belgilangan qiziqishlarga ega; takrorlanuvchi nutq va xulqqa ega; ijtimoiy va hissiy belgilarni qiyinchilik bilan anglaydilar<sup>1</sup>.

*Nogironligi bor bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish.* Mazkur muammoni yanada to‘liqroq anglash uchun nogironlik tuShunchasiga Butunjahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti tomonidan qabul qilingan ta‘rifga asoslangan ta‘rifni beramiz. Nogironlik tuShunchasi uchta qo‘shiluvchini qamrab oladi.

1) Impairments – etishmovchilik, ruhiy, fiziologik yoki anatomik xususiyatlar va faoliyatlarda me‘yordagi cheklovlar yoki og‘ishlar.

2) Disability – me‘yoriy deb hisoblangan chegara doirasida yoki usullarda qandaydir faoliyatni amalga oshirish qobiliyatining cheklanishi yoki yo‘qotilishi.

3) Handicap – ijtimoiy jihatdan moslasha olmaslik, jamiyat tomonidan taqdim qilinuvchi xizmatlar va imkoniyatlarda namoyon bo‘luvchi ijtimoiy qarashlar bilan o‘zaro munosabatlar natijasida olinadigan muvaffaqiyatsiz yoki sekinlashgan ijtimoiylashtirish.

Geteroxronlik – har qanday, hattoki eng maqbul sharoitlarda ham ta‘lim va tarbiya, barcha ruhiy faolliklar, shaxsning ruhiy vazifalari rivojlanishning bir darajasida bo‘lmaydi. U yoki bu psixologik xususiyatlar va xislatlarni rivojlantirish uchun eng maqbul bo‘lgan yoshga oid davrlar senzitiv deb nomlanadi. Senzitivlikning sababi, miyaning organik etilishi qonuniyatlari va ayrim ruhiy jarayonlar va xususiyatlar faqatgina boshqalari asosida rivojlana olishi

mumkinligidan iborat.

Nogironligi bor bolalar bilan ijtimoiy ish olib borishda Uri Bronfenbrenner (29 aprelyada 1917 yil Moskvada tugʻilgan, 25 sentyabrya 2005 yil, Nyu-Yorkda vafot etgan, amerikalik psixolog, bolalar psixologi) tomonidan ishlab chiqilgan inson rivojlanishining ekologik nazariyasini kiritadilar. Shu nazariya nuqtai nazaridan insonning rivojlanishi – bu faol rivojlanuvchi shaxs va uning dinamik ravishda oʻzgaruvchi muhiti bilan oʻzaro akkomodatsiya (moslashuv) jarayoni, shuningdek, ushbu muhit va mazkur muhit qamrab olingan keng koʻlamli ekologik kontekst (muhit) bilan oʻzaro munosabatlar jarayonidir.

Har bir shaxsga oid oʻzgarish nisbatan yirik ijtimoiy va madaniy tizim doirasida oʻrganilishi mumkin. Shunday qilib, masalan, bolaning oʻqishga boʻlgan layoqatsizligi rivojlanishdagi organik nuqson mavjudligi nuqtai nazaridan tahlil qilinishi mumkin boʻlgani kabi, maktabda, maktab va bola oilasi oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni oʻrganish usullarini oʻrganish nuqtai nazaridan, Shuningdek, umuman taʼlim tizimi imkoniyatlarini oʻrganish orqali tahlil qilinishi mumkin.

Uri Bronfenbrenner ijtimoiy tizimlarning quyidagi turlarini ajratib koʻrsatadi: mikro-, mezo-, ekzo- va makrotizimlar.

*Mikrotizimni* rivojlanayotgan shaxsning u bevosita qamrab olingan muhit bilan shaxslararo munosabatlari, harakatlari va rollarini hosil qiladi. Shunday qilib, oilada mikrotizim ota-ona va bola, bola va uning aka-ukasi yoki opa-singlisi, shuningdek boshqa oila aʼzolari bilan munosabatini qamrab oladi. Maktabda – oʻqituvchi va bola, bola va uning sinfdoshlari oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlar.

*Mezotizim* bola qamrab olingan ikki yoki undan ortiq mikrotizimlarning oʻzaro munosabatlarini aks ettiradi. U oila va maktab, oila va ijtimoiy xizmatlar agentliklari, oila va qoʻshnilar, maktab va tengdoshlar guruhining oʻzaro munosabatlari ifodalaydi.

*Ekotizim* bola bevosita qamrab olinmagan, biroq unga oʻzi qamrab olingan mikrotizim orqali taʼsir koʻrsatishi mumkin boʻlgan institutlar vositasida ifodalangan. Ekotizim quyidagi omillarni qamrab oladi: taʼlim (maxsus taʼlim dasturlari va shakllaridan foydalanish imkoniyati, taʼlim dasturlari maqsadi,

darsliklar va o'quv materiallari sifati), sog'liqni saqlash (tibbiy xizmatlar narxi, sifati va imkoniyatlar), ijtimoiy ta'minot (nogironlarning bolalikdan buyon oladigan pensiyalari, onaning umuman ishlamaslik imkoniyati yoki bolani kunduzgi parvarishlash markazlariga joylashtirish), OAV (nogironlarni jamiyat tomonidan qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatish kabi, bolaning uning oilasi tomonidan qabul qilinishi va Shu asosga qurilgan tarbiya tizimi).

*Makrotizim* jamiyat madaniyatining asosiy qadriyatlari majmuini qamrab oladi: ko'zi ojiz bolaning jamiyatdagi taqdiri turlicha bo'ladi, ayrim jamiyatlarda so'qir ilohiylashtiriladi, bashorat qiluvchi sifatida qabul qilinadi, boshqa bir jamiyatlarda esa u doimiy ravishda g'amxo'rlikka muhtoj baxtsiz mavjudot sifatida qabul qilinadi. Makrotizimga Shuningdek, iqtisodiy va siyosiy omillar kiritiladi.

Uri Bronfenbrenner (ikki xil) tomonidan ta'riflangan tizimlardan tashqari Belsky (1980) bolaning shaxsga oid xususiyatlarini qamrab oluvchi "ontogenetik tizimlar" tuShunchasini muomalaga kiritdi. Uning fikriga ko'ra, ushbu tizimni e'tiborga olmaslik bola tomonidan o'zi tegishli bo'lgan mikrotizimga qo'shiladigan individual farqlar va variatsiyalar e'tiborsiz qoladi.

*Ekotizimli yondaShuv* ijtimoiy xodimga uning faoliyatining barcha bosqichlarida alohida ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolaga samarali yordam ko'rsatishda yordam beradi. Muammoni o'rganish bosqichida u sabablar va darajalarni aniqlash imkonini beradi. Uni hal etishni rejalashtirish Shuningdek, bola bilvosita yoki bevosita qamrab oluvchi barcha ijtimoiy kontekstlardagi manbalarni e'tiborga olgan holda kompleks tabiatga ega bo'ladi. Shuningdek, muhim bo'lgan masalalardan yana biri ijtimoiy ish mutaxassisi uning o'zi ham bola ekologik tizimining bir qismi ekanligini va uning har bir harakati uning turli bosqichlarida turli o'zgarishlarga sabab bo'lishini anglay boshlaydi. Shu sababli, o'z faoliyatining samaradorligini baholash, o'zining kasbiy vaziflarini amalga oshirgan holda u o'z mehnatining natijalarini nisbatan to'g'ri baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekistonning nogironlarni rehabilitatsiya qilish davlat dasturi yo'nalishlaridan biri yangi turdagi idoralararo muassasalarni – rehabilitatsion markazlarni yaratish va ularning samarali faoliyatini tashkillashtirishdan iborat.

Xorijada abilitatsion (insonning avval mavjud bo'lmagan qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan va uning barcha imkoniyatlarini mobillashtirishga yo'naltirilgan) va reabilitatsion (yo'qotilganlarni qayta tiklashga yo'naltirilgan) markazlar. Mamlakatimizda reabilitatsion markazlar faoliyatning ham birinchi, ham ikkinchi turini amalga oshiradilar. Markazlarning maqsadi imkoniyati cheklangan bolalar va kattalar, ularning oilalariga kompleks tibbiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy yordam ko'rsatishdan iborat. Aynan Shu tuzilmalarda nodavlat sektor: xususiy tijorat firmalari va nodavlat xayriya tashkilotlarining, Shuningdek, ijtimoiy uyushmalarning ahamiyati katta. Bu mazkur tashkilotlarning faoliyatida metodologik yondaShuvlarning ko'p turliligi va ularning innovatsionligini belgilab beradi. Reabilitatsion markaz ijtimoiy xodimi bolaga abilitatsion va reabilitatsion yordamning uzluksizligini vositachilik faoliyati va uning kasalxonadan chiqqanidan so'ng patronaj yordami orqali ta'minlashi joiz.

Ijtimoiy himoya tizimida muhim omil alohida ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'limi hisoblanadi. Bu kabi bolalarning ta'lim olishini tashkillashtirishda ikkita prinsipial yondaShuv mavjud.

Birinchisi bolalarning ehtiyojlariga moslashtirilgan, ixtisoslashtirilgan, odatda internat turidagi ta'lim muassasalarida ajratilgan ta'limni soddalashtirilgan dastur asosida tashkillashtirishni nazarda tutadi. Bu yondaShuvning afzallik sifatida alohida ehtiyojlari mavjud bola uchun "yumshoq", xavfsiz muhitni yaratishni ko'rsatish mumkin. Biroq ixtisoslashtirilgan maktabda olingan ta'lim tayyorgarligi bu kabi bolalarga kasbiy shakllanish jarayonida teng tarzda ishtirok etish imkonini bermaydi, ularning ijtimoiylashtirilishini buzilishiga sabab bo'ladi.

Ikkinchi yondaShuv inklyuziv yondaShuvni yoki oddiy bolalarning alohida ehtiyojlari mavjud bolalar bilan birgalikda umumta'lim maktablarida birga o'qitishni anglatadi. Inklyuziv ta'limning barcha ustunliklariga qaramasdan, uni joriy qilish ayrim muammolarni ham keltirib chiqaradi. Shu sababli xorijiy mamlakatlarda alohida ehtiyojlari mavjud bolalarga ta'lim berishning qator oraliq shakllari bilan bir qatorda birinchi va ikkinchi turlari ham mavjud. Shu munosabat bilan, inklyuziv ta'limni joriy qilish jarayoni, Shubhasiz, taraqqiy etishi, mahalliy

sharoitlarni batafsil o'rganishga tayanishi, mazkur jarayonga jalb qilingan barcha manfaatdor tomonlar ehtiyojini aniqlashga tayanishi talab etiladi<sup>1</sup>.

*Ijtimoiy xodimlarning roli.* Ijtimoiy xodimlar nogironligi mavjud bo'lgan insonlar bilan ikkita asosiy yo'nalishda muloqotga kirishadilar.

Birinchidan, ular nogironlar bilan asosiy e'tibor ularni davolashga qaratilgan xizmatlarni taqdim etish muassasalarida duch keladilar. Masalan, oilaviy maslahat berish agentliklari xodimlari odatda oilalarning shaxslararo muammolarini ko'radilar. Ushbu oilalarning bir yoki bir nechta a'zolari nogiron bo'lishi mumkin. Nogironlik oilaviy muammolarga taalluqli bo'lmasligi, yoki bu muhim omil bo'lmasligi mumkin. Oxirgi holatda ijtimoiy xodim roli oilaga yordam ko'rsatish va nogironlik tabiati va uning oqibatlarini baholashdan, so'ngra nogironlik bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklarni hal etish uchun samarali strategiyani ishlab chiqishdan iborat.

Ikkinchidan, ijtimoiy xodimlar nogironlarga xizmat ko'rsatuvchi reabilitatsion markazlar, keksalar uylari, kasalxonalar, imkoniyati cheklangan odamlarga kunduzgi parvarish markazlari, shuningdek, ixtisoslashtirilgan maktablar (vizual nogironlik shaxslar uchun mo'ljallangan maktablar) kabi tashkilotlarda faoliyat olib borish maqsadida jalb qilinishi mumkin.

Jismoniy yoki aqliy nogironlikka ega bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish jismoniy, ruhiy, ijtimoiy, kasbiy, iqtisodiy foydalilikni qayta tiklash sifatida ta'riflanishi mumkin. Dasturlar kasbiy ta'lim, malakali professional maslahati, psixologik moslashuv, tibbiy va jismoniy qayta tiklash va ishga joylashtirishga e'tibor qaratishi lozim. Ayrim mijozlar ushbu sohalarning barchasida yordamga muhtojlar.

Reabilitatsion xizmatlar ko'rsatuvchi professionallarning keng doirasi ko'plab personallar ko'rinishida namoyon qilingan: vrachlar, tibbiyot hamshiralari, klinik psixologlar, fizioterapevtlar, ruhshunoslar, professional, rekreatsion, eshitish terapevtlari, professional-texnik maslahatchilar, logopedlar, ijtimoiy xodimlar, ijtimoiy ta'lim o'qituvchilari va protez yasovchilar.

Ularning ko'pchiligi mijozlarning jismoniy harakatlanishiga e'tibor qaratadi,

ayni vaqtda ijtimoiy xodimlar e'tibori avvalambor, ularning ijtimoiy faoliyatlariga yo'naltirilgan. Ko'plab holatlarda jamoaviy yondaShuv qo'llaniladi<sup>1</sup>.

### **Nazorat savollari**

1. Nogironlikning asosiy omillari nimalardan iborat?
2. Nogiron bo'lgan shaxslar bilan ijtimoiy ish olib borishning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
3. O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarni himoya qilish tizimi qanday?
4. Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish texnologiyalari nimalardan iborat?
5. Ijtimoiy moslaShuv o'zi nima?
6. Bola rivojlanishining asosiy qonuniyatlari qanday?
7. Inklyuziv ta'lim o'zi nima?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 18 noyabrda qabul qilingan "Nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish to'g'risida"gi Qonuni.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Xalqaro huquqiy hujjatlar to'plami // Konsultant.- M., 2001.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Keksalar va nogironlarni manzilli ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (*O'zbekiston Respublikasi qonunchilik to'plami, 2015 y., № 32, 432-modda*).
4. Ganieva M.X., Latipova N.M. Ijtimoiy ish tarixi va nazariyasi. – Toshkent: O'zMU, 2015.
5. Ganieva M.X. Ijtimoiy ishga kirish. – Toshkent: O'zMU, 2011.
6. YArskaya-Smirnova E.R. Nogironlar bilan ijtimoiy ish olib borish: O'quv qo'llanma / E.R. YArskaya-Smirnova E.K. Naberushkina. – SPb: Piter, 2004. – 316 b.

7. Ambrosino R., Ambrosino R., Heffernan J., Shuttlesworth G. Social Work and Social Welfare: An Introduction. Sixth Edition. – Thomson Brooks/Cole, 2008. – S.209.

8. Charles Zastrow. Introduction to Social work and social welfare. Empowering People. George Williams College of Aurora University. Printed in Canada: Brooks/Cole, Cengage Learning, 2010. – R.512.

9. Sayt Vsemirnoy organizatsii zdravooxraneniya: <http://www.who.int/features/factfiles/ageing/ru>.

10. CHicherina YA.E., Bondareva E.V. O‘zbekiston Respublikasida inklyuziv ta’limni joriy qilish sharoitlari va omillarini o‘rganish. – Toshkent: RSSAD, 2008. – 58 b.

## 9-MAVZU. KEKSALARGA IJTIMOY XIZMAT KO‘RSATISH

1. *Aholining keksayish muammosi*
2. *Birlashgan Millatlar Tashkilotining keksalarga oid prinsiplari*
3. *Keksalarga oid ijtimoiy himoya siyosatini shakllantirish*
4. *Keksalar bilan ijtimoiy ish olib borish mohiyati*

**Kalit so‘zlar:** keksayish, keksalar, keksalar, kasalliklar, keksalar va keksalar uchun mo‘ljallangan institutsional muassasalar, keksalar uyi, stereotiplar, eydjizm.

1. *Aholining keksayish muammosi* (population ageing) yangi ijtimoiy fenomenlarni aks ettiradi. Tibbiy bilimlar, kasalliklarni davolash va ularning oldini olish usullarining takomillashib borishi, o‘lim darajasining pasayib borishi, hayot sifatining ortishi va ko‘plab boshqa omillar bilan hayotning o‘rtacha davomiyligi sekin-astalik ortib bormoqda. Bu esa o‘z navbatida ko‘plab mamlakatlar aholisi o‘rtasida keksa yoshdagi kishilarning ulushi ortib borayotganligini anglatadi. Shu munosabat bilan, katta yoshdagi kishilar jahon tajribasidagi ijtimoiy yordam olish va ijtimoiy ishni amalga oshirishning asosiy iste’molchilaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib, O‘zbekistonda 2015 yilda keksa yoshdagi odamlarni parvarish qilish va ularga e’tibor qaratish, ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish, davlat va jamiyat tomonidan moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatish maqsadida



O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining “Keksalarni e‘zozlash yili” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi.

Odamlarning yoshini ularning biologik va ijtimoiy o‘ziga xos xususiyatlari jihatidan baholashning ko‘plab kvalifikatsiyalovchi sxemalari mavjud. Butunjahon Sog‘liqni Saqlash (BSST) tashkiloti klassifikatsiyasiga ko‘ra, yoshi 60 dan 74 gacha bo‘lgan aholi keksalar hisoblanadi, yoshi 75 dan 89 gacha bo‘lgan aholi keksalar hisoblanadi, uzoq umr ko‘ruvchilar sirasiga esa 90 yosh va undan kattalar kiradi. Fanda keksa yoshdagilarning butun dunyoda qabul qilingan ta’rifi mavjud bo‘lmaganligi sababli, 60 yosh va undan kattalardan iborat guruhni belgilash uchun “keksalar” atamasini qo‘llaymiz.

JSSTning ma’lumotlariga ko‘ra, 1980 yildan boshlab 60 yosh va undan kattalarning soni dunyo bo‘ylab ikki barobarga oshdi va 2050 yilga kelib bu miqdor 2 milliard kishini tashkil etadi. Shu bilan birga, bu yillarga kelib 80 yosh va undan kattalarning soni 400 millionni tashkil etadi<sup>1</sup>.

Shuningdek, O‘zbekistonda keksalar soni va aholi hayot davomiyligining ortib borishi kuzatilmoqda. Shunday qilib, fuqarolar hayotining o‘rtacha davomiyligi 67 yoshdan 73,5 yoshgacha, erkaklarning hayot davomiyligi – 66 yoshdan 71 yoshgacha, ayollarning hayot davomiyligi – 70 yoshdan 75,8 yoshgacha ortdi. Bugungi kunda O‘zbekistonda keksalarning hayot davomiyligini oshirishga yo‘naltirilgan sog‘lom va muvaffaqiyatli keksayish konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda. Respublika Markaziy Osiyoda aholining hayot davomiyligi darajasiga ko‘ra birinchi o‘rinni egallab turibdi. Rossiya gerontologik ilmiy-klinik markazi direktori Olga Tkacheva bu kabi ijobiy statistikaning bir nechta sabablari mavjud, deb hisoblaydi. Jumladan, ratsionda o‘simlikdan kelib chiqqan mahsulotlarning ko‘pligi va alkogol va tamaki iste’mol qilishning nisbatan past darajasi bunga sabab bo‘lishi mumkin<sup>2</sup>.

Keksayish– biologik, psixologik va ijtimoiy darajalardagi qonuniy yoshga oid o‘zgarishlar jarayonidir. Bir tomondan, qarish muammosi – bu biologik tizimning harakatlanishi, genetik dasturni amalga oshirish muammosi. Boshqa tomondan esa, qarish muammosi insonning hayotdagi o‘zgarib borayotgan biologik, psixologik va

ijtimoiy sharoitlariga moslashish sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, keksa yoshdagi kishilarda tibbiy, psixologik va ijtimoiy tartibdagi ko'plab muammolar vujudga keladi, ular bilan esa o'z navbatida fundamental va ijtimoiy gerontologiya, keksayishning ijtimoiy psixologiyasi, Shuningdek, maqsadi keksa yoshdagi kishilar hayoti sifatini yaxshilash, ularning hayot faoliyatini maqbullashtirish uchun kerakli atrof-muhitni yaratishdan iborat bo'lgan ijtimoiy ish Shug'ullanadi.

*Sog'liq bilan bog'liq muammolar va sog'liqni saqlash hamda hayot uchun sarf-xarajatlar.* Keksalik – bu sog'liqni saqlash sarf-xarajatlari yuqori bo'lganligi sababli qisman ijtimoiy muammo hisoblanadi. Keksa yoshdagi kishilarning ko'pchiligi, hech bo'lmaganda bitta surunkali kasallikka chalingan, ko'pchiligi esa bir nechta surunkali kasalliklar bilan yashashga majbur. Salomatlik bilan bog'liq eng ko'p uchraydigan muammolar sirasiga artrit, eshitish va ko'rish qobiliyatining pasayishi, yurak-qon tomir kasalliklari, sinusit, katarakta, qandli diabet va quloqdagi shovqin kabilar kiradi. Keksalar juda ko'p hollarda vrachlarga murojaat qiladilar, o'z daromadlarining katta qismini dori-darmonga va yoshlarga nisbatan ko'proq vaqtlarini kasalxonalarda davolanishga sarflaydilar.

Keksalarning tibbiy xizmatlar uchun sarf-xarajatlari yoshlarning sarf-xarajatlariga nisbatan o'rtacha to'rt barobar yuqori. Bu esa o'z navbatida keksalar surunkali kasalliklar bilan ko'proq kasallanishlari bilan bog'liq.

Albatta, keksayishning jismoniy jarayoni (fiziologik qarish) salomatlik bilan bog'liq muammolarga o'z hissasini qo'shadi. Biroq bunga qaramasdan, oxirgi yillar davomida amalga oshirilgan tadqiqotlar ijtimoiy va shaxsiy ruhiy zo'riqishlar kasalliklarning paydo bo'lishiga katta hissa qo'shishini ko'rsatdi. Keksalar ruhiy zo'riqishi bir qator vaziyatlar bilan bog'liq: nafaqaga chiqish, yolg'izlik, do'stlar va oila a'zolarining o'limi, turmush tarzidagi o'zgarishlar, ijtimoiy maqomning yo'qotilishi, daromadlarning kamayib ketishi, jismoniy quvvat va jismoniy qobiliyatning pasayishi. Salomatlikdagi muammolar, Shuningdek, sifatsiz parhez, noto'g'ri jismoniy yuklamalar, chekish va alkogol ichimliklarni haddan ortiq iste'mol qilish bilan bog'liq bo'lishi mumkin<sup>1</sup>. *2.Birlashgan Millatlar*

*Tashkilotining keksalarga oid prinsiplari.* Keksalar bilan ijtimoiy ish olib borish amaliyoti 1991 yil 16 dekabrda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan, beshta guruhga birlashtirilgan o‘n sakkizta prinsiplariga yo‘naltirilgan:

1. “Mustaqillik” prinsiplari guruhi, keksalar asosiy ne‘matlarga (oziq-ovqat, suv, turar joy, kiyim-kechak, tibbiy xizmat) ijtimoiy ta‘minot, oila va hamjamiyat yordami, o‘z-o‘ziga yordam berish sharoitlari orqali erishishlari mumkinligi bilan bog‘liq.

2. “Ishtirok etish” prinsiplari guruhi keksalarning jamiyat hayotiga qamrab olinishi va integratsiyasini, ularning o‘zlarining farovonligiga, keksa yoshdagi shaxslar tashkilotini yaratishga, yosh avlodlarga bilim va tajribalarni etkazib berishga oid siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishdagi faol ishtirokini taqozo qiladi.

3. “Parvarish” prinsiplar guruhi keksalarni oila va uyushma tomonidan parvarishlash va himoya qilishni ta‘minlash, kasalliklar rivojlanishining oldini olish yoki eng maqbul holatlarni qo‘llab-quvvatlash yoki qayta tiklash maqsadida tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini taqdim qilishni taqozo qiladi. Prinsiplarning mazkur guruhi Shuningdek, keksalarda ijtimoiy va huquqiy xizmatlardan foydalanish, har qanday ijtimoiy muassasalarda o‘z huquqlaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi zarurligini ifodalaydi.

4. “Ichki imkoniyatlarni amalga oshirish” prinsiplar guruhi keksalar o‘zlarining ichki imkoniyatlarini har tomonlama shakllantirishlari, Shuningdek, ta‘lim, madaniyat, ma‘naviy hayot va dam olish manbalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishlari masalalariga bag‘ishlangan.

5. “Qadr-qimmat” prinsiplari guruhi keksalar munosib va xavfsiz, jismoniy yoki psixologik zo‘ravonliklarsiz hayot kechirish imkoniyatiga ega bo‘lishlari, yoshi, jinsi, irqiy yoki etnik tegishliligi, nogironlik, Shuningdek, ularning iqtisodiy to‘lovlaridan qat‘iy nazar, barcha huquqlarga ega bo‘lishlariga tegishli.

3. *Keksalarga oid ijtimoiy himoya siyosatini shakllantirish.* Bu ularning hayot sharoitlarini o‘rganish, qarishning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Masalan, yordam ko‘rsatishning

davlat tashkilotlari va muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan turli dasturlariga jalb qilingan keksalar muhtojlarga yordam ko'rsatadilar, va ayni vaqtda jamiyatga moslashish mexanizmlarini o'zlashtirgan holda o'z muammolarini hal etadilar.

Mazkur jihatdan Buyuk Britaniyadagi Age Exchange (AE) xayriya tashkilotining turli avlodlar, jumladan, bolalar, o'smirlar, o'rta va keksa yoshdagi odamlarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatiga yo'naltirilgan loyihalarini qo'llab-quvvatlash tajribasi e'tiborga molik. Bu kabi faoliyat tufayli keksalar muloqot qilish va o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yish, o'z iste'dodlari va tajribalari bilan almashinish, bir-birlariga jamiyat uchun foydali bo'lishi mumkin bo'lgan faoliyatda ko'maklashish imkoniga ega bo'ladilar. Keksalar yana qaytadan o'z o'rniga ega bo'lish, o'z tajribalarini munosib ravishda baholash, uni yosh avlodlarga etkazib berish talabini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bularning bari keksalarga qadrlanish, o'zlarining jamiyatga zarurligiga bo'lgan ehtiyojlarini amalga oshirish imkonini beradi.

Buyuk Britaniyada pansionatlar vaqtinchalik yoki doimiy turar joy taklif qiladilar, ularning ko'pchiligi o'z oilalariga ega bo'lmagan va qarindoshlari tomonidan parvarish qilinmaydigan keksalar uchun mo'ljallangan.

Bugungi kunda kunduzgi parvarish markazlaridan tashqari xorijiy mamlakatlarda nafaqat vaqtinchalik, balki doimiy yashash joyi taqdim qiluvchi muassasalar mavjud.

Masalan, SHvetsiyada uylarida hayot kechirishni hoxlamagan shaxslarni parvarishlash va davolash bo'yicha xizmatlar keng yo'lga qo'yilgan. Mazkur mamlakatda keksalarga xizmat ko'rsatish prinsiplaridan biri tanlash erkinligi, jumladan, keksalarda turar joyni tanlash huquqi hsoblanadi. Agar inson o'z uyida yashashni hoxlasa, u yordam olishga ehtiyojmand bo'lsa ham bu kabi huquqqa ega bo'lishi lozim.

60-yillarning oxirlarida SHvetsiyada ilk "xizmat uylari" tashkil qilingan. "Xizmat uyi" keksalar guruhi o'zlarining qarindoshlik darajasidan qat'iy nazar birga yashovchi kvartiralardir. Ushbu kvartiralarda yoki bevosita unga yaqin joylarda tunu-kun zaruriy yordam ko'rsatadigan personal mavjud. Guruh bo'lib

yashash ruhiy nuqsonlari, jismoniy kasalliklari, oyoq-qo'l kasalliklari mavjud, Shuningdek, qarilikka oid aqli zaiflik holatidagi shaxslarni davolash va parvarish qilishning ochiq shakllarini rivojlantirish maqsadida vujudga kelgan.

AQSHda oiladan tashqarida yashovchi keksalar va keksalar uchun oilaviy shakldagi keksalar uyi keng tarqalgan. Ular turli shaklda bo'lishi mumkin, biroq ularning umumiy jihatlari quyidagilardan iborat: yordam o'z uyini taqdim qiluvchi, biroq qarindoshi bo'lmagan xususiy shaxs tomonidan amalga oshiriladi; muayyan to'lov evaziga keksa kishiga xona qiyinchiliklarni engib o'tishda yordam taqdim qilinadi; kuzatish, nazorat, vasiylik agentlikdagi professionallar tomonidan amalga oshiriladi.

AQSHdagi oila ko'rinishidagi keksalar uyi. Odatda bu kabi keksalar uyida o'rta yoshdagi, oliy ma'lumotli ayollar faoliyat olib boradilar va ularning mazkur faoliyat bilan Shug'ullanishlariga sabablar quyidagilardan iborat: altruizm, kimgadir g'amxo'rlik qilish, yolg'izlikdan qochish.

Keksalarni parvarishlash va davolashni ularning qarindoshlari, norasmiy o'zaro hamkorlik asosida amalga oshiradilar. Muayyan vaziyatlarda qarindoshlarga hukumatning mahalliy organlari tomonidan badal to'lanishi mumkin.

AQSHda keksalarga yordam ko'rsatishning ayrim dasturlari:

- bepul tibbiy yordam;
- uy xo'jaligini yuritish va o'z-o'ziga g'amxo'rlik qilishda yordam ko'rsatish;
- nafaqaga chiqqan xodimlarga uzoq muddatli parvarishni ta'minlovchi tibbiy sug'urta;
- badavlat keksalarning xavfsizligini ta'minlovchi xizmatlar;
- past darajadagi daromadga ega bo'lgan keksalar uchun yig'ishtirish, kir yuvish va oziq-ovqat kabi xizmatlar ta'minlangan kvartiralar; – oziq-ovqat talonlari: xususiy sektorda yashovchi, ko'chib kelgan kambag'al keksalar uchun oziq-ovqat mahsulotlari uchun sarflanadigan ayrim xarajatlari xaqi qoplanadi;
- ko'plab davlatlardagi keksalarga ko'chmas mulkka solinadigan

solliqlarga imtiyozlar taqdim qilinadi<sup>1</sup>.

Keksalar bilan ijtimoiy ish olib borishning mufassal g'oyasi ularning faol va tashabbuskor odamlar bilan teng huquqli sheriklarga aylantirishga qaratilgan. Shu munosabat bilan keksalar bilan olib boriladigan zamonaviy ijtimoiy ishda ularga yordam ko'rsatishning andragogik yondaShuvi<sup>2</sup> ommaviylashib bormoqda.

4. *Keksalar bilan ijtimoiy ish olib borish mohiyati.* Keksalikning yuqorida aytib o'tilgan ayrim xususiyatlaridan kelib chiqib, keksalar bilan ijtimoiy ish olib borishning mohiyatini aniqlashga urinib ko'ramiz. Keksalar bilan ijtimoiy ish olib borish turli muammolarni anglashning biopsixoijtimoiy va ekologik yondaShuvlari asosida amalga oshiriladi. Shu sababli u muayyan insonga, uning oilasi va atrofida qilarga hukumat va ijtimoiy ta'minot organlarida keksalarning manfaatlarini lobbirlash orqali o'zgartirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarda ifodalanadi.

Keksalar bilan ijtimoiy ish olib borish faoliyatining mohiyati quyidagilardan iborat:

1. Keksalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish;

1. Keksalar va ularning oilalariga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish;

2. Keksalarni ijtimoiy himoya qilish siyosatini ularning hayot sharoitlarini o'rganish va qarishning salbiy oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha dasturlarni ishlab chiqish orqali shakllantirish.

Keksalar bilan ijtimoiy ish olib borishda deontologiya muhim o'rin tutadi. Bu ijtimoiy xodimlarning professional burch, professional sabr, professional sirni saqlash, mijoz qadr-qimmatini hurmat qilish, keksalar bilan faoliyat olib borganda genderli xususiyatlarini qamrab oluvchi axloqiy me'yorlari majmui.

Keksalar bilan ijtimoiy ish olib borish axloqining asosiy tarkibiy qismi keksalik yoshini salbiy qabul qilish stereotiplarida namoyon bo'luvchi eydjizmni engib o'tish hisoblanadi. Qarish jarayoniga oid salbiy fikrlar ijtimoiy xodimlar kabi, keksalarning o'ziga ham xos bo'lishi mumkin. Demak, ijtimoiy xodimlar bir tomondan keksa yoshdagi kishilarga notavon, hayotning salbiy hodisalari qurbonlari sifatida munosabatda bo'lishdan xalos bo'lishlari, boshqa tomondan esa ijtimoiy xodimlar keksalarda o'z hayoti uchun mas'uliyatni oshirish, ularning faol hayotga

rag‘batlantirishga intilishlari zarur<sup>1</sup>.

Ijtimoiy xodimlar – keksalarga xizmat ko‘rsatuvchi ko‘plab agentlik shtatlarining ahamiyatli qismi hisoblanadi. Ayrim davlatlar, masalan, bugungi kunda har bir xususiy dam olish va davolanish maskani ijtimoiy xodim yollashni talab qiladi.

Keksalarga mo‘ljallangan ijtimoiy xizmatlar keksa insonga yana qayta jamiyatga kirish imkonini beradi. Xizmatlar taqdim qiluvchi ijtimoiy xodimlar keksalar boshqalarning harakatlari (harakatsizliklari) tufayli xavfda qoladilarmi yoki yo‘qmi, Shuni baholaydilar. Xavfli vaziyatlar jismoniy zo‘ravonlikni, moddiy (moliyaviy) suiste‘mol qilish, psixologik suiste‘mol qilish va befarqlikni (dori-darmonlar yoki oziq-ovqat mahsulotlarini bermaslik, asosiy (elementar) g‘amxo‘rlik va xavfsizlikni ta‘minlash imkoniyati mavjud emasligi) qamrab oladi. Agar suiste‘mol qilish yoki befarqlik aniqlanganda ijtimoiy xodimlar yomon munosabatni to‘xtatish bo‘yicha harakatlar rejasini ishlab chiqishlari va nazorat qilishlari lozim.

O‘zbekiston uchun an‘anaviy jihatdan yoshi ulug‘larga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ularning fikr va istaklariga e‘tiborli bo‘lish xos. “Ijtimoiy fikr” jamoat fikrini o‘rganish markaz tomonidan amalga oshirilgan “Oila va ma‘naviyat” mavzusidagi sotsiologik tadqiqot katta avlodning bolalar tarbiyasidagi ahamiyatli o‘rnini aniqladi (19,1%)<sup>2</sup>, ya‘ni katta avlod tomonidan to‘plangan tajriba bugungi kunda dolzarb va yuqori talabga ega. Bobolar va buvilar nafaqat tarbiyaviy, balki an‘analarga sadoqatli kishilar sifatida namoyon bo‘ladi. Yangi avlodga urf-odat va an‘analarni katta avlod vakillari yoshlarga singdiradilar, Shu sababli ma‘naviy-axloqiy yutuqlar avlodlar hayotida barqaror saqlanib qoladi. Bunda yoshlar va katta avlod vakillari bolalari tomonidan kattalarga hurmat, kichiklarga g‘amxo‘rlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, jamiyatda o‘zini tutish kabi qadriyatlarni bir xil baholaydilar.

Shunday qilib, so‘rovnoma Shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy O‘zbekiston oilasining qadriyatga oid qarashlari avlodlararo merosiylikka bo‘ysunadi va ijtimoiy tafakkurda quyidagi ketma-ketlikda ustunlikka ega bo‘ladi: kattalarga hurmat,

kamtarlik va mehnatsevarlik, o'zini jamiyatda munosib tutish, kichiklar va benavolarga g'amxo'rlik qilish.

Shu bilan birga, ayrim odamlarning keksa yoshdagi kishilar bilan muloqot qilishiga ayrim stereotiplar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Keksalarga oid ijtimoiy stereotip ijobiy tomonlar – ezgulik, ulkan tajribaning mavjudligi, donishmandlik, g'amxo'rlik bo'lsa, salbiy jihatlari – konservatizm, yoshlarga nisbatan tanqidiy munosabat, ezmalik, kabilardir.

Stereotiplar ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassislar, ijtimoiy yordam ko'rsatish muassasalari xodimlari kabi, eng qari odamlarga ham xos bo'lishi mumkin<sup>1</sup>.

Keksa yoshdagi shaxslarga nisbatan stereotipga oid qarashlarga quyidagi fikr misol bo'lishi mumkin: "Keksalar notavon". Biroq, keksalar favqulodda vaziyatlarda, ayniqsa, zaif ekanliklari, ular umuman notavon ekanliklarini anglatmaydi. Shunday qilib, 2011 yilda YAponiyada sodir bo'lgan zilzila va sunamidan so'ng keksalar va pensionerlar radioaktiv zaharlanishdan qo'rqmasliklarini ta'kidlagan holda yadroviy falokat sodir bo'lgan erlarda ko'ngillilar sifatida o'z xizmatlarini taklif qildilar.

Ikkinchi stereotip sifatida quyidagi tarzda ifodalanuvchi fikrni ko'rsatish mumkin: "Keksalar oxir-oqibat aqli zaifga aylanadilar". Haqiqatan ham 60 yoshdan oshgan odamlarda demensiya alomatlarining rivojlanish xavfi ortib boradi, biroq demensiyaning ehtimoliy jihatlari, masalan, oddiy vazifalarni bajarishdagi ishonchsizlik, gaplarni tugatishdagi qiyinchiliklar va oy yoki yil faslini to'g'ri aytib berolmaslik har doim ham keksayishning me'yoriy alomatlari hisoblanmaydi. Shunday qilib, keksalarning ko'p qismi o'z moliyaviy ishlarini va kundalik hayotini mustaqil yuritish imkoniyatiga egalar.

YAna bir keng tarqalgan stereotip quyidagi fikr bilan ifodalandi: "Keksalarning "yaroqlilik muddati" tugadi". Garchi keksa yoshdagi xodimlar yoshlarga nisbatan kamroq samarali ekanliklariga qaramasdan, tadqiqotlar yosh ortgani sayin ma'lumotlarni anglash va e'tiborli bo'lish imkoniyatlarining pasayib ketishini ko'rsatsa-da, ko'plab odamlar aqliy qobiliyatlarini va qarilikda ham o'rganish qobiliyatini saqlab qoladilar.



Sotsiologik so‘rovnomalar ko‘rsatishicha, 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan respondentlarning ko‘pchiligi hayotdan qoniqadilar. Biroq odamlar muvaffaqiyatning eng quyi darajasini va yomon salomatlik haqidagi fikrlarni bog‘laydilar. Haqiqatan ham, salomatlikning yomonlashishi katta yoshli kishilarga xos. Biroq, ko‘p holatlarda ishonchsizlik qarilikning umumiy salbiy stereotipi bilan bog‘liq. Eydjizmning har qanday ko‘rinishlarining ommaviy tafakkurdagi kabi professionallar orasida ham engib o‘tish lozim.

Ijtimoiy ish ijtimoiy xizmat ko‘rsatish va keksalarni ta‘minlash organlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Keksalar bilan ijtimoiy ish olib borish uning professional-axloqiy mohiyati va unga xos bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlardan, ular o‘zlarining ijtimoiy va shaxsiy faoliyatlari jarayonida duch keluvchi ijtimoiy muammolardan kelib chiqqan holda qurilishi lozim.

Keksa yoshdagi shaxslar bilan ijtimoiy ish olib borishning mohiyati ijtimoiy rehabilitatsiyadan – katta yoshli inson uchun odatiy turmush tarzini qayta tiklash yoki yangisini shakllantirish, mazkur yoshdagi insonning ijtimoiy yakkalanishini engib o‘tish, uning o‘z-o‘ziga beradigan bahosini oshirish, imkoniyatlarini kerakli darajada qo‘llab-quvvatlash va ijodiy imkoniyatini amalga oshirish uchun maqbul muhitni yaratishdan iborat.

Keksalar bilan ijtimoiy ish olib borishning ustuvor yo‘nalishi katta yoshdagi kishilar uchun hayotiy muhitni tashkillashtirish, mazkur muhit bilan o‘zaro munosabatlarga kirishish usullarini tanlash, ular bilan faoliyat olib borishning turli texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratishdir.

### **Nazorat savollari**

1. Aholining qarish muammosi nimadan iborat?
2. Keksa yoshdagi kishilarga xizmat ko‘rsatishning asosiy shakllari nimadan iborat?
3. Keksalar bilan ijtimoiy ish olib borish mohiyati.
4. O‘zbekistonda keksalarni ijtimoiy ta‘minotini amalga oshirish.
5. Xorijda keksa keksalar va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish.

6. AQSHda keksalar va keksalarni uzoq muddat davomida parvarish qilish tizimi.

7. G'arbiy Evropa mamlakatlarida keksalarga xizmat ko'rsatish tajribasi.

8. Keksalarga xizmat ko'rsatishning Shvetsiya tajribasi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ganieva M.X. Ijtimoiy ishga kirish. – Toshkent; O'zMU, 2011.

2. Ganieva M.X. Ijtimoiy ish asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Chashmaprint, 2009. – 112 b.

3. Charles Zastrow. Introduction to Social work and social welfare. Empowering People. George Williams College of Aurora University. Printed in Canada: Brooks/Cole, Cengage Learning, 2010.

4. Ambrosino R., Ambrosino R., Heffernan J., Shuttlesworth G. Social Work and Social Welfare: An Introduction. Sixth Edition. – Thomson Brooks/Cole, 2008. Introduction to social work in the United States. Ed. Andrew Hamid, PhD. – School of *Social Work, Columbia University*

5. Ganieva M.X., Karamyan M.X. Keksalar bilan ishlashning professional-axloqiy jihatlari // Ijtimoiy fikr. Inson huquqlari. – Toshkent: Ijtimoiy fikr, 2015. – №4. – 110-116 b.

## **10-MAVZU. XULQIDA MURAKKABLIKLAR**

### **MAVJUD BO'LGAN BOLALAR VA O'SMIRLAR BILAN IJTIMOIIY ISH OLIB BORISH**

*1. Deviant xulq: tushuncha, sabablar, turlar*

*2. Xorijiy mamlakatlarda qonun bilan ixtilofi mavjud bolalar va o'smirlar bilan ijtimoiy ish olib borish*

*3. Xulqida muammolar mavjud (tarbiyasi og'ir) bo'lgan bolalarga individual yondaShuv asoslari.*

**Kalit so'zlar:** deviant xulq, delinkventlik, og'ish, konformlik, anomiya, begonalashish, o'smir, voyaga etamaganlarga yordam ko'rsatish xizmati, qayta ijtimoiylashtirish.

*1.Deviant xulq: tushuncha, sabablar, turlar.* Kundalik hayotimizda biz doimiy ravishda xulqning turli ijtimoiy nomaqbul ko‘rinishlariga duch kelamiz. Shuni ta’kidlash lozimki, og‘uvchi xulq salbiy va ijobiy tabiatga ega. Og‘uvchi xulqning ijobiy tabiati ilmiy, texnik va badiiy ijodda madaniyatning umum qadriyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan turli ko‘rinishlarida ifodalanadi.

Deviant, og‘uvchi xulq ko‘plab fanlarning – psixologiya, sotsiologiya, ijtimoiy ish, psixiatriya, kriminologiyaning o‘rganish predmeti hisoblanadi. Munozaralar mezon va chegaralar me‘yorini aniqlash, bu kabi xulq sabablari, nazorat qilish va oldini olish masalalarini muhokama qilishga chorlaydi. Deviant xulq mavzusining fanlararo tabiati avvalambor uni izohlovchi yondaShuvlarning xilma xilligida namoyon bo‘ladi. Deviant xulqni ta’riflashning asosiy yondaShuvlarini ko‘rib chiqamiz.

*Deviant xulq.* Har qanday xulqni baholash har doim qandaydir me‘yor bilan qiyoslashga yo‘naltiriladi va agar xulq me‘yordan og‘sa, uni deviant, deb ataydilar. Ijtimoiy fanlarda me‘yorni ajratib ko‘rsatish uchun turli mezonlardan foydalanadilar.

Ilmiy adabiyotlarda deviant xulq ostida ko‘pincha insonning mazkur jamiyatda rasmiy ravishda belgilangan yoki shakllangan me‘yorlarga (stereotiplar, namunalarga) mos bo‘lmagan harakati, faoliyati tuShuniladi.

Turli ilmiy fanlarda jinoyatlar sabablari to‘g‘risidagi ko‘plab nazariyalar mavjud. Ularning eng mashhurlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Shunday qilib, Lombroze (Lombrosian) XX asrning boshida jinoyatchi uchun muayyan jismoniy og‘ishlar va yakkam-dukkan soqol, og‘riqqa past darajali ta’sirchanlik, qiyshiq burun, katta lablar yoki uzun qo‘llar kabi jismoniy ma’lumotlarni xos deb ko‘rsatadi. Insondagi bu kabi alomatlar qancha ko‘p bo‘lsa, u jinoyatchilikka Shunchalik moyil bo‘ladi. Bir nechta belgilari mavjud insonlar agar bunga maqbul ijtimoiy muhit yaratilsa, jinoyatchilikdan o‘zlarini to‘xtatib qola olmaydi. Jinoyatchilarni farqlab turuvchi (aniq) jismoniy xususiyatlari mavjudligi haqidagi nazariya, bir necha ming jinoyatchilarni qiyoslovchi tadqiqotlarga ahamiyatli darajadagi farqlarni topa olmagan CH.Goring tomonidan inkor qilingan<sup>1</sup>.

Psixotahliliy nazariya psixotahlilchilar tomonidan XX asr boshlaridan so‘ng Zigmund Freydning asarlaridan bir emas, balki ko‘plab gipotezalarni taqdim qildilar. Rivojlanishning psixoanalitik nazariyasi ikkita fikrga asoslanadi. Birinchisi ilk bolalikdagi kechinmalar katta yoshli shaxsning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Freyd shaxsning asosiy poydevori juda erta, 5 yoshgacha bo‘lgan davrda qo‘yilishiga qat’iy ishongan. Ikkinchi fikr Shundan iboratki, inson muayyan miqdordagi jinsiy quvvat (libido) bilan tug‘iladi, so‘ngra u o‘z rivojlanishida organizmning instinktiv jarayonlarida yashiringan bir nechta psixojinsiy bosqichlarni bosib o‘tadi.

Psixotahlilning asosiy komponenti bo‘lgan psixiatrik ta’limotning ta’kidlashicha, ayrim jinoyatchilar huquqqa qarshi harkatlarni telba bo‘lganliklari sababli sodir etadilar, deb ta’kidlaydi. Jinoiy sud tizimi ko‘pincha ayblanayotgan jinoyatchilarning aqli rasoligini baholash maqsadida psixiatrlarga murojaat qiladilar. Agar sud sudlanuvchining telbaligini tasdiqlasa, u holda uni telbaligi sababli “aybsiz”, deb topadilar va davolanish uchun psixiatrik kasalxonaga yuboradilar. Psixiatriya Shuningdek, sotsiopatga – jinoyatchilik faoliyatida hech bir ma’naviy cheklovlari bo‘lmagan va boshqa odamlarni azoblovchi insonga ta’rif beradi.

Mazkur yonda Shuv tanqid ostida qoldi va bugungi kunda mazkur modelni qo‘llash davom etmoqda. Biroq psixoanalitik nazariya tobora ko‘proq tanqid qilinmoqda. Psixotahlil qilinayotgan, hissiy muammolari mavjud bo‘lgan odamlarda mavjud narsalarni ochish, uning ruhiy holatini yaxshilashning bu kabi ehtimolini ham yaxshilash imkonini beradi.

Deviant xulq muammosini hal etuvchi psixodinamik konsepsiyasi uni individuallikning turli tarkibiy qismlari orasidagi nizo sifatida qabul qiladi: istaklar, sabablar, qo‘rquvlar, intilishlar, bog‘lanib qolish, ma’naviy kodekslar va boshqalar.

Mazkur nazariyaning jiddiy kamchiligi – insonning jinoyat sodir etishga majburlovchi istaklari, sabablari, qo‘rquvlarini to‘xtatib qolish o‘ta murakkab (agar imkoni bo‘lmasa). Masalan, amalga oshirilmagan shahvoniy istaklar, zo‘ravonlik qilish istagi uni to‘xtata olmaydi, chunki jinoyatchi hukmronlik va ustunlik hissini

boshdan kechiradi. Jinsiy tajovuz sodir bo'lganida, mazkur ichki istaklarning har biri tajovuzga qay darajada sabab bo'lganlik darajasini aniqlashning deyarli imkoni yo'q.

Tajovuzkor xulq nazariyasida ta'kidlanishicha, faoliyatning buzilishi ko'pincha tajovuzkor javobga sabab bo'ladi. Shunday qilib, zo'ravonlik keskin vaziyatda vujudga kelgan bosimni chiqarib yuborish usuli sifatida namoyon bo'ladi. Hisoblarni yopish yoki ish topish imkoniyatiga ega bo'lmagan ishsiz er o'z xotinini do'pposlashi mumkin<sup>1</sup>.

Deviant xulq tabiatini ta'riflash jamiyatning ijtimoiy institutlari bilan aloqasini ko'rsatib o'tgan sotsiologlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ijtimoiy yondaShuvning eng muhim jihatlaridan biri turli ijtimoiy kontekstlardagi konformlik va og'ishlarning o'zaro aloqalarini ta'kidlab o'tishdan iborat.

Deviant xulqning ijtimoiy nazariyalariga quyidagilar kiradi: E.Dyurkgeym va R.Mertonlarning anomiya konsepsiyasi, stigmatizatsiya nazariyasi, submadaniyat me'yorlarini internatsionallashtirish.

E.Dyurkgeym sotsiologiyaga "anomiya"<sup>2</sup> tuShunchasini kiritdi. Anomiya – bu jamiyat individga tartibga soluvchi me'yorlarni taqdim qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan holat yoki jamiyatda ayrim narsalarga nisbatan umuman me'yorlar mavjud bo'lmagan holat. Anomiyaning vujudga kelishiga sabab ijtimoiy o'zagarishlar bilan bog'liq. Anomiya odatda jamiyat darajasida tartib va nazoratning kamligini anglatadi. Uni "begonalashish" hodisasi, individ hukumat tomonidan qabul qilinadigan va uning o'ziga tegishli bo'lgan qandaydir qarorlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmagan holat. Begonalashish individga o'z-o'zini namoyon qilish yo'lida duch keladigan qiyinchiliklarni aks ettiradi.

Og'ish – bu me'yor doirasidan chiqib ketuvchi xulq. YA'ni, "og'uvchi xulqqa ega bo'lgan inson" ijtimoiy tizim me'yorlariga amal qilmaydi va tizim bunga nisbatan majburiy nazorat choralari bilan javob qaytaradi. Og'ish, yuqorida aytib o'tilganidek, ijobiy tomonga ham yo'naltirilgan bo'ladi, bu holatda Shu kabi xulq uchun rag'batlantirish ko'rinishidagi to'lovlar amalga oshiriladi. Tadqiqotchilarning e'tibori ko'proq salbiy xulqqa qaratiladi, chunki bu kabi xulq jamiyat uchun

muammolar tugʻdiradi. Ogʻish – bu ayni vaqtda jamiyat ogʻish deb hisoblaydigan holat, yaʼni, koʻp jihatdan ijtimoiy kelishuv ekanligi ahamiyatli holatdir.

R.Merton Dyurkgeym tomonidan taklif qilingan anomiya konsepsiyasidan kelib chiqib, bir tomondan mazkur madaniyat tomonidan maqsadlar, istaklar va manfaatlar oʻrtasidagi nomuvofiqlik, boshqa tomondan esa mazkur maqsadlarga erishishning ijtimoiy maʼqullangan usullari sifatida anglagan holda devyatsiya nazariyasini yaratdi. U individ xulqida qabul qilingan meʼyorlar ijtimoiy voqelik bilan ziddiyatga kirishgan holatda vujudga keladigan zoʻriqishni belgilash maqsadida anomiya tushunchasini oʻzgartiradi.

Deviant xulqning boshqa keng tarqalgan nazariyasi “yorliqlar tirkash”, stigmatizatsiya (grek tilidan stigma – tamgʻa, dogʻ) yoki “sotsietal taʼsir” hisoblanadi. Mazkur nazariyaga koʻra, jamiyatning boshqa aʼzolari tomonidan belgilanuvchi xulq oʻz maʼnosiga koʻra deviant hisoblanadi. Insonga deviant tamgʻasi qoʻyiladi.

Madaniyatshunoslik nazariyasi nuqtai nazaridan devyatsiya individ tomonidan barcha tomondan qabul qilingan submadaniyat meʼyorlaridan keskin farq qiluvchi meʼyorlarni oʻzlashtirish va qabul qilishning natijasi demakdir.

Bu kabi meʼyorlarni qabul qilgan individ ijtimoiy maʼqullanuvchi meʼyorlarga, ularni faqatgina unga begona boʻlgan guruhlar uchun foydali deb hisoblagan holda salbiy munosabatda boʻladi. Bundan tashqari, ijtimoiy meʼyorlarning buzilishi u tomondan oʻzlashtirilgan meʼyorlar sifatida ifodalanishi mumkin.

Zamonaviy sotsiologiyada E.Giddens devyatsiyani (ogʻishni) guruh yoki jamiyatdagi odamlarning ahamiyatli qismi tomondan qabul qilingan meʼyor yoki meʼyorlar toʻplamiga nomuvofiqlik sifatida ifodalaydi, Shu bilan birga u hech bir jamiyat chiziq tortishi va barchani oddiygina meʼyorlarga amal qilmaydiganlar va amal qiladiganlarga boʻlib qoʻya olmaydi, deb taʼkidlaydi<sup>1</sup>.

Ogʻuvchi xulqni oʻrganishda sotsiologlar “buzgʻunchilik” atamasidan foydalanadilar. SHaxsning tartib-intizomni buzishi (buzgʻunchiligi), deb individ oʻzini qabul qilingan meʼyorga muvofiq tutish qobiliyatiga ega boʻlmagan holatga

aytiladi. Ko‘pincha bu individning o‘ziga zarar etkazadi. Boshqa “og‘uvchi xulqqa ega bo‘lgan” individlar esa ko‘p jihatdan o‘zi uchun emas, ko‘proq jamiyat uchun muammo tug‘diradi.

Ijtimoiy buzg‘unchilik – bu ijtimoiy guruh yoki sotsiumning buzilgan holati. Zamonaviy jamiyatlarda ko‘plab submadaniyatlar mavjud, bitta submadaniyatda me‘yoriy deb hisoblangan holat boshqasida og‘ish sifatida ta‘riflanishi mumkin.

Deviant xulq ikki guruhga ajratiladi:

1. Ruhiiy salomatlik me‘yorlaridan og‘uvchi xulq, ya‘ni insonda aniq yoki yashirin ruhiy nuqson mavjud, ushbu guruhni quyidagi shaxslar tashkil qiladi: asteniklar (jismoniy va ruhiy zaif odamlar), shizoidlar, tutqanoqlar va aksentuirlangan tabiatga ega bo‘lgan shaxslar.
2. Inson ijtimoiy hayotining ma‘naviy-axloqiy me‘yorlaridan og‘uvchi xulq ijtimoiy nuqsonlarning turli shakllarida – ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishabozlik va boshqalarda namoyon bo‘ladi. Ushbu xulq nojo‘ya harakatlar yoki jinoyatlar shaklida namoyon bo‘ladi<sup>1</sup>.

Hayotning va oiladagi tarbiyaning nomaqbul sharoitlari, bilimlarni o‘zlashtirish va maktabdagi o‘qitish bilan bog‘liq muammolar, atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlarni qurish va Shu asosda vujudga keluvchi nizolar, salomatlikdagi turli ko‘rinishdagi psixofizik og‘ishlar odatda ruhiyatning inqiroziga, mavjudlik mohiyatining yo‘qolishiga olib keladi.

YUqoridagilarni umumlashtirgan holda deviant xulq sotsiologiyasining predmeti buzg‘unchilikni ifodalovchi, davlat va jamiyat tomonidan o‘rnatilgan me‘yorlar va qoidalar bilan ixtilofga kirishgan ijtimoiy guruhlar va alohida shaxslarning tafakkuri va harakatlarini o‘rganishdan iborat.

Barcha jamiyatlarda inson xulqi doimiy ravishda ruxsat etilgan me‘yorlar doirasidan chiqib ketadi. Me‘yorlar faqatgina inson nima qilishi mumkinmasligini emas, balki nima qilish kerakligini ko‘rsatadi, biroq ular haqiqiy xulqning aksi emas. Odamlarning real harakatlari ko‘pincha boshqalar odatiy xulq sifatida qabul qiladigan harakatlarga mos kelmaydi.

Me‘yor – qandaydir ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilingan va mazkur

guruh sanksiyalar yordamida nazorat qiluvchi xulq qoidalarini aks ettiradi. Eng oshkora me'yorlar: axloqiy, estetik va huquqiy. Me'yorlar nima qilish kerak yoki zarur ekanligini, nisbatan kengroq ma'noda – inson sotsium a'zosi sifatida qanday bo'lishi lozim ekanligini belgilab beradi. Me'yorlar turli ta'qiqlar va ruxsatlarda, buyruq va chaqiriqlarda, iltimos va tavsiyalarda ifodalangan.

Umuman, jamiyat manfaatlariga va fuqarolarning shaxsiy manfaatlariga zid bo'lgan, ijtimoiylikka qarshi xulq shakllaridan biri – bu **qonunbuzarlik**.

Huquqshunoslikda fuqarolarning qonuniy va noqonuniy xulqi ajratib ko'rsatiladi. Noqonuniy harakatlar (qonunbuzarliklar) huquq me'yorlariga zid bo'lgan huquqiy faktlar hisoblanadi. Barcha qonunbuzarliklar jinoyatlar va noo'rin xatti-harakatlarga bo'linadi.

Amalda jinoyatlar quyidagicha tabaqalanadi:

1.Og'irlik darajasiga ko'ra: og'ir, o'rta og'ir va jamiyat uchun katta xavf tug'dirmaydigan;

2.Jinoyat shakliga ko'ra: qasddan sodir qilingan va ehtiyotsizlik tufayli;

3.Maqsadlar va sabablarga tajovuz qilish ob'ektiga ko'ra: davlatga qarshi, g'arazli, zo'ravonlikka oid va boshqalar.

4.Ijtimoiy-demografik va kriminologik asoslarga ko'ra: kattalar va yoshlarning jinoyatlari, voyaga etmaganlar jinoyatlari, takroriy va retsidiv.

Jinoyat – bu huquqqa qarshi, aybdor jazolanuvchi, qonun tomonidan himoyalangan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi va ularga ahamiyatli darajada zarar etkazuvchi ijtimoiy xavfli harakatlar. Noto'g'ri xatti-harakatlar – bu qonunga xilof va aybli harakat, biroq u katta ijtimoiy xavf tug'dirmaydi. Noto'g'ri xatti-harakatlar ma'muriy, fuqarolik, mehnat me'yorlari va huquq sohalari tomonidan tartibga solinadi va boshqariladi. Noto'g'ri xatti-harakat ko'rinishidagi huquqbuzarliklar o'smirlarda, kishining g'ashiga tegadigan xulqda, behayo iboralarda, urishqoqlikda, mayda o'g'irlikda, ichkilikbozlikda, darbadarlikda namoyon bo'ladi.

14-18 yoshdagi o'smirlar va yoshlarga huquqqa qarshi xulqning g'arazli kabi, zo'ravonlikka oid sabablar xos. G'arazli huquqbuzarliklar yakunlanmagan



bolalarcha tabiatga ega, chunki ular sababsiz tajovuzkorlik ko‘rinishida, sho‘xlik va qiziqish tufayli sodir etiladi. Bugungi kunda o‘smirlar va yoshlar huquqbuzarliklarga avtotransport o‘g‘irlash, yoshlar modasiga oid predmetlarni o‘g‘irlash (radioapparatura, sport inventarlari, urfdagi kiyim-boshlar, pul, shirinliklar, sharob va boshq.) kabilarni kiritish mumkin.

3. *Xorijiy mamlakatlarda qonun bilan ixtilofda bo‘lgan bolalar va o‘smirlar bilan ijtimoiy ish olib borish.* Tarbiyasi og‘ir bolalar va o‘smirlar bilan ish olib borish G‘arbiy Evropaning ko‘plab mamlakatlarida umumiy ijtimoiy ishning majburiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu kabi bolalarni “havf guruhi”ga, ya’ni huquqqa qarshi harakatlarni amalga oshirish ehtimoli yuqori bo‘lgan guruhga kiritadilar. Mazkur guruhga uydan, maktabdan qochgan, ota-onasining nazoratisiz qolgan, zo‘ravonlik qurboniga aylangan, alkogol ichimliklar va giyohvand moddalarni iste‘mol qiluvchi, fohishabozlik bilan Shug‘ullanuvchi bolalar kiradi. Xorijda ular bilan ish olib borish odatda, qator dasturlar asosida amalga oshiriladi. G‘arb mamlakatlarida va AQSHda tarbiyasi og‘ir bolalar va o‘smirlar bilan ish olib borish dasturlarining o‘ziga xos jihatlari ularning ogohlantiruvchi tabiatga ega ekanligidan iborat.

Ogohlantiruvchi chora-tadbirlarga yo‘naltirilganlik bolaga inqirozli vaziyatda yordam ko‘rsatishga qadar qanchalik ko‘p vaqt o‘tsa, uning oqibatlarini bartaraf qilish Shunchalik murakkab ekanligini anglashga asoslanadi.

*Gollandiyada tarbiyasi og‘ir o‘smirlar bilan ijtimoiy ish olib borish dasturlari va texnologiyalari.* Gollandiya G‘arbiy Evropaning rivojlangan erishgan mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Biroq Shunga qaramasdan, Gollandiyada turmush darajasi juda yuqori, bu erda o‘smirlar va yoshlar jinoyatchiligi, daydilik va vandalizm muammolari mavjud. Mazkur mamlakatda yoshlar orasidagi huquqbuzarliklar asosan tub aholi bo‘lmaganlar bilan bog‘liq. Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar va yoshlar sirasiga ko‘pincha kelib chiqishi Turkiya, Marokash, Antil orollaridan bo‘lganlar kiradi.

Xulqida murakkabliklar mavjud (tarbiyasi og‘ir) bolalar va o‘smirlar bilan ijtimoiy ish olib borish bir nechta dasturlar asosida amalga oshiriladi:

1. Thuislozen Team (TT) loyihasi – boshpanasiz yoshlar, o‘smirlar daydiligi bilan ish olib borish. Mazkur loyiha 1992 yilda joriy qilingan. Loyihaning asosiy kontingenti – 25 yoshgacha bo‘lgan, oxirgi uch oy davomida doimiy turar joyga ega bo‘lmagan, jinoyat sodir etmagan, biroq huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan e‘tiborga olib qo‘yilgan yoshlar. Mazkur xizmat mutaxassislari boshpanasiz o‘smirlarni o‘z faoliyati tizimiga jalb qilishning zo‘ravonlikka asoslangan usullarini qo‘llamaydilar: chaqiruv qog‘ozi yo‘llash, majburan olib kelish. TT byurosiga nafaqat haqiqatan ham o‘z hayotini o‘zgartirishni xohlaganlar, yordamni qabul qilishga tayyor va bir vaqtning o‘zida o‘z hayotiy rejalarini amalga oshirish uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishni istaganlar ham murojaat qiladi.

2. Yoorkoming Thuisloosheid (VT) loyihasi – internatlardan qochish, Shuningdek, internat xodimlari va uning tarbiyalanuvchilari o‘rtasida vujudga keluvchi nizoli vaziyatlarni oldini olish ish olib borish. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, mazkur loyiha bo‘yicha ish TT loyihasi bilan chambarchas bog‘liq, chunki barcha daydilarning 70% internatlarning sobiq tarbiyalanuvchilari. Gollandiyada internatlarning turli ko‘rinishlari mavjud, ularning ayrimlari Rossiya internatlarini yodga soladi. Ular Shuningdek, ta’lim va aholini ijtimoiy himoya qilish organlari tomonidan tashkil qilingan, ularda doimiy ravishda 100, 200 va undan ortiq tarbiyalanuvchilar yashaydilar. Ularda yashovchi bolalar oddiy shahar maktabiga qatnaydilar. Nodavlat xayriya tashkilotlari yoki alohida shaxslar tomonidan va davlat va mahalliy hukumat organlari tashabbusi bilan tashkil etilgan internatlar mavjud. Bu kabi internatlarda odatda 8 tadan 12 tagacha tarbiyalanuvchilar yashaydilar. Ular yoshlar yotoqxonasini yodga soladi. Har bir tarbiyalanuvchi o‘zining alohida xonasiga ega, bu xonani esa u o‘z ixtiyoriga ko‘ra joylashtiradi, o‘zi ta’mirlaydi va tartibga keltiradi. Mehmon kutish huquqiga ega. Tartib va intizomning kafolati o‘smirni VT loyihasidan chiqarib yuborishdan iborat, bu esa o‘z navbatida ularning har biri uchun hayotiy istiqbolni yo‘qotish hisoblanadi. Bu kabi internatda maishiy xonalar mavjud, bolalar xo‘jalik yuritishni, uncha katta miqdorda bo‘lmagan nafaqadan iborat byudjetni to‘g‘ri taqsimlashni o‘rganadilar, moslashtiruvchi-o‘qituvchi tabiatga ega bo‘lgan turli mashg‘ulotlar, treninglar

o‘tkaziladi, bo‘sh vaqtni birga o‘tkazish tadbirlari tashkillashtiriladi.

3. Halt loyihasi – mayda o‘g‘irlik yoki vandalizm (jaholat) harakatlarini sodir etgan bolalar bilan ish olib borish. Mazkur loyiha Gollandiya hududining 79% qamrab olgan. Mazkur loyihaning mohiyati Shundan iboratki, huquqbuzarlikni sodir etgan o‘smirlar moddiy yoki ma‘naviy zararni shaxsiy mehnati bilan to‘laydilar. U buni rad qilishi mumkin, biroq bu holatda u mahalliy huquqni muhofaza qilish organlari qo‘liga topshiriladi. Ma‘lumki, Gollandiyada sudlanganlik jiddiy ijtimoiy oqibatlariga ega, chunki bu holatda oliy ta‘lim muassasi va ishga joylashishda jiddiy muammolar tug‘iladi.

Agar huquqbuzarlik mazkur mezonlarga mos kelsa, u holda o‘smir to‘g‘risidagi ma‘lumotlar politsiyadan Halt byurosiga yuboriladi. Byuro xodimi o‘smirning ota-onasi, jabrlanuvchi va prokuratura o‘rtasida murosa yo‘lini topishga intilgan holda vositachi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘smirlarga huquqbuzarlik oqibatlarini bartaraf qilishning bir nechta variantlari taklif qilinadi, shartnoma hujjatlashtiriladi va byuro uning barcha tomonlar tarafidan bajarilishini nazorat qiladi. Taklif qilingan echim tomonlarning biri tarafidan rad qilinganda huquqbuzarlikka chora ko‘rish to‘g‘risida ish boshlanadi.

4. Family First (FF) loyihasi – inqirozli vaziyatga tushib qolgan, hukumat organlari tomonidan ularni ota-onalik huquqidan mahrum qilish masalasi ko‘rilayotgan oilalar bilan ishlash. Odatda bu ona asotsial turmush tarzini kechiradigan (odatda gollandiyalik bo‘lmagan) noto‘liq oila. Mazkur oila bilan ish olib borayotgan hukumat vakillari onaga nisbatan onalik huquqidan mahrum qilish haqida qaror qabul qiladilar va hujjatlarni tayyorlaydilar.

5. Home Video Training (HVT) loyihasi – uning a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni yaxshilashda yordam ko‘rsatish, bolalar tarbiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal etishda yordam ko‘rsatish. HVT mutaxassislariga murojaat qilish bo‘yicha tavsiyalarni ota-onalar maktab ma‘muriyati yoki huquqni muhofaza qilish organlaridan olishlari mumkin. Ota-onalarning o‘zlari ham, o‘z tashabbuslariga ko‘ra byuroga murojaat qilishlari mumkin. Biroq har qanday holatda ham ish oilaning barcha katta yoshdagi a‘zolarining ixtiyoriy roziligi asosida amalga

oshiriladi. O‘zaro keliShuvga ko‘ra ijtimoiy xodim oilaga videokamera bilan keladi. Kattalar va bolalar avvaldan ularning odatiy turmush tarzini buzmaslikka tayyorlanadilar. Tasvirga olish kichik parchalarni tasvirga tushirish asosida davom ettiriladi. Bunda ijtimoiy xodim oila a‘zolarining e‘tiborini muloqotning ijobiy jihatlariga qaratadi. Ish oila a‘zolari va ob‘ektiv ma‘lumotlar vaziyatning ahamiyatli ravishda yaxshilanganligini namoyon qilganida tugatiladi.

6. Nieuwe Perspectieven (NP) loyihasi – shartli sudlangan o‘smirlar bilan ish olib borish. Mazkur loyihaning asosiy kontingenti – 14-25 yosh oralig‘idagi, huquqni muhofaza qilish organlari bilan muammolari mavjud bo‘lgan yoshlar. Loyiha e‘tiboriga ular turli yo‘llar bilan tushib qoladilar: politsiya orqali, maktab va boshqa muassasalardan yuboriladi. Ularning aksariyati – Osiyo va Afrikadan kelganlar. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, oxirgi vaqtlarda gollandiyalik mutaxassislar Shuningdek, kelib chiqishi ruslarga mansub bo‘lgan yoshlar muammosidan xavotirga tushganlar. Jumladan, ular rus yoshlari odamovi, ijtimoiy xizmatlarga o‘zlari murojaat qilmasliklari va ular bilan professional ijtimoiy xodimlar emas, balki faqatgina volontyorlar muloqot olib borayotganliklarini alohida ta‘kidlamoqdalar.

*Germaniyada tarbiyasi og‘ir voyaga etmaganlarga yordam ko‘rsatish xizmatlari.* Germaniyada 1991 yilda qabul qilingan YOshlarga yordam ko‘rsatish to‘g‘risidagi Umummilliy Qonun mavjud. Mazkur Qonunga ko‘ra, yoshlarga yordam ko‘rsatish ogohlantiruvchi tabiatga ega bo‘lishi lozim. Yangi qonun majburiy ravishda axloq tuzatishni bekor qildi. YOshlar ishi bilan Shug‘ullanuvchi idoralarga bolalarning yashash joylarida joylashtirilishlari va differentsiatsiya qilinishi lozim bo‘lgan bolalar va o‘smirlarga yordam ko‘rsatishning tegishli xizmatlari etarli darajada tashkil etilishi lozim.

Nemis olimlarining fikriga ko‘ra, o‘smirning yopiq muassasaga (koloniyaga) joylashtirilishi yordam ko‘rsatish doirasidagi eng oxirgi chora hisoblanadi. O‘smirni yopiq muassasaga joylashtirilishi uchun asos ota-onasining vasiylar kengashiga yozgan arizasi hisoblanadi. YOpiq muassasalarga faqatgina potensial xavf tug‘diradigan va davolash hamda yordamdan bosh tortgan o‘smirlargina joylashtirilishi lozim. Bu kabi o‘smirlarga uzoq muddatga mo‘ljallangan va

yordamning boshqa turlaridan mazmuni va mohiyatiga ko'ra farq qiluvchi individual tezkor ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatiladi. Odatda bu kabi bolalar bilan (ko'pi bilan uchta) diplomli ijtimoiy pedagog Shug'ullanadi.

*AQSHda qonun bilan ixtilofi mavjud bo'lgan bolalar va o'smirlar bilan ijtimoiy ish.*

70-yillarda AQSHda voyaga etmaganlar uchun kema ishlab chiqarish sohasida islohotlar amalga oshirilgan. 1974 yilda kongress voyaga etmaganlar uchun sud va o'smirlar jinoyatchiligining oldini olish to'g'risida Qonun qabul qildi va o'z e'tiborini mayda jinoiy va fuqarolik huquqbuzarliklarni sodir etgan voyaga etmaganlarning sud oldidagi majburiyatlaridan ularning turar joylarida tuzatishga qaratdi. Mazkur qonun fuqarolik qonunbuzarliklarini sodir etgan voyaga etmaganlarning axloq tuzatish muassasalarida qolish muddati mayda jinoyatlarni sodir etgan o'smirlar uchun qamoq jazosi o'rniga jazolashning alternativ choralari rag'batlantirgan va o'smirlar xulqini maxsus dasturlar asosida tuzatish uchun xizmatlarni yaratishga chaqirgan. Qonun Shuningdek, qamoqxonalarda kattalar va o'smirlarning birga jazo o'tashlarini ta'qiqlagan va oldini olish tadbirlarini ustuvor yo'nalish sifatida ifodaladi.

Mazkur holat qonun bilan ixtilofda bo'lgan voyaga etmaganlar bilan ishlash uchun maxsus xizmatlarni rivojlantirish va ular bilan ishlashning turli dasturlarini yaratish uchun rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qildi. Maktab dasturlari ikki guruhga bo'linadi: oddiy maktablar uchun dasturlar va tarbiyasi og'ir hamda sudlangan o'smirlar uchun mo'ljallangan maxsus maktablar uchun dasturlar. Har ikkala maktablar ham huquqni muhofaza qilish organlari yoki ijtimoiy xizmatlar yo'naltirgan o'smirlarga yordam ko'rsatish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar yoki ularga alohida e'tibor qaratish iltimosi bilan murojaat qiladilar. Shunday qilib, mazkur dasturlar o'smirlarning maktabdagi voyaga etmaganlar jinoyatchiligining oldini olishga yo'naltirilgan va Shu bilan birga barcha o'quvchilarga mo'ljallangan mashg'ulotlarga qatnashish imkonini bergan holda ularning qaysidir guruhini yakka lashning oldini oladi.

Voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha sudlar tizimi o'z e'tiborini kattalar bilan

sud tizimidagi kabi jazolashga emas, balki ularning qayta ijtimoiylashtirilishiga qaratadi. Bolalarni qutqarish harakati an'analari ta'sirida vujudga kelgan voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha sudlar Amerika jamiyati bolalar va kattalar harakatlari o'rtasida keskin farq mavjudligini tan olganligi, mazkur asosiy vazifasi sudlarning jazolanishi lozim bo'lgan harakatlarni amalga oshirgan o'smirlarni tarbiyalash, Shuningdek, jinoyatlarni oldini olish ekanligidan iborat bo'lganligi sababli mavjud.

Bugungi kunda AQSHda voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha tashkilotlari va faoliyati shtatlar va ularning qonunchiligi doirasida bo'lgan 3500 yaqin sudlar faoliyat olib boradi.

Shtatlarning voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha sudlar haqidagi Qonunlarini nojo'ya xatti-harakatlari maktab mashg'ulotlarini qoldirish, uydan qochishdan iborat bo'lgan, quloqsiz, tarbiyasi og'ir bo'lgan bolalar "offenders maqomi" toifasiga kiritadilar. Ko'plab shtatlarda o'smirlarning mazkur guruhi "vasiylikka muhtoj bolalar" sifatida ta'riflanadi.

Voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha sudlar tizimi tomonidan turli ijtimoiy xizmatlar yoki ijtimoiy ta'minot bo'limlarining vakolatli xodimlari, yoshlar ishlari bo'yicha boshqarmalar, ijtimoiy tartib va xavfsizlikni ta'minlash organlari tomonidan amalga oshiriladigan qator ijtimoiy tadbirlari ishlab chiqilgan. Voyaga etmagan shaxs shartli ravishda ozod qilinsa, ijtimoiy xodim sinov muddati davomida uni nazorat qiladi va sudyani o'smir o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni qay tarzda bajarayotganligi haqida xabardor qilib turadi.

O'smirlar bilan faoliyat olib borishdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida AQSHda yoshlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish byurosi tashkil etilgan. Mazkur muassasalar hamjamiyatlar tomonidan politsiya, voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha sudlar, ijtimoiy xizmat, ota-onalar yoki maktablar tomonidan yo'naltirilgan, sudlangan va sudlanmagan o'smirlarga yordam ko'rsatish maqsadida tashkil etilgan koordinatsion markazlar hisoblanadi. YOshlarga xizmat ko'rsatish byurolarining mavjudligi, mashg'ulotlarni qoldirgani, yomon xulq yoki mayda qonunbuzarliklar uchun ishlari politsiyaga topshirilgan o'smirlar dastavval ishni noto'g'ri yuritish va ularga uyushma tomonidan yordam bermasdan turib ishini

sudga oshirishning oldini olishni kafolatlaydi.

AQSHda ozodlikdan mahrum qilishga hukm qilingan o‘smirlar uchun qanday muassasalar mavjud? Bu kabi muassasalarning ikki toifasi ajratib ko‘rsatiladi: yopiq ozodlikdan mahrum qilish joylari va yopiq tarbiya muassasalari. Yopiq ozodlikdan mahrum qilish joylari – bu ish holatlarini tekshirish davrida dastlabki hibsga joylashtirilgan o‘smirlarning jismoniy erkinligini cheklovchi muassasalar. Yopiq tarbiya muassasalari – bu sud qaroriga ko‘ra yo‘llangan o‘smirlarni joylashtirish va ularning erkinligini cheklashga yo‘naltirilgan barcha davlat yoki xususiy tashkilotlar. Bu kabi voyaga etmaganlar uchun tarbiya muassasalarining to‘rt turi mavjud, ular erkinlikni cheklash darajasiga ko‘ra farqlanadi. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Qayta tarbiyalash bo‘yicha maktablar;
2. YOshlar lagerlari va rancho;
3. YOpiq etimxonalar va bolalar uylari;
4. Tun-u kun nazorat qilinadigan markazlar.

Aytilganlarning barchasidan turli mamlakatlarda tarbiyasi og‘ir bolalar bilan ijtimoiy ish olib borishni ifodalovchi umumiylikni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Faoliyat profilaktik tabiatga ega;
2. Faoliyat o‘smirlarning yashash manziliga ko‘ra amalga oshiriladi;
3. Faoliyat o‘smirlarning muayyan guruhiga yo‘naltirilgan dasturlar asosida amalga oshiriladi;
4. Ish o‘z faoliyatini muvofiqlashtiruvchi turli mutaxassislar tomonidan amlga oshiriladi;
5. Ijtimoiy xodimlar tayanuvchi professional baza hamjamiyatda joylagan ijtimoiy xizmatlarning keng tarqalgan tarmog‘i hisoblanadi.

*3.Xulqida muammolar mavjud (tarbiyasi og‘ir bo‘lgan) bo‘lgan bolalarga individual yondaShuv asoslari.* O‘qituvchi bilan muloqot qilishda eng ko‘p qiyinchiliklarga tarbiyasi og‘ir o‘smirlar duch keladilar. Mazkur o‘smirlar shaxsini tuzatishning ayrim masalalarini ko‘rib chiqamiz.

Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni qayta tarbiyalashning asosiy masalasi shaxsga

uning yo‘naltirilganligini, zararli odatlarini o‘zgartirish maqsadida, yangi bilim, ko‘nikma, malaka, odatlarni o‘zlashtirish maqsadida ta’sir ko‘rsatish tizimini yaratishdan iborat. Aniq maqsadli ta’sir ko‘rsatishning mazkur tizimini biz shartli ravishda uchta bosqichga ajratamiz: tayyorlovchi, rekonstruktiv va qo‘llab-quvvatlovchi.

*Birinchi, tayyorlovchi bosqichda* o‘smir shaxsini, uning biografiyasini o‘rganish amalga oshiriladi; biologik “zamin”, shaxs shakllangan mikromuhitning o‘ziga xos xususiyatlari, real shaxslararo munosabatlar, referent guruhlar va shaxslar aniqlanadi. Rivojlanishdagi bolalarning ehtiyojlari o‘rganiladi; muayyan tarbiyada shakllangan munosabatlar darajasi va og‘uvchi xulq mexanizmlari aniqlanadi.

Tarbiyalanuvchi to‘g‘risida axborotlar to‘plangandan so‘ng ma’lumotlar sinchkovlik bilan o‘rganiladi: intilishlar, qiziqishlar, moyilliklar, qarashlar, ideallar, fikrlar, munosabatlarning shakllangan tizimi, ustun ehtiyojlar va xulq sabablari, odatlari, Shuningdek, shaxsning qaysi ijobiy fazilatlari yo‘qolganligi va ularning qaysi birlari saqlanib qolgani, u qaysi ijtimoiy rollarni ijro qilgani va ijro qilishni hohlagani aniqlanadi.

Ota-onalar imkoniyatlari, oila va atrofdagi omillar tahlil qilinganidan so‘ng, tarbiyalanuvchining hayot faoliyati istiqbollari, uning o‘z-o‘zini namoyon qilish usullari belgilab olinadi, shaxs axloqini tuzatish va uni qayta qurishning eng maqbul rejasi tuziladi, salbiy xususiyatlari ustida ishlanadi, Shuningdek, uning ijobiy xususiyatlari yangidan shakllantiriladi.

Kuzatuvlar ko‘rsatishicha, intizom, o‘quv mashg‘ulotlarini tezroq amalga oshiriladi, zararli odatlar, jargon, yolg‘onchilik va boshqlar ko‘proq saqlanib qoladi, bu esa o‘z navbatida reja tuzishda e’tiborga olinadi. Boshlang‘ich bosqichdagi qiyinchiliklar qator ob’ektiv sabablar e’tiborga olinadi. Bu avvalambor, odatiy turmush tarzining sinishi, odatiy guruhdan yakkalanish, qat’iy rejim – bu salbiy hissiyotlarga, tarbiyachilarga nisbatan ishonchsizlik, bezovtalikka sabab bo‘ladi. Rasmiy psixologik muloqot hamda tobelik va qaramlik munosabatlari, ma’lumki, chuqur o‘zgarishlarni amalga oshirish va ayniqsa, shaxsning qarashlarini



o'zgartirish uchun etarli emas.

Ko'plab o'smirlarda, ayniqsa, jamiyatdan ajratib qo'yish holatiga birinchi marotaba tushib qolgan o'smirlarda ruhiy zo'riqish holati, sarosimalik, jabrdiydalik, hamdardlik va ishontirishga nisbatan yuqori ta'sirchanlik vujudga keladi. Huquqbuzarning bu kabi inqirozi odatda psixologik-pedagogik ta'sirga sharoit yaratib beradi. Jumladan, to'laqonli muloqot uchun hissiy qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Afsuski, huquqbuzarlarning bu davrdagi ruhiy holatining o'ziga xos xususiyatlari psixologik muloqot o'rnatish va ularga yanada samaraliroq ta'sir ko'rsatishda to'liq qo'llanilmaydi. Bu davrda psixologik muloqot o'rnatish va tarbiyalanuvchilar guruhini shakllantirishda o'smirlarning ijtimoiy-pedagogik ijtimoiy-pedagogik qarovsizligining psixologik o'zaro mosligi (mos emasligi)ni aniq ajratib olish muhim o'rin tutadi.

*Ikkinchi bosqich rekonstruktiv*, bir necha haftadan bir necha oygacha bo'lgan davrni egallaydi. U psixologik-pedagogik ta'sir tizimini, turli usullar va uslublar majmuini qamrab oladi: suhbatlar, ishontirish, tartibni tashkillashtirish, guruh va jamoalarni shakllantirish, rag'batlar va jazolarni qo'llash, majburlash.

Mazkur bosqichda qayta tarbiyalashning dastlabki holati muloqotning do'stona muhiti, o'quv-mehnat jarayoni, bo'sh vaqt, sport o'yinlari, musobaqalar, to'garaklar, zarur qarashlar, odatlarni bilvosita tarbiyalashi va zararli (masalan, sport o'yinlari davomida jargondan foydalanish sababli jarima solish) odatlarni bartaraf qilishi, tabaqalashtirilgan hissiy munosabatlarni – mehnatga nisbatan ijobiy va axloq qoidalariga xilof harakatlar, zararli odatlarga salbiy munosabatda bo'lish talab etiladi.

Xulqni tuzatish va qayta tarbiyalashning mazkur murakkab jarayonida tarbiyalanuvchining yoshga oid xususiyatlari ham, maxsus psixoterapevtik va psixofarmologik ta'sirlarni talab etuvchi turli tuman psixosomatik munosabatlarni ham, Shuningdek, o'ziga xos usullar va uslublarni ishlab chiqish talab etiladi.

*Uchinchi bosqich – qo'llab-quvvatlovchi* (reabilitatsiya qiluvchi). Mazkur bosqichdagi asosiy vazifa rekonstruktiv bosqichda erishilgan barcha muhim jihatlarni mustahkamlash va shaxsning ijtimoiy-mehnatga oid ijobiy qarashlarini

rivojlantirishdan iborat. Muhim o‘rin retsidivlar, salbiy hissiy holatlar, asabiylik belgilarining oldini olish, salbiy jihatlarini tuzatish, nomaqbul tashqi ta’sirlarga immunitetni ishlab chiqish va maxsus maktabdan chiqqandan so‘ng hayot sharoitlariga qayta moslashishni tezlashtirishga ajratiladi.

O‘z-o‘zini tarbiyalashning asosiy usuli o‘z-o‘zini tartibga solish, Shuningdek, tarbiyachi bilan yozma aloqa bo‘lib qoladi. Qayta moslashtirishda tarbiyalanuvchining faoliyati kechayotgan jamoa muhim o‘rin tutadi. Aniq maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat va jamoaviy munosabatlar retsidivlarni muvaffaqiyatli tarzda to‘sqinlik qiluvchi yagona sub’ektiv-psixologik va ijtimoiy-psixologik munosabatlarni yaratadilar.

YAkunlovchi bosqichda vujudga keluvchi psixologik qiyinchiliklar qator omillar bilan bog‘liq: tarbiyalanuvchilarning odatiy nazoratdan chiqib ketishi; avvalgi nomaqbul muhitga qaytishi; atrofdagilarning sobiq huquqbuzarga nisbatan ishonchsizligi va Shubhali munosabati va boshqalar. Mana nima sababdan qayta moslashtirish jarayoni muvaffaqiyatli va uzilishsiz o‘tishi uchun tarbiyalanuvchida himoyaning psixologik tadbirlarini ishlab chiqish o‘ta muhim.

Voyaga etmaganlar axloqini tuzatish tizimida qayta tarbiyalashning yuzlab dasturlari mavjud. Biroq, jazolovchi yondaShuv ushbu dasturlar samarasini tushirib yuborishi mumkin. Jinoyatchilarni individuallashtirilgan ravishda davolash XIX asrdan buyon ma’lum. Bu jinoyatchilarga bir marotabalik jarimalar solish tizimini himoya qilgan klassik maktabga javoban qarshi ta’sir bo‘lgan. Biroq, tarix boylar, siyosiy ta’sir doirasi keng bo‘lgan odamlar garchi aybdor deb topilsalar ham, jinoyatlarda kamroq ayblanishlari va jiddiy ayblovlar qo‘yilmaganligini ko‘rsatdi.

Ijtimoiy xodimlarning samarali faoliyati, vaqtidan avval shartli ravishda ozod qilish jinoyatchining “ikki xil” rolga oid tarzda qabul qilinishiga bog‘liq bo‘lgan. Ayrimlar ularni xaqiqiy yordamchilar sifatida ifodalaganlar, ayni vaqtda boshqalar esa ularni jazolarni nazorat qilishda nufuzli shaxslar sifatida aks ettiradilar. Qamoqxona ta’limining ikkita vazifasi mavjud: (a) tarbiyalanuvchilarga maktablar bilan qiyoslanuvchi rasmiy akademik ta’lim berish va (b) mahbuslarning xulqini qayta ijtimoiylashtirish. Bunga erishish maqsadida qamoqxonalarda

teledasturlardan, filmlardan, elementar bilimlarni qamrab oluvchi o'quv fanlari bo'yicha sinf xonalarida (ayrim hollarda, hattoki kollejlarda) tashkil etiladigan ma'ruzalardan foydalanadilar<sup>1</sup>.

*Kuchli tomonlar nazariyasining ijtimoiy ish amaliyotida qo'llanilishi.* Kuchli tomonlar istiqboli bilan ishlash ijtimoiy ishdagi inson huquqlari mavzusi bilan bog'liq bo'lgan intervensiya turlaridan hisoblanadi. Bu holatda inson yoki guruhning kuchli tomonlari unga yordam berishga chog'langan mijoz bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonida asosiy holat ekanligi ta'kidlanadi. Intervensiyaning mazkur turi tuzilmali ravishda belgilangan adolatsiz va teng bo'lmagan muloqoti ko'pchilik odamlar va guruhlarni zarur manbalardan cheklab qo'ygan. Bu erda faoliyat o'z e'tiborini inson barqarorligiga va ko'plab to'siqlarga qaramasdan u o'z muammolarini hal etuvchi usullariga qaratiladi.

Bu kabi yondaShuvning ishlab chiqilishi Kanzas universiteti ijtimoiy ish fakultetining ijtimoiy xodimlari, jumladan, Denni Seylibi tomonidan amalga oshirilgan. Bu kabi yondaShuvning asosiy prinsiplaridan ikkitasi quyidagi qoidalardan iborat: 1) "har bir inson, guruh, oila va uyushma o'zining kuchli tomonlariga ega", va 2) "har qanday atrof muhit manbalar bilan to'la"<sup>2</sup>.

Ehtiyojga javob berar ekanlar, ijtimoiy xodimlar mijozga yordam berishlari, o'zlarining kuchli tomonlarini va o'zlaridagi hamda o'z atroflaridagi kuchli tomonlarini belgilashlari, so'ngra mijozlarning talablariga tegishli javobni yaratish uchun qo'llashlari zarur.

Kuchli tomonlar yondaShuvini ehtiyojlarni qondirish jarayoniga qamrab olish uchun bir nechta jiddiy sabablar mavjud. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha siyosatdagi o'zgarishlar u yoki bu xizmatlarni ko'rsatish davomiyligi qismi bo'yicha cheklovlarga olib keladi. Urg'u yanada ko'proq qisqa va aniq vaziyatlarini hal etishga yo'naltirilgan intervensiyaga qo'yiladi. Nimaningdir etishmovchiligini yoki buzilishini izohlovchi o'tmishni tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan intervensiyalarni amalga oshirish nisbatan uzoq muddatni talab etadi.

Kuchli tomonlar yondaShuvi kelajakka yo'naltirilgan va u ko'proq qisqa vaqt chegaralari uchun mos keladi. Ushbu yondaShuv mijoz va uning avvaldan mavjud

bo‘lgan atrof-muhitining kuchli tomonlari va o‘ziga xos xususiyatlariga quriladi. Bu endigina sodir bo‘lishi lozim bo‘lgan yangi ko‘nikmalar va manbalarni egallashga umid qilishdan qulayroq.

Shunday qilib, mazkur yonda Shuvda o‘zgarishlar uchun nisbatan mustahkam asos ta’minlanadi. Bundan tashqari, ijtimoiy xodim uchun mavjud atrof-muhitda qo‘llab-quvvatlovchi tizimni, inson va uning atrof muhitidan tashkil topgan ekotizimning yangi muvozanatini qo‘llab-quvvatlovchi tizimni qurish osonroq.

### **Nazorat savollari**

1. Deviant xulq nima?
2. AQSHda tarbiyasi og‘ir bolalar va o‘smirlar bilan kim va qay tarzda faoliyat olib boradi?
3. Xorijda tarbiyasi og‘ir bolalar bilan ijtimoiy ish olib borishning alohida jihatlari.
4. Germaniyada ijtimoiy-pedagogik yordam xizmatlarining vazifalari nimalardan iborat?
5. Xorijda qochoqlar, boshpanasiz bolalar va o‘smirlar uchun mo‘ljallangan muassasalar.
6. Amaliyot faoliyat davomida tarbiyasi og‘ir bolalar bilan amaliy ish olib borishda kuchli tomonlar nazariyasini qay tarzda qo‘llash mumkin?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. AQSHda Ijtimoiy ishga kirish. Tuzuvchi E. Hamid. Kolumbiya universiteti // Ganieva M., Karamyan M.X. “Ijtimoiy ish asoslari” kursi bo‘yicha xrestomatiya. – Toshkent, 2007.
2. Ganieva M.X. Ijtimoiy ishga kirish. – Toshkent; O‘zMU, 2011.
3. Ganieva M.X. Ijtimoiy ish asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: CHASHMAPRINT, 2009. – 112 b.
4. Charles Zastrow. Introduction to Social work and social welfare. Empowering People. George Williams College of Aurora University. Printed in Canada: Brooks/Cole, Cengage Learning, 2010.
5. Ambrosino R., Ambrosino R., Heffernan J., Shuttlesworth G. Social Work

and Social Welfare: An Introduction. Sixth Edition. – Thomson Brooks/Cole, 2008.

6. Dyurkgeym E. Mehnat taqsimoti to‘g‘risida. Sotsiologiya usuli. – M.: Fan, 1990;

7. Dyurkgeym E. O‘z joniga qasd qilish: Sotsiologik etyud. – M.: Fikr, 1994.

8. Pavlenok P.D. Ijtimoiy ish asoslari: Darslik. – M: Infra-M, 1997. – 265 b.

9. Raykert E. Siyosat va amaliy faoliyat asoslari. – Nyu-York: Kolumbiya universiteti nashriyoti.

## 11-MAVZU. IJTIMOY ISH GLOBALIZATSIYASI

1. *Global dunyo va globallaShuv*

2. *Bolalarning dunyodagi holati (o‘rni). Qochoqlar global muammo sifatida*

3. *Xalqaro ijtimoiy ish: tashkilotlar va xizmatlar*

**Kalit so‘zlar:** global dunyo, globallaShuv, taraqqiyot, qochoqlar, xavflar, tashkilotlar, xizmatlar, ijtimoiy xodimlar xalqaro uyushmalari, ijtimoiy xodimlar milliy uyushmalari, ijtimoiy xodim axloq Kodeksi.

1. *Global dunyo va globallaShuv.* Birinchi marotaba “globallaShuv” atamasi amerikalik iqtisodchi Teodor Levitt (Theodore Levitt) tomonidan 1983 yilda kiritilgan. GloballaShuv ostida T.Levitt yirik xalqaro kompaniyalarning mahsulotlarini sotishning alohida bozorlarini birlashtirilishini tuShunadi.

Bugungi kunning global muammolari ostida sivilizatsiyaning kelgusidagi mavjudligi hal etilishiga bog‘liq bo‘lgan muammolar majmuini tuShunish hisoblanadi. Insoniyatning global muammolari – bu koinotning butun aholisining hayot bilan bog‘liq manfaatlariga oid bo‘lgan va hal etilishi uchun dunyoning barcha davlatlarining kuchlarini talab etuvchi muammolardir.

XXI asr – bu global dunyo. Er sayyorasining barcha qit‘alari, davlatlari va xalqlari eng turli o‘zaro uzviy aloqalar bilan birlashtirilgan. Avvalambor, bular

iqtisodiy aloqalar. Bugungi kunda har bir mahsulot va xizmatlar ishlab chiqaruvchilari, hattoki buni o‘zi bilmasa-da, global bozor tizimiga qamrab olingan. Ko‘p tarmoqli transport kommunikatsiyalari va etkazib berish xizmatlari tufayli ishlab chiqarilgan mahsulotlar sayyoramizning istalgan nuqtasiga etkazib berilishi mumkin.

Ommaviy axborotning elektron vositalari taraqqiyoti, Shuningdek mobil telefon aloqalari va Internet global tarmog‘ining rivojlanishi XXI asrda odamlar oldida sayyoramizning istalgan uzoq nuqtalarida nima voqealar sodir bo‘layotganini bir ondayoq bilib olish imkoniyatini yaratdi. Bu millionlab va milliardlab odamlar telepriemnikni masofadan boshqarish pultidagi tugmani bir marotaba bosishlari bilan yagona axborot maydoniga tushib qolishlari mumkin ekanligini anglatadi. Va ular eng fojiali hodisalarning guvohiga aylanadilar – xuddi 2001 yil 11 sentyabrda to‘g‘ridan-to‘g‘ri efirda terrorchilar tomonidan egallab olingan samolyot Nyu-Yorkdagi butunjahon savdo Markazining bitta minorasiga kelib urilishini kuzatish imkoni mavjud bo‘lgan.

GloballaShuv dunyoni haqiqatan ham bir butunga aylantiradi, bu kabi bir butunlik hattoki urush kabi favqulodda vaziyatlarda ham saqlanib qoladi. Bugungi kunda hech bir urush bir yoki ikki davlatning shaxsiy ishi, deb hisoblanmaydi. Ular albatta xalqaro hamjamiyatning e‘tiborini jalb qiladi va xalqaro tinchlik o‘rnatishga qaratilgan kuchlar kattaroq ahamiyatga ega bo‘la boshlaydi. Biroq dunyoning global bir butunlikka aylanish jarayonida insoniyat yangi tahdidlarga duch keladi. Giyohvand moddalar, qurol-yarog‘ savdosining global tarmoqlarini tashkillashtiruvchi, noqonuniy migratsiya kanallarini yurituvchi xalqaro jinoiy sindikatlari vujudga keldi. Butun sayyoramizdagi odamlarga ommaviy viruslar va grippning yangi turlari ham tahdid soladi. Ekologlar atmosferaga katta miqdordagi karbonat angidrid gazining chiqarilishi, tropik hududlarda o‘rmonlarning ommaviy kesilishi, Jahon okeanlarining neft mahsulotlari va og‘ir metallar tuzlari bilan ifloslantirilishi natijasida vujudga kelgan “issiqxona effekti” natijasida global halokat yuz berishi mumkinligi haqida ogohlantiradi.

Insoniyatning alohida xavotirlari ommaviy yo‘q qilish (OYQ) qurollarining

va birinchi navbatda yadroviy qurollarni nazoratsiz tarqatilishi bilan bog'liq. Bugungi kunda tobora ko'p mamlakatlar qurol uchun shaxsiy sanoatni yo'lga qo'ygan holda "yadroviy" mamlakatga aylanmoqdalar. Shu munosabat bilan qurolning bu kabi turi, Shuningdek, biologik va kimyoviy qurollar xalqaro terrorchi tashkilotlar uchun oson o'ljaga aylanmoqdalar. Bu esa sayyoraning har bir aholisiga tahdid soladi, chunki terrorchilarning maqsadi xalqlar va hukumatlarni hech bir aybi bo'lmagan yuzlab, minglab odamlarning fojiali o'limiga sabab bo'luvchi ommaviy teraktlar yordamida qo'rqitishdan iborat.

Adabiyotlarda "global muammolar" tuShunchasini ta'riflashning ikkita asosiy nuqtai nazari ajratib ko'rsatiladi. Birinchi qarashga muvofiq, bu kabi muammolarning sonini cheksiz kengaytirish mumkin. Ikkinchi nuqtai nazarga ko'ra global muammolar tuShunchasi mohiyatini toraytirishga intilish mavjud.

Global muammolar ro'yxatini shakllantirish uchun, butunjahon muammolari toifasiga kiruvchi muammolarni ajratib ko'rsatishda asos bo'la oluvchi mezonlarni aniqlab olish lozim.

Muammo quyidagi hollarda global bo'lishi mumkin:

- butun insoniyat manfaatlariga tegishli, jamiyat rivojlanishining ob'ektiv omili sifatida namoyon bo'ladi;
- insoniyat kelajagi uchun tahdid tug'diradi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning yanada rivojlanishiga tanazzul bilan tahdid soladi;
- hal etilishi uchun butun insoniyat harakatini talab etadi.

Bugungi kunda alohida jamiyatlarni bir-biri bilan bog'lovchi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning global tuzilmasi to'g'risida gapirish mumkin.

Globalashtirish muammolari teng darajada nafaqat iqtisodiy, balki demografik, xomashyo, bolalarning dunyodagi o'zni, kambag'allik, qurolli nizolar, qochoqlar, OITS kabi xavfli kasalliklarning tarqalishi ijtimoiy muammolarga ham tegishli.

*2. Bolalarning jahondagi o'zni. Qochoqlar global muammo sifatida.* Bolalar va inson huquqlari. YUNISEF (2006) ma'lumotlariga ko'ra, millionlab odamlar

tahqirlashning turli shakllariga, kamsitishga, tashlab ketish holatlariga duchor bo‘ladilar va aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlaridan biri hisoblanadi.

Ular uchun hayot yashab qolish uchun har kunlik kurashdan iborat. Bolalar insonlarning ko‘plab huquqlariga amal qilinmasligidan, turli suiste’mollardan aziyat chekadilar, ular kattalarga nisbatan ko‘proq tobe va himoyasizdirlar. YOmon munosabatda bo‘lish misollari quyidagilarni qamrab oladi:

- noqonuniy yoki ixtiyoriy ravishda ushlab turish;
- qurolli nizolar tufayli majburan o‘z uylaridan qochish;
- ijtimoiy yoki etnik tozalash maqsadida o‘lim yoki suiste‘mol qilish;
- ekspluatatsiya sharoitida ishlash;
- bolalar bilan savdo qilish va fohishalikka majburlash;
- oila a‘zolari tomonidan tahdidlar yoki zo‘ravonlik.

YUNISEF (2006) ma’lumotlariga ko‘ra, qurolli nizolar, OITS butun dunyo bo‘yicha bolalikka asosiy tahdid soluvchi xavflar orasida yuqori o‘rinlarni egallab turadi.

Millionlab bolalar har kuni harbiy harakatlar sharoitida hayot kechiradilar. Ko‘plar uchun – bu mavjudlikning ular bilgan yagona turi. Boshqalari esa qochishga va oxir-oqibat ular qochoqlar yoki ko‘chmanchi shaxslar sifatida ko‘pincha o‘z oilalaridan uzoqda hayot kechirishga majburdir.

Butun dunyo bo‘ylab 15 million bolalar ota-onalaridan birini yoki har ikkisini ham OITS tufayli yo‘qotganlar. Milliondan ortiq bolalar zaiflashib qolgan, chunki kasallik salomatlik va oilalar, uyushmalar, hududlar va hattoki butun bir millat uchun muammo tug‘diradi.

Ota-onalarining, vasiylarining cho‘zilib ketgan kasalligi, ko‘pincha kattalarni parvarishlash va qo‘llab-quvvatlash rolini o‘z zimmasiga olgan bolalarga katta bosim to‘g‘diradi. Aka-ukalar va opa-singillar o‘z jamiyatlarida stigmatizatsiya va tahqirlashga duch keladilar, zo‘ravonlik, yomon munosabat va eksrluatatsiyaga duch keladilar<sup>1</sup>.

*Bolalar oldida turgan boshqa xavflar.* Butun dunyodagi bolalar dalada,



fabrikada, konlarda, Shu kabi ular o'z huquqlaridan mahrum qilingan xavfli va salomatlik uchun zararli bo'lgan muhitlarda ishlashga majburdirlar. Ularning ko'pchilishi ish joylarida majburiy mehnat bilan Shug'ullanadilar.

Noqonuniy transportirovka va odamlarni qullikka sotish inson huquqlarini jiddiy ravishda buzish hisoblanadi. Har yili butun dunyo bo'ylab minglab ayollar va qizlar o'g'irlanadi, sotib yuboriladi, majburiy nikohga olinadi.

Mutaxassislarning baholariga ko'ra, butun dunyo bo'ylab 100 millionlab bolalar ko'chalarda ishlaydilar, sadaqa so'raydilar. Ularning ko'p qismi ota-ona nazoratisiz qolgan bolalar, etimlar yoki uyidan qochib ketgan bolalar<sup>1</sup>.

Himoyasiz qolgan har bir shaxs, hech bo'lmaganda bitta millat dunyo hamjamiyati uchun muammo hisoblanadi. Davlat va ko'ngillilar tashkilotlaridagi qochoqlar bilan ish olib boruvchi ijtimoiy xodimlar muammoni oldini olish, himoya qilish, xizmat ko'rsatish, reabilitatsiya va qayta tiklash bilan Shug'ullanadilar. O'z faoliyati davomida ular o'z ona vataniga xavfsiz tarzda qaytarish (repatriatsiya), qabul qiluvchi mamlakatga integratsiya qilish, ayrim hollarda uchinchi mamlakatga ko'chib o'tish prinsiplariga amal qiladilar. Dunyoning istalgan nuqtasida ko'chib kelgan shaxslarning mavjudligi gumanitar va ko'pincha xalqaro hamjamiyatdan siyosiy javoblar olishga sabab bo'ladi.

*3.Xalqaro ijtimoiy ish: tashkilotlar va xizmatlar.* Ijtimoiy Xodimlar Xalqaro Federatsiyasi (IXXF) 1928 yilda Parijda asoslangan Ijtimoiy xodimlar Xalqaro Doimiy Sekretariatining vorisi hisoblanadi. Ikkinchi Jahon urushi davrida xalqaro hamkorlik bo'yicha barcha harakatlar yo'q qilingan. Biroq 1950 yilga kelib 7 mamlakat professional uyushmalarining ijtimoiy xodimlari Ijtimoiy Xodimlarning Xalqaro Federatsiyasi faoliyatini qayta tiklash tashabbusi bilan chiqdilar. 1956 yil 5 avgustdan 10 avgustga qadar Myunxenda bo'lib o'tgan Ijtimoiy xodimlar xalqaro konferensiyasi alohida hodisa bo'lgan, mazkur konferensiya va 7 uyushmaning maxsus tayyorgarliklaridan so'ng 1956 yil 9 avgustda to'laqonli ravishda Ijtimoiy Xodimlarning Xalqaro Federatsiyasi tashkil topdi (IXXF).

Avstriya, Belgiya, Kanada, Daniya, Angliya, Fransiya, Germaniya, Gretsiya, Niderlandiya, SHveysariya va AQSH kabi davlatlar tashkilot ta'sischilariga

aylandilar.

Bugungi kunda IXXFning butun dunyo bo‘ylab ijtimoiy xodimlarning 80ga yaqin a‘zo uyushmalari mavjud. Xalqaro konferensiya IXXF tashkil topganidan so‘ng muntazam ravishda bir yilda bir marotaba o‘tkazib kelinmoqda. Har uch yilda konferensiya turli regionlarda o‘tkaziladi.

IXXF (2006) maqsadlari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy ishga kasb sifatida ayniqsa, kasbiy qadriyatlar, standartlar, etika, inson huquqlari, tan olish, ta‘lim berish va sharoitlar yaratish nuqtai nazaridan xalqaro hamkorlik orqali imkoniyat yaratish;
- ijtimoiy xodimlarning milliy tashkilotlari yoki ijtimoiy xodimlarning maxsus ittifoqlarini tashkil etishga va zarurat tug‘ilganda ular mavjud bo‘lgan milliy muvofiqlashtiruvchi organlarni tashkil etishga imkoniyat yaratish;
- ijtimoiy tashkilotlarni ijtimoiy xodimlarning ijtimoiy rejalashtirishda va milliy va xalqaro darajalarda ijtimoiy siyosatni ishlab chiqishda ishtirokini ilgari surish, ijtimoiy ishni tan olish, ijtimoiy xodimlarni tayyorlash darajasini oshirish, Shuningdek, ijtimoiy ish qadriyatlari va kasbiy standartlarini takomillashtirish.

Bu kabi maqsadlarga erishish uchun (IXXF, 2006) Federatsiya faoliyatning quyidagi turlarida ishtirok etadi:

- barcha mamlakatlar ijtimoiy xodimlari o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantiradi;
- muhokama qilish va g‘oyalar, tajriba almashinuvi imkoniyatlarini majlislar, taniShuv safarlari, ilmiy-tadqiqot loyihalarini tashkil etish, maqolalar chop etish yo‘li bilan engillashtiradi;
- ijtimoiy ish tashkilotlari va ularning a‘zolari, ijtimoiy rivojlanish va farovonlikka aloqador bo‘lgan xalqaro tashkilotlar bilan munosabatlar o‘rnatadi va ularni qo‘llab-quvvatlaydi<sup>1</sup>.

*Ijtimoiy xodim axloq kodeksi.* “Ijtimoiy xodim axloq kodeksi” Ijtimoiy xodimlar xalqaro federatsiyasi tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan. Kodeks ijtimoiy ishning ijtimoiy soha mutaxassislari tomonidan o‘z kasbiy majburiyatlarini amalga

oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan asosiy, bazaviy prinsiplari va qadriyatlari bayon qilingan hujjatni aks ettiradi.

“Ijtimoiy xodim axloq kodeksi”ning asosiy maqsadi – inson(mijoz)ning, mutaxassis(ijtimoiy xodim)ning va jamiyat(sotsiumning turli institutlari)ni mijozning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishdagi o‘zaro munosabatlari jarayonida axloqiy prinsiplari va ma’naviy (axloqiy) qarashlarini ta’riflash va aniqlashdan iborat.

Ijtimoiy ish maktablari xalqaro uyushmasining (IIMXU) faoliyati maqsadi axloq masalalaridan xabardorlik hisoblanadi. Ularning axloqiy talablarga mos ravishda harakat qilish qobiliyatlari va majburiyatlari ijtimoiy ish xizmatlaridan foydalanayotganlarga taklif etilayotgan xizmat sifatining muhim jihatlaridan hisoblanadi.

IIXF va IIMXUlarining asosiy prinsipi butun dunyo bo‘ylab faoliyat olib borayotgan ijtimoiy xodimlarni ular har bir alohida holatda duch keladigan murakkab vazifalar va ikkilanishlar ustida axloq masalalaridagi bilimlariga asoslangan holda fikr yuritishga rag‘batlantirishdan iborat.

*Ijtimoiy xodimlarning milliy uyushmalari.* Ijtimoiy xodimlarning britaniya uyushmasi (BASW) – Buyuk Britaniyadagi ijtimoiy ish va ijtimoiy xodimlarni aks ettiruvchi eng katta uyushmalardan biri hisoblanadi.

Britaniya Uyushmasi 30 yildan buyon mavjud. Ushbu yillar davomida u murakkab yo‘lni bosib o‘tdi, amaliy tajribaga ega bo‘ldi. Uyushmada ko‘p qismi Angliyada yashovchi ijtimoiy xodimlar bo‘lgan 8.500 ortiq a‘zolari mavjud.

Britaniya Uyushmasi ish beruvchilar bilan keliShuvlar tuzadi. Bu kabi shartnomalar ijtimoiy xususiy agentliklarning manfaatlarini himoya qiladilar, Uyushma a‘zolariga ijtimoiy ish bilan Shug‘ullanish va uyushma faoliyati yo‘nalishlarini targ‘ib qilish bilan Shug‘ullanish imkonini beradi. Ijtimoiy xodimlarning Britaniya Uyushmasi o‘z ustaviga ega. Unda Uyushma a‘zolarining majburiyatlari, asosiy axloqiy prinsiplari yozilgan. Uyushmaga a‘zolik ijtimoiy xodimlar tomonidan bajarilishi mumkin bo‘lgan xizmatlar sohasini kengaytiradi. Ijtimoiy xodim litsenziyaga ega va uning kasbiy tayyorgarlik darajasi Uyushma

a'zolariga qo'yilgan barcha talablarga javob berishi talab etiladi.

Uyushmaning asosiy vazifasi himoya qilishdan iborat. Bunda mijoz huquqlari kabi, turli darajadagi ijtimoiy xodimlar huquqlari ham himoya qilinadi. Vazifa barcha tomonlarning: xizmatlar iste'molchilari, ish beruvchilar, ijro qiluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashdan iborat.

Uyushma ijtimoiy qonunchilikning ishlab chiqilishi va lobbirlanishi, ijtimoiy xodimlar mehnat sharoitlarini yaxshilash, xodimlarni ijtimoiy muhitga jalb qilish bilan Shug'ullanadi. Uyushmaning a'zolari matbuot va ommaviy axborot vositalari bilan suhbatlashish va Shu yo'l bilan jamoat fikrini shakllantirishda ishtirok etadilar.

Ijtimoiy xodimlarning amaliy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari Shundan iboratki, maxsus ta'lim olgandan so'ng har bir xodim davlat mustaqil kengashida ro'yxatdan o'tadi, litsenziya oladi. Amaliy faoliyatni davom ettirish uchun har yili ish beruvchi va mustaqil kengash oldida o'z amaliyotining yuqori axloqini isbotlashi zarur.

Uyushmaning rolini ijtimoiy xodimning ko'pincha litsenziya yoki ish berishni asoslanmagan tarzda rad etuvchi ish beruvchi va mustaqil kengash oldidagi manfaatlarini himoya qilish, vujudga kelgan bahsli masalalarda masalihatlar berish tashkil etadi, ular Shuningdek, ijtimoiy xodimlarni tayyorlashning zamonaviy talablari darajasi to'g'risida ma'lumotlar taqdim qiladi.

Uyushma boshqa alyanslar bilan ham hamkorlik qiladi: ijtimoiy ish maktablari uyushmalari, direktorlar uyushmalari, kasaba uyushmalari tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi. Bu kuchlarni birlashtirishga, o'zaro munosabatlarning strategik yo'nalishlarini ishlab chiqishga yordam beradi va ijtimoiy xodim faoliyatiga nisbatan siyosiy qarashlarning o'zgartirilishiga imkoniyat yaratadi. Uyushma a'zolari imtiyozlardan: bepul maslahatlar, sug'urta qilishda, uy jihozlari, narsalar sotib olishda chegirmalardan, seminar va konferensiyalarda ishtirok etishda chegirmalardan foydalanish huquqiga egadirlar.

*AQSH ijtimoiy xodimlarning professional uyushmalari.* Ijtimoiy

xodimlarning milliy uyushmasi (NASW) Qo'shma SHtatlardagi ijtimoiy xodimlarning professional tashkilotlaridir.

AQSH Ijtimoiy Xodimlar Milliy Uyushmasi o'z siyosatini olib borishda inson huquqlarini ijtimoiy ish nazariyasi va amaliyoti qurilgan bazaviy prinsip sifatida amal qiladilar: "Insonning fuqarolik, siyosiy, madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarini ta'minlashda jamiyat mas'uliyati haqidagi savol qayta va qayta beriluvchi dunyoda ijtimoiy xodimlar o'zlari qilayotgan ishlariga to'liq ishonishlari zarur" (NASW 2000:181). Ijtimoiy xodimlar "har doim odamlar bilan bu qanday shaklda amalga oshirilmasin, g'ayriinsoniy munosabatga qarshi qat'iy harakat qilishi lozim"<sup>1</sup>.

Davlat va xususiy muassasalarda ijtimoiy xodim kasbi ijtimoiy xizmatlarni ishlab chiqish, taqdim qilish va baholash sohasidagi asosiy kasb hisoblanadi. Professional ijtimoiy xodimlar aholini ijtimoiy himoya qilish va global kontekstda xizmat ko'rsatish tizimining turli tashkilotlarida rahbar lavozimida faoliyat olib boradilar. Ijtimoiy ish kasbi ijtimoiy va iqtisodiy adolat, inson qadr-qimmatini va qadriyatlarini ta'minlashni, inson munosabatlarining muhimligini, Shuningdek, amaliyotdagi bir butunlik va layoqatlilikka asoslanadi.

Ijtimoiy ish sohasidagi moyillik, karera. Bugungi kunda amaliy ishning turli sharoitlaridagi vazifalar universitet darajalariga, bakalavr (BSW), magistr (MSW) va doktorlik (PhD yoki DSc) darajalariga egalar.

Aholining miqdor jihatidan ortib borayotgan keksalar qatlamiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish ehtiyojlarini qondirish uchun gerontologik ijtimoiy xodimlar alohida talabga ega. Ijtimoiy xodimlar Shuningdek, bolalarning tibbiy-ijtimoiy muammolarini o'rta yosh kishilarning shaxsiy va kasbiy muammolarini hal etish uchun ham zarur. Ijtimoiy xodimlar Shuningdek, jinoyatchilik va voyaga etmaganlar o'rtasidagi jinoyatlar, jumladan, ruhiy va boshqa kasalliklarga chalingan odamlarga, alohida shaxslar va oilalarga inqirozli vaziyatlarda yordam ko'rsatish bilan bog'liq muammolarni hal etishda ham yordam ko'rsatishlari talab etiladi. Kasalxonalarda ijtimoiy xodimlar sonining ortishi va ushbu shaxslarning ehtiyojlarini qondirishda uzoq muddatli xizmatlar ko'rsatish, kelgusida ularni

parvarishlashni ta'minlash kutilmoqda<sup>1</sup>.

### Nazorat savollari

1. GloballaShuv o'zi nima?
2. Zamonaviy dunyoning global muammolari nimalardan iborat?
3. GloballaShuv sharoitida ijtimoiy xodimlar kasbiy faoliyati ob'ektlarini aytib o'ting.
4. Ijtimoiy ishning xalqaro uyushmalarini sanab o'ting.
5. Ijtimoiy ishning milliy uyushmalarini sanab o'ting.
6. IIMXUning asosiy maqsadi nimadan iborat?
7. Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassislar tayyorlashning asosiy yo'nalishlari?
8. Jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichida ijtimoiy ish rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ambrosino R., Ambrosino R., Heffernan J., Shuttlesworth G. Social Work and Social Welfare: An Introduction. Sixth Edition. – Thomson Brooks/Cole, 2008.
2. Bauman 3. GloballaShuv. Inson va jamiyat uchun oqibatlar. Ingliz tilidan tarjima. — M.: “Ves Mir” nashriyoti, 2004. <http://yanko.lib.ru>
3. Amnesty International. (2003). *Amnesty International report 2003*. New York: Author. Available: [http://www.amnesty.org/shop/index/ISBN\\_0862103290](http://www.amnesty.org/shop/index/ISBN_0862103290)
4. Association of World Citizens. (2006a). *A human manifesto*. San Francisco: Author. Available: <http://www.worldcitizens.org/manifesto.html>
5. Raykert E. Ijtimoiy ish va inson huquqlari. Siyosat va amaliy faoliyat asoslari. Kolumbiya universiteti nashriyoti, Nyu-York.

## 12-MAVZU. O'ZBEKISTONDA IJTIMOY ISH RIVOJLANISHI

1. Ijtimoiy yordam ko'rsatishning madaniy va tarixiy asoslari

## 2. O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari

### 3. Akademik rivojlanish: O‘zbekistonda ijtimoiy ish bo‘yicha ta’lim

**Kalit so‘zlar:** madaniy va tarixiy asoslar, mexanizm, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, mahalla, xayriya, akademik rivojlanish, institutsionallashtirish.

1. *Ijtimoiy yordam ko‘rsatishning madaniy va tarixiy asoslari.* Turli davlatlar xalqlariga qadimdan yaqindan yordam ko‘rsatish, hamdardlik bildirish va xayriya qilish xos bo‘lgan. Bu jihatlar jihatlar O‘zbekiston xalqi uchun ham xos. Ular saqlash va rivojlantirish lozim bo‘lgan milliy qadriyatlar, an’analar va urf-odatlarining asosini ifodalaydi. Bu bugungi kunda, odamlar, ayniqsa, yoshlarning tafakkurida gumanitar va demokratik qadriyatlarni mustahkamlash zarurati bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan yangi ijtimoiy munosabatlarni yaratish darajasiga chiqqan davrda juda muhim.

Mamlakatni isloh qilish, bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida davlatning ustuvor vazifasi jamiyatdagi har bir insonga munosib hayotni ta’minlashdan iborat. Oxirgi o‘n yilliklarda vujudga kelgan, amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar kontekstida ijtimoiy muhofazaga muhtoj toifalarni qo‘llab-quvvatlashning amaliy zarurati tadqiqotchilarni ijtimoiy hayotning ming yillar davomida to‘plangan ijtimoiy yordam usullariga murojaat qilishga majbur qilmoqda.

“Ijtimoiy ish” atamasi O‘zbekistonda MDHning boshqa davlatlaridagi kabi nisbatan yaqin yillarda – o‘tgan asrning 80-yillar oxirlari 90-yillar boshlarida qo‘llanila boshladi. Mazkur G‘arbga oid atamaning mamlakatimiz ijtimoiy amaliyotiga ko‘chirib o‘tkazilishi yagona geosiyosiy makonning parchalanishi, Shuningdek, aholining turli qatlamlarini himoya qilish va qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyojlarini shakllantirish, uni tashkillashtirish shakllarini belgilash bilan bog‘liq. Ijtimoiy ish fenomeniga murojaat qilishning muhim omili tafakkurning problematika va multimadaniy jihatdan qaraladigan muayyan turining rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

O‘zining tarixiy rivojlanishida zamonaviy O‘zbekiston hududida muhtojlar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishning turli shakllari qo‘llanilgan – xayriyadan to

ijtimoiy himoya borasida davlat tizimini tashkillashtirishga qadar. Ijtimoiy yordamning dastlabki ko‘rinishlari insoniy tabiiy intilishida, o‘zini boqolmaydiganlar haqida g‘amxo‘rlik qilishda namoyon bo‘lgan. Uning asosiy shakllari ijtimoiy naslga oid, Shuningdek, xo‘jalik ishlarida yordam ko‘rsatish, nasl, oila, uyushma doirasida o‘zaro yordam ko‘rsatish va himoyadan iborat bo‘lgan. Aholining nasliy uyushmasida birdamlik, urug‘ a‘zolarining an‘analar doirasidagi o‘zaro aloqalari namoyon bo‘lgan.

Qashshoqlarga moddiy yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan xayriya an‘anasi muhtojlarga ko‘ngilli tarzda pul, mulk va xizmatlarni taqdim qilishda namoyon bo‘lgan. Odamlarni xayriya amallarini sodir etishga majburlagan asosiy sabablar diniy, ma‘naviy sabablarga, insonparvarlik tufayli boshqa odamlarning farovonligiga ko‘maklashishga asoslangan. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, bularning bari tashqi majburlash natijasi emas, balki o‘z istagi bilan va ongli ravishda amalga oshirilgan harakatlar demakdir.

Ijtimoiy tadbirlar tizimi haqida fikr yuritish imkonini beruvchi dastlabki yozma manba zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” hisoblanadi. Unda zardushtiylik diniga e‘tiqod qilgan davlatlar tuzumi va ijtimoiy siyosati haqidagi ma‘lumotlar mavjud. Xayriya manzilli yordam ko‘rsatish usuli sifatida oddiy fuqarolar uchun an‘anaviy xulq qoidalari bo‘lgan, ruhoniylar vakillari va zardushtiylik bilan bog‘liq tashkilotlar zimmasiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish – yordam ko‘rsatish, qo‘llab-quvvatlash, xayriya tadbirlarini amalga oshirish vazifasi yuklatilgan. Hukmdorlar, boy fuqarolar, butxonalar xayriya tushliklarini, kambag‘al va qashshoq qardoshlariga sadaqalar tarqatishni tashkillashtirganlar. Jamoalarda muhtoj oilalarga moddiy yordam ko‘rsatish umumiy jamoaviy jamg‘arma hisobidan ko‘rsatilgan.

Jamoadagi ijtimoiy yordam mexanizmining o‘ziga xos xususiyatlari har bir inson o‘zi tegishli bo‘lgan an‘anaviy tuzilmalar himoyasi ostida bo‘lishidan iborat. Mazkur tuzilmalar o‘z a‘zolariga yordam ko‘rsatuvchi oila va jamoani qamrab olgan. Shunday qilib, O‘zbekiston hududidagi qadimiy jamoa tarbiya, ishga joylashtirish, bo‘sh vaqt kabi muammolarning ahamiyatli qismini hal etgan va



shaxs, oila, guruh darajasida ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha o'ziga xos jamoaviy markaz bo'lib xizmat qilgan.

Qadimda yordam ko'rsatish va jamoa a'zolarini qo'llab-quvvatlash shakllaridan biri *xashar* – jamoaning uy, ko'prik, to'g'on, kanallar qurishdagi xolis va ko'ngilli yordami bo'lgan. Bu kabi ko'ngilli yordam odamlar orasidagi ijtimoiy birdamlikni mustahkamlagan va ishning yoppa hajmini bajarish uchun qo'shimcha ishchi kuchi talab etilgan hollarda ixtiyoriy ravishda tashkillashtirilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'zaro yordam ko'rsatishning ushbu qadimiy urf-odati bugungi kunda ham saqlanib qolgan.

O'rta Osiyo xalqlari tarixida musulmonlik davri davom etdi va ruhoniylarning ijtimoiy ishdagi ishtirokining kengayishiga olib keldi. Bu erda davlat boshqaruvi dunyoviy bo'lganligiga qaramasdan islom dunyosining roli ulkan bo'lgan. Bu islom qadriyatlarining muhtoj fuqarolarni davlat darajasida ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni amalga oshirilishiga ta'sirini belgilab berdi.

Muhtoj kishilarga ijtimoiy yordam ko'rsatish shakllari kengayib bormoqda, chunki jamiyat madaniy qadriyatlarining yangi turlariga ehtiyoj sezmoqda. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va yordam ko'rsatish vazifalari masjidlar, Shuningdek, ijtimoiy-diniy uyushmalarga yuklatilgan. YOrdamning eng keng tarqalgan individual shakli islomning asosiy jihatlaridan biri zakot berish hisoblanadi.

“Zakot” atamasi sadaqaga, ya'ni, xususiy shaxslarning kambag'allarga ko'ngilli ravishda ehson qilishga zid bo'lgan, qonun bilan belgilangan xayr-ehsondir. Zakotni faqatgina aholining kambag'al qatlamlarining ehtiyojlari uchun berish lozimligi diqqatga sazovor. Zakotdan tashqari yana kambag'allarga “Ramazon Hayiti” munosabati bilan yoki ro'za oyining tugashi munosabati bilan tarqatiluvchi “fitr-sadaqa” ham mavjud. Fitr-sadaqa qarzlardan holi bo'lgan barcha musulmonlar uchun farz. Bu holatda kam ta'minlangan fuqarolarning manzilli ijtimoiy himoyasi aniq namoyon bo'ladi.

Mamlakatning ijtimoiy-madaniy tizimida ijtimoiy yordamning o'ziga xos “vositasi” bo'lib xizmat qilgan “savob”<sup>1</sup> va “himmat”<sup>2</sup> kabi axloqiy mezonlar ham mavjud. Ularning mohiyati Shundan iboratki, u ko'pincha maxfiy ravishda amalga

oshiriladigan xolis yordam ko‘rinishida taqdim qilinadi. Ijtimoiy yordamning jamoaviy shakllari o‘rtasida sadaqa qilish, tibbiy yordam, maxsus berul kasalxonalarni tashkillashtirish shakllari keng tarqalgan<sup>1</sup>.

O‘zbekistonda ijtimoiy ish o‘zgarib borayotgan madaniy-tarixiy istiqbolda shakllanishning uzoq tarixiga ega bo‘lgan murakkab jarayonni aks ettiradi. Ijtimoiy ish filantropiya, xayriya va faoliyatning o‘xshash turlaridan nafaqat kundalik muammolarni hal etishga yo‘naltirilgan yordam ko‘rsatish bilan, balki qiyinchiliklarni engib o‘tish texnikasi va o‘z-o‘ziga yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan qarashlari bilan farq qiladi. Buni insonni har qanday hayotiy vaziyatda o‘z muammolarini faol hal etishga o‘rgatish, deb izohlash mumkin.

SHarq, sivilizatsiya beshigidan biri bo‘lgan holda betakror madaniyatlar elementlari aks etgan umumiy tipologik jihatlarga ega. Ularga ko‘plab mamlakat va xalqlar uchun xos bo‘lgan asosiy madaniy ustunlik – an‘ana va sotsiologiyada “an‘anaviy jamiyat” deb nomlanuvchi, ya‘ni avloddan avlodga o‘tib keluvchi urf-odatlar, me‘yorlar, marosimlarga qat‘iy amal qilinuvchi tafakkurning qonunlashtirilgan usullari tegishli.

Individual va ommaviy tafakkurning turli darajalarida namoyon bo‘luvchi muhim jihatlardan biri, yoshi kattalarni hurmat qilishdan iborat. SHarqda yashovchi insonlarning o‘zaro munosabatlarining mazkur ko‘rinishi (paternalizm prinsipi) O‘zbekistonda saqlanib qolgan va ma‘naviy-axloqiy darajada saqlanib qolgan. Oila yoki urug‘da, jamoada barchaning fikri tinglanadi, biroq har doim kim donishmandroq yoki yoshi ulug‘roq bo‘lsa, o‘sha insonning fikri e‘tiborga olinadi. Jamoaviylikning ustunligi sharq madaniyatining barcha darajalariga xos bo‘lgan: maishiy, ishlab chiqarish, ijtimoiy. Odatda, SHarq kishisi o‘zini faqatgina muayyan guruh tarkibida tasavvur qilgan. Tarbiya qadimdan har bir shaxs o‘zini “biz”ning bir qismi sifatida anglangan ijtimoiy psixologiya asosida amalga oshirilgan.

Mustaqillik yillarida qozonilgan huquq va erkinliklar tarixiy rivojlanish jarayonida to‘plangan ma‘naviy, axloqiy va ruhiy qadriyatlarni o‘zaro muvofiqlashtirdi. Shunday qilib, ommaviy hamjihatlik va xotirjamlikka intilish,

jumladan, muammolarni bartaraf qilish, mavjud narsalar bilan qanoatlanishga intilish sharq kishisi mentalitetining o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

O'zbekistonda mahalliy o'z-o'zini boshqarish shakliga mahalla – qo'shnilar uyushmasi kiradi. O'zbek mahallasi ming yillik tarixga ega va muhtojlarga ijtimoiy yordam ko'rsatishning tayanchi hisoblanadi. Bu erda oilaviy-maishiy urf-odatlar va marosimlar saqlanadi va avloddan avlodga etkaziladi, bevalar va ularning bolalariga ma'naviy-moddiy yordam ko'rsatiladi, etim bolalarni tarbiyalash, ularni muayyan hunarga o'rgatishga alohida urg'u berilgan.

Zamonaviy O'zbekistonda mahallaning xayriya vazifalari nafaqat saqlab qolingan, balki doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Buning uchun mustahkam huquqiy asos yaratilgan, chunki davlat vazifalarining ustuvor yo'nalishlaridan biri O'zbekiston rivojlanishining milliy modelidan kelib chiquvchi, ayrim vazifalarni izchillik va bosqichma-bosqich o'z-o'zini boshqaruvchi mahalliy boshqaruv organlariga berishdan iborat<sup>1</sup>.

Aynan Shu sababli mahalla ijtimoiy ish rivojlanishida favqulodda ahamiyat kasb etadi. U o'zbek xalqining fuqarolar o'z-o'zini boshqarishining qonun tomonidan tan olingan mexanizmi sifatida madaniyat va ma'naviyatning saqlovchisiga aylandi. 10 000 dan ortiq mahallalar tarmog'i mamlakatning butun maydonini qamrab olgan va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashning eng muhim bo'g'ini hisoblanadi.

Mahallaning xayriya vazifalari doimiy ravishda takomillashib boradi. Shunday qilib, jamoa a'zolari ish nizolar va ajralishlarga etib borganda, yosh oilalarni mustahkamlashga intiladilar. Mahalla qo'mitalari yoshlarni yarashtirish uchun barcha kuchlarini sarflaydilar va imkon topilmagandan so'nggina sud organlariga ajralish uchun ish ochishga ruhsat beradilar.

Mahallaning moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashdagi alohida o'rni oilaning qayg'uli kunlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Mahalla vafot etgan kishini dafn marosimini tashkillashtiradi, mahalla aholisini sodir bo'lgan ishdan xabardor qiladi, mahalla qo'mitasi raisi esa jarayonda shaxsan ishtirok etadi va uni barcha ishlarni boshqaradi. Boshiga ish tushgan oila kam ta'minlangan bo'lsa, unga

yuqorida aytib o‘tilgan ma’naviy yordamdan tashqari mahallaning ijtimoiy yordam jamg‘armasidan ma’lum miqdordagi moddiy yordam ham ajratiladi. Mazkur jihatlari tufayli mahalla aniq manzilli ijtimoiy ish va yordam instituti hisoblanadi<sup>1</sup>.

Shubhasiz, O‘zbekiston tarixiga qisqacha sayohat ijtimoiy ish faqatgina “xayriyaning dunyoviy varianti”, degani emas<sup>2</sup>. Haqiqatan ham, ijtimoiy ishning chuqur insonparvarlik ildizlarini alohida ta’kidlagan holda diniy xayriya bilan Shug‘ullanuvchi odamlar va zamonaviy ijtimoiy xodimlar o‘rtasidagi farqni ko‘rsatib o‘tish zarur. Xayriya bilan Shug‘ullanuvchi odamlarni harakatlantiruvchi kuch ma’naviy burch hissi va ko‘rsatilayotgan yordamning kattaligi va uzoq muddatlilik bilan o‘lchanuvchi yaxshilik qilishga intilishdan iborat bo‘lgan. Ijtimoiy rivojlanish “xayriya” tuShunchalarining mohiyati va ta’riflariga o‘zining tuzatishlarini kiritgan. Ular tarix davomida o‘zgarib borgan, biroq inson har doim ham qiyinchiliklarga mustaqil ravishda qarshi tura olmasligini va davlat yordami ularning barchasiga ham etib bormasligini anglashi o‘zgarmas bo‘lib qolgan. Shu sababli, odamlarga ixtiyoriy ravishda yordam ko‘rsatish va ularni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatiga ega bo‘lganlarning (moddiy va ma’naviy) yordami nafaqat xayriya faoliyatining, balki umuman ijtimoiy ishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Biz T. Shaninning quyidagi fikriga to‘liq qo‘shilamiz: “Ijtimoiy ish – bu yangi kasb va akademik fan sifatida shakllanib borayotgan madaniy fenomen”, va “xayriya va ijtimoiy ishni faqatgina umumiy altruistik qarashlar birlashtiradi”<sup>3</sup>.

Haqiqatan ham, mazkur tuShunchalarning qiymati bir-biriga juda yaqin, biroq bir xil emas, va ularni chegaralash lozim. Xayriya Shubhasiz, professional ijtimoiy ishdan farq qiladi, boshqa tashkiliy ibtidolarga quriladi. Ijtimoiy ish maxsus tashkillashtirilgan muassasalar va tashkilotlarning tashkiliy-boshqaruv tuzilmalari, me’yoriy-huquqiy bazasi asosida qat’iy belgilab qo‘yilgan. Shu bilan birga, XIX asr oxiriga kelib aynan xayriya tashkilotlari etakchilari kambag‘allarga yordam ko‘rsatishga ixtisoslashtirilgan odamlarga maxsus tayyorgarlik zarur, degan fikrga keldilar. Ijtimoiy xodimlarni tayyorlashning ibtidosi bo‘lib xizmat qilgan dastlabki kurlarning ochilishi Buyuk Britaniya, Germaniya va AQSH davlatlaridagi Xayriya

uyushmalarining faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan.

Bugungi kunda xayriya muhojirlarga turli ijtimoiy tashkilotlar orqali ijtimoiy va moddiy yordam ko‘rsatgan holda, ijtimoiy xizmatlar va boshqalarning ijtimoiy dasturlarini moliyalashtirishning qo‘shimcha manbalari bo‘lgan holda professional ijtimoiy ish bilan uzviy aloqada faoliyat olib boradi. Shunday qilib, O‘zbekistonda ijtimoiy ishning rivojlanish jarayonida xayriya faoliyati jamiyatning yaxshi moslashtirilmagan a‘zolarini ijtimoiylashtirish uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘lgan davlat tuzilmalarining faol ishtirokida muhojirlarga noprofessional yordam sifatida davom etib kelmoqda.

Zamonaviy O‘zbekistonda, ayniqsa, ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar muvaffaqiyati madaniy-tarixiy merosning doimiy qayd qilib borilishini talab etadi. Chunki, faqatgina vorisiylik asosida, tarixiy va zamonaviy holatlarni o‘zaro muvofiqlashtirish asosida ijtimoiy rivojlanishning yangi pillapoyasiga erishish ta‘minlanadi, ijtimoiy ish esa faoliyat turi sifatida undagi muhim tarkibiy qism sifatida namoyon bo‘ladi.

2. *O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari.* Ijtimoiy siyosat har qanday zamonaviy davlatning asoslari amaldagi qonunchilikda belgilab qo‘yilgan ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi. Bu – davlatning jamiyatning barcha fuqarolarining manfaatlarini himoya qilish; muayyan ijtimoiy guruhlar va individlarni ijtimoiy himoya qilish faoliyati demakdir.

Nisbatan keng ma‘noda ijtimoiy siyosat hukmron tuzilmalarning jamiyatdagi muvozanat va barqarorlikni o‘rnatishga yo‘naltirilgan ijtimoiy hayotga ta‘sir ko‘rsatish mexanizmlari va usullari majmui sifatida tadqiq qilinadi. Tor ma‘noda ijtimoiy siyosat davlat tomonidan aholi bandligi va ijtimoiy himoyasi, ta‘lim, sog‘liqni saqlash jihatidan amalga oshiriladigan institutsionallashtirilgan tadbirlar majmui sifatida ifodalanadi.

Ijtimoiy siyosat sohasiga odamlar va jamiyatning aholining zaif qatlamlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashdan tortib, ularning umuman jamiyatning barqaror rivojlanishi va faoliyat olib borishi bilan bog‘liq bo‘lgan hayot faoliyatining turli jihatlari qamrab olingan. Shunday qilib, tahlil qilinayotgan hodisaning mavjud

ta'riflarida urug'lar turlicha qo'yilgan, biroq ularning barchasi ijtimoiy siyosat Shug'ullanuvchi masalalar doirasini belgilab beradilar. Bu – davlatning jamiyatning barcha a'zolarining manfaatlarini himoya qilish va ular uchun o'z imkoniyatlarini to'laqonli amalga oshirilishi uchun sharoitlarni yaratish; jamiyatning ijtimoiy sohasini rivojlantirish; ijtimoiy keskinliklarni bartaraf qilishning preventiv tadbirlarini amalga oshirish; muayyan ijtimoiy guruhlar va individlarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha faoliyati.

*Ijtimoiy siyosat ob'ekti* amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat munosib hayot va barcha huquq va erkinliklarga amal qilinishini kafolatlashi lozim bo'lgan barcha fuqarolar yoki aholining ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lgan muayyan guruhlari.

*Ijtimoiy siyosatning asosiy sub'ekti* davlat hisoblanadi. Ijtimoiy siyosat sub'ektlari sifatida davlatdan tashqari davlat idoralari va muassasalari, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari, nodavlat tashkilotlari (ijtimoiy, xalqaro, xayriya jamg'armalari, diniy uyushmalar), tijorat tuzilmalari, ijtimoiy xodimlar va boshqa professionallar, volontyorlar, fuqarolar namoyon bo'ladi.

Aksariyat ijtimoiy davlatlarning ijtimoiy siyosati qator prinsiplarga asoslanadi, ularning orasida ijtimoiy adolat prinsipi, individual ijtimoiy mas'uliyat prinsipi, ijtimoiy birdamlik prinsipi, ijtimoiy sheriklik prinsipi, ijtimoiy kafolatlar prinsipi va boshqalar asosiy prinsiplar hisoblanadi. U yoki bu prinsiplar muayyan davlatning ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda ustuvor hisoblanadi va o'zgarishlarga duch keladi, biroq ularning asosida doimo insonparvarlik va ijtimoiy adolat qadriyatlarini yotadi. Har bir mamlakatda davlat ijtimoiy siyosati tizimi tarixiy sharoitlarni e'tiborga olgan holda shakllantirilgan va hal etilayotgan vazifalarning o'xshashligi va bir turliligiga qaramasdan, yondaShuvlar, usullar va tashkiliy masalalarda muayyan farqlar mavjud.

Sobiq Ittifoq sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash ijtimoiy ta'minot va sug'urta tizimi orqali amalga oshiriladi. Butun sovet davri davomida ijtimoiy ta'minot sxemalari konfiguratsiyasi mafkuralashtirilgan va hukumat siyosiy qarashlari, kuchli ijtimoiy tashkilotlarning mavjudligi yoki mavjud

emasligiga bog‘liq ravishda o‘zgarib turgan. Ijtimoiy himoyaning avval mavjud bo‘lgan modeli asosan davlat byudjeti hisobidan, ijtimoiy ta‘minot jamg‘armalarining byurokratik taqsimlash tizimi asosida moliyalashtirilgan. Pensiya va nafaqalarni to‘lash bilan bir qatorda ta‘minotning quyidagi ko‘rinishlari ham mavjud: professional-texnik ta‘lim va nogironlarga qayta ta‘lim berish, ularni ishga joylashtirish, nogironlarga bepul protez-ortopedik yordam ko‘rsatish va maxsus transport vositalari bilan ta‘minlash va h.k.

1991 yilda mustaqillikka erishilgandan so‘ng, O‘zbekiston hukumati tomonidan mamlakatni yagona butunjahon maydonga olib kirish va bozor iqtisodiyotini yaratish maqsadida iqtisodiy islohtlarni amalga oshirish yo‘nalishi e‘lon qilindi. Bozor islohotlarini amalga oshirish jarayonida davlatning ijtimoiy siyosatidagi asosiy strategik maqsadlari avvalambor, oilaning, har bir muayyan insonning hayot darajisi va farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan. Ushbu yo‘nalish ijtimoiy siyosatning o‘tish davridagi mohiyatini, amalga oshirilayotgan islohotlarning kelgusidagi strategiyasini ifodalaydi.

O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq davlat aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlari – ko‘p bolali va kam ta‘minlangan oilalar, yolg‘iz keksalar, etim-bolalar, nogironlar manfaatlarini har tomonlama himoya qilishga alohida e‘tibor qaratadi. Aholini ijtimoiy himoya qilishning real iqtisodiy vaziyat, mavjud manbalar va imkoniyatlarni e‘tiborga olgan holda yangi mexanizmi yaratildi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosat mexanizmining eng muhim yo‘nalishlari orasida quyidagilar mavjud: fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarda kafolatlangan barcha huquqlariga amal qilishni ta‘minlovchi me‘yoriy va institutsional bazani shakllantirish; aholining “ijtimoiy o‘z-o‘zini himoya qilish” imkoniyatlarini faollashtirishning amaliy mexanizmalri va sharoitlarini yaratish; aholining alohida qatlamlarini manzilli himoya qilish maqsadida me‘yoriy, institutsional va manbali asoslarini ishlab chiqish va h.k. Mazkur siyosatni amalga oshirishda turli ijtimoiy tizimlar ishtirok etadi: ijtimoiy sug‘urta, ishsizlarni qo‘llab-quvvatlash, kam ta‘minlangan oilalarga

yordam ko‘rsatish, fuqarolarning alohida toifalari uchun imtiyozlar taqdim qilish va ko‘plab boshqalar.

O‘zbekistonning yangi iqtisodiy munosabatlarga o‘tish jarayonida aholining ko‘p qismi murakkab ijtimoiy holatga tushib qoldi. Mazkur vaziyat mamlakatda bozor munosabatlariga o‘tishning har bir bosqichining o‘ziga xos xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimining rivojlanishiga sabab bo‘ldi. O‘tish davrida islohotlarni amalga oshirishning asosiy prinsiplaridan biriga amaliyotda to‘lovlar (pul ko‘rinishidagi yoki moddiy) shaklida ijtimoiy sug‘urta va ijtimoiy yordam orqali amalga oshirilgan “kuchli ijtimoiy himoya” prinsipi aylandi.

O‘zbekistonda davlat ijtimoiy siyosati bozor islohotlarining barcha bosqichlarida muammolarning etarli darajada keng doirasini qamrab olgan, ular sirasiga – aholi daromadlarini tartibga solish, bandlikni ta‘minlash va yangi mehnat munosabatlarini shakllantirish, aholining alohida toifalari va guruhlarini ijtimoiy himoya qilish va qo‘llab-quvvatlash, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ta‘lim tizimlarini rivojlantirish kiradi. Iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichidagi ijtimoiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlari fuqarolar daromadlarini narxlar liberallashtirish va inflyasiya darajasining ortib borishi bilan bog‘liq ravishda himoya qilish, respublika iste‘mol bozorini himoya qilishdan iborat bo‘lgan.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlarning butun majmui aholi turmush darajasining keskin pasayishining oldini olishga sabab bo‘ldi. Respublikada bozor munosabatlariga o‘tish Shuningdek, ijtimoiy ko‘rsatkichlarning keskin pasayib ketishiga olib kelmadi, ayrim yo‘nalishlar bo‘yicha esa hattoki o‘sish kuzatildi. Masalan, aholining daromadlar darajasi ko‘rsatkichiga ko‘ra keskin “tabaqalanish” sodir bo‘lmadi, biroq O‘zbekistondagi iqtisodiy islohotlar ne‘mat va xizmatlarning teng taqsimlanishini ham yo‘qqa chiqardi.

Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashib borishi bilan, xalqning mentaliteti va turmush tarzini e‘tiborga olgan holda aholining ijtimoiy muhofazaga eng muhtoj qatlamlarini aniqlashni taqozo qilgan manzilli ijtimoiy himoya mexanizmi amalga



oshirilgan. Manzilli ijtimoiy himoya mexanizmidagi markaziy o‘rinni yordam unga muhtoj bo‘lgan odamlar orasida taqsimlanishini ta‘minlovchi fuqarolarning mahalliy o‘z-o‘zini boshqarishning ana’anaviy tarixiy instituti bo‘lgan mahalla muhim o‘rin tutadi. Bu kabi yondaShuv aholi orasida ko‘p asrlik ildizlarga ega va aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan vositalarni eng maqbul tarzda manzilli taqsimlanishini ta‘minlaydi. Shu bilan birga davlatning, ayniqsa, aholini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni vositalar bilan ta‘minlash sohasidagi roli pasaymaydi. O‘zbekiston musatqilligining birinchi kunlaridanoq amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning yorqin misoli Shundan iboratki, ijtimoiy sohaga har yili Davlat byudjetining barcha harajatlarining yarmidan ortig‘i yo‘naltiriladi, bu esa o‘z navbatida boshqa davlatlarning amaliyotida juda kam uchraydi.

Respublikadagi qonunchilik va rasmiy hujjatlarda keltirilgan ijtimoiy siyosat jamiyatning har bir a‘zosi uchun munosib hayotni ta‘minlashga yo‘naltirilgan va biz davlatimiz faoliyatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bevosita ta‘sir ko‘rsatishning asosiy me‘yorlari va huquqlarini qamrab olgan. Ular asosida ijtimoiy qonunchilik rivojlantirilgan. Shunday qilib, 1991 yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun (yangi tahrirda 2008 yilda qabul qilingan) imkoniyati cheklangan odamlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning milliy modelini shakllantirishga asos bo‘lib xizmat qildi. O‘zbekiston bolalar, alohida ehtiyojlari mavjud shaxslarning huquq va erkinliklari sohasida qablu qilingan asosiy xalqaro shartnomalarga, paktlarga, deklaratsiyalarga, konvensiyalarga qo‘shildi.

O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining eng ahamiyatli yo‘nalishlaridan biri ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimining shakllanishi, aholi bilan ish olib borishda fuqarolarga samarali ijtimoiy yordam ko‘rsatish imkonini beruvchi zamonaviy uslublar va texnologiyalarni keng qo‘llashdan iborat. Aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish imkoniyati mahalliy boshqaruv organlarida – hokimiyatlarda ijtimoiy xizmatlarning hududiy tarmog‘ini tashkillashtirish va rivojlantirish va ijtimoiy ish, ijtimoiy pedagogika va amaliy psixologiya sohasida mutaxassilarni tayyorlash,

ishlari maqbul ravishda amalga oshirilganda haqiqatga aylanishi mumkin.

Zamonaviy O‘zbekiston sharoitida aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish tizimi alohida shaxslar, oilalar yoki guruhlarining moslashtirilishiga, ijtimoiy reabilitatsiyasiga yo‘naltirilgan ijtimoiy-gumanistik faoliyatning muayyan usullari sifatida namoyon bo‘ladi.

Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda O‘zbekistonda muhtoj fuqarolar zarur ko‘mak va yordam olishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy muassasalarning yangi tarmog‘ini yaratishga erishildi. Keksalar, bolalar, nogironlar haqida g‘amxo‘rlik qilish asosan Mehnat munosabatlari va bandlik vazirligi tizimi orqali, Shuningdek, o‘z-o‘zini boshqarish ijtimoiy tashkilotlari (mahalla), vazirliklari va idoralari, IIV muassasalari tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu kabi muassasalar sirasiga fuqarolarning turli toifalariga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish markazlari, aholiga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish markazlari, voyaga etmaganlar, ayollar uchun ijtimoiy-reabilitatsion markazlar, oila va bolalarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish hududiy markazlari kiradi.

Faqatgina “Ijtimoiy himoya yili” bilan bog‘liq ravishda 26 ta qonun va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ular orasida “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”, “Xayriya to‘g‘risida”, “Yod tanqisligi kasalliklarining oldini olish to‘g‘risida”, “Ishga qabul qilish uchun minimal yosh Konvensiyasini ratifikatsiyai qilish to‘g‘risida” (Jeneva, 1973 yil 26 iyun), “Bolalar mehnatining eng og‘ir shakllarini ta‘qiqlash va yo‘q qilishning kechiktirib bo‘lmas chora-tadbirlari to‘risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilish to‘g‘risida”gi (Jeneva, 1999 yil 17 iyun) Qonunlar alohida e‘tiborga molik. Mamlakatda ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda, boquvchisini yo‘qotgan bolalarga davlat e‘tibori va g‘amxo‘rligi kuchaytiriladi, ota-onasini yo‘qotgan bolalar uchun mo‘ljallangan bolalar uylari va ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning moddiy-texnik bazasini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, aholining kam ta‘minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash kuchayib bormoqda.

Alohida ehtiyojlari va talablari mavjud bo‘lgan bolalarning ta‘lim olishi

muhim ahamiyatga ega. Olingan ta'lim darajasi bevosita uning ijtimoiy reabilitatsiyasiga, jamiyatga moslashuvi va integratsiyasiga bog'liq. Oxirgi yillarda alohida e'tibor ruhiy va jismoniy rivojlanishida o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lgan bolalarning ham bola tomonidan, ham u mansub bo'lgan jamiyat va atrof muhit tomonidan o'zaro hamkorlikdagi harakatlarni talab etuvchi inklyuziv ta'limiga alohida qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishdagi ilk qadamlar tashlangan va shu asosda umumta'lim jarayonida inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich rivojlantirishning izchil siyosati amalga oshirilmoqda.

Albatta, inklyuziv ta'limning yanada rivojlanishi quyidagilardan iborat bo'lgan qator muammolarni hal etish bilan bog'liq: me'yoriy-huquqiy bazani yaratish; integratsiya jarayonining ilmiy-tashkiliy ta'minoti; barcha ishtirokchilarning psixologik tayyorlanganligi; integratsiyalangan ta'limning milliy modelini yaratish va kning o'quv-metodik ta'minoti.

Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni va mamlakat fuqarolarini ijtimoiy himoya qilishni amalga oshirishda nodavlat sektori tobora kattaroq ulushga ega bo'lmoqda. U odamlarning ijtimoiy ehtiyojlariga egiluvchanlik va tezkor sur'atlarda javob qaytaradi. Oxirgi yillarda doimiy ravishda mahalliy nodavlat tashkilotlarining soni o'sib bormoqda. Shubhasiz, mamlakat aholisini himoya qilish va qo'llab-quvvatlashning kompleks dasturini tashkillashtirish zarur. Bunga, umuman davlatimizning butun ijtimoiy siyosati yo'naltirilgan. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ish o'zaro uzviy bog'liq. Ijtimoiy ish – bu ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning o'ziga xos shakli, ijtimoiy siyosat esa – ijtimoiy ishning o'zagi, yo'naltiruvchisi. Huquqiy, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning murakkab yo'lida mamlakatimiz uchun faoliyatning yangi turini shakllantirish va rivojlantirish, professional ijtimoiy xodimlar tayyorlashni amalga oshirish zarur.

“Oxirgi yillarda O'zbekistonda ijtimoiy ish, – ingliz olimi, ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis Terri Myorfining fikriga ko'ra, – tezkor rivojlanish davrini bosib o'tdi va mamlakat, ijtimoiy xodimning rivojlanib borayotgan kasbi kabi o'zining faoliyatning hududdagi mazkur turida etakchi roli bilan g'ururlanishga barcha asoslarga ega”<sup>1</sup>.

Haqiqatan ham, mamlakatda oxirgi yillarda bolalarni himoya qilish sohasida sodir bo‘layotgan islohotlar bilan bog‘liq ravishda ijtimoiy xodimlarni tayyorlashga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bolalarni himoya qilish sohasidagi asosiy hujjat O‘zbekiston Respublikasining 2008 yilda qabul qilingan “Bola huquqlari kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni hisoblanadi. Mazkur Qonun BMTning bola huquqlari bo‘yicha Deklaratsiyasida mavjud barcha huquqlarini ta‘minlaydi. Kadrlar tayyorlash zaruratiga kelsak, u holda 4 moddada bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyat olib borayotgan kadrlarni tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlash davlat ijtimoiy siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy soha rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari, aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish va keksalar hamda imkoniyati cheklangan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash kabilar ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassilar faoliyatiga tegishli<sup>1</sup>.

Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy ishning o‘zaro chambarchas aloqalarini alohida ta‘kidlash lozim. Ijtimoiy ish – bu ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning o‘ziga xos shakli, ijtimoiy siyosat esa – ijtimoiy ishning o‘zagi, yo‘naltiruvchisi. Ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: ijtimoiy himoya, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, bandlik sohasidagi siyosat. O‘z navbatida ijtimoiy ish – aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlariga, guruhlar va alohida fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish, qo‘llab-quvvatlash va yordam ko‘rsatish bo‘yicha faoliyat.

O‘zbekistonda ijtimoiy ishni ilgari surish uchun katta io‘lar amalga oshirilmoqda, har bir yilga u yoki bu ijtimoiy nom berilmoqda, aholining u yoki bu tofiolarini ijtimoiy himoya qilish yili, deb e‘lon qilinadi. Ijtimoiy himoya siyosatini aniq maqsadli ravishda hayotga tadbiq qilish bilan mamlakat rahbariyati “mavzu”ni faollashtirgan holda har bir yilni alohida ajratib ko‘rsatadi. “Inson manfaatlari yili”, “Oila yili”, “Ayollar yili”, “Sog‘lom avlod yili”, “Ona va bola yili”, “Katta avlod yili”, “Ijtimoiy himoya yili”, “YOshlar yili”, “Barkamol avlod yili”, “Sog‘lom ona va bola yili”, “Odamlar bilan muloqot va inson manfaatlari yili” va boshq.

O‘z demografiy xususiyatlari va ko‘p yillik an‘analari tufayli O‘zbekiston bugungi kunda 60%dan ortiq aholisini bolalar va yoshlar tashkil etgan mamlakat

hisoblanadi. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish jarayoni faoliyati bolalar va oilalarga har tomonlama yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan vazirliklar va idoralarning murakkab va ko'p tarmoqli tizimi yordamida amalga oshiriladi. Mazkur faoliyatning asosiy prinsipi bolalarning dastavval parvarish va g'amxo'rlikka muhtoj fuqarolari toifasi kabi bolalarning eng oliy manfaatlarini ta'minlashdan iborat. Shu munosabat bilan, bolalarni himoya qilish tizimida ijtimoiy ishni rivojlantirish mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bir qatorda o'ta muhim hisoblanadi, chunki aynan mazkur sohadagi professionallar bolalikning butun davri avomida bola manfaatlarini ifodalash vakolatlari va huquqlariga ega bo'lishlari lozim.

Bugungi kunda respublikada ijtimoiy himoya qv qo'llab-quvvatlash bo'yicha faoliyat turli soha mutaxassislari – sotsiologlar, psixologlar, pedagoglar, huquqshunoslar va hokazolar tomonidan amalga oshiriladi. Shubhasiz, turli sohalar mutaxassislarning integratsiyasi – kerakli va zarur ish. Biroq bugungi kunda mamlakatda yangi Ijtimoiy ish instituti shakllantirilmoqda. Bu kabi institutni tashkil etish uchun barcha asoslar mavjud: davlatning kuchli ijtimoiy siyosati, hukumatning mahalliy organlari faoliyati, turli ijtimoiy tashkilotlar faoliyati.

*3. Akademik rivojlanish: O'zbekistonda ijtimoiy ish bo'yicha ta'lim.* Ijtimoiy ishga o'qitish jarayoni milliy ta'lim tizimining turli mamlakatlarda bir biridan katta farq qilishi mumkin bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Ijtimoiy xodimlarga ta'lim berish faoliyatida yagona namuna mavjud emas. Biroq, maxsus bilimlarsiz muayyan sotsiumda murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan insonga malakali yordam ko'rsatish mumkin emas. Ijtimoiy ish ko'nikmalariga o'qitish nafaqat bo'lajak mutaxassislarni ijtimoiy jarayonlarni ilmiy tahlil qilish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tahlil qilish metodologiyasi bilan qurollantirish imkonini beradi, balki undan adekvat holat yoki xulq chegarasidan chiqib ketgan guruh yoki alohida shaxsni ajratib olish imkonini beradi.

Ijtimoiy ish o'quv fani sifatida fan asoslarini ta'lim muassasasi yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda ta'lim maqsadlarida tizimli bayon qilinishini aks ettiradi. Ijtimoiy ish yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar ijtimoiy

xodim va mijoz, muhtoj odamlar va jamiyat o'rtasida vositachilikni ta'minlash imkonini beruvchi nazariy bilimlar va texnologiyalarni egallaydilar.

Mazkur sohadagi ta'lim tizimi nazariy va amaliy tarkibiy qismlarni aks ettirishi lozim. Ta'limning asosiy maqsadi bilim olish, ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis tayyorlashning asosiy talablariga javob beruvchi amaliy bilim va ko'nikmalarini egallashdan iborat. Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis – bu universitetda mazkur mutaxassislik bo'yicha bazaviy tayyorgarlikka ega bo'lgan, oliy ma'lumotli mutaxassis hisoblanadi.

XX asrning 90-yillari o'rtalaridan O'zbekiston Milliy universitetida sotsiologlarni tayyorlash jarayoniga "Ijtimoiy ish" o'quv kursi kiritilgan. Uning maqsadi, talabalarda ijtimoiy ish mohiyati, uning asosiy yo'nalishlari, etikasi va qadriyatlari, nazariyalari, tadqiqot usullari va ular bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmalar to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilishdan iborat bo'lgan.

O'zbekistonda oliy ma'lumot olishning ikkita bosqichi mavjud: bakalavrlar (4 yil) va magistrnlarni (2 yil) tayyorlash. O'zbekistonda ijtimoiy ishni institutsionallashtirish jarayoni boshlangandan so'ng qisqa vaqt oralig'ida oliy ta'lim tizimida ijtimoiy soha uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlashga ixtisoslashtirilgan universitetlar, kollejlarni tarmog'ini kengaytirish tendensiyasi kuzatilmoqda.

2004 yilda Toshkent davlat madaniyat institutida "Ijtimoiy ish" ta'lim yo'nalishi tashkil etildi. Aynan Shu yili vazifasi bakalavriat darajasida yuqori malakali ijtimoiy xodimlarni tayyorlashdan iborat bo'lgan kafedra osildi. 2005 yil sentyabr oyida esa aynan Shu ta'lim yo'nalishi O'zbekistonning yana ikki universitetida – Samarqand va Farg'ona davlat universitetlarida tashkil etildi. 2006 yilda "Aholining turli guruhlar bilan ijtimoiy ish" mutaxassisligi bo'yicha magistraturaga qabul amalga oshirildi. 2010 yil sentyabr oyida O'zbekiston Milliy universitetida ham Shuningdek, bakalavriat yo'nalishi tashkil etildi va 2015 yilda ta'lim o'zbek va rus tillarida amalga oshiriladigan "Ijtimoiy ish" magistratura ixtisosligi ochildi.

Davlat ta'lim standartlariga muvofiq ravishda har bir talaba oliy ta'limning

birinchi bosqichida (bakalavriat) o'rganishi lozim bo'lgan majburiy fanlar sikli belgilanadi. Bu quyidagi fanlar: gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy; matematik va tabiiy-ilmiy; umumprofessional; maxsus.

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bloki ilmiy dunyoqarashni, oliy ma'naviyat va madaniyatni, demokratik, huquqiy tafakkurni shakllantiradi; sog'lom turmush tarzi, insonning insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini tartibga soluvchi axloqiy va huquqiy me'yorlar haqida bir butun tasavvurni hosil qiladi.

Matematik va tabiiy-ilmiy fanlar blokiga qo'yilgan talablar matematik tahlil asoslarini; sotsiologiya va ijtimoiy ishdagi sodda tizimlar va jarayonlarning matematik modellarini; dasturlash texnologiyalari va hisoblash texnikasi imkoniyatlarini qo'llash; tabiatdagi dinamik va statistik qonuniyatlar haqidagi; anglashdagi empirik va nazariy nisbatlar haqidagi; tabiatni muhofaza qilishning ekologik prinsiplari haqidagi bilimlarni egallashni talab etadi.

Umumprofessional fanlar sikli bo'yicha zamonaviy talablar asosidagi o'quv rejasi quyidagi predmetlar yordamida ifodalangan: kasbga kirish; O'zbekistonda ijtimoiy ish tarixi; ijtimoiy ish nazariyasi; ijtimoiy ishni boshqarish; ijtimoiy ish iqtisodiyoti; ijtimoiy ish etikasi; xorijda ishtimoiy ish.

Maxsus fanlar sikliga ko'ra bakalavr bilimlarga ega bo'lishi va ijtimoiy ishning nisbatan tor yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar usullarini egallashi talab etiladi. Shunday qilib, maxsus fanlari sirasiga (bakalavr va magistr darajasida) quyidagilar kiradi: ijtimoiy ishda tadqiqotlarni tashkillashtirish va metodikasi; ijtimoiy prognozlash va loyihalashtirish; ijtimoiy statistika; aholining turli guruhlari bilan ijtimoiy ish olib borish; hayot faoliyatining turli sohalarida ijtimoiy ish; ijtimoiy himoyaning turli tashkilotlari, muassasalari va xizmatlari faoliyati tajribasi va boshqalar.

Ta'lim jarayonida ijtimoiy ishning bo'lajak mutaxassislarining amaliy tayyorgarligina alohida e'tibor qaratiladi. Birinchi kursdan boshlab talaba taniShuv, o'quv, ishlab chiqarish va diplomoldi amaliyotni o'tashi lozim. Bugungi kunda Toshkent, Samarqand va Farg'onada ta'lim tizimiga talabalar amaliyotini o'tkazishning yangi modeli ishlab chiqildi va joriy qilindi<sup>1</sup>.

Umuman, nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassis ijtimoiy ish sohasida tashkiliy-boshqaruv, ilmiy-pedagogik va amaliy faoliyat oli borish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Ijtimoiy ish nazariyasini o‘quv fani sifatida takomillashtirish va rivojlantirish – uning hayot va amaliyot bilan aloqasini mustahkamlash demakdir. Bugungi kunda mamlakatning barcha hududlarida ijtimoiy ish bo‘yicha ta‘lim yo‘nalishlarini ochishga tayyorgarlik ko‘rilmoqda – yuqori malakali ijtimoiy xodimlarga bo‘lgan talab yuqori.

Ijtimoiy ishning professionallashtirilishi uchun sharoitlar yaartishning asosiy masalasi mazkur sohada xalqaro talablarga javob beruvchi mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Mazkur sohadagi taxlim tizimi nazariy va amaliy tarkibiy qismlarning o‘zaro muvofiqlashtirilishini aks ettirishi joiz. Ta‘limning asosiy maqsadi ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassistayyorlashning asosiy talablariga javob beruvchi amaliy bilim va ko‘nikmalarni egallash, bilim olishdan iborat<sup>1</sup>.

Ijtimoiy ish muammolari har yili RSSAD tomonidan tashkil etiladigan Xalqaro Forumlarda ustuvor mavzu hisoblanadi. Mamlakatimiz uchun ijtimoiy ish sohasida kadrlar tayyorlash masalasining dolzarbligi masalasi “Bolalikdan etuklikka: Ijtimoiy himoya, ijtimoiy ish, ijtimoiy integratsiya” Xalqaro forumida (Toshkent, 2009 yil noyabr) muhokama qilingan. Forum yakuniga ko‘ra ijtimoiy ish va umuman ijtimoiy himoya tizimini yanada rivojlantirish, ijtimoiy xodimlarni bakalavriat va magistratura darajalarida tayyorlashni amalga oshiruvchi OTMlar sonini oshirish bo‘yicha tavsiyalar qabul qilingan.

Tizimli ravishda respublika darajasida ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil etiladi, ijtimoiy ishning dolzarb muammolari “davra suhbatlari” yig‘ilishlarida, seminar va treninglarda muhokama qilinadi.

Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi shakllantirilgan. 2015 yildan O‘zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Oliy maktab malaka oshirish va qayta tayyorlash hududiy markazida ijtimoiy ish o‘qituvchilarining malakasini oshirish boshlangan. O‘zMUda doktorantura va mustaqil izlanuvchilik darajasidagi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash amalga oshirilmoqda.



YUNISEF loyihalari, O‘zbekistondagi SOS Bolalar qishlog‘i uyushmasi zo‘ravonlik munosabatiga duch kelgan bolalarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi xorijiy metodikalarini o‘zlashtirish, bolalar huquqlarini himoya qilish sohasidagi tasavvurlarni kengaytirish, loyiha ishtirokchilarining trenerlik malakasini oshirish imkonini berdi.

Respublika Markazi “ijtimoiy ish” kasbini amaliyotda manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan uzviy aloqa orqali, mamlakat hududlarida (Farg‘ona, Samarqand, Qarshi) IKS filiallarini yaratish, Shuningdek, O‘zMUda “ijtimoiy ish” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha amaliyot bazasini tashkil etishni ilgari surishni amalga oshiruvchi asosiy hamkor sifatida ishtirok etadi.

Bugungi kunda hamkorlik loyihalari fuqarolik jamiyati institutlarining ta’lim siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etishni ta’minlashga yo‘naltirilgan.

O‘zbekiston Milliy universiteti Birlashgan millatlar tashkilotining rivojlantirish Dasturi (UNDP), Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi (MAIHQV) bilan o‘zaro hamkorlikda “Keksalar, nogironlar va aholining boshqa toifalariga ijtimoiy xizmatlar to‘g‘risida”gi Qonunni va boshqa me‘yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etgan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ijtimoiy ish uchun kadrlar tayyorlashga qo‘yilgan talablar aholining muhtoj qatlamalriga ijtimoiy va tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi muassasalar tarmog‘ini kengaytirish bilan bog‘liq ravishda ortib boradi. Ijtimoiy xodimning bilim va ko‘nikmalari tegishli shaxsiy xususiyatlari bilan birgalikda muvofiq usullar yordamida baholanishi lozim, bu esa o‘z navbatida professional faoliyatning nisbatan samarali tarzda bajarilishiga imkoniyat yaratadi. Bu o‘rinda asosiy belgilovchi omil nomzodning qadriyatlar tizimi hisoblanadi.

Ijtimoiy ish uchun kadrlar tayyorlash vazifasini hal etish faqatgina o‘quv ishlari usullarini yaxshilash, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning qo‘llanilishidan boshlab, ta’lim jarayonining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bilan yakunlanuvchi kompleks yondaShuv asosidagina hal etish mumkin.

Biroq hali ham ko‘plab muammolar va hal etilmagan masalalar mavjud. Ijtimoiy xodimlarni tayyorlashning dolzarb muammolari orasida quyidagilarni ta’kidlash mumkin.

Bugungi kunda butun mamlakat bo‘ylab davlat tashkilotlarida ijtimoiy xodimlar uchun umumiy hisobda 70 ga yaqin shtat birliklari mavjud (“Mehribonlik”, “Muruvvat” uylari, bolalar uylari, bolalar shaharchalari, Odam savdosi qurbonlariga yordam ko‘rsatish va himoya qilish respublika reabilitatsiya markazi). Tuzilmada yolg‘iz fuqarolarga Ijtimoiy yordam xizmatlari xodimlari, ular Shuningdek, ijtimoiy xodimlar hisoblanadi, haqiqatan ham yolg‘iz keksa fuqarolarni parvarishlash va ularga maishiy yordam ko‘rsatuvchi xodimlar hisoblanadi, buning uchun esa o‘z navbatida oliy ma’lumot talab etiladi.

Ijtimoiy xodimlar uchun ko‘plab boshqa ijtimoiy va tibbiy muassasalarda shtat birliklari mavjud emas, bugungi kunda mazkur muassasalarda faoliyat olib boruvchi xodimlarning (huquqshunoslar, psixologlar, o‘qituvchilar va hattoki maxsus tayyorgarligi bo‘lmagan odamlar) esa ijtimoiy ish sohasida bilimlari mavjud emas. Shunday qilib, aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj toifalaridan ayrim shaxslar professional ijtimoiy xodimlar tomonidan etarli darajada qo‘llab-quvvatlanmaydi<sup>1</sup>.

*Ijtimoiy ish bo‘yicha milliy jamoa* dastavval respublikamiz uchun ta’limning yangi sohasi bo‘lgan ijtimoiy ishning rivojlanishiga imkoniyat yaratish uchun birlashgan o‘qituvchilar guruhi tashabbusi natijasi bo‘lgan. 2005 yildan boshlab RSSAD va YUNISEF hamkorligi tufayli tashabbus guruhi sifatida xalqaro maslahatchilar, ijtimoiy ishning turli sohalaridagi mutaxassislarning trening va seminarlarida ta’lim olgan Milliy trenerlar jamoasi tan olindi. Bugungi kunda Milliy jamoa tarkibiga 18 kishi kiradi, ular sirasiga ijtimoiy ish, sotsiologiya, psixologiya, maxsus psixologiya va Madaniyat instituti, Milliy universitet (O‘zMU), Pedagogika universiteti (TDPU) pedagoglari, bolalarning ijtimoiy adaptatsiyasi Respublika markazi mutaxassislari, amaliyotchi psixologlar, tadqiqotchilar va bolalarni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi trenerlar kiradi. Bu ijtimoiy ishning qadriyatlari va axloqiy prinsiplari, nazariya va usullarini ta’lim va amaliyotda faol ilgari suruvchi

professionallar, tashabbuskorlar va hamfikrlardir.

Barcha loyihalarni amalga oshirish davomida Milliy jamoa xalqaro konsultantlar bilan yaqin hamkorlikda faoliyat olib borgan. Bunda xalqaro hamkorlik akademik institutlar kabi (Tissayd universiteti, Buyuk Britaniya; Vashington universiteti, Sietl, AQSH), ijtimoiy ish agentliklari bilan ham amalga oshirilgan, masalan, Buyuk Britaniyaning “Har bir bola” xalqaro tashkiloti. Xalqaro maslahatchilar Milliy jamoa va ijtimoiy ishning zamonaviy nazariya va modellari sohasida ta’lim berish, ularni o’qitish va bolalar va oilalar bilan amaliy ish olib borishni qo’llashga katta hissa qo’shdilar. O’zbekistonda ijtimoiy ishni ilgari surish bo’yicha Milliy jamoaning a’zolari tomonidan ijtimoiy xodimning professiogrammasi ishlab chiqildi. Uning asosiy vazifasi muhim ahamiyatga ega bo’lgan kasbiy layoqatni mehnat sub’ektiga qo’yiladigan zamonaviy talablarni e’tiborga olgan holda tuzatishlar kiritish zarurati bilan bog’liq. Ijtimoiy xodimning professiogrammasi – ijtimoiy ish bo’yicha mutaxassilar modelini va ularning faoliyatining standartlarini ishlab chiqish tomonga tashlangan birinchi qadamdir, bu esa o’z navbatida ularga ta’lim berish va professional ta’lim tizimini takomillashtirishda muhim o’rin tutadi.

Bugungi kunda O’zbekistonda oliy ta’lim tizimini takomillashtirish, kadrlar tayyorlash mohiyatini mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ustuvor vazifalariga mos ravishda tubdan qayta ko’rib chiqish sohasida chora-tadbirlarni faol amalga oshirish ishlari olib borilmoqda.

Eng muhim vazifalardan bir mamlakatning har bir oliy ta’lim muassasi tomonidan boshqa turdosh xorijiy ilmiy-ta’lim muassasalari bilan istiqbolli hamkorlik aloqalarini o’rnatish, o’quv jarayoniga etakchi pedagogik texnologiyalarni, o’quv dasturlarini va xalqaro standartlarga asoslangan o’quv-metodik materiallarni keng joriy qilishni amalga oshirish vazifa qilib qo’yilganligi bilan bog’liq<sup>1</sup>.

2008 yildan 2018 yilga qadar oliy ta’lim muassasalari ijtimoiy ish bo’yicha 900dan ortiq mutaxassilarni tayyorlaganlar. Shu bilan birga, ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, tibbiy-ijtimoiy yordam, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj

qatlamlarini himoya qilish, ijtimoiy moslashtirish va rehabilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, zo'ravonlik holatlarining oldini olish va ularga munosabat bildirish uning kadrlarga oid imkoniyatlarini aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlarini himoya qilish ijtimoiy tizimining faoliyat olib borayotgan xodimlarini qayta tayyorlash kabi, xizmatlarning mazkur turini ko'rsatish sohasida ijtimoiy xodimlarning kasbiy layoqatini shakllantirish sohasida ham oshirishni talab etadi.

YUNISEFning bolalar va ayollar farovonligini oshirish bo'yicha 2016-2020 yilga mo'ljallangan Mamlakatlarga oid dasturi doirasida 2017 yilda YUNISEFning O'zbekiston Milliy universiteti bilan hamkorlikdagi uzoq muddatli "O'zbekistonda ijtimoiy ish ta'lim va amaliyotini yanada rivojlantirish" loyihasini amalga oshirish boshlandi.

Dasturni amalga oshirishning birinchi bosqichi davomida davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari va dasturlari xalqaro talablarga ko'ra qayta ko'rib chiqildi, O'zMUda "Ijtimoiy ish" bazaviy kafedraasi ochildi.

2018 yil iyun oyida Milliy universitet va AQSHning Kolumbiya universiteti bilan hamkorlikda, YUNISEFning texnik qo'llab-quvvatlashi asosida xalqaro loyihaning "O'zbekistonda ijtimoiy ish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini xalqaro standartlar asosiy takomillashtirish" mavzusidagi ikkinchi bosqichi boshlandi. Loyihaning maqsadi O'zbekistonda Ijtimoiy ish sohasida ta'lim va amaliyotni yaxshilash va ijtimoiy himoya va bolalarni himoya qilish tizimida mutaxassislarni qayta tayyorlashdan iborat.

Kolumbiya universiteti trenerlari Doktor Timati Xant va Lyudmila Kimlar O'zMUning Ijtimoiy fanlar fakultetida uch bosqichli "Ijtimoiy ish amaliyoti asoslari" mavzusida trening o'tkazdilar, bu esa o'z navbatida bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimlari mutaxassislari va mamlakat ijtimoiy ish o'qituvchilarining imkoniyatlarini oshirish imkonini berdi.

Uzoq muddatli o'zaro hamkorlikdagi loyihani amalga oshirish quyidagilarga yo'l ochib berdi:

- ijtimoiy xodimlarning kasbiy layoqatliligini oshirish;
- ijtimoiy ish bo'yicha aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj

qatlamlariga ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasidagi amaldagi mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni amalga oshiruvchi milliy jamoasini tayyorlash.

Mazkur natijalarga erishish respublikada davlat ijtimoiy siyosatining kadrlar ta'minoti tadbirlari muammolarini hal etish, ijtimoiy xodimlar malakasini oshirish va oxir oqibat aholining muhtoj qatlamlariga sifatli yordam ko'rsatishga imkoniyat yaratadilar.

YUNISEFning O'zbekistonning davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlik qilishdagi ahamiyatli tajribasini, farzandlari mavjud bo'lgan oilalarga ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojning faol o'sib boruvchi talabini e'tiborga olgan holda oxirgi yillarda mazkur sohada milliy tizimning samaradorligini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar amalga oshirildi.

O'zbekistonning ijtimoiy himoya tizimini vaziyatga oid tarzda tahlil qilishda, YUNISEFning nashr qilingan ma'ruzasida ta'kidlanishicha, ijtimoiy himoyaning milliy tizimi mamlakatdagi kambag'allik va tengsizlik darajasini pasaytirishda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda yaratilgan imkoniyatlar ijtimoiy himoya milliy tizimini xalqaro standartlar va millatning talab va ehtiyojlariga muvofiq tarzda o'zgartirishning a'lo imkoniyati hisobalandi<sup>1</sup>.

2018 yil iyun oyida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg'armasi YUNISEF Kolumbiya universiteti Ijtimoiy ish maktabi tadqiqotchilar jamoasi, "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi va O'zbekiston Milliy universiteti bilan o'zaro hamkorlikda O'zbekistondagi oilalar va bolalarga ijtimoiy xizmatlar taqdim qilish bo'yicha ijtimoiy himoya sektorining ayni vaqtdagi vazifalari va imkoniyatlarini o'rganib chiqdi.

Tadqiqotchilar jamoasi tomonidan amalga oshirilgan tahliliy o'rganish O'zbekistonning quyidagilardan iborat bo'lgan ijtimoiy ta'minotining bugungi tizimining kuchli tomonlarini aniqlash imkonini berdi:

- ijtimoiy zaiflik muammosini hal etish hamda oilalar va bolalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muammolarini hal etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi va muassasalarning qonunchiligi va tuzilmalarida,

ularning qarashlari va vazifalarida aks ettirilgan;

- oxirgi ikki yil davomida ijtimoiy xizmatlar xodimlari tuzilmalari, miqdori, lavozimlari va kasbiy talablarining ortishi;
- O‘zbekistondagi mahalliy o‘z-o‘zini boshqarishning noyob organi – mahallaga hukumat e’tiborining kuchaytirilishi<sup>1</sup>.

Ijtimoiy xizmatlarning samaradorligini va sifatini oshirish maqsadida aholining muhtoj qatlamalriga xizmat ko‘rsatish uchun aholini, bolalar va oilalarni ijtimoiy himoya qilish yagona davlat idoralarini yaratish masalasini o‘rganish taklif qilinmoqda.

Milliy sheriklar bilan o‘zaro hamkorlikda: Vazirlar Mahkamasi, boshqa vazirliklar va idoralar, mahalliy hukumat organlari, NNT, BMT agentliklari: YUNISEF, XMT, PROON mamlakatdagi ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bo‘yicha o‘zaro hamkorlikda dastur ishlab chiqildi.

Dasturning yakuniy natijasi 2022 yilga qadar ijtimoiy himoyaning integratsiyalangan va samarali tizimini O‘zbekistondagi barcha ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari uchun ijtimoiy himoyaning qamrovini xalqaro standartlarga muvofiq kengaytirish va sifatini oshirish imkoniyati bilan bog‘liq holda yaratishdan iborat.

### **Nazorat savollari**

1. O‘zbekistonda ijtimoiy ishning tarixiy va madaniy asoslari nimadan iborat?
2. O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatning asoslari nimadan iborat?
3. Ijtimoiy mihit nima?
4. O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi oldiga qanday vazifalar qo‘yiladi?
5. Mahalla qo‘mitalari nima bilan Shug‘ullanadi? Ularning jamiyat hayotidagi roli nimadan iborat?
6. Fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo‘yilgan huquq va erkinliklari
7. O‘zbekistonda bolalikni ijtimoiy himoya qilish sohasidagi asosiy

prinsiplar va ustuvor yo‘nalishlar

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi Qarori (O‘zbekiston Respublikasi qonunlari to‘plami, 2017 y., № 6, 70-modda)
2. Ganieva M.X. Ijtimoiy ishga kirish. – Toshkent; O‘zMU, 2011.
3. Ganieva M.X. Ijtimoiy ish asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: CHASHMAPRINT, 2009. – 112 b.
4. Ganieva M.X., N.M.Latipova. Ijtimoiy ish tarixi va nazariyasi. Metodik qo‘llanma. – Toshkent: O‘zMU, 2015. – 264 b.
5. Ijtimoiy ish etikasi. Darslik. Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. 432 b.
6. Marifat Ganieva & Lyudmila Kim. The Development of Social Work in Uzbekistan: Characteristics, Challenges & Successes / Social Work Education in Countries of the East: Issues and Challenges. – London, New York: Nova Science Publishers, 2010. [novasci1@aol.com](mailto:novasci1@aol.com)
7. Farfiyev B. O‘rta Osiyoda ijtimoiy ishni rivojlantirishning tarixiy ildizlari. O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. 2009, №1. – 86-91 b.
8. SHanin T. Ijtimoiy ish: professionalizm mafkurasi. Ijtimoiy siyosat tadqiqotlari jurnali. 2004. 2-bob, №3. – 303-328 b.
9. Myorfi T. O‘zbekistonda ijtimoiy ishning xalqaro kontekstda rivojlanishi / “Inklyuziv ta’lim va bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash shakllarini rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari” Xalqaro Forum materiallari. 2008 yil 28-29 oktyabr. – Toshkent: Bolalarni ijtimoiy moslashtirish respublika markazi, 2008. – 23 b.
10. Bekmuradov M.B. Ta’lim muassasalarining yuqori malakali kadrlar tayyorlashdagi roli / “Inklyuziv ta’lim va bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash shakllarini rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari” Xalqaro Forum materiallari. 2008 yil 28-29 oktyabr. – Toshkent: Bolalarni

ijtimoiy moslashtirish respublika markazi, 2008. – 125-126 b.

11. Ganieva M.X., Karamyan M.X. Bolalarni ijtimoiy himoya qilish uchun ijtimoiy xodimlar tayyorlash kontekstida professiogramma/ “Bolalikdan etuklikka: Ijtimoiy himoya, ijtimoiy ish, ijtimoiy integratsiya” Xalqaro forumi materiallari, 2009 yil 26-27 noyabr – Toshkent: Bolalarni ijtimoiy moslashtirish respublika markazi, 2009. – 91 b.

12. Kim L. “Bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimidagi kadrlarga oid masalalarini hal etish yo‘lida: O‘zbekistonda ijtimoiy ish bo‘yicha qayta tayyorlash kurslarini tashkillashtirish”. “Inklyuziv ta’lim va bolalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash shakllarini rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari” Xalqaro Forum materiallari., 2008. 138-143 b.

13. O‘zbekiston kelajagiga investitsiyalar. O‘zbekistonda bolalar va oilalarni ijtimoiy himoya qilish. BMT Bolalar jamg‘armasi (UNICEF) 2019 yil, yanvar. O‘zbekistondagi YUNISEF vakolatxonasi. [www.unicef.org/publications](http://www.unicef.org/publications).

## GLOSSARIY

№	O‘zbek tilidagi atamalar	Ingliz tilidagi atamalar
1.	<b>Ijtimoiy ish</b> – maqsadi odamlarga, ijtimoiy guruhlariga shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni qo‘llab-quvvatlash, tuzatishva reabilitatsiya qilish yo‘li bilan yordam ko‘rsatish bo‘yicha professional faoliyat.	<b>Social work</b> - professional activity, which aims to promote the people, social groups in overcoming personal and social difficulties through the support, protection, compensation and rehabilitation.
2.	<b>Ijtimoiy xavotirlik</b> – ijtimoiy yo‘nalishlar va hodisalar bo‘yicha jamoaviy xavotirlik holati. Ko‘ngilsizliklar “asoslangan voqelik yoki jamoaviy xayollar”da yashiringan bo‘lishi mumkin. Jamiyatdagi jinoyatchilik darajasini o‘rganish ko‘pincha jinoyatchilikning aniq darajasi va jinoyat to‘g‘risidagi xavotirlar bir-biriga to‘g‘ri kelmasligini ko‘rsatadi. Shunday qilib, ijtimoiy ijtimoiy xavotirlar ratsionaldan ko‘ra	<b>Social anxieties</b> Collective states of anxiety about social trends or events. Anxieties may be ‘reality based’ or significantly rooted in collective fantasies. Research into crime rates in the community often show that actual levels of crime and fears about crime are inconsistent with one another. Thus, social anxieties may drive or shape policy development in a matter that is more irrational than rational.



	ko'proq irratsional bo'lgan masalada siyosatni boshqarishi yoki shakllantirishi mumkin.	
3	<b>Ijtimoiy ta'minot</b> – fuqarolarga keksalikda, kasallikda, mehnatga layoqatlilikni to'liq yoki qisman yo'qotish, boquvchisini yo'qotganlik, Shuningdek, farzandlari mavjud oilalarni moddiy ta'minlash va ularga xizmat ko'rsatishning qonun tomonidan belgilangan tizimi.	<b>Social security</b> - provided by the legislation system of material support and maintenance of citizens in old age, in case of illness, total or partial disability, loss of breadwinner, as well as families with children.
4.	<b>Ijtimoiy xodim</b> – bu aholining ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamlariga (pensionarlar, etim bolalar, qochoqlar va boshq.) turmushda yordam ko'rsatish, Shuningdek, ularni ma'naviy va huquqiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi mutaxassis.	<b>Social worker</b> - a specialist who provides assistance in the home, as well as moral and legal support to vulnerable segments of the population (pensioners, orphans, refugees and others).
5.	<b>Xayriya</b> – kambag'allarga g'amxo'rlik va boshqalarga yaxshilik qilishga asoslangan xolisona moddiy yordam. U xususiy shaxslar, tashkilotlar va davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin.	<b>Charity</b> – repayable financial assistance to the poor, based on compassion and the desire to do well to others. Private individuals, organizations and government may provide it.
6.	<b>Adaptatsiya</b> (adaptation) (MoslaShuv) inson yoki ijtimoiy guruhning o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga faol moslaShuvi.	<b>Adaptation social</b> - active human adaptation or social group to the changing social conditions.
7.	<b>Aholining ijtimoiy muhofazaga</b>	<b>Vulnerable groups</b> - persons who

	<b>muhtoj qatlamlari</b> – yuzaga kelgan vaziyatlar tufayli murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan, alohida himoya va davlat hamda jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga muhtoj shaxslar.	are in difficult situations due to circumstances that need special protection and support from the state and society.
8.	<b>Volontyorlik</b> – xolisona ijtimoiy yordam, xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha majburiyatlarni ko‘ngilli tarzda bajarish, nogironlar va keksalar, Shuningdek, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan shaxslar va ijtimoiy guruhlar ustidan ixtiyoriy ravishdagi patronaj.	<b>Voluntary performance</b> – of duties to provide a grant of social assistance, services, voluntary patronage of disabled and elderly, as well as individuals and social groups who found themselves in difficult life circumstances.
9.	<b>Xayriya tashkiloti</b> – jamiyat va alohida shaxslar manfaatlarini himoya qilish maqsadida xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun yaratilgan nodavlat, notijorat tashkilot.	<b>A charitable organization</b> – a non-governmental, non-profit organization established for charitable activities in the interests of society or individuals.
10.	<b>AralaShuv</b> – ijtimoiy ishning individlar, guruhlar va oilalar bilan amaliy faoliyat olib borish davomida qo‘llanuvchi usuli.	<b>The intervention</b> – a method of social work, applied in practice with individuals, groups, families.
11.	<b>Settelment</b> – odamlarni joylashtirish uchun yaratiladigan alohida tuman.	<b>Settlement</b> – a special area of the city, created for human settlements
12.	<b>Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash</b> – “zaif” ijtimoiy guruhlar, oilalar, o‘z hayot faoliyati jarayonida muhtojlikni his qiluvchi shaxslar uchun munosib sharoitlarni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan maxsus chora-tadbirlar.	<b>Social support</b> – special measures aimed at maintaining sufficient conditions for the existence of "weak" social groups, families, individuals in need throughout his life.
13.	<b>Ijtimoiy yordam</b> – bu ijtimoiy xizmatlar tomonidan hayotiy qiyinchiliklarni engib o‘tish yoki yumshatish alohida shaxslar yoki aholi guruhlariga yordam ko‘rsatish, qo‘llab-quvvatlash va xizmatlar taqdim qilinadigan ijtimoiy chora-tadbirlar tizimi.	<b>Social care</b> – a system of social measures in the form of assistance and support services provided to individuals or groups of social service in order to overcome or mitigate the difficulties of life.
14.	<b>Urbanizatsiya</b> – ishlab chiqarish va aholini yirik shaharlarda to‘plash va	<b>Urbanization</b> - the concentration of industry and population in large

	jamiyat rivojlanishida shaharlar rolini oshirish jarayoni.	cities and the process of increasing the role of cities in the development of society
15.	<b>Empatiya</b> – hissiy holatga erishish, boshqalarning kechinmalariga kirib borish.	<b>Empathy</b> - comprehension of the emotional state, entering into the experience of another
16.	<b>Usul</b> – maqsadga erishishning ongli ravishda va izchil qo‘llaniladigan usuli.	<b>Method</b> – consciously and consistently applied method of achieving goals.
17.	<b>Nazariya</b> – qandaydir hodisani izohlashga yo‘naltirilgan qarashlar, fikrlar, g‘oyalar majmui.	<b>Theory</b> – a complex of beliefs, ideas, ideas to the explanation of any phenomenon
18.	<b>Model</b> – boshqa tizim yoki konsepsiya haqida ma‘lumot olish uchun vosita bo‘lib xizmat qiluvchi tizim, tadqiqot.	<b>Model</b> - system, the study of which serves as a means to obtain information about the other system or concept.
19.	<b>Baholash</b> – muammoni, uning vujudga kelishi va uni hal etish usullarini anglash usuli.	<b>Assessment</b> – a way to awareness of the problem, its causes and ways to resolve it.
20.	<b>AralaShuv</b> – ijtimoiy xodim tomonidan mijoz yoki uning nomidan amalga oshiriladigan harakatlar	<b>The intervention</b> – action by the social worker, that he carries out at the client's part or on its behalf.
21.	<b>Bevosita kuzatuv</b> – tadqiqotchilar tomonidan hodisalar, voqealar, muayyan sharoitdagi jarayonlarni qayd qilish yo‘li bilan ma‘lumot to‘plashning ilmiy usuli.	<b>Direct observation</b> -scientific method of gathering information by logging researchers, phenomena, processes under certain conditions.
22.	<b>Ijtimoiy ish mijosi</b> – jamiyatning murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan va o‘ziga xos yordam, qo‘llab-quvvatlash, moslaShuv, rehabilitatsiya va tuzatishga muhtoj bo‘lgan har bir a‘zosi.	<b>The client of social work</b> - every member of society, caught in difficult life situations and in need of specific assistance and support, adaptation, rehabilitation, correction.
23.	<b>Refleksiya</b> – insonning o‘z shaxsiy harakatlari va qonunlarini anglashga yo‘naltirilgan nazariy faoliyati shakli; o‘z-o‘zini anglash faoliyati.	<b>Reflection</b> – theoretical form of human activity, aimed at understanding their own actions and their laws; self- activity.
24.	<b>Etika</b> – xulq me‘yorlari majmui, ijtimoiy guruh, kasb ma‘naviyati.	<b>Ethics</b> – a set of standards of conduct, ethics of social groups,

		professions.
25.	<b>Qadriyat</b> – nimaningdir muhimligi, ahamiyati, foydasi, foydaliligi.	<b>Value</b> - the importance, relevance, utility and usefulness of something.
26.	<b>Prinsiplar</b> – boshqaruvchi qoida, asosiy qoida, qandaydir faoliyat uchun yo‘riqnoma.	<b>Principles</b> – a guideline, the basic rule, the installation for any activity.
27.	<b>Ijtimoiy adolat</b> – odamlar, sinflar va ijtimoiy guruhlarining hayotiy darajasidagi jamiyatning moddiy va ma‘naviy rivojlanish darajasi bilan ob‘ektiv ravishda bog‘liq bo‘lgan tenglik o‘lchami.	<b>Social justice</b> – a measure of equality in the life situation of people, classes and social groups, objectively determined level of material and spiritual development of society.
28.	<b>Gumanizm</b> – ijtimoiy faoliyatda, odamlarga bo‘lgan munosabatdagi insoniylik, odamiylik.	<b>Humanism</b> - humanity, humanity in social activities, in relation to the people.
29.	<b>Layoqatlilik</b> – berilgan predmetga oid sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo‘lgan bilim va tajribaning mavjudligi.	<b>Competence</b> – the existence of the knowledge and experience required to operate effectively in a given domain
30.	<b>Inson huquqlari</b> – shaxsning huquqiy maqomining asosini, konstitutsion huquq o‘zagini tashkil etuvchi huquq.	<b>Human rights</b> – the rights which form the basis of the legal status of the individual, the core of the constitutional right.
31.	<b>Inson qadr-qimmati</b> – inson hayotining muhimligi to‘g‘risidagi tuShuncha.	<b>Human dignity</b> - an idea of the significance of human life.
32.	Rol (ijtimoiy psixologiyada) (fransuz tilidagi rule) – shaxsning ijtimoiy vazifasi; odamlarning jamiyatdagi, shaxslararo munosabatlar tizimidagi maqomi yoki o‘rniga bog‘liq bo‘lgan, qabul qilingan me‘yorlarga mos xulq usullari.	<b>The role of the</b> (social psychology) (From the French rule) – the social function of the person; the appropriate way to the accepted norms of behavior of people based on their status or position in society, in the system of interpersonal relations.
33.	<b>Vazifa</b> (lot. functio – amalga oshirish, bajarish) – bajarish, amalga oshirish, ob‘ektning ayrim tizim doirasidagi faoliyati, nimaningdir roli, qiymati, belgilanganligi.	<b>Function</b> – the commission, execution, object activity within a system, the role, significance, purpose of something.

34.	<b>Tashkilot</b> – ijtimoiy uyushma yoki davlat muassasasi.	<b>Organization</b> – a public association or a government agency
35.	<b>Hamjamiyat</b> – umumiy maqsad, qiziqishlarga ega bo‘lgan odamlar uyushmasi.	<b>Community</b> – an association of people with common goals and interests.
36.	<b>Layoqatlilik</b> – kasbiy vazifalarni hal etishda amaliy tajriba, bilim va ko‘nikmalar asosida muvaffaqiyatli tarzda harakat qilish qobiliyati.	<b>Sompetence</b> – the ability to successfully operate on the basis of practical experience, skills and knowledge in dealing with professional backside.
37.	<b>Ijtimoiy himoya</b> – inson huquqlarini himoya qilish, uning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar tizimi.	<b>Social protection</b> – a system of measures aimed at the observance of human rights, to the satisfaction of his social needs.
38.	<b>Ijtimoiy sug‘urta</b> – bu mehnat faoliyati bilan band bo‘lgan fuqarolar va ularning qaramog‘ida bo‘lgan oila a‘zolarining qarilik, nogironlik, kasallik, ishsizlik, onalik, boquvchisini yo‘qotish holatlari sodir bo‘lganda mehnat daromadini yo‘qotib qo‘yishdan himoya qiluvchi alohida tizim.	<b>Social insurance</b> – a special protection system is working citizens, and their dependent family members against loss of employment income upon the occurrence of incapacity for work due to old age, disability, sickness, unemployment, maternity, death of a breadwinner.
39.	<b>Liberalizm</b> (lotin tilidan liberalis — erkin) – inson huquqlari va individual erkinliklarining o‘zgarmasligini bildiruvchi falsafiy va ijtimoiy-siyosiy oqim.	<b>Liberalism</b> (from the Latin liberalis -. Free ) - philosophical and socio - political movement, proclaiming the inviolability of human rights and individual freedoms.
40.	<b>Konservatizm</b> (lotin tilidan conservo – saqlayman) – an’anaviy qadriyatlar va tartiblar, ijtimoiy yoki diniy ta’limotlarga mafkuraviy sodiqlik. Asosiy qadriyat sifatida jamiyat, uning institutlari va qadriyatlarini saqlash qabul qilinadi.	<b>Conservatism</b> (Latin Conservo - Save) - an ideological commitment to traditional values and order, social or religious doctrines. For the main value is accepted preservation of traditions of society, its institutions and values.
41.	<b>Ijtimoiy-demokratiya</b> – sotsializm doirasida tashkil topgan va natijada ijtimoiy adolat, birdamlik va ulkan erkinliklarga erishish maqsadida kapitalizmning izchillik bilan takomillashtirilgan qarashlariga	<b>Social democracy</b> – social policy and ideological and political movement that arose within the framework of socialism and subsequently transformed with the position of the gradual improvement

	o'zgartirilgan ijtimoiy siyosat va g'oyaviy-siyosiy oqim;	of capitalism in order to establish social justice, solidarity and greater freedoms.
42.	<b>Kambag'allik</b> – individ yoki ijtimoiy guruhning, ular hayoti, mehnatga layoqatini saqlab qolish, naslini davom ettirish uchun zarur bo'lgan minimal ehtiyojlarining muayyan doirasini qondira olmagan iqtisodiy holatlarining ta'rifi.	<b>Poverty</b> – characteristic of the economic situation of the individual or social group in which they cannot meet a certain range of the minimum requirements needed for life saving work capacity, procreation.
43.	<b>Murakkab hayotiy vaziyat</b> – bu jamiyat tomonidan e'tirof etilgan fe'l atvor normalaridan kelib chiqqan holda ehtiyojlarni to'liq yoki qisman qondirilmaganligi hisoblanadi.	<b>The difficult situation in life</b> - full or partial deprivation of basic necessities of life in accordance with the norms accepted in the society and the rules of conduct.
44.	<b>Ijtimoiy xizmatlar</b> – murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan shaxs, oilalarga doimiy, davriy, bir marotabalik, jumladan, tezkor yordam ko'rsatish bo'yicha chora-tadbirlar va harakatlar majmui.	<b>Social care services</b> – a set of measures and actions to provide continuous, periodic, ad hoc aid, including emergency assistance to persons / families who are in difficult situations.
45.	<b>Ijtimoiy terapiya (aralaShuv)</b> – ijtimoiy terapiya qarashlarni tuzatish va ish ob'ektlarining ijtimoiy-foydali faollikka qaytarish jarayoni sifatida harakatlar rejasini tuzishdan boshlanadi. SHaxsiy harakatlar (bevosita chora-tadbirlar), jumladan, turli tashkilotlar va xizmatlardan foydalanilgan holda rejalashtiriladi va ob'ektning ijtimoiy muhitidan bo'lgan boshqa odamlarning harakatlari ham rejalashtiriladi (bilvosita vositalar).	<b>Social therapy (intervention)</b> – Social therapy as a process of correcting settings and return the objects to work socially useful activity begins with an action plan. Planned their own activities (direct actions), including with the use of a variety of organizations and services, and the actions of other people from the social environment object (indirect actions).
46.	<b>Asosiy hayotiy ehtiyojlar</b> – xavfsizlik, oziq-ovqat, kiyim-kechak, salomatlikka qarash, majburiy ta'lim.	<b>Basic necessities of life</b> – security, food, clothing, housing, for health care, compulsory education.
47.	<b>Ijtimoiy xizmatlar iste'molchilari</b> – ijtimoiy xizmatlar taqdim qilinuvchi shaxslar, oilalar.	<b>Recipients of social services</b> - a person / family, which provides social services.
48.	<b>Ijtimoiy xizmatlar taqdim qiluvchilar</b> – ijtimoiy xizmatlar taqdim	<b>Provider of social services</b> – public and private organizations as

	qiluvchi davlat va nodavlat tashkilotlar.	well as, individuals providing social services.
49.	<b>Ijtimoiy kuzatuv</b> – murakkab hayotiy vaziyatlarni engib o‘tishda ijtimoiy xizmatlar iste’molchilariga ko‘maklashish va uni mustaqil faoliyat olib borishga yo‘naltirish.	<b>Social support</b> – assistance recipient of social services to overcome the difficult situation and bring it to the independent functioning.
50.	<b>Bolalar bilan shafqatsiz munosabatda bo‘lish</b> – bu 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga nisbatan yomon munosabatda bo‘lish yoki ular haqidagi g‘amxo‘rlikning mavjud emasligi.	<b>Child abuse</b> – a child abuse before the age of 18 years and the lack of concern for them.
51.	<b>Uydagi zo‘ravonlik</b> , Shuningdek, oilaviy yoki maishiy zo‘ravonlik – bu bir hamkor yoki qarindoshning boshqasiga nisbatan takrorlanuvchi zo‘ravonligi, birinchi navbatda oila ichida. Jismoniy, psixologik, jinsiy va iqtisodiy zo‘ravonlik sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.	<b>Domestic violence, as a family or domestic violence</b> – violence is a recurring one partner or relative in relation to another, especially within the family. It may take the form of physical, psychological, sexual and economic violence.
52.	<b>Ijtimoiy yordamning individual dasturi</b> – ijtimoiy xizmatlar iste’molchisining ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan hujjat.	<b>Individual program of social assistance</b> – a document developed based on the needs of the recipient of social services.
53.	<b>Ijtimoiy xizmatlar</b> – mulkchilik turidan qat’iy nazar ijtimoiy xizmatlar taqdim qiluvchi tashkilot va muassasalar.	<b>Social services</b> - businesses and institutions regardless of ownership, providing social services.
54.	<b>Salomatlik</b> – to‘liq jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati, bu faqatgina kasalliklar yoki jismoniy nuqsonlarning mavjud emasligini anglatmaydi.	<b>Health</b> A state of complete physical, mental, and social well-being that is not merely the absence of disease or infirmity.
55.	<b>Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot</b> – individual salomatlik va aholi farovonligini engillashtiruvchi xizmatlarni taqdim qiluvchi dasturlar.	<b>Health and welfare services</b> Programs providing services that facilitate individual health and welfare population
56.	<b>Sog‘liqni saqlash bo‘yicha xizmatlar</b> jismoniy shaxslarga kasallikni oldini	<b>Health care</b> Services provided to individuals to prevent or to promote

	olish va kasallikdan so‘ng salomatligini tiklash maqsadida taqdim qilinadi.	recovery from illness or disease.
57.	<b>Nogironlik bo‘yicha sug‘urta</b> – AQSH hukumati tomonidan 1957 yilda tashkil etilgan, to‘liq nogironlikka ega bo‘lgan xodimlarga pul ko‘rinishidagi nafaqalar taqdim qiluvchi jamg‘arma; bunda ayrim ish beruvchilar, Shuningdek, nogironlik bo‘yicha shaxsiy sug‘urtani taklif qiladilar.	<b>Disability insurance</b> A government fund established by the U.S. government in 1957 that provides cash benefits to workers who become totally and permanently disabled; note that some employers also now offer private disability insurance.
58.	<b>Immunotanqislik sindromi (OITS)</b> – bu odatda organizmning tabiiy immun tizimini shikastlovchi, o‘limga olib keluvchi kasallik hisoblanadi.	<b>Acquired immunodeficiency syndrome (AIDS)</b> – A usually fatal disease that attacks the body’s natural immune system.
59.	<b>Ichkilikbozlik</b> – shaxsiy hayotga, jumladan, oila va do‘stlar, ta’lim olish, ish, salomatlik, ma’naviy hayotga xalal beruvchi spirtli ichimliklarni iste’mol qilish.	<b>Alcoholism</b> – Use of alcohol that interferes with personal life, including family and friends, school, job, health, spiritual life, or the law.
60.	<b>Xospis</b> – mutaxassislari bemorning sanoqli kunlari qolganini bila turib uning jismoniy va ruhiy azoblarini engillashtirishga intiluvchi ijtimoiy xizmat.	<b>Hospice</b> – social service professionals that, knowing that the days are numbered patient, seek to facilitate the physical and mental suffering.
61.	<b>Aholining qarishi</b> – demografik qarish, aholi orasida mehnatga layoqatli yoshdan yuqori bo‘lgan shaxslar ulushining ortib borishi.	<b>Ageing populations</b> – emographic aging, the increase in the population share of older people of working age.
62.	<b>Fiziologik keksayish</b> – keksalik -dan oldin inson organizmida ro‘y beradigan biologik jarayon.	<b>Senescence</b> , biol. the process of age-related changes of the human body, begins before the onset of old age.
63.	<b>Keksalar uyi</b> – yordamning boshqa turlaridan mahrum bo‘lgan yoki kun-u tun kuzatuv ostida bo‘lishlari lozim bo‘lgan keksa kishilarga boshpana va tegishli tibbiy parvarish taqdim qiluvchi davlat yoki xususiy tashkilot. Bu kabi keksalar uylarida keksalar o‘zlariga ovqat tayyorlash va o‘z uylarini tozalash ishlarini amalga	<b>Nursing home</b> – public or private organizations, where elderly people who have lost or need other support round the clock supervision, provided shelter and proper medical care. In these nursing homes are exempt from having to cook their own meals and do the cleaning in your home.



	o'shirish zaruratidan ozod bo'ladilar.	
64.	<b>Pensiya ta'minoti</b> – ijtimoiy nafaqalar turi – bu qonunchilik tomonidan nazarda tutilgan moddiy ta'minot va fuqarolarga keksaygan davrida, to'liq yoki qisman mehnatga layoqatligini yo'qotgan (nogironlik), boquvchisini yo'qotgan holatlarda xizmat ko'rsatish tizimi.	<b>Pensions</b> – kind social benefits - it is provided for by the legislation system of material support and services to citizens in old age, in case of total or partial disability (disability), in case of loss.
65.	<b>Deviant xulq</b> – bu ijtimoiy me'yordan og'uvchi xulq, ya'ni insonning jamiyatdagi ma'naviy, axloqiy va huquqiy me'yorlariga mos kelmaydigan harakatlari va qiliqlari tizimi.	<b>Deviant behavior</b> – is deviant from social norms of behavior, a system of actions and such actions of man, that do not meet the established society the moral, ethical and legal standards.
66.	<b>Delinkvent</b> (lotin tilidan delinquens – qonunbuzar) – xulqi huquqiy me'yorni buzuvchi va natijasida javobgarlik huquqiy munosabatlari vujudga keluvchi sub'ekt.	<b>Delinquent</b> (from the Latin delinquens -. The perpetrator) - a subject whose behavior is characterized by the violation of legal norms, resulting in an accountability relationship.
67.	<b>Stigmatizatsiya</b> (grek tilidan στίγμα – “yorliq, tamg'a”) – tamg'alash, stigma chizish. Tamg'alash so'zidan farqli ravishda <i>stigmatizatsiya</i> ijtimoiy yorliklarni osishni anglatishi mumkin. Bu ma'noda stigmatizatsiya – qandaydir sifatning (odatda, salbiy) alohida shaxs yoki ko'pchilik insonlar bilan bog'lash, biroq bu aloqa mavjud emas yoki isbotlanmagan. Stigmatizatsiya ko'plab stereotiplarning tarkibiy qismi hisoblanadi.	<b>Stigma</b> (from the Greek στίγμα - «Tag, brand”) - branding, application stigma. In contrast to the word branding, word stigma can mean hanging social labels. In this sense, the stigma - the linking of any quality (usually negative) with an individual or a number of people, although this connection is not available or has not been proved. Stigma is an integral part of many stereotypes.
68.	<b>Ijtimoiy buzg'unchilik</b> – jamiyatdagi madaniy qadriyatlar, me'yorlar va ijtimoiy munosabatlar mavjud bo'lmagan, zaif yoki zid bo'lgan sharoitlar.	<b>Social disorganization</b> - the conditions in society in which cultural values, norms and social relations are absent, weak or inconsistent.
69.	<b>Suitsidal xulq</b> – tafakkur namunasi va passiv turdagi harakatlarning aptologik	<b>Suicidal behavior</b> - the way of thinking and the pathological form

	shakli, echimni topishdan qochishning o'ta xavfli usuli.	of the passive type of action is extremely dangerous way of avoiding the permission.
70.	<b>YUvenal yustitsiya</b> – voyaga etmaganlar tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha odil sudni amalga oshiruvchi muassasalar va tashkilotlar tizimining huquqiy asosi.	<b>Juvenile Justice</b> – the legal basis of the system of institutions and organizations administering justice in cases involving offenses committed by minors.
71.	<b>Jinoyat</b> – qonunni buzuvchi va jinoiy javobgarlikka tortilishi zarur bo'lgan harakat.	<b>Crime</b> - action that violates the law and subject to criminal liability.
72.	<b>Nojo'ya xatti-harakat</b> – xulq qoidalarini buzuvchi harakat, aybdorlik.	<b>Misconduct</b> – an act that violates the rules of conduct offense.
73.	<b>GlobalaShuv</b> – butunjahon iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy integratsiya va unifikatsiya (bir xillashtirish).	<b>Globalization</b> – the process of global economic, political, cultural and religious integration and unification.
74.	<b>Kambag'allik</b> – individ yoki ijtimoiy guruhning ular hayot uchun zarur bo'lgan minimal ehtiyojlarning muayyan doirasini qondirish imkoniyatiga ega bo'lmagan iqtisodiy holati ta'rifi.	<b>Poverty</b> – characteristic of the economic situation of the individual or social group in which they cannot meet a certain range of the minimum requirements necessary for life.
75.	<b>Farovonlik</b> – davlat aholisi, ijtimoiy guruh yoki sinf, oila, shaxsning hayot uchun zarur bo'lgan moddiy, ijtimoiy va ma'naviy ne'matlar bilan ta'minlanganligi.	<b>Welfare</b> – provision of the state's population, a social group or class, family, personality necessary for the life of the material, social and spiritual benefits.
76.	<b>Aholi immigratsiyasi</b> – bir mamlakat aholisining boshqa mamlakat hududiga vaqtinchalik yoki doimiy yashash uchun kirishi, migrantlar kirib kelayotgan mamlakatga nisbatan qo'llaniladigan ibora.	<b>Immigration population</b> - enter one population to another on a temporary or permanent residence, for consideration with respect to the country where migrants enter.
77.	<b>Emigrant</b> – fransuz tilidan kelib chiqqan, o'z vatanidan chiqib ketayotgan shaxsni ifodalovchi atama.	<b>Emigrant</b> - The term of French origin denoting the person evicted from their homeland.

78.	<b>Qochoqlar</b> – o‘zlari doimiy yashagan mamlakatni favqulodda vaziyatlar tufayli tashlab ketgan shaxslar.	<b>The refugees</b> – people who left the country in which they resided, due to extraordinary circumstances.
79.	<b>Ekspluatatsiya</b> – bevosita ishlab chiqaruvchilar, mehnatkashlar mehnatini o‘zlashtirish yo‘li bilan ishlab chiqarish vositalarini mulkchilar sinfi tomonidan o‘zlashtirib olinishi.	<b>Operation</b> - profit class of owners of means of production by assigning labor of the direct producers, workers.
80.	<b>Bolalar ustidan zo‘ravonlik</b> – bolalar bilan yomon munosabatda bo‘lish. Jismoniy, jinsiy, hissiy zo‘ravonlik yoki g‘amxo‘rlikning mavjud emasligida ifodalanishi mumkin.	<b>Child abuse</b> – child abuse. It may take the form of physical, sexual, emotional abuse or neglect.
81.	<b>Ijtimoiy siyosat</b> – ijtimoiy rivojlanish va ijtimoiy ta‘minot sohasida siyosat.	<b>Social policy</b> – policy in the field of social development and social welfare.
82.	<b>Ijtimoiy himoya</b> – inson huquqlariga amal qilish, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi.	<b>Social protection</b> – a system of measures aimed at the observance of human rights, to the satisfaction of his social needs.
83.	<b>Jamoachilik</b> – umumiylik prinsipi, jamoaviy ibtido (mehnatda, mulkka egalik qilishda va hokazo).	<b>Collectivism</b> – the principle of community, a collective home (at work, ownership of property, and so on).
84.	<b>Mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish</b> – fuqarolarning aholi tomonidan mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni mustaqil hal etishni ta‘minlovchi tashkilotlar va faoliyat, mazkur hududning barcha aholisining manfaatlaridan kelib chiqqan holda munitsipal mulkni boshqarish.	<b>Local self-government</b> – the organization and activities citizens, providing an independent decision of the local population of the issues values, management of municipal property in the interests of all the inhabitants of this territory.
85.	<b>Ta‘lim</b> – bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni, ta‘lim, ma‘rifat.	<b>Education</b> – the process of assimilation of knowledge, training, education.
86.	<b>Ijtimoiy sheriklik</b> – bu xodimlar, ish beruvchilar, davlat hokimiyat organlari va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari o‘rtasidagi, xodimlar va ish beruvchilarning mehnat va u bilan	<b>Social partnership</b> – a system of relationships between employees, employers, public authorities and local authorities, aimed at ensuring the coordination of the interests of

	bevosita bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga solish masalalari bo'yicha o'zaro munosabatlari tizimi.	workers and employers on the regulation of labor and other relations directly connected with them.
--	---	---

## ILOVALAR

### 1-ILOVA

#### Ijtimoiy ish ta'rifi

Ijtimoiy ish ijtimoiy hodisa sifatida professional faoliyatning o'ziga xos turi, insonga uning hayotining madaniy, ijtimoiy va moddiy darajasini ta'minlash maqsadida davlat va nodavlat yordam ko'rsatish, inson, oila yoki shaxslar guruhiga individual yordam ko'rsatishni aks ettiradi.

*Ijtimoiy ishning eng umumiy ta'rifi* – bu individ, guruh yoki hamjamiyatning ijobiy o'zgarishlarini amalga oshirish bo'yicha professional faoliyat.

Buyuk Britaniya Ijtimoiy xodimlar uyushmasi ijtimoiy ishning quyidagi ta'rifini keltirgan: ijtimoiy ish – bu odamlarga, hamjamiyatlarga ularga ta'sir ko'rsatuvchi shaxsiy, ijtimoiy va vaziyatga oid qiyinchiliklarni aniqlash, ta'riflash imkonini beruvchi, ularga yordam beruvchi mas'uliyatli professional faoliyat.

Ijtimoiy xodimlar xalqaro federatsiyasining har yillik uchraShuvida, 2002 yil iyul oyida, Jenevada quyidagi ta'riq qabul qilingan:

**Ijtimoiy ishning xalqaro ta'rifi.** Ijtimoiy xodim kasbi ijtimoiy o'zgarishlarga, insonlar munosabatlaridagi muammolarni hal etish, Shuningdek, odamlarning farovonligini yaxshilash maqsadida ularga imkoniyatlar taqdim qilish va ularni ozod qilishga imkoniyat yaratadi. Inson xulqi va ijtimoiy tizim nazariyasidan foydalangan holda ijtimoiy ish odamlar o'z atrof muhitlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishgan erda vujudga keladi. Inson huquqlari va ijtimoiy adolat prinsiplari ijtimoiy ish uchun asos hosil qiluvchi hisoblanadi.

### Ijtimoiy ish professional faoliyat turi sifatida

*Ijtimoiy ish*, yoki sotsionomiya (lotin tilidagi soʻzlar “socio” – jamiyat va “nomos” – qonun), bir vaqtning oʻzida

- ✓ ijtimoiy faoliyat shakli;
- ✓ ijtimoiy amaliyot;
- ✓ ilm;
- ✓ taʼlim fani.

*Ijtimoiy ish professional faoliyat turi sifatida.* Har qanday faoliyat inson tomonidan chuqurlashtirilgan umumiy va maxsus tayyorgarlik, ish tajribasi natijasida egallangan maxsus bilimlar va muayyan koʻnikmalar majmuini taqozo qiladi.

Ijtimoiy ish – *faoliyatning alohida turi*. U aholining turli qatlamlariga yordam koʻrsatishga yoʻnaltirilganligi sababli alohida turi.

Professional faoliyat sifatida ijtimoiy ish uchta sohasni qamrab oladi:

- 1) ijtimoiy ish shaxsiy va oilaviy darajalarda;
- 2) turli tabaqaga tegishli guruhlar (yoshga, jinsga, manfaatlarga koʻra) bilan ijtimoiy ish olib borish;
- 3) uyushmada, yashash manziliga koʻra ijtimoiy ish.

#### 1) *SHaxsiy va oilaviy darajalarda ijtimoiy ish*

Individual ishning asosiy maqsadi individning ijtimoiy moslashuvi va rehabilitatsiyasi, nizoli vaziyatlarni uning atrof-muhiti kontekstida hal etishdan iborat. Masalan, bolaning oiladagi jismoniy va ruhiy rivojlanishi ota-onalarning ijtimoiy-madaniy va moddiy maqomiga, ularning unga etarli darajada eʼtibor qarata olishi yoki qarata olmasligi, mazkur oila qaerda yashashi, taʼlim manbalaridan foydalanish imkoniyatiga bogʻliq. Sanab oʻtilgan barcha holatlarda bolalar va ularning ota-onalariga qonunchilikda belgilab qoʻyilgan huquqlardan foydalanish uchun malakali yordamchilarning koʻmaklari zarur. Ijtimoiy xodim qiyinchiliklarni aniqlash, oila yoki individga yordam koʻrsatishi zarur boʻlgan ijtimoiy omillar manbalariga murojaat qilishda yordam berishi mumkin.

#### 2) *Turli tabaqalarga (yoshga, jinsga, manfaatlarga oid) ega boʻlgan guruh bilan ijtimoiy ish olib borish*

Ijtimoiy yordam va qoʻllab-quvvatlashga muhtoj guruhlar quyidagicha tabaqalanishi mumkin:

- ✓ yoshga oid (bolalar, yoshlar, keksa fuqarolar);
- ✓ jinsga koʻra;
- ✓ oʻxshash muammolarga koʻra (konfessional, yolgʻiz ota-onalar, yolgʻiz onalar, sobiq ichkilikbozlar va giyohvandlar uyushmalari va boshq.).

Koʻpincha ijtimoiy xodimlar asotsial yoki hattoki kriminal tabiatga ega boʻlgan guruhlar bilan ishlashiga toʻgʻri keladi (bolalar yoki oʻsmirlar jinoyatchiligi, daydilik, uyushgan fohishabozlik, asotsial yoʻnaltirilgan guruh va h.k.).

### ***3) Uyushmada, yashash joyiga ko‘ra ijtimoiy ish olib borish***

Ijtimoiy xodim faoliyatining muhim sohasi yashash manzili va uyushmalardagi faoliyati hisoblanadi. U ijtimoiy xizmatlar tarmog‘ini kengaytirish, uyushmaga oid aloqalarni mustahkamlash, odamlar zich yashaydigan joylarda maqbul ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish, Shuningdek, mahalliy tashabbuslar, o‘zaro yordam guruhlarini tashkillashtirishga yo‘naltirilgan.

Mazkur muhitda O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy tashkiloti – mahallaning ulkan imkoniyati va kuch-qudratidan foydalanish imkonini beradi. Shunday qilib, ijtimoiy ishning mohiyatini individlarga, oilalarga, guruhlarga ularning ijtimoiy huquqlarini amalga oshirish va to‘laqonli ijtimoiy faoliyat olib borishi uchun to‘sqinlik qiluvchi jismoniy, ruhiy, intellektual, ijtimoiy va boshqa kamchiliklarning o‘rnini to‘ldirish bo‘yicha faoliyat sifatida ta’riflash mumkin.

## IJTIMOIY ISH VA INSON HUQUQLARI

### Ijtimoiy ish kasbi asoslari

Tarixdan ijtimoiy ish odamlar va guruhlar o'rtasidagi mavjud adolatsizlik bilan ishlashga yo'naltirilgan. Ijtimoiy ish amal qilish tahqirlash va manbalarni adolatsiz ravishda taqsimlashga olib keluvchi kamsitishga qarshi kurashga olib keluvchi gumanitar va demokratik g'oyalari asosida vujudga kelgan. Ushbu asosiy holat – adolatsizlikka qarshi chiqish va demokratik g'oyalarni ilgari surish – bugungi kunda ijtimoiy xodim ma'naviy kodeksining bir qismini tashkil etadi (NASW 1996).

Ijtimoiy ish inson (yoki insonlar guruhi) kabi, uning atrofida qilargalarga ham, inson atrof muhiti inson ehtiyojlarini qondirishda asosiy o'rin tutishini e'tiborga olgan holda asosiy e'tibor qaratadi (Compton i Galaway 1994; Kirst-Ashman i Hull 1993; Germain i Gitterman 1996). Ijtimoiy xodimlar nafaqat alohida odamlarga yordam berishga haarkat qiladilar, balki ular nisbatan keng ko'lamli global darajada o'zgarishlarni amalga oshirishga intiladi (Goldstein 1992). Ushbu ikki turli qarash ijtimoiy xodim kasbini inson ehtiyojlarini o'rganuvchi, biroq mazkur ehtiyojlarni hal etishda tashqi to'siqlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmagan psixologiya va tibbiyot kabi yordamchi kasblardan ajratib turadi.

#### **Zulm qilishga qarshi da'vat**

Ijtimoiy xodimlar an'anaviy tarzda jabrlangan va ajratib qo'yilgan insonlarni o'z mijozlarining muqarrar tarkibiy qismi sifatida ifodalaganlar. Kamsitish alohida insonlar yoki guruhlariga nisbatan vakolat yoki hukmronlikni adolatsiz ravishda qo'llash bilan bog'liq. Tahqirlashning irqiy, etnik, sinfiy va jinsiy tegishlilik, yoshga oid va jinsiy yo'naltirilganlik kabi turli shakllari mavjud.

#### **Ijtimoiy ish kasbining oliy vazifasi**

Ijtimoiy xodim kasbining asosiy vazifasi hayot standartlarini yaxshilash va barcha odamlarning bazaviy ehtiyojlarini qondirishda zaif, tahqirlanishi mumkin bo'lgan va qashshoqlikda yashovchilarga alohida e'tibor qaratgan holda yordam ko'rsatishdan iborat. NASW (1996:1)

#### **Ijtimoiy ish mijozlari**

Tarixdan ijtimoiy ish fuqarolik huquqlaridan mahrum qilinganlar yoki kambag'al, muhtojlarga yordam ko'rsatishni anglatgan. Bugungi kunda ijtimoiy xodimlar hayot sharoitlarini, ularning atrof muhiti sifatini hissiy, ma'naviy, psixologik yoki jismoniy jihatdan yaxshilash zarur bo'lgan insonlar bilan faoliyat olib boradilar. Ijtimoiy xodimning mijozlari kim bo'lishi mumkin?

Ijtimoiy ishning muhim tushunchalaridan biri mijozlik (clienthood) tuShunchasi hisoblanadi. Odatda ijtimoiy xodim xizmat ko'rsatuvchi mijozlar guruhi quyidagilarni qamrab oladi:

- uydan qochish, qonunbuzarliklar, zo'ravonlik kabi jiddiy nizolar va boshqa qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan oilalar, jumladan to'liq bo'lmagan oilalar;
- er-xotinlar yoki ota-onalarning farzandlari bilan shafqatsiz



munosabatda bo‘lish holatlari bilan duch keluvchi oilalar va juftliklar;

- nikohdagi jiddiy nizolari mavjud bo‘lgan juftliklar;
- ishsizlik, boquvchisining yo‘qligi, jismoniy qobiliyatsizlik, ta’lim olmaganlik sababli va qonunni buzganligi tufayli jazo muddatini o‘tagan boshqa odamlar va ularning oilalari kabi daromadlari etarli bo‘lmagan oilalar va juftliklar;

- turmushga chiqmagan homilador o‘smir qizlar;

- hayoti jismoniy yoki ruhiy hastaliklar yoki nogironlik tufayli murakkablashib ketgan individlar yoki oilalar;

- muntazam ravishda ichkilikbozlik yoki giyohvand moddalar iste’mol qiluvchi shaxslar va ularning oilalari;

- vasiylar va ota-onalari ulardan voz kechgan yoki bolalari bilan shafqatsiz munosabatda bo‘lgan bolalar;

- immigrantlar, qochoqlar va manbalari va imkoniyatlari past darajada bo‘lgan ozchiliklar vakillari yoki tahqirlash va irqchilik qurbonlari;

- ishsizlar va ularning oilalari;

- jismoniy va ruhiy rivojlanishida muammolar mavjud bo‘lgan bolalar va kattalar;

- doimiy yordamga muhtoj bo‘lgan keksalar;

- o‘z muammolarini mustaqil hal etish imkoniyatiga ega bo‘lmagan migrantlar va ko‘chib kelgan kishilar;

- maktabda muammolari bo‘lgan bolalar (va ularning oilalari);

- jarohatlar yoki hayotlaridagi muhim hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan kuchli ruhiy zo‘riqishlarni boshdan kechirayotgan odamlar (pensionerlar, yaqinlarning o‘limi), uyidan qochib ketgan bolalar.

## Ijtimoiy ish qadriyatlari

(Britaniya ijtimoiy xodimlar uyushmasi tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy ish axloqiy kodekslaridan)

### Qadriyatlar va prinsiplar

Ijtimoiy ish beshta asosiy mezonlarga tayanadi:

- Inson qadr-qimmati va qadriyati
- Ijtimoiy adolatlilik
- Insonparvarlikka xizmat qilish
- Bir butunlik
- Layoqatlilik

Ijtimoiy ish amaliyoti insonparvarlik, vijdonlilik va layoqatlilik yo‘li bilan inson qadr-qimmatini hurmat qilish kabi ijtimoiy adolatni ta‘minlashga imkoniyat yaratishi lozim.

### 3.1 Inson qadr-qimmati va qadriyat

#### 3.1.1 Mezonlar

Har bir inson o‘z-o‘zidan noyob shaxs hisoblanadi. Barcha odamlar ijtimoiy farovonlik, o‘z-o‘zini namoyon qilish va boshqalarning huquqlariga daxl qilmagan holda o‘z hayotini nazorat qilish huquqiga ega.

#### 3.1.2 Prinsiplar

Ijtimoiy xodimlar majburiyatlari:

- a) BMTning Inson huquqlari butunjahon deklaratsiyasida va deklaratsiyadan kelib chiqqan boshqa SHartnomalarda aks ettirilgan insonning asosiy huquqlarini hurmat qilish;
- b) Barcha odamlarni hurmat qilish, xizmatlardan foydalanuvchi shaxslarning e‘tiqodlari, madaniyati, maqsadi, ehtiyojlari, qarashlari, o‘zaro munosabatlari va tegishlilik (guruhlarga)ga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;
- c) Xizmatlardan foydalanuvchi shaxslar obro‘cini himoya qilish va rahbatlantirish, ularning individualligi, huquq va majburiyatlari;
- d) Boshqa odamlarning huquqlarini hurmat qilgan holda individual farovonlik va avtonomlikni rag‘batlantirish;
- e) Xizmatlardan foydalanuvchi shaxslarning huquqlarini hurmat qilish, asoslangan qarorlarni qabul qilish va xizmat ko‘rsatuvchi shaxslarni va xizmatlardan foydalanuvchi shaxslarni rag‘batlantirish, qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish;
- f) Tegishli cheklovlarni qamrab olishi, ularni va boshqa shaxslarni himoya qilish maqsadida o‘z huquqlaridan foydalanish va tegishli cheklovlarni o‘rnatishi mumkin bo‘lgan xizmatlardan foydalanuvchi shaxslarning himoyasini ta‘minlash.

### 3.2 Ijtimoiy adolat

#### 3.2.1 Mezon

Ijtimoiy adolatlilik quyidagilarni qamrab oladi:

- Asosiy insoniy ehtiyojlarni qondirish uchun manbalarni adolatli va teng tarzda taqsimlash;
- Ijtimoiy xizmatlar va imtiyozlardan foydalanishda inson imkoniyatlarini teng tarzda taqismlanishini ta'minlash;
- Individuullar, oilalar, guruhlar va uyushmalarning huquq va majburiyatlarini tan olish;
- Bir xil munosabatda bo'lish va qonun tomonidan himoyalanganlik;
- Insonning bugungi kundagi va kelajakdagi farovonligi manfaatlarida ijtimoiy rivojlanish va atrof-muhitni boshqarish.

Ijtimoiy adolatni topishga urinishlar anglash, nomaqbul sharoitlarni kamaytirish va ularni engib o'tish masalalari bilan uzviy bog'liq.

### **3.2.2 Prinsiplar**

Yo'qotishlarni engillashtirishda mas'uliyat va farovonlikka imkoniyat yaratishni har doim ham individuullar, oilalar va guruhlariga bevosita xizmat ko'rsatish yo'li bilan amalga oshirish mumkin emas. Ijtimoiy xodimlar quyidagilarga mas'uldirlar:

- a. Hukmronlikka ega bo'lgan shaxslar, jamoatchilikning e'tiborini qaratish va joiz bo'lganda, hukumat, tashkilot yoki jamiyat strategiyalari yoki faoliyati nomaqbul sharoitlarni vujudga keltiruvchi yoki yo'qotishlar va azoblarga imkoniyat yaratuvchi yoki ularning engillashtirilishiga to'sqinlik qiluvchi usullarga qarshi turish;
- b. Professional bilim va tajribalarni ijtimoiy siyosatni rivojlantirishga ko'maklashish uchun qo'llash;
- c. O'z faoliyatida to'siqlarni minimumga tushirish va xizmatlardan foydalanuvchi barcha shaxslar va ayniqsa, nomaqbul sharoitlarga tushib qolgan, zaif yoki azoblanayotgan va alohida ehtiyojlari mavjud bo'lganlar uchun tanlov va imkoniyatlarni kengaytirish maqsadida ijtimoiy adolat va manbalarning teng taqsimlanishiga imkoniyat yaratish;
- d. Tengsizlik va adolatsizlikni abadiylashtiruvchi ijtimoiy qarashlarni o'zgartirishga intilish va imkoniyat tug'ilganda inson huquqlari buzilishiga barham berish uchun ishlash;
- e. Inson huquqlarini qo'llab-quvvatlovchi va barcha uchun ochiqlik, tenglik va hamdardlikni ta'minlashga intiluvchi prinsiplar, jarayonlar va ijtimoiy sharoitlarga imkoniyat yaratish;
- f. Nafaqat fuqarolik va siyosiy, balki Shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni qo'llab-quvvatlash;
- g. Har bir inson yoki guruhlariga turli asosda, jumladan, kelib chiqishi, millati, sinfi, ijtimoiy maqomi, jins, jinsiy qarashlari, yoshi, ishga layoqatsizligi, fikrlari yoki jamiyatga qo'shgan hissasini qamrab olgan holda atayin qarshi harakatlarni amalga oshirmaslik;
- h. Odamlarni ularning hayotiga ta'sir ko'rsatuvchi qarorlardan odamlarni tahqirlash yoki kamsitish maqsadida hukmronlikni suiste'mol qilishga qarshi turish;
- i. Tahqirlashga qarshi va imkoniyatlarga ega bo'lish maqsadida strategiyalar va usullarni qo'llab-quvvatlash va individuullarga, oilalarga, guruhlar va

uyushmalarga ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy manbalardan teng tarzda foydalanishga erishish va o'z-o'zini namoyon qilish, o'z-o'zini boshqarish va ijtimoiy farovonlikka erishishga intilish;

j. Etnik va madaniy tegishlilik va etnik va madaniy guruhlardagi xilma-xillikni tan olish va hurmat qilish, mazkur vazifaga oid strategiya, jarayonlar va prinsiplarni rivojlantirish;

k. Jamiyatning ijtimoiy jarayonlarda va qarorlarda, Shuningdek, ijtimoiy strategiyalar va xizmatlarni rivojlantirishda ishtirokini rag'batlantirish.

### **3.3 Insonparvarlikka xizmat qilish**

#### **3.3.1 Mezonlar**

Inson farovonligi va ijtimoiy adolat manfaatlarida xizmat qilish ijtimoiy ishning birlamchi maqsadi hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish;
- odamlar imkoniyatlarini rivojlantirishga imkoniyat yaratish;
- nisbatan adolatli jamiyatni yaratishga hissa qo'shish.

#### **3.3.2 Prinsiplar**

Ijtimoiy xodimlarning burchlari:

a. O'z faoliyati etikasi uchun milliy yoki xalqaro axloqiy kodekslarga muvofiq ravishda mas'ul bo'lish;

b. O'z faoliyati davomida burchlarini bajargan va tabiiy adolat prinsiplariga amal qilgan holda insonparvarlikka xizmat qilishni eng yuqori o'ringa qo'yish;

c. O'z irodasi va vakolatlarini xizmatlardan foydalanuvchi shaxslarni partisipator va ochiq jarayonlardan foydalangan holda rag'batlantirish, o'z maqsadlarini mazkur jarayonga daxldor bo'lishi mumkin bo'lgan boshqalarning manfaatlarini e'tiborga olgan holda imkon qadar amalga oshirish jarayonida qo'llash;

d. Xizmatlardan foydalanuvchi shaxslarni ular tanlashlari lozim bo'lganda, ularga shikoyat qilish jarayonida qo'l kelishi mumkin bo'lgan shikoyat qilish, ular qo'llab-quvvatlanishini kafolatlashi mumkin bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlash;

e. Taklif qilinayotgan va taqdim qilinayotgan xizmatlarni madaniyatga mos ravishda ta'minlashga intilish;

f. xizmatlardan foydalanyotgan shaxslarning amaliyot va strategiyalarni ishlab chiqish va ko'rsatilayotgan xizmatlarni baholash strategiyasini ishlab chiqishini ta'minlashga intilish.

### **3.4 Bir butunlik**

#### **3.4.1 Mezonlar**

Bir butunlik halollik, ishonchlilik, ochiqlik va xolislikni qamrab oladi va ijtimoiy ish amaliyotida zarur qadriyat hisoblanadi.

#### **3.4.2 Prinsiplar**

Ijtimoiy xodimlarning majburiyatlari:

a. Xizmatlardan foydalanuvchi shaxslarning ehtiyojlari va manfaatlarini shaxsiy qarashlari, maqsadlari, fikrlari va foydalaridan ustun qo'yish va shaxsiy, moddiy yoki moliviy foyda olish maqsadida professional munosabatlardan foydalanmaslik;

b. Ularning shaxsiy xulqi kasbiy majburiyatlarni bajarishni xavf ostida qoldirmasligini, professional prinsip va standartlarga zid bo'lgan yoki kasbning bir butunligiga ziyon etkazuvchi bu kabi xulqdan qochishni kafolatlash;

c. O'z malakasi, bilim, tajriba, yutuqlariga nisbatan va qandaydir guruhlariga tegishliligiga nisbatan halol va aniqlik bilan yondashishi zarur;

d. Ommaviy bayonotlar qilgan holda ular xususiy shaxslar yoki ijtimoiy ish kasbi vakillari, yoki tashkilot yoki guruh nomidan gapiryaptimi, Shuni aniq tuShuntirishi lozim;

e. Aniq va tegishli professional chegaralarni nizolar xavfini, xizmatlardan foydalanuvchi yoki foydalangan shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda tadqiqot ishtirokchilari, talabalar, kuzatuv ostidagi shaxslar yoki ularning hamkasblari tomonidan ekspluatatsiya qilish yoki zarar etkazish kamaytirishga yo'naltirgan holda o'rnatish va kuchaytirish;

f. Xulqning kasbiy chegaralarni buzishi mumkin bo'lgan, professional o'zaro munosabatlarga zarar yoki ziyon etkazishi mumkin bo'lgan professional chegaralarni buzishi mumkin bo'lgan har qanday shakllaridan qochish;

g. Ayni vaqtda xizmatlardan foydalanuvchi shaxslar, talabalar, kuzatuv ostidagi shaxslar, tadqiqotlar ishtirokchilari yoki mazkur ijtimoiy xodim vakolati yoki ixtiyorining tengsiz tarzda taqsimlanishida o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin bo'lgan professional holatida bo'lganlar bilan hech qanday yashirin yoki jinsiy xarakterdagi munosabatlarga kirishmaslik;

h. Xizmatlardan foydalanuvchi shaxslar bilan yashirin yoki jinsiy munosabatlarga kirishmaslik; agar zarur bo'lsa maslahatlashish.

### **3.5. Layoqatlilik**

#### **3.5.1 Mezonlar**

Ijtimoiy ish amaliyotida malaka – zarur mezon.

#### **3.5.2 Prinsiplar**

Ijtimoiy xodimlar majburiyatlari:

a. Ijtimoiy ish amaliyotida bilimlarni, nazariya va ko'nikmalarni belgilash, rivojlantirish, qo'llash va tarqatish;

b. O'z malakasini kengaytirish maqsadida yangi yondaShuvlar va metodologiyalarni baholagan holda sifatli xizmatlar ko'rsatish maqsadida o'z bilimlarini saqlash va kengaytirish;

c. Mavjud nazoratdan foydalanish va zarur kuzatuvlarni ta'minlash uchun zaruratga ko'ra faol chora-tadbirlarni qo'llagan holda uzluksiz ravishda professional ravishda takomillashib borish;

d. Ijtimoiy muammolar tabiati va manbalarini hamda ularni hal etish usullarini o'ylab chiqish;

e. Baholash va tadqiqotlarga imkoniyat yaratish;

f. Bilimlar va amaliy tajribasi bilan bo'lishgan holda hamkasblar va talabalarni o'qitish va tayyorlashga imkoniyat yaratish;

g. Insonning ijtimoiy farovonligini ta'minlashga qaratilgan strategiya va dasturlarni rivojlantirish va qo'llashga imkoniyat yaratish;

h. Madaniyat va madaniy sezuvchan xizmatlar bilan o'zaro muvofiq bo'lgan amaliyotlarning tarqatilishiga imkoniyat yaratish;

i. O'z bilim chegaralarini anglash va nisbatan mos bo'lgan professional talab etilgan holatlarda bu haqda ish beruvchilar va xizmatlardan foydalanuvchi shaxslarni xabardor qilish;

j. Xizmatlardan foydalanuvchi shaxslarni ko'plab professionallar faoliyat olib borayotgan ishning afzalliklari va natijalari, ularning ma'lumot almashinuvi to'g'risidagi huquqlari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash va ularning roziligini olgandan so'ng, mas'uliyatni bu jarayon bilan bog'liq bo'lgan professionallar bilan bo'lishgan holda ularning farovonligini yaxshilash uchun faoliyat olib borish;

k. Agar zaif salomatlik yoki boshqa har qanday omil ularning professional qarorlari yoki majburiyatlarni bajarishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillar mavjud bo'lsa, zarur chora-tadbirlarni qabul qilish.

## IJTIMOIY XODIM PROFESSIOGRAMMASI <sup>1</sup>

### I. Ijtimoiy ish ta'rifi

***Ijtimoiy ish*** – bu odamlarning hayotiy farovonligini oshirish maqsadida odamlar orasidagi muammolarni hal etishga yo'naltirilgan va jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarga imkoniyat yaratish maqsadida ularga yordam ko'rsatish va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan professional faoliyat.

***Ijtimoiy ish*** quyidagilardan iborat:

- odamlar, ijtimoiy guruhlar va shaxsiy qiyinchiliklarni engib o'tishga yo'naltirilgan amaliy faoliyat;
- o'quv fani;
- ilmiy yo'nalishlar.

### II. Ijtimoiy xodim faoliyati mohiyati

- individuumlar, oilalar, guruhlar va hamjamiyatlarga yordam ko'rsatish (ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiy oldini olish);
- turli davlat va ijtimoiy tashkilotlar va muassasalarning zarur ijtimoiy himoya va aholiga yordam ko'rsatish bo'yicha faoliyati integratsiyasiga imkoniyat yaratish;
- ijtimoiy va psixosotsial muammolarni o'rganish;
- aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamalari bilan bog'liq muammolarni hal etish bo'yicha ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish va mazkur dasturlarning samaradorligini baholash.

### III. Ijtimoiy ish faoliyati sohasiga qamrab olingan tashkilotlar:

Ijtimoiy xodim faoliyati odamlar bilan bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) ijtimoiy ish olib borish kabi tashkiliy-boshqaruvchi va ma'muriy faoliyat darajasida ham amalga oshirilishi mumkin. Ijtimoiy xodim bo'lishi bilan bir qatorda boshqa muassasalar bilan hamkorlikda ham faoliyat olib borishi mumkin:

- aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi (Muruvvat uylari, Saxovat uylari, ijtimoiy ta'minot muassasalari va boshq.), xalq ta'limi (Mehribonlik uylari, vasiylik va g'amxo'rlik organlari, umumta'lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan maktabgacha va maktab muassasalari, yordamchi ta'lim muassasalari va boshq.), sog'liqni saqlash (Go'daklar uylari, oilaviy poliklinikalar, ixtisoslashtirilgan tibbiy muassasalar, reabilitatsion markazlar, tibbiy-pedagogik-psixologik komissiyalar va h.k.) muassasalari va tashkilotlari, hokimiyatlar huzuridagi voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar, ixtisoslashtirilgan professional-texnik kollejlari hamda litseylar va boshq.
- tuman, shahar va viloyat hokimiyatlari;
- tuman, shahar va viloyat xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot,

mehnat va ijtimoiy himoya organlari, ichki ishlar organlari;

- mahalla;
- ijtimoiy tashkilotlar hamda uyushmalar va boshq.

**IV. Ijtimoiy xodimlar mijozlari** ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, yordam, xizmat ko‘rsatish va himoyaga muhtoj, ijtimoiy himoyalanmagan odamlar guruhi:

▪ *Bolalar va yoshlar*: boquvchisini yo‘qotgan bolalar; alohida ehtiyojlari mavjud bolalar, OITS bilan yashovchi bolalar; huquqiy xavf mavjud yoki qonun bilan nizoga kirgan bolalar va yoshlar; bolalar institutsional muassasalari o‘quvchilari va bitiruvchilari; zo‘ravonlik yoki yomon munosabat qurbonlari bo‘lgan bolalar, zo‘ravonlik guvohlari; trafikka, mehnatning eng yomon shakllari va barcha turdagi ekspluatatsiyaga jalb qilingan bolalar; tabiiy ofatlar, qurolli nizolar va boshqalardan zararlangan bolalar;

▪ *Oilalar va ayollar*: kam ta’sinlangan oilalar, ko‘p bolali oilalar, ota-onalarining bittasi bilan yashovchi bolalar, oila a’zolarida OITS bo‘lgan oilalar, alohida ehtiyojlari mavjud bo‘lgan shaxslardan iborat oilalar, inqirozli vaziyatga tushib qolgan oilalar (a’zolaridan biri vafot etgan, ajrashgan, nizolar, uydagi zo‘ravonlik, migratsiya va h.k.); tabiiy ofatlardan, qurolli ixtiloflardan zarar ko‘rgan oilalar; farzand asrab olgan oilalar va qabul qiluvchi oilalar va boshq.;

- nogironlar va ularning oilalari;
- ijtimoiy ko‘makka muhtoj keksalar;
- murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan odamlar: yaqinlarining o‘limi yoki og‘ir kasalliklarni boshdan kechirganlar, surunkali kasalliklarga chalinganlar, ish o‘rnini, turar joyi va boshqalarni yo‘qotganlar;
- OITS bilan yashovchi odamlar;
- ichkilikbozlik va yoki giyohvandlikka chalingan odamlar;
- penitensiar muassasalardan chiqqan va yoki yopiq muassasalarda jazo muddatini o‘tayotgan odamlar.

## **V. Ijtimoiy xodimning professional bilimlari**

*Ijtimoiy xodim bilimlarga ega bo‘lishi lozim:*

- O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy siyosatning asosiy prinsiplari, davlat ijtimoiy dasturlari va ijtimoiy siyosat sohasidagi yo‘nalishlar;
- professional faoliyat sifatidagi ijtimoiy ish haqida;
- ijtimoiy ishning professional-axloqiy modellari va mazkur sohadagi tadqiqotlar to‘g‘risida;
- ijtimoiy ishning zamoanviy nazorati va mazkur sohadagi tadqiqotlar to‘g‘risida;
- ijtimoiy muammolarni hal etish, baholashni, intervensiya, ijtimoiy rehabilitatsiya va oldini olishning turli usullari to‘g‘risida;
- inson xulqi va rivojlanishi to‘g‘risida, ijtimoiy muhitning rivojlanishi to‘g‘risida, biologik, psixologik, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillarning inson rivojlanishi va xulqini shakllantirishning o‘zaro munosabatlari to‘g‘risida;
- aholining turli guruhlarining yoshga oid, psixoijtimoiy va etnomadaniy



o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida;

- an'analar, madaniyat, din, Shuningdek, inson rivojlanishi va xulqiga bu kabi ta'sirning ijobiy va salbiy tomonlarini e'tiborga olgan holda shakllangan shaxsiy qarashlar va ko'rsatmalari to'g'risida;

- aholining turli guruhlarining yoshga oid, psixoiqtimoiy va etnomadaniy xususiyatlari to'g'risida;

- an'analar, madaniyat, din, Shuningdek, inson rivojlanishi va xulqiga bu kabi ta'sirning ijobiy va salbiy tomonlarini e'tiborga olgan holda shakllangan shaxsiy qarashlar va ko'rsatmalari to'g'risida;

- aholini ijtimoiy himoya qilishning xalqaro-huquqiy va milliy-davlatga oid me'yorlari to'g'risida (oilaviy, mehnat me'yorlari, turar joy qonunchiligi, onalik va bolalikni muhofaza qilishni, bolalar huquqlarini, alohida ehtiyojlari mavjud bo'lgan odamlarni himoya qilishni tartibga soluvchi qonunchilik, jinoiy, ma'muriy, fuqarolik va oilaviy huquq asoslari);

- vasiylik, o'g'il/qiz qilib olish, patronaj oilalarga joylashtirish, imtiyozlar va nafaqalar tayinlash, ishga joylashtirish, tibbiy va ta'lim muassasalariga joylashtirish va hokazolar tartibi va tashkillashtirilishi to'g'risida va h.k.

## **VI. Ijtimoiy ish professional bilim va ko'nikmalari**

*Ijtimoiy xodim quyidagilarni bilishi lozim:*

- o'z professional amaliy faoliyatida professional-axloqiy me'yorlarga amal qilish;
- individuumlar, oilalar, guruhlar va hamjamiyatlar bilan ishlashni bilish;
- o'z amaliy faoliyati davomida kasbiy-axloqiy me'yorlarga amal qilish;
- aholining turli guruhlariga (bolalar, yoshlar, ayollar, keksalar, nogironlar va h.k.) yordam ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlarini bilish va yordam ko'rsata olish;
- muloqot ko'nikmalariga ega bo'lish (mijozlar, bolalar, hamkasblar va boshqa mutaxassislar bilan shaxslararo muloqot ko'nikmalari, verbal va noverbal muloqot ko'nikmalari);
- baholash va rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish (to'liq baholash uchun ma'lumotlar to'plash va ularni tahlil qilish, mijoz vaziyatini baholash asosida aniq reja va keliShuvlarni amalga oshirish, erishilgan natijalarni muntazam tahlil qilish va o'zgartirish);
- inventarizatsiya o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lish (mijozlar bilan bevosita ish olib borish, hamkasblar va boshqa mutaxassislar bilan hamkorlik qilish, rejalarni zaruratga ko'ra tahlil qilish va o'zgartirish);
- ishchi yozuvlarni qayd etib borish ko'nikmalariga ega bo'lish (ishlar bo'yicha qaydlarni olib borish, hisobot va xatlar yozish, tashkilotda o'rnatilgan talablarga muvofiq ravishda aniq va tuShunarli yozuvlarni olib borish);
- o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lish (o'z ishi va vaqtini tashkillashtirish, o'zining kuchli va kuchsiz tomonlarini bilish);
- rahbarning qo'l ostida yoki nisbatan tajribali hamkasblar bilan ishlash

- qobiliyatiga ega bo'lish, o'rganishga tayyorlik;
- nazariyani amaliyotda qo'llash imkonitiga ega bo'lish (ijtimoiy ish nazariyasini bilish va tushunish, amaliy faoliyat uchun mos keluvchi nazariyani tanlab olish va qo'llash ko'nikmasi);
- ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishning miqdoriy va sifatga oid usullarini qo'llagan holda tadqiqotlarni amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- zamonaviy tadqiqotlar ma'lumotlarini qo'llagan holda isbotlarga asoslangan amaliyotni qo'llash;
- aholini ijtimoiy himoya qilishni ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmini qo'llash;
- hamkasblar va boshqa mutaxassislar bilan jamoada ishlash ko'nikmasini bilish (samarali ishchi munosabatlarni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, g'oyalar va ma'lumotlar bilan bo'lishish qobiliyati);
- o'z tashkiloti manfaatlarini tushunish va himoya qilish (tashkilot siyosatini, uning jarayonlari, maqsad-vazifalari bilish va tushunish, tashkilotni taqdim qilish ko'nikmasi);
- o'z kasbiy layoqatini oshirishga ko'maklashish.

## **VII. Ijtimoiy xodim uchun zarur bo'lgan professional-shaxsga oid xususiyatlar**

*Ijtimoiy xodim quyidagi kasbiy-shaxsga oid xususiyatlarga ega bo'lishi va ularni namoyon qilishi lozim:*

- har bir inson qadrini so'zsiz qabul qilish, uning huquqlarini hurmat qilish;
- odamlarning individual farqlariga ortiqcha baholarsiz munosabat, tolerantlik;
- rivojlangan o'z-o'zini anglash va o'z-o'ziga baho berish, tanqidiy tafakkur;
- empatiya (qayg'udosh bo'lish va hamdard bo'lish);
- refleksiya (fikir yuritish, mulohaza qilish qobiliyati);
- odamlar bilan muloqot o'rnatish va ishonchli munosabatlar o'rnatish;
- odamlarning hissiy holatiga nisbatan ziyraklik va ta'sirchanlik, hissiy vazminlik va chidab turishlik;
- murakkab vaziyatlarni hal etishda qat'iyat va izchillik;
- xavotirlikning maqbul darajasi, ruhiy zo'riqish holatlariga moyillikning mavjud emasligi;
- yordam ko'rsatilayotgan odamlar va oilalarning kuchli tomonlarini ko'rish va rivojlantirish;
- ruhiy zo'riqish va murakkab hissiy vaziyatlarda ishlash ko'nikmalari: o'z-o'zini nazorat qilish, o'z hissiyotlariva xulqini boshqarish ko'nikmasi.

## **VIII. Ijtimoiy xodimlarning axloqiy maburiyatlari**

*Ijtimoiy xodim majburiyatlari quyidagilardan iborat:*

- ijtimoiy ish mijozlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish;

- mijozlarda ma'lumotlarning sir saqlanishiga ishonirish va ishonchini saqlab qolishga intilish;
- xizmatlardan foydalanayotgan shaxslarning erkinlikka erishishlariga imkoniyat yaratish va imkon qadar ularni turli xavflardan va zarar etishidan saqlash;
- amaliyot davomida odamlar orasidagi madaniy, etnik, yoshga oid, genderli farqlarni e'tiborga olish;
- mijozlarning huquqlarini bilish va hurmat qilish, ijtimoiy xodimning xulqi va ishda qo'llanilayotgan yondaShuvlar mijozlarga zarar etkazmaydi;
- ijtimoiy xizmatlarga jamoat ishonchini yo'qotmaslik;
- o'z faoliyati sifati va o'z bilim va ko'nikmalarini saqlash va takomillashtirish uchun mas'ul bo'lish;
- millat, yosh, diniy e'tiqod, oilaviy maqom, aqliy yoki jismoniy xususiyatlarga, imtiyozlar, shaxsiy xislatlar va boshqalarga ko'ra tahqirlashning har qanday shakllarining namoyon bo'lishini inkor qilish va bunga to'sqinlik qilish.

## **IX. Ijtimoiy xodimning professional majburiyatlari**

### *Ijtimoiy xodim majburiyatlari:*

- ijtimoiy-tibbiy, huquqiy, psixologik-pedagogik, moddiy va boshqa yordamga, ma'naviy, jismoniy va ruhiy salomatlikni himoya qilishga muhtoj bo'lgan oilalar, bolalar va alohida shaxslarni aniqlash;
- ijtimoiy muhofazaga muhtoj oilalar, bolalar va kattalarning turmush tarzini o'rganish va ularning huquqiy va ijtimoiy himoyasini tashkillashtirish;
- mijozlarning ehtiyojlarini aniqlash va zarurat tug'ilganda ularni qo'shimcha xizmatlardan foydalanishlari uchun boshqa tashkilotlarga yo'naltirish: tibbiy va ta'lim muassasalariga joylashtirishda, moddiy, ijtimoiy-maishiy va boshqa yordam olishda ko'maklashish;
- mijozlarda vujudga keladigan qiyinchiliklarni, nizoli vaziyatlarni aniqlash, ularga mazkur qiyinchiliklarni, nizolarni engib o'tishda ko'maklashish va ijtimoiy yordam ko'rsatish;
- mijoz/mijozlar bilan ularning muammolarini hal etish bo'yicha ijtimoiy ishning zamonaviy nazariyalari va modellarini qo'llagan, mijozning kuchli tomonlariga e'tibor qaratgan va uning atrofidagi manbalarni izlagan holda bevosita ish olib borish;
- ota-onasiz qolgan bolalarni joylashtirish bo'yicha ishlarni tashkillashtirish va muvofiqlashtirish (masalan, farzandlikka olish yoki bolalarni asrab oluvchi oilaga joylashtirish va boshq.);
- mijozlarni ijtimoiy moslashtirish va rehabilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlarni tashkillashtirish va muvofiqlashtirish (masalan, institutsional muassasalar bitiruvchilarini, ozodlikdan mahrum qilish joylaridan qaytgan shaxslarni va boshq.);
- mijozlarni ularning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasi va vujudga kelgan hayotiy qiyinchiliklarini mustaqil ravishda hal etish uchun zarur bo'lgan

ko'nikmalarga o'rgatish;

- mijozlarni ota-onalik ko'nikmalarini rivojlantirish, bolalar ehtiyojlari va ularning yoshga oid rivojlanishini, bolalarga nisbatan shafqatsiz va e'tiborsiz munosabatda bo'lish va bola va oilaning xotirjamligini yaxshilash bo'yicha maslahat berish;

- mijozlarni nomaqbul xulq o'zgarishlari va ijtimoiy maqbul xulqqa erishish masalalari bo'yicha maslahat berish;

- oilalarni bolalar, kasallar va keksalarni parvarishlash qoidalari va ko'nikmalariga o'rgatish bo'yicha yordamni tashkillashtirish va ko'rsatish;

- ijtimoiy muhofazaga muhtoj odamlar guruhiga nisbatan va professional ijtimoiy ishni ommalashtirish maqsadida jamiyatning xabardorligini OAVlari hamda ta'lim dasturlari orqali oshirish.

**X. Boshqa tashkilotlar va xizmatlar bilan o'zaro munosabatlar, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimidagi hamkasblar bilan hamkorlik qilish** (psixologlar, huquqshunoslar, pedagoglar, tibbiy xodimlar, ijtimoiy himoya organlari xodimlari, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va boshq.)

*Ijtimoiy xodim:*

- hamkasblari bilan ochiq hamkorlikda faoliyat olib boradi va ularga hurmat bilan munosabatda bo'ladi;

- mijozga yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan turli tashkilotlar va muassasalar vakillari bilan o'zaro munosabatlarni belgilaydi, o'zaro munosabatlarga kirishadi va hamkorlik qiladi;

- jamiyatning turli institutlarini ijtimoiy xizmatlar faoliyatiga va mijozlarga yordam ko'rsatuvchi va ularni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy xizmatlar tarmog'ini yaratishga qamrab olishga imkoniyat yaratadi;

- murakkab hayotiy vaziyatga tushib qolgan boshqa odamni boshqa kasblar va aholi vakillari tomonidan to'g'ri qabul qilinishi va tushunilishiga yordam ko'rsatadi;

- mijoz bilan faoliyat olib borishga qamrab olingan mutaxassislar bilan, maxfiylikni saqlash va uning eng maqbul manfaatlariga amal qilgan holda ma'lumotlar almashinadi;

- manfaatlar ixtilofini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan bahsli masalalarni bayon qiladi;

- rahbariyat yoki tegishli mas'ul tuzilmalarni aholining turli toifalariga ijtimoiy yordam ko'rsatish va qo'llab-quvvatlash jarayonida vujudga keladigan imkoniyatlar yoki tezkor qiyinchiliklar to'g'risida xabardor qiladi;

- o'zini ijtimoiy himoya bo'yicha faoliyatni bajarishga layoqatli yoki etarli darajada tayyor, deb hisoblamasa, rahbariyatga maslahat yoki yordam so'rab murojaat qiladi;

- hamkasblari tomonidan xizmat ko'rsatish standartlarini suiste'mol qiluvchi xavfsiz amaliyotni qo'llash holatlari to'g'risida rahbariyat yoki boshqa mas'ul tashkilotlarga xabar beradi;

**XI. Ijtimoiy xodim kasbining o'ziga xos xususiyatlari**

Ijtimoiy xodim o‘z kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari tufayli u xabardor qilinishi va supervayzer yoki rahbari yordamida hal qilishi lozim bo‘lgan qator qiyinchiliklar va muammolarga duch keladi:

- ruhiy-hissiy va jismoniy toliqish, hissiy qabul qilish darajasining pasayishi, kasbiy sabablarning kamayishida namoyon bo‘luvchi kasbiy “kuyish” sindromi;
- axloqiy ikkilanishlar va har bir muayyan vaziyatda qaror qabul qilish zarurati;
- ularning salomatligi va hayotiga tahdid soluvchi vaziyatlarga duch kelish;
- mijozlarning real vaziyatlari va ularning muammolarini hal etish uchun vaqt va vositalarning tanqisligi;
- axborotning ortib ketishi yoki muayyan muammo bo‘yicha tezkor qarorlar qabul qilish sharoitida axborot tanqisligi.

### **Ijtimoiy xodim faoliyati natijalari**

Ijtimoiy xodim faoliyati va professional ijtimoiy ish institutining mavjudligi natijasida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- jamiyatda mavjud ijtimoiy muammolarni hal etish yoki kamaytirish (oilalar, yoshlar, keksalar, nogiron shaxslar, OITSGa chalinganlar, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarga ruju qo‘yganlar bilan bog‘liq muammolar);
- turli ko‘rinishdagi ijtimoiy muammolar vujudga kelishining oldini olish;
- iqtisodiy maqsadga muvofiqlik va ijtimoiy xodimlarning ijtimoiy muammolarning vujudga kelishi va ularning chuqurlashib ketishining oldini olishga qaratilgan faoliyatiga mablag‘ kiritishning foydasi;
- jamiyat, oila, sholining turli guruhlari, inson darajasidagi ijtimoiy muammolarning paydo bo‘lishini prognoz qilish.

**BMT Bosh Assambleyasi tomonidan  
1948 yil 10 dekabrda qabul qilingan**

**INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASI**

Insoniyat oilasining hamma a'zolariga xos qadr-qimmat va ularning teng, ajralmas huquqlarini tan olish erkinlik, adolat va yalpi tinchlik asosi ekanligini e'tiborga olib;

- inson huquqlarini mensimaslik va uni poymol etish insoniyat vijdoni qiynaladigan vahshiyona ishlar sodir etilishiga olib kelganini, kishilar so'z erkinligi va e'tiqod erkinligiga ega bo'ladigan hamda qo'rquv va muhtojlikdan holi sharoitda yashaydigan dunyoni yaratish insonlarning ezgu intilishidir deb e'lon qilinganligini e'tiborga olib;
- inson oxirgi chora sifatida zulm va istibdodga qarshi isyon ko'tarishga majbur bo'lishining oldini olish maqsadida inson huquqlari qonun kuchi bilan himoya etilishi zarur ekanligini e'tiborga olib;
- xalqlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirishga ko'maklashish zarurligini e'tiborga olib;
- Birlashgan Millatlar xalqlari insonning asosiy huquqlariga, shaxsning qadr-qimmatiga, erkak va ayolning teng huquqliligiga, o'z e'tiqodlarini Nizomda tasdiqlaganliklari hamda yanada kengroq erkinlikda ijtimoiy taraqqiyot va turmush sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashishga ahd qilganliklarini e'tiborga olib;
- a'zo bo'lgan davlatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan hamkorlikda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini yalpi hurmat qilish va unga rioya qilishga ko'maklashish majburiyatini olganligini e'tiborga olib;
- mazkur huquqlar va erkinliklarning xarakterini yalpi tushunish ushbu majburiyatlarning to'liq ado etilishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lishini e'tiborga olib

Bosh Assambleya mazkur Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini barcha xalqlar va barcha davlatlar bajarishga intilishi lozim bo'lgan vazifa sifatida e'lon qilar ekan, bundan muddao Shuki, har bir inson va jamiyatning har bir tashkiloti doimo ushbu Deklaratsiyani nazarda tutgan holda ma'rifat va ta'lim yo'li bilan bu huquq va erkinliklarning hurmat qilinishiga ko'maklashishi, milliy va xalqaro taraqqiyparvar tadbirlar orqali ham uning bajarilishi ta'minlanishiga, Tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar xalqlari o'rtasida va ushbu davlatlarning yurisdiksiyasidagi hududlarda yashayotgan xalqlar o'rtasida yalpisiga va samarali tan olinishiga intilishlari zarur.

**1-MODDA**

Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin, bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak.

## **2-MODDA**

Har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat'i nazar ushbu Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va barcha erkinlikka ega bo'lishi zarur.

Bundan tashqari, inson mansub bo'lgan mamlakat yoki hududning siyosiy, huquqiy yoki xalqaro maqomidan, ushbu hudud mustaqilmi, vasiymi, o'z-o'zini idora qiladimi yoki boshqacha tarzda cheklanganligidan qat'i nazar biror bir ayirmachilik bo'lmasligi kerak.

## **3-MODDA**

Har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir.

## **4-MODDA**

Hech kim qullikda yoki erksiz holatda saqlanishi mumkin emas; qullik va qul savdosining barcha ko'rinishlari taqiqlanadi.

## **5-MODDA**

Hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rllovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak.

## **6-MODDA**

Har bir inson qaerda bo'lishidan qat'iy nazar, o'zining huquq sub'ekti sifatida tan olinishiga haqli.

## **7-MODDA**

Barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir. Barcha odamlar ushbu Deklaratsiyaga zid bo'lgan har qanday kamsitishdan va Shunday kamsitishga undaydigan har qanday gij-gijlashdan teng himoya qilinish huquqiga egadir.

## **8-MODDA**

Har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega.

## **9-MODDA**

Hech kim asossiz qamalishi, ushlanishi yoki quvg'in qilinishi mumkin emas.

## **10-MODDA**

Har bir inson huquq va burchlarini belgilash va unga qo'yilgan jinoiy aybning qanchalik darajada asosli ekanligini aniqlashi uchun to'liq tenglik asosida uning

ishi oshkora va adolat talablariga rioya qilingan holda mustaqil va xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqiga ega.

### **11-MODDA**

1. Jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir inson himoya uchun barcha imkoniyatlar ta‘minlangan holda, ochiq sud majlisi yo‘li bilan uning aybi qonuniy tartibda aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishga haqlidir.

2. Hech kim, sodir etilgan vaqtda milliy qonunlar yoki xalqaro huquqlarga ko‘ra jinoyat deb topilmagan xatti-harakati yoki faoliyatsizligi uchun jazoga hukm qilinishi mumkin emas. Shuningdek, jinoyat sodir etilgan vaqtda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan jazoga nisbatan og‘irroq jazo berilishi mumkin emas.

### **12-MODDA**

Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomus va sha‘niga o‘zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas. Har bir inson xuddi Shunday aralaShuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga ega.

### **13-MODDA**

1. Har bir inson har bir davlat doirasida erkin yurish va yashash joyi tanlash huquqiga ega.

2. Har bir inson har qanday mamlakatdan, xususan, o‘z mamlakatidan chiqib ketish va o‘z mamlakatiga qaytib kelish huquqiga ega.

### **14-MODDA**

1. Har bir inson ta‘qib tufayli boshqa mamlakatlardan boshpana izlash va o‘sha boshpanadan foydalanish huquqiga ega.

2. Bu huquqdan nosiyosiy jinoyat sodir etish uchun yoki Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va prinsiplariga zid xatti-harakat tufayli ta‘qib paytida foydalanish mumkin.

### **15-MODDA**

1. Har bir insonning fuqaro bo‘lish huquqi bor.

2. Hech kim o‘zboshimchalik bilan o‘z fuqaroligidan yoki o‘z fuqaroligini o‘zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas.

### **16-MODDA**

1. Balog‘at yoshiga etgan erkaklar va ayollar irqi, millati yoki diniy belgilari bo‘yicha hech qanday cheklashsiz nikohdan o‘tishga va oila qurishga haqli. Ular nikohdan o‘tishda, nikohda turgan vaqtlarida va uni bekor qilish vaqtida bir xil huquqdan foydalanadi.

2. Nikohdan o‘tayotgan har ikki tomonning erkin va to‘liq roziligi asosidagina nikoh tuzilishi mumkin.

3. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli.



## **17-MODDA**

1. Har bir inson yakka holda, Shuningdek, boshqalar bilan birgalikda mulkka egalik qilish huquqiga ega.
2. Hech kim zo‘ravonlik bilan o‘z mulkidan mahrum etilishi mumkin emas.

## **18-MODDA**

Har bir inson fikr, vijdon va din erkinligi huquqiga ega; bu huquq o‘z dini yoki e‘tiqodini o‘zgartirish erkinligini va ta‘limotda, toat-ibodat qilishda va diniy rasm-rusm hamda marosimlarni ommaviy yoki xususiy tartibda ado etish, o‘z dini yoki e‘tiqodiga yakka o‘zi, Shuningdek, boshqalar bilan birga amal qilish erkinligini o‘z ichiga oladi.

## **19-MODDA**

Har bir inson e‘tiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir tusiqsiz o‘z e‘tiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va g‘oyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qat‘iy nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini o‘z ichiga oladi.

## **20-MODDA**

1. Har bir inson tinch yig‘inlar o‘tkazish va uyushmalar tuzish huquqiga ega.
2. Hech kim biror bir uyushmaga kirishga majbur qilinishi mumkin emas.

## **21-MODDA**

1. Har bir inson bevosita yoki erkin saylangan vakillar vositasi orqali o‘z mamlakatini boshqarishda qatnashish huquqiga ega.
2. Har bir inson o‘z mamlakatida davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega.
3. Xalq irodasi hukumat hokimiyatining asosi bo‘lishi lozim; bu iroda davriy va soxtalashtirilmagan, yalpi va teng saylov huquqidan, yashirin ovoz berish yo‘li bilan yoki ovoz berish erkinligini ta‘minlaydigan boshqa teng qiymatli shakllar vositasida o‘tkaziladigan saylovlarda o‘z aksini topishi lozim.

## **22-MODDA**

Har bir inson jamiyat a‘zosi sifatida milliy kuch-harakatlar hamda xalqaro hamkorlik vositasida va har bir davlatning tuzilishi, Shuningdek, resurslariga muvofiq ijtimoiy ta‘minotga va o‘zining qadr-qimmatini saqlash, shaxsining erkin rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi huquqini amalga oshirishga haqli.

## **23-MODDA**

1. Har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash, adolatli va qulay ish sharoitiga ega bo‘lish va ishsizlikdan himoya qilinish huquqiga ega.
2. Har bir inson hech bir kamsitishsiz teng mehnat uchun teng haq olish huquqiga ega.
3. Har bir ishlovchi kishi o‘zi va oilasi uchun insonga munosib yashashni

ta'minlaydigan adolatli va qoniqarli daromad olishga, zarur bo'lganda ijtimoiy ta'minotning boshqa vositalari bilan to'ldiriluvchi daromad olish huquqiga ega.

4. Har bir inson kasaba uyushmalari tuzish va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmalariga kirish huquqiga ega.

#### **24-MODDA**

Har bir inson dam olish va bo'sh vaqtga ega bo'lish, Shu jumladan, ish kunini oqilona cheklash huquqi va haq to'lanadigan mehnat ta'tili olish huquqiga ega.

#### **25-MODDA**

1. Har bir inson o'zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan turmush darajasiga ega bo'lish, jumladan kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo'lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga borliq bo'lmagan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega.

2. Onalik va bolalik alohida g'amxurlik va yordam huquqini beradi. Barcha bolalar, nikohda yoki nikohsiz tug'ilishidan qat'iy nazar, bir xil ijtimoiy himoyadan foydalanishi kerak.

#### **26-MODDA**

1. Har bir inson ta'lim olish huquqiga ega. Ta'lim olishda hech bo'lmaganda boshlang'ich va umumiy ta'lim tekin bo'lishi lozim. Boshlang'ich ta'lim majburiy bo'lishi kerak. Texnik va hunar ta'limi hammaning qurbi etadigan darajada bo'lishi, oliy ta'lim esa har kimning qobiliyatiga asosan hamma uchun etarli imkoniyat doirasida bo'lmog'i kerak.

2. Ta'lim inson shaxsini to'la barkamol qilishga va inson huquqlari hamda asosiy erkinliklariga nisbatan hurmatni kuchaytirishga qaratilmog'i lozim. Ta'lim barcha xalqlar, irqiy va diniy guruhlar o'rtasida bir-birini tushunish, xayrixohlik va do'stlikka xizmat qilishi hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash borasidagi faoliyatiga yordam berishi kerak.

3. Kichik yoshdagi bolalari uchun ota-onalar ta'lim turini tanlashda imtiyozli huquqqa egadir.

#### **27-MODDA**

Har bir inson jamiyatning madaniy hayotida erkin ishtirok etishga, san'atdan bahramand bo'lishga, ilmiy taraqqiyotda ishtirok etish va uning samaralaridan foydalanish huquqiga ega.

#### **28-MODDA**

Har bir inson ushbu Deklaratsiyada bayon etilgan huquq va erkinliklar to'liq amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy va xalqaro tartib bo'lishi huquqiga

egadir.

### **29-MODDA**

1. Har bir inson jamiyat oldida burchlidir, faqat Shu holatdagina uning shaxsi erkin va to'liq kamol topishi mumkin.

2. Har bir inson o'z huquqi va erkinliklaridan foydalanishda o'zgalarning huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda etarli darajada bo'lishini hamda hurmat qilinishini ta'minlash, axloq, jamoat tartibi, umum farovonligining odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerak.

3. Ushbu huquq va erkinliklarni amalga oshirish Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va prinsiplariga hech zid bo'lmasligi kerak.

### **30-MODDA**

Ushbu Deklaratsiyadagi hech bir narsa biror bir davlat, kishilar guruhi yoki alohida shaxslar mazkur Deklaratsiyada bayon etilgan huquq va erkinliklarni yo'q, qilishga yo'naltirilgan faoliyat bilan shug'ullanishi yoki harakat qilishi mumkin deb talqin etilmasligi kerak.